

SABIROVA R.A., YULDASHEV N.M.

BIOKIMYO

II qism

577.1/075.81
C-12

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SABIROVA RIXSI ABDUKADIROVNA
YULDASHEV NOSIRJON MUXAMEDJANOVICH

2902261

BIOKIMYO
II qism

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT
“IJOD-PRINT”



R.A. Sabirova

Biokimyo II qism: darslik / prof. R.A. Sabirova, N.M. Yuldashev tahriri ostida.–Toshkent, “IJOD-PRINT” nashriyoti , 328 bet.

Mualliflar jamoasi:

R.A. Sabirova – t.f.d., prof, N.M. Yuldashev – b.f.d., prof., M.U. Kulmanova – t.f.d., dotsent, G.O. Ismailova – k.f.n., dotsent, X.N. Akbarxodjayeva – b.f.n., dotsent, K.M. Xalikov – t.f.n., dotsent, M.K. Nishantayev – b.f.n., I.B. Shukurov – b.f.n. dotsent, D.M. Azizova – falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

T.S. Saatov – biologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti laboratoriya mudiri;

B.O'. Iriskulov – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi kafedra mudiri

Mazkur darslikda biologik kimyo va molekulyar biologyaning asosiy tamoyillari bayon qilingan. Darslikda ko'plab rasmlar, sxemalar va jadvallar keltirilgan bo'lib, bu bayon qilingan mavzularni yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, yana ba'zi patologik holatlarning biokimyoviy asoslari ham keltirilganki, bu talabalarni biokimyoviy jarayonlar buzilishlarining oqibatlari hamda klinik namoyon bo'lishlari bilan tanishtirish imkonini beradi.

Ushbu darslik tibbiyot oliy ta'lif muassasalari talabalari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-5591-8-9

© R.A. SABIROVA va boshq.
© «IJOD-PRINT»—2020

KIRISH

Darslik funksional biokimyo masalalari, ya'ni aynan molekulyar biologiya va organizmning alohida a'zo va tizimlari biokimyosi masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan.

Molekulyar biologiya keng ma'noda – bu irsiyat, o'zgaruvchanlik, o'sish, rivojlanish, harakatlanish, modda va energiya almashinuvi, sezuvchanlik, immunitet va shu kabi hayot faoliyatining muhim hodisalarini tirik tizim tuzilishining molekulyar darajasida o'rganadigan biologiya fanining sohasidir. Tirik tizimning mavjudligi uni tashkil qilgan barcha kimyoviy moddalarning doimiy o'zaro aloqasiga asoslangan. Ushbu barcha reaksiyalar qat'iy tartibga ega va ular sharoit hamda organizmning talabiga qarab, qayta sozlanishi va boshqarilishi mumkin. Bu jarayonlarni tashkillashtirilishida oqsil va nuklein kislotalari kabi ikki yirik molekulalar sinfi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ushbu biopolimerlar axborot molekulalari va molekulyar biologiyaning asosiy tadqiq obyekti hisoblanadi. Shuning uchun, odatda, molekulyar biologiya deganda oqsil va nuklein kislotalari kabi nomuntazam biopolimerlarning tuzilishi va funksiyalari, genetik axborotning saqlanish, uzatish va amalga oshirish mexanizmlarini o'rganuvchi biologik fanlarning majmuasi tushuniladi.

Funksional biokimyo – bu butun organizm, to'qima va a'zolar funksiyalari asosida yotuvchi kimyoviy o'zgarishlarni o'rganuvchi biokimyo bo'limi hisoblanadi. U a'zo va to'qimalar tomonidan maxsus biokimyoviy funksiyalarning amalga oshirilishini, organizmda biokimyoviy jarayonlar integratsiyasi va struktur-funksional kompartmentalizatsiyasini, a'zo va to'qimalarda hamda butun organizmda kechadigan jarayonlarni boshqaruva mexanizmlari va ularning integratsiyasini, organizm gomeostazi va adaptatsiyasini ta'minlovchi biokimyoviy jarayonlarini o'rganadi. Aslida funksional biokimyo alohida a'zo va to'qimalarga xos bo'lgan fiziologik

reaksiyalarning kechishini tushunish uchun asosdir, boshqacha aytganda u fiziologiya va, ma'lum ma'noda, patologik fiziologiyaning fundamental asosi hisoblanadi.

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalari hozirgi vaqtida aynan molekulyar biologiya, biologik va tibbiy fanlarni rivojlantiruvchi lokomotiv ekanligini yodida tutmog'i lozim. Uning nazariy natijalari allaqachon zamonaviy revolyutsion texnologiyalar asosini tashkil qilmoqda. Aynan uning yutuqlari gen injenerligi, klonlash, genlarning sun'iy ekspressiyasi va nokauti kabi usullarni yuzaga keltirdi. U molekulyar genetikani paydo bo'lishiga olib keldi va bunda genetik axborotni tashxisida hisoblash texnikasini qo'llash bioinformatika, genomika va proteomika kabi zamonaviy yo'naliishlarni yuzaga keltirdi. Funksional biokimyo, organizmning alohida a'zo va tizimlari biokimyosi bo'lishi bilan bir qatorda, organizmning ishlashi va patologik jarayonlarning rivojlanish mexanizmlarini to'liq tushunish uchun xizmat qiladi.

Darslik lotin alifbosida ilk marotaba chop etilayotganligi sababli ayrim xato va kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli bildirilgan har qanday fikr va mulohazalar uchun mualliflar tomonidan oldindan minnatdotchilik bildiriladi.

I QISM MOLEKULYAR BIOLOGIYA

1-bob. Nuklein kislotalar: DNK, RNK

Hujayraning asosiy nukleotidlari. Har bir tirik hujayrada 2 turdag'i nuklein kislotalar mavjud: ribonuklein kislota (RNK) va dezoksiribonuklein kislota (DNK). Bizga ma'lum bo'lgan eng "kichik" nuklein kislota — transport RNKnинг (tRNK) molekulyar massasi taxminan 25 kDa teng. DNK — eng yuqori polimer molekula; uning molekulyar massasi 1000 dan 1000000 kD gacha bo'lishi mumkin. DNK va RNK monomer birliklar — nukleotidlardan tashkil topgan, shuning uchun ularni polinukleotidlар deb nomlanadi. Masalan, hayvon virusi SV40 ning tarkibida $5,0 \cdot 10^3$ nukleotidlар va 5 gen mavjud; T4 bakteriofagida — $2,0 \cdot 10^5$ nukleotidlар va 200 genlar; *E. coli* da — $4,6 \cdot 10^6$ nukleotidlар va 4600 genlar; odam gaploid hujayrasida — $2,8 \cdot 10^9$ nukleotidlар va 30000 – 40000 genlar mavjud.

Shuni aytish joizki, inson spermatozoidlarida DNKnинг miqdori 60%, somatik hujayralarida — 1–10 % (mushaklarda — 0,2 %), yadrodan tashqari DNK esa 1,3 % ni tashkil qiladi.

Hujayralarda RNK miqdori yuqori bo'lib, DNK miqdoridan 5–10 marotaba ko'pdir, oqsil sintezi jadal kechuvchi hujayralarda RNK/DNK nisbati 4 – 10 ni tashkil qilsa, oqsil sintezi o'rtacha kechuvchi hujayralarda — 0,3 – 2,5 ni tashkil qiladi. Eukariot hujayralarda RNKnинг 11 %i yadroda, 15%и mitoxondriyalarda, 50 %и — ribosomalarda, 24 %и — sitoplasmada joylashgan. 1.1-jadvalda DNK va RNKlarning tavsifi keltirilgan.

1.1-jadval

DNK va RNKlarning tavsifi


NK	Mol. massa	S	%	Joylashishi	Funksiyasi
DNK	10^{11}	-	97–99 1–3	Yadro mitoxondriyalar	Nasliy axborotni saqlash va uzatish
mRNK	$4 \cdot 10^4$ – $1,2 \cdot 10^6$	6–25	25	Yadro, sitoplazma	Nasliy axborotni o'tkazish
tRNK	$2,5 \cdot 10^4$	4	15	Sitoplazma, ribosomalar, mitoxondriyalar	Aminokislotalarning faollanishi va tashilishi
rRNK	$0,7 \cdot 10^6$	18	80	Ribosomalar	Oqsil sintezi
	$1,5 \cdot 10^6$	28			
	$0,6 \cdot 10^6$	16			
	$1,1 \cdot 10^6$	23			
	$4,0 \cdot 10^4$	5			
kyaRNK	$2,5$ – $5 \cdot 10^4$	4–8	Juda oz miqdorda	Yadro, RNP kompleksi	Genlarni faollashtirish

Izoh: S – sedimentatsiya (Svedberg) koefitsiyenti;
kyaRNK – kichik yadro ribonuklein kislotalari.

Nuklein kislotalarining hujayrada joylashishi va miqdori haqida ma'lumotlar aniqlangan. Organizmning har bir hujayrasidagi DNKning miqdori bir nechta pikogrammlar bilan o'lchanib, uning nukleotid ketma-ketligi ajablanarli holda bir xildir, lekin turli turdag'i organizm hujayralarida DNK miqdoridagi farq sezilarlidir. DNKning asosiy miqdori yadroda joylashgan, mitoxondriya va xloroplastlarda esa hujayra DNKhining foizi juda kichikdir. RNKning miqdori haqida aniq ma'lumotlar yo'q, hujayralarda uning miqdori oqsil sintezining jadalligiga bog'liq. Hujayraning umumiyl massasidan 5–10 %i RNKga to'g'ri keladi. Hujayraviy RNKlarning tasnifi ularning topografiyasi, vazifalari va molekulyar massasi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan.

1.1. Nuklein kislotalarining strukturasi

Birlamchi struktura. D NK va RNK polinukleotid zanjiridagi mononukleotidlardan ketma-ketligi nuklein kislotalarining birlamchi strukturasi tashkil qiladi. Bunday zanjirni 3',5'-fosfodiefir bog'lar mustahkamlaydi. Nuklein kislotalarining molekulyar massasi $2 \cdot 10^4$ dan boshlab, to 10^{10} – 10^{11} oralig'ida bo'lganligi sababli ma'lum bo'lgan barcha RNK va, ayniqsa, D NKlarning birlamchi strukturasi aniqlash ancha murakkabdir. Shunga qaramay barcha nuklein kislotalarda (aniqrog'i bir zanjirlilarida) aynan bir tipdagi bog' – 3',5'-fosfodiefir bog'i qo'shni nukleotidlarni o'zaro bog'laydi. Uning umumiyl tuzilishi 1.1-rasmida keltirilgan.



1.1-rasm. Polinukleotid zanjirda mononukleotidlarning joylashishi

Nukleotidlarni bog'lanishlarni hosil qilishda uglevodlarning 3'-va 5'-holatlaridagi gidroksil guruhlari qatnashadi.

Hozirgi kungacha tarkibiga yuzlab va minglab nukleotid qoldiqlari kiruvchi deyarli barcha tRNKlarning, *E.Coli* ning bir qator 5S va 16S rRNKsining, virus RNKlarining birlamchi strukturalari aniqlangan. Quyida RNK molekulasi tarkibidagi nukleotidlar ketma-ketligining sxematik ko‘rinishi keltirilgan. Barcha hujayra RNKlari asosan bir polinukleotid zanjiridan tashkil topgan:



RNK molekulasi polinukleotid zanjirining bir uchida doimo erkin monofosfat efiri bo‘lib, u 5’-uch deb belgilanadi; uning qarama-qarshi ikkinchi uchida bunday fosfat qoldig‘i bo‘lmaydi. Bu uchida erkin 2’-yoki 3’-gidroksil guruhi tutuvchi nukleotid bo‘ladi.


tRNK birlamchi strukturasidagi ikki o‘ziga xos xususiyatga to‘xtalishimiz kerak: birinchisi – uning 5’-uchida asosan guanilat kislota (ba’zan sitidilat kislota) erkin fosfor kislota qoldig‘ini tutadi; ikkinchisi – uning qarama-qarshi tomonida barcha tRNKlarda doimo – SSA tripleti bo‘ladi, uning adenilat kislotasida esa erkin 3’-OH guruhi bo‘ladi.

Keyingi vaqtarda DNK molekulasining birlamchi strukturasi (aniqrog‘i uning fragmentlari) haqida molekuladagi nukleotidlar zanjirining zichlik darajasi (aniqlash asosan nukleotidlarning soni va izoplitlar deb ataluvchi alohida fraksiyalar strukturalarini ochishga yo‘naltirilgan) hamda DNKning kinetik reassotsiatsiyalanishi (bu usul molekulada takrorlanuvchi nukleotid qismlari mavjudligini aniqlashga yordam beradi) kabi qator bilvosita ma’lumotlar asosida fikr yuritiladi.

DNK birlamchi strukturasini minor asoslarni tarqalish qonuniyati asosida ham aniqlash mumkin (bunday qonuniyatning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor).

Ikkilamchi struktura. Qator analitik ma’lumotlar hamda rentgenostruktur analiz natijalari asosida 1953-yili Dj. Uotson va F. Krik tomonidan taklif qilingan modelga asosan DNK molekulasi bir o‘q atrofida o‘ng tomonga aylanuvchi spiral hosil qilgan juft

polinukleotid zanjiridan iboratdir. Bu zanjirlar azot asoslari orasida hosil bo‘luvchi vodorod bog‘lar hisobiga mustahkam bo‘ladi. DNK bispiral molekulasi zanjirlar fazoda ma’lum bir tartibda joylashadi, ya’ni azot asoslari qo‘sh spiral ichiga, uglevod va fosfat qoldiqlari esa tashqariga qaragan (1.2-rasm).



1.2-rasm. DNKning ikkilamchi strukturasi: a) umumiy ko‘rinishi; b) DNKning A-shakli; d) DNKning B-shakli;

O‘ngda DNKda azotli asoslar orasidagi vodorod bog‘lari DNK molekulasi zanjirlaridan ikki zanjir qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘lib, bitta zanjirdagi nukleotidlar orasidagi bog‘lanishlar $5' \rightarrow 3'$ yo‘nalishida bo‘lsa, boshqa zanjirda $3' \rightarrow 5'$ yo‘nalishida bo‘ladi. DNK molekulasi zanjirlarining bunday yo‘nalishlari replikatsiya va transkripsiya jarayonlarida muhim biologik ahamiyatga ega.

DNK polinukleotid zanjirlari vodorod bog‘lari hisobiga purin va pirimidin nukleotidlarning komplementarligi qonuniyati asosida ushlanib turadi: A va T orasida 2 bog‘, G va C orasida esa 3 bog‘.

(1.2-rasmga qarang, o'ngda). Azot asoslari boshqacha ham birikishlari mumkin, ammo ulardagi vodorod bog'lanishlar kuchsizdir. DNK molekulasingning bitta zanjiridagi nukleotidlari ketma-ketligi ikkinchi zanjirdagiga to'liq komplementardir. Komplementar asoslari qo'shspiralning o'rtaida to'plam bo'lib joylashgan. Qo'shspiral DNK molekulasingning to'plaridagi azot asoslari orasida gidrofob bog'lanishlar hosil bo'lib, ular ham qo'shspiralni mustahkamlaydi. Bunday strukturada azot asoslarining suv bilan aloqasi mumkin emas, ammo bunday azot asoslari to'plamlari absolyut vertikal bo'lishi mumkin emas. Azot asoslari juftliklari bir-biriga nisbatan qisman siljigan. Hosil bo'lgan strukturada 2 xil egatcha bor: katta – kengligi 2,2 nm va kichik – kengligi 1,2 nm. Kichik va katta egatchalardagi azot asoslari xromatin hosil qilishda qatnashuvchi spetsifik oqsillar bilan bog'lanadi. DNK bir necha turdag'i qo'shspirallarni hosil qilishi mumkin (taxminan 6 xil): A dan E gacha va Z-shakl (1.2-jadval). Ular bir egatga to'g'ri keladigan azotli asos juftlari soni bilan farqlanadi.

1.2-jadval

DNK molekulasingning turlari

Turi	Spiralning aylanish yo'naliishi	Bir egatga to'g'ri keladigan nukleotidlari soni	Asoslari orasidagi kenglik, nm	Spiralning diametri, nm
A	O'ng	11	0,256	2,3
B	O'ng	10	0,338	1,9
Z	Chap	12	0,371	1,8


DNKning ayrim shakllari tuzlarning miqdori va muhitning suv bilan to'yinganlik darajasi o'zgarganda bir-biriga o'tib turadi. Fiziologik holatlarda, ya'ni tuzlarning kam miqdori va muhitning suvga to'yingan darajasi yuqori bo'lganda – DNK molekulasi B-shaklda bo'ladi: o'ng tarafga aylanadigan spiral, spiralning bir

qadami 3,4 nm, har bir egat 10 juft nukleotidlardan tashkil topgan. Tuzlarning miqdori ko'paysa va muhitning suvga to'yinsh darajasi kamaysa, DNK molekulasi A-shaklga o'tadi. S dan to E-shakllari faqat tajribalarda aniqlangan. Z-shakl chap tarafga aylanadigan egribusri ko'rinishda va u faqat genlar ekspressiyasida qatnashadi. Uning B-shaklga aylanishi 5-dezoksimetilsitidin metil guruhini yo'qtganda kuzatiladi.

Nukleotidlari ketma-ketligida kodlangan genetik axborot quyidagi maqsadlar uchun xizmat qiladi: oqsil molekulasi sintezi uchun muhim hamda aynan shu axborotni bir qator hujayra va organizm avlodlariga yetkazib berish, aniqrog'i transkripsiya va replikatsiya uchun matritsa bo'lib xizmat qiladi. Uotson va Krikning ikkilamchi spiralining komplementarligi DNK replikatsiyasi usulining yarim konservativligini ko'zda tutadi.

RNK DNKdan farqli riboza, azot asoslaridan esa – adenin, guanin, sitozin va uratsil saqlaydi. Bu bir zarjirli polinukleotid faqatgina DNKning bir zanjiriga komplementar. Bu holatda guaninning miqdori sitozinga, uratsilning miqdori esa adeningu teng bo'lishi shart emas. RNK ishqorlar ta'sirida 2,3-siklik diefir mononukleotidlari gachaga gidrolizlanishi mumkin va bu holat tashxis maqsadlarida foydalanish imkonini beradi. RNKning bir necha turlari farqlanadi. Ularning hammasi oqsil biosintezida qatnashadi. Matritsali RNK shakli va barqarorligi bo'yicha keng chegarada o'zgaruvchandir. U genden hujayraning oqsil sintezlovchi tizimiga axborot tashuvchi, aniqrog'i matritsadir. Sitoplasmada joylashgan mRNK yetilgan shakllari transkripsiya qilingan DNK qismining to'liq nusxasi emas. Sut emizuvchilarining hujayra yadrolarida joylashgan hali protsessinga uchramagan transkripsiya mahsulotlari RNK molekulasingning to'rtinchi sinfni tashkil qiladi.

Barcha tRNKLarning fazoviy konformatsiyasi, ularning polinukleotid zanjiridagi nukleotidlarning ketma-ketligi har xil bo'lishiga qaramasdan, ularning ikkilamchi strukturasi "beda bargi" shaklida tasvirlanadi (1.3-rasm).



1.3-rasm. tRNKning ikkilamchi strukturası

tRNK ning har bir molekulasida ba'zi azot asoslari orasida vodorod bog'lari hosil bo'lmaydigan qismlari bor. Jumladan, aminokislotalar birikadigan 3'-uch hamda mRNKning kodoniga mos keladigan va vodorod bog'lari hosil qiladigan antikodon qovuzlog'i.

tRNK nukleotidlari tarkibiga minor asoslar ham kiradi (bir molekulaga taxminan 10 – 12 asos). Ular metillangan asoslar, pirimidinlarning izomerlari va analoglari shaklidadir. Minor asoslar quyidagi 2 vazifani bajaradi: tRNKning sitoplazmadagi nukleazalarga nisbatan turg'unligini ta'minlaydi va vodorod bog'lari hosil qilmasligi hamda tRNKning ma'lum qismlari spiralizatsiyasining yo'qolishi hisobiga molekulaning uchlamchi strukturasi mustahkamlaydi.

RNK turlariga bog'liq bo'lмаган holda transkripsiya natijasida sintezlangan barcha RNKlar bir polinukleotid zanjiridan iborat va tasodifan emas, balki DNKdagi axborotga to'liq mos ravishda o'ziga xos ko'rinishda ikkilamchi strukturani hosil qiladi. RNK tarkibida azot asoslari juftlashishining Krik-Uotson standartlariga bog'liq bo'lмаган,

ribozaning erkin 2'-oksiguruhlari mavjud bo'lganligi sababli, ikkilamchi va uchlamchi strukturalarining bo'rtiqlar, shpilkalar yoki xoch shaklidagi turli ko'rinishlari yuzaga keladi. Bu shakllar translyatsiya jarayonida ma'lum bir funksiyalarni bajarilishi bilan bog'liqdir.

Uchlamchi struktura. DNKnинг har bir molekulasi alohida xromosomada joylashgan. Inson diploid hujayralarida 46 xromosoma bo'ladi. Hujayraning barcha xromosomalaridagi DNKnинг uzunligi 1,74 metrni tashkil qiladi, ammo ular diametri ushbu uzunlikdan million marta kichik bo'lgan yadroda to'plangan. DNKn yadroda joylashtirish uchun uni juda ham kompakt holatga keltirish kerak. DNKnинг kompaktlanishi va superspiralizatsiyasi DNK nukleotidlarning ma'lum bir qismlari bilan birikadigan maxsus oqsillar hisobiga yuzaga keladi. Eukariot hujayralari DNKsi bilan birikuvchi oqsillarni 2 guruhga ajratish mumkin: **gistonlar va giston bo'lмаган oqsillar.**


1.2. Xromatin. Gistonlar, nukleosoma va ribosomalar

Yadro DNKsining oqsillar bilan kompleksi xromatin deb ataladi. Eukariotik hujayralari xromatini o'z tarkibida 30–45% DNK, 30–50% giston oqsillari, 4–33% giston bo'lмаган oqsillar hamda 1,5–10% RNK saqlaydi. Genomning asosiy qismi (>80%) transkripsiyalanmaydi. Inson genomi DNK-provirusi, DNK-transpozonlar va DNKning oxirgi qismlari – telomerlardan tashkil topgan. DNK va RNK sintezini olib boruvchi struktur, regulator oqsil va fermentlar ishtirokida nukleosomalar ipi DNK va oqsilning yuqori darajada kondensirlangan kompleksiga aylanadi. Hosil bo'lgan bunday struktura birlamchi DNK molekulasiiga nisbatan 10 000 marta qisqaroq bo'ladi. 90 % DNK nukleosomalarda (nofaol xromatin), 10% esa – linker qismlarda (faol xromatin) joylashgan.

Aktiv xromatin 2–11% tashkil qiladi, jumladan miyada – 10–11%, gepatotsitlarda – 3 – 4%, buyrak hujayralarida – 2–3% gacha bo'ladi.

Gistonlar – 11–21 kD molekulyar massaga ega bo'lgan oqsillar bo'lib, ularning tarkibida arginin va lizin qoldiqlari ko'pdir. Giston

oqsillari musbat zaryad hisobiga DNK molekulasi qo'sh spiralining tashqi tomonida joylashgan manfiy zaryadlangan fosfat guruhlari bilan ion bog'lanishlarni hosil qiladi. Giston oqsillarining 5 turi mavjud. 4 giston – H2A, H2B, H3 va H4 «**nukleosom kori**» (ingl. **nucleosome core**) deb nomlanuvchi oktamer oqsillar kompleksini (H2A, H2B, H2Z, H4), hosil qiladi. DNK molekulasi giston oktameri atrofida 1,75 aylana hosil qilib “o'raladi” va bu qism o'z ichiga 146 juft nukleotidlarni oladi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Xromatinda DNK va gistonlarning joylashuvi


DNK molekulasi giston oqsillari bilan bunday kompleksi xromatinning asosiy struktur birligini hosil qiladi va u «**nukleosoma**» deb nomlanadi. DNK nukleosomalarini bir-biriga bog'lovchi qismi **linker DNK** deyiladi. Uning uzunligi 60 juft nukleotidlardan qoldig'iga teng. Bu qismga H1 giston oqsili birikadi va uni nukleazalar ta'siridan himoyalaydi.

Hujayraning yadrosida har bir gistonning 60 milliondan ortiq molekulasi bo'lib, ularning umumiyyat massasi DNK miqdoriga teng. Giston molekulasi dagi lizin, arginin va oqsil uchlaridagi aminoguruhlar atsetillanish, fosforillanish, metillanish yoki ubikvitin (giston bo'l-

magan) oqsili bilan bog'lanish kabi modifikatsiyalarga uchrashi mumkin. Bunday modifikatsiyalar qaytar va qaytmash bo'lishi mumkin. Ular giston oqsillarining zaryadi va konformatsiyasini o'zgartiradi, bu esa giston oqsillarining o'zaro va DNK bilan bog'lanishiga ta'sir etadi. Modifikatsiyalashda qatnashuvchi fermentlarning faolligi boshqariladi va bu hujayraning bo'linish sikliga bog'liqdir. Modifikatsiyalanish xromatinning konformatsion o'zgarishlarini osonlashtiradi.

Xromatinning giston bo'lmagan oqsillari. Eukariot hujayralar yadrosida yuzlab turli xil DNK bilan bog'lanish xususiyatiga ega bo'lgan turli xil giston bo'lmagan oqsillar mavjud. Har bir oqsil DNK molekulasingin ma'lum bir nukleotidlardan ketma-ketligi (DNK sayti) ga komplementardir. Bu guruhga “rux barmoqchalar” tipidagi sayt-spetsifik oqsillar oilasi kiritiladi. Har bir “rux barmoqchasi” 5 juft nukleotidlardan ketma-ketligidan iborat bo'lgan ma'lum saytni taniydi. Sayt-spetsifik oqsillarning boshqa oilasi – gomodimerlardir. Bunday oqsillarning DNK bilan aloqa qiluvchi bo'lagi “spiral-aylana-spiral” strukturasiga ega. Doimo xromatin tarkibida uchrovchi struktur va regulator oqsillarga yuqori harakatchanlikka ega – **HMG-oqsillari** (*high mobility gel proteins*) kiradi. Ularning molekulyar massasi 30 kDdan kichik va o'zida ko'p miqdorda zaryadlangan aminokislotalarni tutadi. Molekulyar massasi kichik bo'lgani sababli ular poliakrilamid gelida o'tkaziladigan gel-elektroforezida tez harakatlanadi. Giston bo'lmagan oqsillarga replikatsiya, transkripsiya va reparatsiya jaronlarida qatnashuvchi fermentlar ham kiradi.


Mitoxondriyalarning genetik tizimi. Mitoxondriyalar – substratlarni oksidlanishi hisobiga ATP sintezlovchi muhim hujayra organoidlaridan biri hisoblanadi. Ular avlodlarga faqat ona tomonidan o'tuvchi unikal genomga ega, buning sababi u tuxum hujayra sitoplazmasida hosil bo'ladi. Spermatozoidlarning mitoxondrial genomi urug'langan tuxum hujayraga o'tmaydi. Inson mitoxondrial genomi bitta aylanali DNK molekulasi dan tashkil topgan bo'lib, 16569 juft nukleotidlardan qoldig'ini tutadi (1.5-rasm).



1.5-rasm. Eukariotik hujayralar mitoxondrial genomining tuzilishi

U mitoxondriyalarning struktur-funksional birliklarini sintezida qatnashuvchi 13 genni tutadi. Mitoxondriyalar genomida reparatsiya jarayonlarini ta'minlovchi fermentlar yo'q, shuning uchun mitoxondrial genomda ko'pdan-ko'p xatoliklar uchraydi.

Ribosomalar ribonukleoprotein komplekslari bo'lib, oqsil sintezi fabrikalari hisoblanadi. Prokariotik ribosomalarning sedimentatsiya konstantasi 70S bo'lib, u 30S (kichik) va 50S (katta) subbirliklardan tashkil topgan (1.6-rasm).



1.6-rasm. Prokariotik ya eukariotik hujayra ribosomalarining subbirliklari

Har bir subbirlik rRNK va oqsildan iboratdir. 30S subbirlik tarkibiga sedimentatsiya konstantasi 16S bo'lgan rRNK va 21 ga yaqin oqsillar kiradi. 50S subbirlikda 5S va 23S bo'lgan 2 turdag'i rRNK va 34 ga yaqin turli oqsillar aniqlangan. Eukariot hujayralari ribosomalarining sedimentatsiya konstantasi 80S bo'lib, u kichik (40S) va katta (60S) subbirliklardan tashkil topgan. 40S subbirlik tarkibiga 18S rRNK va taxminan 30 – 40 xildagi oqsillar kiradi. 60S subbirlikka esa 3 turdag'i rRNK: 5S, 5,8S va 28S hamda taxminan 50 dan ortiq turli xil oqsillar kiradi. Ribosoma subbirliklari tarkibiga oqsillar faqat bir kopiyadan kirib, struktur funksiyani, ya'ni aminokislota yoki peptid bilan bog'langan mRNA va tRNK orasidagi bog'lanishlarni ta'minlaydi. mRNA mavjud bo'lsa 40S va 60S subbirliklar birlashib, yetuk ribosomani hosil qiladi, uning massasi gemoglobin massasiga nisbatan 650 marotaba kattadir.

200267


Ribosomada 2 markaz – tRNKnin biriktiruvchi aminoatsil (A) va peptidil (R) markazlar mavjud. Bu markazlarning hosil bo'lishida ikkala subbirliklar qatnashadi. A va R markazlar birligida mRNA 2 kodonini joylashtirishi mumkin. Translyatsiya jarayonida A markaz, tarkibi shu markazda joylashgan kodon orqali belgilanuvchi, aa-tRNK ni biriktiradi. Ushbu kodon strukturasida o'sayotgan polipeptid zanjiriga kiradigan aminokislota tabiatini kodlangandir. R markazni esa peptidil-tRNK, ya'ni sintezlangan peptid zanjiri bilan bog'langan tRNK egallaydi.

Eukariot hujayralarda 2 xil ribosomalar tafovut etiladi: hujayra sitoplazmasida joylashgan «erkin» va endoplazmatik retikulum (ER) bilan bog'langan ribosomalar. Mitoxondriyalarning o'zining ribosomalari mavjud. Mitoxondrial ribosomalarning massasi eukariot va prokariot hujayralarining ribosomalari massasiga nisbatan kichik (55S). Ular ham 2 subbirlikdan tashkil topgan, eukariot ribosomalardan rRNK va oqsillar tarkibi bilan farqlanadi.

1.3. Genomning genetik tashkil etilishi

DNK molekulasidagi nukleotidlari ketma-ketligi va unda joylashgan genlar soni organizm evolyutsiyasi va tuzilishining murakkabligiga bog'liq. Hozirgi vaqtida odam genomining tuzilishi to'liq ochilgan va har bir hujayra va a'zolardagi genlar soni ma'lumdir (1.7-rasm).

Limfatik hujayralar 374
 Endotelial (qoplovchi) qobiq 1031
 So'lak bezi 17
 Qalqonsimon bez 584
 Qalqonsimon oldi bez 46
 Silliq mushaklar 127
 Sut bezi 696
 Oshqazon osti bezi 1094
 Qorataloq 1094
 Buyrak usti bezlari 658
 O't qopchasi 786
 Katta charvi (oshqozon va ichakni qoplaydi) 163
 Ingichka ichak 297
 Yo'ldosh 1290
 Prostata 1283
 Skelet mushagi 735
 Oq qon hujayrasi 2164



Miya 3195
 Ko'z 547
 Suyak 904
 Yog' to'qimasi 581
 Timus 261
 Qizilo'ngach 76
 O'pka 1887
 Yurak 1195
 Jigard 2091
 Eritrotsit 22
 Yo'g'on ichak 879
 Buyrak 712
 Tuxumdon 504
 Urug'don 370
 Bachadon 1859
 Teri 620
 Embrion 1989
 Moyak 1232
 Sinovial qobiq 813

1.7-rasm. Insonning turli a'zo va tizim hujayralaridagi genlar miqdori

1.7-rasmdan ko'riniib turibdiki, insonning turli a'zo va tizim hujayralarida genlarning miqdori har xil. Masalan, so'lak bezining hujayralarida 17 gen bo'lsa, timusda – 261, buyraklarda – 712, jigarda – 2091, yurakda – 1195, o'pkada esa – 1887 ta gen mavjud. Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, hujayra qanchalik murakkab tuzilgan va uning funksional imkoniyatlari yuqori bo'lsa, genlarning miqdori ham shunchalik yuqori.

Genetik materialning o'zgarishi va tartibga solinishi. Ko'p hujayrali organizmning har bir hujayrasi bir xil DNK ketma-ketligi shaklida bir xil genetik ma'lumotlarni saqlaydi. Bir organizmning turli hujayra turlari o'rtasidagi farqlar umumiyligi genetik ma'lumotning differensial ekspressiyasi bilan izohlanadi. Faol xromatin tarkibidagi DNK nukleazalar (DNKaza I) ta'siriga sezgir bo'lgan uzun qismlarni

(100000 asos juftlari) o'z ichiga oladiki, bu transkripsiya imkoniyat yaratadi. Faol xromatinning katta qismi orasida DNK-aza I ga yanada yuqoriroq sezgirlikka ega bo'lgan 100–300 nukleotiddan tashkil topgan kalta qismlar (gipersezgir saytlari) ham aniqlangan. Ular, odatda, faol gendan oldinda joylashgan va transkripsiyanı kuchaytiruvchi enxanser elementlari bo'lishi mumkin.

Elektron mikroskop ostida interfazadagi yadroda transkripcion nofaol geteroxromatin va transkripcion faol euxromatinni ko'rish mumkin. Geteroxromatinning 2 turi ajratiladi: sentromerlar va xromosomalarining oxirgi qismlari (telomerlarga) yaqin joylashgan konstitutiv (doimonofaol); fakultativ (vaqtinchalik transkripsiyanuvchi) xromatin. Eksperimental tekshiruvlarga ko'ra, urg'ochi suteinizuvchilarning ikki X-xromosomasidan biri transkripcion deyarli nofaoldir, ammo gametogenez va embriogenezning dastlabki bosqichlarida geteroxromatin X-xromosoma transkripcion faol holatda bo'ladi, ya'ni fakultativ geteroxromatin xususiyatlari namoyon bo'ladi.


Hujayralar ixtisoslashuvi DNK molekulasing turli bo'limlarini, ya'ni turli oqsillarning sinteziga ma'sul bo'lgan genlarning faollanishi tufayli yuz beradi. Boshqa tomondan esa, ontogenetik va adaptatsiya jarayonida ayrim genlarni "ochilishi" yoki "yopilishi" kuzatiladi.

Replikatsiya va hujayraning bo'linish fazalari

Hujayralarning o'sish va bo'linish jarayonlari barcha organizmlarning hayotini belgilaydi. Ammo hujayralar bo'linishidan oldin o'zining genomidan yuqori aniqlik bilan nusxa olishi, juda ko'p yuqori va kichik molekulali moddalarni sintezlashi kerak. Bu jarayonlarning yig'indisi eukariot hujayra bo'linishini ta'minlaydi va «hujayra sikli» deb nomlanadi (1.8-rasm).

Hujayra siklining davomiyligi bo'linayotgan hujayraning turiga bog'liq. Katta odamlarda hujayra sikli taxminan 8 soatni tashkil qiladi, ba'zi turdag'i hujayralarda esa yillab bo'lishi mumkin. Hujayra siklining G₁, S, G₂, M fazalari o'zining davomiyligi bilan farqlanadi, bu ayniqsa G₁ fazada yaqqol namoyon bo'ladi: ba'zi hujayralarda bu

fazaning davomiyligi deyarli nolga teng bo‘lishi mumkin yoinki shu darajada uzoq bo‘lishi mumkinki, go‘yo hujayra bo‘linmayotgandek tuyiladi. Bu holat hujayraning tinch holati deyiladi (G_0 faza). Masalan, neyron hujayralari umuman bo‘linmaydi, ichak epiteliysi hujayralari doimo bo‘linadi va **tez proliferatsiyalanuvchi hujayra** deyiladi. Bu hujayralarda bo‘linishga tayyorgarlik 24 soat bo‘ladi. O‘pka, buyrak va jigar hujayralari shikastlanishga javoban bo‘linadi.



1.8-rasm. Eukariotlarda hujayra sikli fazalari: $2n$ – xromosoma-larning diploid to‘plami (23 xromosoma 2 nusxadan); $4n$ – xromosomalarning tetraploid to‘plami.

Tashqi signallar hujayra sikllarini o‘tishini jadallashtirishi yoki susaytirishi mumkin. Bunday signallarga o‘sish omillari, interleykinlar, gormonlar kiradi va ular ma’lum bir turdag'i hujayralarning proliferatsiyasini ta’minlash yoki jadallashtirishi mumkin. Signal molekulalar spetsifik membrana retseptorlari bilan bog‘lanib, yadroga hujayra ichi signallarni o‘tishini va ma’lum genlarning transkripsiyasini jadallashtiradi. Bunda birinchi bo‘lib **siklin** oqsillarini sintezlovchi genlar faollashadi.

Siklinlar 2 guruhga bo‘linadi: **G1-siklinlar** (D va E) va mitotik siklinlar (A va B) (1.3-jadval).

Hujayra siklining siklinlar bilan boshqarilishi

Siklin	Kinaza	Vazifasi
D, E	CDK4, CDK6	G_1 fazadan S fazaga o‘tishini boshqaradi
A	CDK2	S faza boshida DNK sintezini faollashtiradi
B	CDK1	G_1 fazadan M fazaga o‘tishini boshqaradi

Siklinga bog‘liq kinazalar (CDK) siklinlarni bog‘lab, ularni faol shaklga o‘tkazadi va spetsifik (transkripsiya omillari, transkripsiya omillarining ingibitor) oqsillarining fosforillanishi natijada replikatsiya jarayonida qatnashuvchi fermentlar sintezini boshqaradi.

Siklinlar sintezi hujayra siklining fazalariga tayyorgarlikda boshlanadi, ularning konsentratsiyasi ortadi, bosqich tugagandan so‘ng keskin pasayadi. Funksiyasi tugagan siklinlar, ular faolligini ingibirlovchi oqsillar bilan bog‘lanadi va parchalanadi.

1.4. DNK replikatsiyasi

DNK va RNK strukturasi — organizm 2 turdag'i axborot oqimini shakllantiruvchi “axborotlarning yozilish” usulidir. Birinchi oqim DНK molekulasiagi axborotlarning qayta yozilishini ta’minlaydi. Bunda DНK molekulasi 2 marotaba ortadi va bu jarayon **«replikatsiya»** deb nomланади. Buning natijasida ona hujayra genomidagi axborot, ya’ni barcha genlar yig‘indisi yoki organizmdagi barcha RNK va oqsillarning strukturasi to‘g‘risidagi yo‘riqnomalar ikkinchi bo‘linishida qiz hujayralarga o‘tadi. Ikkinci oqim hujayraning hayoti davomida amalga oshadi. Bunda genlardagi axborotlardan nusxa olinadi (**transkripsiya**) va mRNK polinukleotidlari zanjiri shakllanadi. Bu esa xususiy oqsil sintezi uchun matritsa vazifasini o‘taydi. So‘ng mRNK nukleotidlari ketma-ketligida yozilgan axborot aminokislota tiliga tarjima qilinadi (**translyatsiya**). Natijala oqsil sintezlanadi, ya’ni genotip fenotip ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Axborotlarni DНKdan RNK va oqsilga o‘tkazilishi molekulyar genetikaning markaziy

dogmasi hisoblanadi. Bu qoidani Frengs Krik yaratgan. Bu qoidaga asosan genetik axborot oqsildan RNKga o'tishi mumkin emas, ammo RNKdan DNKga o'tishi mumkin. Bu dogma ba'zi RNK-tutuvchi viruslardan tashqari barcha tirik organizmlar uchun xos.

Nuklein kislota va oqsillarning matritsa asosidagi sintezi axborotning o'ta yuqori darajada aniqlik bilan o'tishini ta'minlaydi. Jumladan, replikatsiyada qiz DNK molekulasi ona DNK molekulasi asosida sintezlanadi. Oqsil sintezi uchun kerak bo'lган barcha RNKlar sintezi DNK molekulasidagi ma'lum bir sayt(gen)lardan ko'chiriladi. mRNA yangi oqsil sintezi uchun matritsa bo'lib hisoblanadi.


Tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladigan nuqsonlarni yo'qotish matritsa asosidagi sintezning yana bir ko'rinishi bo'lib – u **reparatsiya** deb nomlanadi. Bu replikatsiyaning cheklangan ko'rinishi bo'lib, shikastlanmagan DNK zanjirining qismi asosida nuqsonlarni yo'qotadi va birlamchi strukturani tiklaydi. RNK-tutuvchi viruslarning eukariot organizmlar hujayralarida ko'payishida yangi DNK molekulalarini sintezlash jarayonida virusning RNKsi matritsa bo'lib xizmat qiladi. Bu **teskari transkripsiya** deb nomlanadi. Olimlarning fikricha qaytar transkripsiya nafaqat o'sma hujayralarining kelib chiqishida, balki hujayralarning fiziologik rivojlanishi va differensirovkasida ham kuzatilishi mumkin.

Genetik axborotni o'tkazishning barcha usullari matritsa mexanizmiga asoslangan, demak matritsa albatta bo'lishi kerak. Replikatsiyada matritsa sifatida DNKning bir zanjiri (viruslarda RNA), transkripsiya — DNKning ma'lum bir qismi (to'g'ri transkripsiya) yoki RNA (teskari transkripsiya), translyatsiyada — mRNA, ya'ni matritsa sifatida albatta nuklein kislota xizmat qiladi. Matritsa yaqori aniqlik va tejamkorlik asosida hujayradagi genetik axborotni yaratishi mumkin. Matritsadagi axborotlarning yuqori aniqlikda ko'chirilishi nukleotidlardagi azot asoslarining *komplementarlik qoidasi* asosida kechadi, bunda A ni T bilan (yoki RNA da U bilan), G ni S bilan komplementar bog'lanishi kelib chiqadi. Buning natijasida yangi sintezlangan polinukleotid zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligi matritsa zanjiriga komplementar bo'lib qoladi.

Replikatsiyaning molekulyar mexanizmlari

Tirik organizmlarda hujayra bo'linishidan avval hujayra siklining S fazasida DNK miqdorining 2 marotaba ortishi kuzatiladi, buning natijasida har bir bo'lingan qiz hujayra ona hujayradagi kabi bir xil xromosomalarning yig'indisini oladi. Xromosomalarning 2 marotaba ortishi **replikatsiya** (reduplikatsiya) deyiladi. Xromosomalar bir DNKning qo'sh spiralini tutadi. Replikatsiya jarayonida ona DNKsining har bir polinukleotid zanjiri yangi komplementar polinukleotid zanjirini sintezlash uchun matritsa bo'lib xizmat qiladi. Hosil bo'lgan yangi qo'sh spiral zanjirli DNK bir ona va bir qiz polinukleotid zanjirini tutadi. DNKning bunday bo'linish mexanizmi "yarim konservativ" usul deb nomlanadi.

Yangi sintezlangan qiz zanjirining birlamchi tuzilishi ona zanjirning birlamchi tuzilishi bilan belgilanadi. Buning asosida nukleotidlardagi azot asoslarining komplementarlik qoidasi yotadi, bu qoida asosida G = C va A = T.



Replikatsiya jarayonida qatnashuvchi fermentlar va oqsillar juda tez va aniqlik bilan ishlaydi, bu maxsus multiferment kompleksning faoliyati hisobiga kechadi.

1957-yili Metyu Meselson va Franklin Stal tirik organizmlarda DNK replikatsiyasi yarim konservativ mexanizm asosida kechishini tasdiqlashdi. Ularning fikricha, DNK qo'sh spirallarining bir-biridan ajragan zanjirlari matritsa bo'lib xizmat qiladi va ularga asoslanib DNKning yangi komplementar qiz zanjirlari hosil bo'ladi. Bunda nukleotidlар matritsa bo'ylab komplementarlik asosida tizilishadi, o'zaro esa DNK-polimeraza fermenti yordamida fosfodiefir bog'larini bilan bog'lanishadi. Ammo keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, DNK-polimeraza yangi DNK zanjiri sintezini erkin nukleotidlardan boshlay olmas ekan, u faqat polinukleotid zanjirini uzaytirishi mum-

kin, sintezni boshlash uchun esa “achitqi” (zatravka) bo‘lishi kerak ekan. DNK replikatsiyasining zamonaviy mexanizmi murakkab ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, eukariot va prokariotlarda o‘zgacha kechadi.

DNK replikatsiyasi uchun quyidagilar bo‘lishi shart:

1) yangi zanjirni sintezlash uchun struktur materiallar – dezoksiribonukleozidtrifosfatlar (dATF, dTTF, dGTF va dSTF);

2) bir-biridan ajragan DNK qo‘sh spiralii;

3) achitqining hosil bo‘lishi;

4) achitqi va yangi zanjirni sintezlashda qatnashuvchi fermentlar Replikatsiya jarayonini 4 bosqichga bo‘lish mumkin:

1) replikativ ayrining hosil bo‘lishi (initsiatsiya);


2) yangi zanjir sintezi (elongatsiya);

3) praymerlarni olib tashlash;

4) DNK qo‘sh zanjiri sintezini tugallash (terminatsiya).

Replikatsiyaning initsiatsiya bosqichi. Insonning barcha xromosomalaridagi DNK molekulasi taxminan 3,1 milliard nukleotid dan tashkil topgan. Eukariot hujayralarida replikatsiya tezligi xromosomaning uzunligiga qarab, bir daqiqada 500 dan 5000 nukleotid gachadir. Demak, genomni to‘liq replikatsiyasi uchun 1000 (42 kun) dan to 10000 (420 kun) soatgacha vaqt talab qilinadi. Ammo inson genomining to‘liq ikkilanishi atigi taxminan 8 soatni talab qiladi. Buning sababi DNK sintezining initsiatsiyasi xromosomaning bir necha ming saytlarida baravar boshlanishidir.


Ular replikatsiya initsiatsiyasining saytlari yoki *oridjinlar* (*origin — kelib chiqish*) deyiladi. «Sayt» deb genomning bir bo‘lagi tushuniladi (1.9-rasm).



1.9-rasm. Oridjinlarda replikatsiyaning ketishi

Oridjinlar ma’lum bir nukleotidlar ketma-ketligini saqlashi mumkin. 2 replikatsiya oridjinlari orasi replikatsiya birligi yoki *replikon* deb nomlanadi. Oridjinlarda D NK-topoizomeraza I replikatsiyani ikki yo‘nalishda boshlab beradi. Bunda ikki replikativ ayrilar hosil bo‘ladi. Bu ikki ayrida qarama-qarshi yo‘nalishlarda sintez boshlanadi va keyingi replikon bilan uchrashguncha davom etadi, ya’ni ikki replikativ ayri qo‘shilganda replikatsiya tugaydi.

Eukariotlarda D NK sintezi hujayra siklining S fazasida kechadi. Replikatsiyani boshlash uchun spetsifik regulator signal oqsillar – o‘sish omillari kerak. Ular hujayra membranasining retseptorlari bilan bog‘lanadi, signalni hujayra ichi (yadro)ga o‘tkazadi va replikatsiyani boshlash uchun turki bo‘ladi. Yangi polinukleotid zanjirlar sintezi faqatgina ona D NK qo‘sh spiralining bir qismi ajralgandan so‘ng boshlanadi. Bunda D NKning ma’lum bir saytlarida mahalliy denaturatsiya kuzatiladi, zanjirlar bir-biridan ajraladi va replikativ ayri hosil bo‘ladi. Replikativ ayrining hosil bo‘lishida oqsillar va fermentlar qatnashadi. D NK-topoizomeraza I qo‘sh spiralning bir zanjirida fosfoefir bog‘ini uzadi va uzilgan nuqtadagi 5'-uchga birikadi (1.10-rasm, I).




1.10-rasm. Replikatsiyaning boshlanishi

Replikativ ayri hosil bo‘lgandan so‘ng ferment uzilgan joyni tiklaydi va D NK molekulasidan ajraladi. D NK qo‘sh zanjiridagi vodorod bog‘larining uzilishini DNK-xelikaza amalga oshiradi. U ATF energiyasi va Mg²⁺ ishtirokida spirallanishni bo‘shashtiradi va zanjirlar ajraladi. Bu jarayonning amalga oshishiga maxsus SSB-oqsillari (*single strand binding proteins*, DNK zanjirlari bilan bog‘lanuvchi oqsillar) yordam beradi. Ular azot asoslarni qoplamay DNK molekulasi bir zanjirining butun uzunligi bo‘ylab bog‘lanadi

va komplementar qayta bog'lanishining oldini oladi (1.10-rasm, II). SSB-oqsillari bir zanjirli DNK qismlariga, ularning birlamchi strukturasidan qanday bo'lishiga qaramay, yuqori spetsifiklikka egadir.

Elongatsiya bosqichi. DNK replikatsiyasi DNKga bog'liq DNK-polimerazalar ishtirokida kechadi. Ushbu fermentlar faqat zanjirlari bir-biridan ajralgan matritsa vazifasini bajaruvchi qo'sh zanjirli DNK mavjud bo'lganligiga katalitik faollikni namoyon qiladi. DNK sintezi $5' \rightarrow 3'$ yo'nalishida kechadi, ya'ni yangi nukleotid mavjud nukleotid zanjiridagi erkin $3'$ -ON uchga birikadi. Sintezlanayotgan zanjir doimo matritsa vazifasini bajaruvchi zanjirga antiparallel kechadi.

Eukariot hujayralarida DNK sinteza 5 xil DNK-polimerazalar (α , β , γ , δ – yadro, γ - mitokondrial) qatnashadi. Replikatsiyani DNK-polimeraza α boshlab beradi. U bir zanjirli DNKnинг maxsus saytiga birikadi va avval 8–10 ribonukleotidlardan tashkil topgan RNK — praymerni, so'ng ellikka yaqin dezoksiribonukleotidlarni sintezlaydi (jami 60 nukleotid qoldig'i) (1.11-rasm).



1.11-rasm. Eukariot hujayralarida DNK sintezi


Bu oligonukleotid matritsa bilan qo'sh zanjir fragmentini hosil qiladi va DNK-polimeraza δ birikishini osonlashtiradi. Bu ferment DNK

zanjiri bo'ylab $5' \rightarrow 3'$ yo'nalishida harakatlanib, komplementarlik qonuni asosida yangi qiz zanjirni dezoksiribonukleozid trifosfatlardan sintez qiladi. Ferment tomonidan keyingi nukleotidni tanlash matritsaga bog'liq, avval dezoksiribonukleozid trifosfatlardagi azot asoslari ona zanjirdagi azot asoslari bilan vodorod bog'ini hosil qiladi. So'ng dezoksiribonukleozid trifosfatlar parchalanishidan ajralgan energiya nukleotidlararo $3',5'$ -fosfodiefir bog'larini hosil qilishga sarflanadi.

Yuqori qayd etganimizdek, har bir replikativ ayrida qiz zanjirlar sintezi 2 yo'nalishda kechadi. Ammo faqatgina bir tomonda sintezning yo'nalishi replikativ ayrining yo'nalishi bilan mos keladi, bunday zanjir **uzluksiz zanjir** hisoblanadi. Ikkinci matritsada qiz zanjirlar sinteza DNK-polimeraza α va ϵ qatnashadi va sintezni $5' \rightarrow 3'$ yo'nalishida, ammo replikativ ayri yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishida amalga oshiradi. Shuning uchun bu zanjirda fragmentar sintez amalga oshiriladi va qisqa zanjirli fragmentlar – «**Okazaki fragmentlari**» (ushbu fragmentlarni ilk bor aniqlagan yapon olimi Okazaki nomiga qo'yilgan) hosil bo'ladi. Sintezlangan bunday qiz zanjir **“ortda qoluvchi zanjir”** deb nomlanadi. Okazaki fragmentlari taxminan 100 nukleotid qoldig'idan tashkil topgan va o'zida praymerni tutadi. Okazaki fragmentlari tarkibidagi praymerlar DNK-polimeraza β fermenti yordamida $5'$ -uchdan yakka-yakka ribonukleotid shaklida uzila boshlaydi. $3'$ -uchning erkin ON-guruhiha DNK-polimeraza β uzib tashlangan ribonukleotidfosfatlar soniga mos ravishda dezoksiribonukleotidlarni biriktiradi. **DNK-ligaza** fermenti DNK zanjiri bir fragmenti dezoksiribozasining $3'$ -OH guruhi va keyingi fragmentining $5'$ -fosfati orasidagi fosfodiefir bog'i hosil bo'lishi reaksiyasini katalizlaydi. Reaksiya ATP energiyasi hisobiga boradi va shu tariqa qator Okazaki fragmentlari ulanib, DNK zanjiri hosil bo'ladi.

DNKning yetilishi metillanish, telomerazalar ta'sirida uzayish va reparatsiyani o'z ichiga oladi. Replikatsiya tugagandan so'ng **azot asoslarining metillanishi** kuzatiladi. Metil guruhlari -GATC- ketma-ketligidagi adenin va -GC- ketma-ketligidagi sitozin molekulasiiga kiritiladi. DNK molekulasida metillangan asoslar

1–8 %ni tashkil qiladi. Bunday modifikatsiyalar metiltransferazalar ishtirokida kechadi, metil guruhi donori bo‘lib S-adenozilmetionin (SAM) qatnashadi. DNK molekulasiда metil guruhlarning bo‘lishi xromosoma strukturasining shakllanishini osonlashtiradi va genlar transkriptiyasini boshqaradi (1.12-rasm).




1.12-rasm. Replikatsiyadan so‘ng yangi DNA molekulalarining metillanishi

Har bir xromosomaning uchlarida spetsifik nukleotidlар ketma-ketligi mavjud. Ular -GGGTTA- oligonukleotidlarning ko‘plab (100–1000) marotaba takrorlanishi oqibati bo‘lib, telomer ketma-ketlik yoki oddiyroq telomer DNK deyiladi. Telomerlar xromosomalarning oxirgi informativ ketma-ketligini, ya’ni genetik axborotni saqlab qolish uchun zarurdir. Replikatsiya tugagach, DNK qiz zanjirlarining 5'-uchlari to‘liq shakllanmaganligicha qoladi, chunki praymerlar olib tashlangach, bu fragmentlar replikatsiyalanganmagan bo‘lib qoladi.

Buning sababi, praymerlar olib tashlangandan so‘ng hosil bo‘ladigan bo‘shliqlarni to‘ldiruvchi DNK-polimeraza β fermenti DNKda sintezni 3'-uchdan 5'-uchga qarab olib bora olmaydi.

Shunday qilib, replikatsiyaning har bir siklida sintezlangan zanjirlarning 5'-uchlari kaltaroq bo‘lib qoladi. Ammo bunday yo‘qotishlar xromosomalar genetik axboroti uchun havf tug‘dirmaydi, chunki DNKnинг qisqarishi telomerlar hisobiga bo‘ladi. Ko‘pchilik hujayralarda qarish jarayonida telomerlarning qisqarishi organizm hayot davomiyligini aniqlovchi muhim omil hisoblanadi. Ammo embrional va boshqa tez bo‘linuvchi hujayralarda xromosoma oxirlarini yo‘qotish katta havf tug‘diradi, chunki bu holda DNKnинг qisqarishi juda tez kechadi. Eukariotik hujayralarida replikatsiyaga uchramagan 5'-uchlarni tiklanishini ta’minlovchi **telomeraza** fermenti bor. Ushbu ferment prostetik guruh sifatida xromosomalarning telomer qismi sintezida matritsa vazifasini bajaruvchi RNK saqlaydi (1.13-rasm).



1.13-rasm. Telomeraza ishtirokida DNKning telomer qismlari sintezi

Ko'pchilik somatik hujayralarda telomeraza nofaol, chunki odatda bu hujayralar o'zi va avlodlari hayoti davomiyligi uchun yetarli bo'lgan telomer DNK uzunligiga egadir. Ammo tez proliferatsiyaluvchi hujayralar – limfotsitlar, ilikdagi o'zak hujayralari, epiteliy hujayralari, teri epidermisi va boshqalarda telomerazalarning uncha yuqori bo'limgan faolligi aniqlanadi. O'sma hujayralarda esa telomerazalar faolligi yuqoridir.


Tirik organizmlarda turli xil ta'sirotlar natijasida DNK molekulasidagi nuqsonlarni tiklash jarayoni **reparatsiya** deyiladi.

Barcha reparatsiya mexanizmlari DNKnинг qо'sh zanjirli molekula ekanligiga asoslangan, ya'ni hujayrada genetik axborotning 2 nusxasi mavjud. Agar ikki zanjirning birida nukleotid ketma-ketligida biron-bir nuqson (o'zgarish) kuzatilsa, axborotni qayta tiklash mumkin, chunki ikkinchi (komplementar) zanjir saqlanib qolgandir. Reparatsiya bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda DNK komplementar zanjirlaridagi nuqsonlar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda nokomplementar nukleotidlар yoki asoslar qirqib olinadi, uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda nuqsonlar komplementarlik asosida tiklanadi.

Ammo nuqsonlarning turiga qarab reparatsiya bosqichlari va fermentlari o'zgarib turadi. DNKnинг ikki zanjirida baravariga nuqson paydo bo'lishi kamdan-kam uchraydi. Jinsiy hujayralarda bunday nuqsonlar tiklanmaydi, chunki jinsiy hujayralarda ularning tiklanishi uchun xromosomalar diploid bo'lishi kerak. DNK zanjirlarida komplementarlikning buzilishi spontan (ta'sirotsiz) bo'lishi mumkin, masalan nukleotidlarning dezaminlanishi va depurinlanishi kabi.

DNK replikatsiyasining aniqlik darajasi o'ta yuqori, ammo $10^5 - 10^6$ nukleotid qoldiqlariga asoslar juftlashuvining 1 xatosi yuzaga kelishi mumkin va bunda A-T, G-S nukleotidlар juftligi o'rniga DNKnинг qiz zanjirida matritsaga komplementar bo'limgan nukleotidlар kirib qolishi mumkin. Reparatsiya jarayonida qatnashuvchi fermentlar nuqsonli matritsali zanjirni -GATC- nukleotidlар ketma-ketligida adeninning metillangan hosilasi orqali aniqlaydilar. Fermentlar qiz zanjirlardagi nukleotid qoldiqlari metillangunga qadar, reparatsiya xatoliklarini topishlari va yo'qotishlari zarur.

Nokomplementar nukleotidni topish va uzib tashlash mut S (noto'g'ri juftlikni topadi va u bilan birikadi), mut H (-GATC- ketma-ketlikning metillangan qismiga birikadi) va mut L (ular orasida bog'lovchi oqsil vazifasini bajaradi) kabi spetsifik oqsillar ishtirokida kechadi (1.14-rasm).



1.14-rasm. DNK zanjiridagi reparatsiya jarayoni

Mut L ning qo'shilishi faol ferment hosil bo'lishini tugallaydi. Hatolikni saqlovchi qismida mut S, mut L, mut H kompleksining shakllanishi va mut H oqsilda endonukleaz faollikning paydo bo'lishiga olib keladi. Fermentativ kompleks metillangan zanjirdagi fosfoefir bog'ini gidrolizlaydi.

Ekzonukleaza zanjirning erkin uchlariga birikib, 3'-uchdan 5'-uch tomon yurib, bittadan nukleotidlarni ajratib tashlaydi va shu tariqa nokomplementar juftlikni yo'qotadi. Ochiq qolgan joylar DNK-polimeraza β tomonidan to'ldiriladi, zanjirning asosiya va qayta sintezlangan qismlari DNK-ligaza fermenti yordamida biriktiriladi. Ushbu fermentlarning yaxshi ishlashi uchun reparatsiya jarayonida xelikaza va SSB-oqsillar ishtirok etishi zarur.

Insonning har bir hujayrasi purin va dezoksiriboza orasidagi N-glikozid bog'ining uzilishi natijasida 1 sutkada 5000 purin asosini yo'qotadi. Bu holatda DNK molekulasingin ushbu yerlarida azot asoslaridan holi va AP-sayt (AP-site, yoki apurin saytlari) deb ataluvchi qism paydo bo'ladi. Nuqsonning bu tipi DNK-insertaza (ingl. *insert* — qo'ymoq), fermenti yordamida tuzatiladi: u dezoksiribozaga asosni komplementarlik qoidasi asosida biriktirishi mumkin. Bu holatda DNK zanjirini uzishga, noto'g'ri nukleotidni kesishga va uziqlikning reparatsiyasiga hojat qolmaydi.

Komplementar o'zaro bog'lanishlarning aniqligi purin va pirimidin asoslarini tautomer shaklda juftlashishi uchun qulay holatda ekanligiga bog'liqdir. Tashqi muhitning fizik va kimyoviy omillari DNK zararlanishning 4 tipini chaqiradi (1.4-jadval).

1.4-jadval

DNKning zararlanish tiplari

TIP	TURI	ZARARLANISH
I		
	A	Ayrim nukleotidlarga tegishli
	B	Depurinlanish
	D	Sitozinning uratsilgacha dezaminlanishi
	E	Adeninni gipoksantingacha dezaminlanishi
	F	Asoslarni alkilanishi
	G	Nukleotidlarni qo'yilishi yoki deletsiyasi
II		
	A	Asoslarning analoglarini qo'shilishi
	B	Juft nukleotidlarga tegishli
	C	Ultrabinafsha nurlari ta'sirida timin dimerlarining hosil bo'lishi
	D	Bifunktional alkillovchi moddalar ta'sirida ko'ndalang bog'larning hosil bo'lishi
III		
	A	Zanjirlarning uzilishi
	B	Ionlashtiruvchi radiatsiya
	C	DNK karkasining radioaktiv dezintegratsiyasi
IV		
	A	Bo'ylama bog'lar
	B	Bir yoki turli zanjirlar asoslari orasida
	C	DNK va oqsil molekulalari orasida (masalan, gistonlar bilan)

Sitozinning dezaminlanish reaksiyalari va uni uratsilga aylanishi, adeninning gipoksantinga, guaninning ksantinga aylanishi depurinatsiyaga nisbatan juda ham oz uchrab, sutkasiga bir genomga 10 reaksiyani tashkil etadi. Spontan zararlanishning bu tipini to'g'rakash DNK-N-glikozilaza fermenti ta'sirida kechadi. Sitozinning metilanishi reparatsiyalanmaydi va shuning uchun havflidir. Uning spontan dezaminlanish mahsuloti DNK uchun xos bo'lgan timin bo'lib, u DNK-N-glikozilaza tomonidan tanilmaydi.

DNKga radiatsion hamda kimyoviy tabiatli turli mutagen omillar ta'siri natijasida indutsirlangan zararlanishlar yuzaga keladi. Ultrabinafsha nurlanish ta'sirida pirimidin asoslari (timin va sitozin) tarkibidagi C₅ va C₆ uglerodlari orasidagi qo'sh bog' uzilib, dimerlar hosil bo'lishi mumkin. Ularni qaysi asoslар birikkanligiga qarab timin, sitozin yoki timin-sitozin dimerlari deb ataladi. Pirimidin dimerlarini ajratib tashlash **fotoliazalar** ta'sirida kechadi.

DNKdagi azot asoslari alkilanish, oksidlanish, qaytarilish yoki formamid guruhlari bilan bog'lanish kabi turli zararlanishlarga uchraishi mumkin. AP-sayt reparatsiyasi yoki faqat dezoksiribozani asosga komplementarlik qoidasiga asosan biriktiruvchi DNK-insertaza, yoki reparatsiya jarayonida ishtirot etuvchi AP-endonukleaza, AP-ekzonukleaza, DNK-polimeraza β va DNK-ligaza fermentlari kompleksi ishtirokida kechishi mumkin.

Reparatsiya organizmning butun umri davomida genetik materialning nativ strukturasini saqlab turish uchun kerakdir. Reparatsiya tizimi fermentlari faolligini susayishi DNK molekulasida nuqsonlarni (mutatsiyalarni) to'planishiga olib keladi. Insonning ko'pchilik nasliy kasalliklarining sababi aynan reparatsiya jarayonining ayrim bosqichlarining buzilishi natijasidir. Masalan, pigmentli kseroderma pigmentosa funksiyalarga mas'ul bo'lgan fermentlar faolligi miyada noto'g'ri asoslarni ajratib tashlash, uzilishlarni to'ldirish va shu kabi boshqa funksiyalarga mas'ul bo'lgan fermentlar faolligi pasayadi. Reparatsion tizimining defekti UB-nurlariga o'ta sezuvchanlik bilan namoyon bo'ladiki, bu terida bitmaydigan yaralar va odatda teri o'smalariga olib keluvchi qizil dog'larni hosil qiladi. Trixotiodistrofiya timin dimerlarini yo'qotishda ishtirot etuvchi

ferment faolligining pasayishi natijasi bo'lib, bu DNKninur ta'siriga sezuvchanligini oshiradi. Kasallikning simptomlari: oltingugurtni soch oqsillari tarkibida yetishmasligi hisobiga sochlarni va ularning ildizlarini mo'rtlashishi, ko'p hollarda jismoniy va aqliy rivojlanishdan ortda qolish, teri va tishlar anomaliyalari. Ataksiya-teleangiek-taziyada rentgen nurlanishiga sezgirlik ortadi; Fankoni kamqonligi bor bemorlarda ko'ndalang bog'lar reparatsiyasi tizimining ishlashi buzilgan. Bularning hammasi havfli o'smalar rivojlanishi chastotasingyuqori bo'lishligi bilan tavsiflanadi.

2-bob.


RNK SINTEZI VA PROTSESSING

Transkripsiya — bu hujayrada genetik axborotlar realizatsiyasining birinchi bosqichi hisoblanadi. Transkripsiya jarayonida oqsil sintezi uchun matritsa vazifasini o'tovchi mRNK hamda struktur, adaptor va katalitik vazifalarni bajaruvchi transport va ribosomal RNKlar sintezlanadi. Eukariotlarda transkripsiya yadroda kechadi. Transkripsiya mexanizmi asosida komplementarlik qonuniyati yotadi ($G=C$ va $U=A$). Transkripsiya uchun DNK molekulasi matritsa hisoblanadi va transkripsiyyada u o'zgarishga uchramaydi. Ribonukleozidtrifosfatlar (STF, GTF, ATF, UTF) — polimerizatsiya reaksiyasida ribonukleozidmonofosfatlar orasida 3',5'-fosfodiefr bog'larini hosil qilish uchun substrat va energiya manbayi bo'lib xizmat qiladi.

RNK molekulاسining sintezi DNK molekulасining ma'lum bir saytlarida, ya'ni **promotorlarda** boshlanadi va **terminatsiya** saytlarida tugaydi. Promotor va terminator saytlari orasidagi DNK bo'lagi transkripsiyaning birligi hisoblanib, **transkripton** deyiladi. Har bir transkriptonda **informatsiya saqlamaydigan qismlar (intronlar)** bo'lib, ularning asosiy vazifasi boshqaruvchi transkripcion omillar bilan bog'lanishdir. Omillar oqsil tabiatli bo'lib, transkripsiya jarayonini jadallashtirishi yoki susaytirishi mumkin. Eukariot hujayralari transkriptonida informativ va noinformativ qismlarning nisbati 1:9 ni (prokariotlarda 9:1) tashkil qiladi. Har bir transkriptonda DNK molekulасining faqat bir zanjiri transkripsiylanadi va u **matritsa** deb nomlanadi, ikkinchi zanjir esa — **kodlanuvchi** deyiladi. RNK sintezi $5' \rightarrow 3'$ yo'nali shida ketadi, bunda matritsaning DNK zanjiri doimo sintezlanayotgan RNK zanjiriga nisbatan antiparalleldir. Transkripsiya sintezlanayotgan RNK zanjiriga nisbatan antiparalleldir. Transkripsiya hujayraning bo'linish sikli fazalariga bog'liq emas, u hujayra yoki organizmning ma'lum bir oqsilga nisbatan bo'lган ehtiyojiga ko'ra jadallahishi yoki susayishi mumkin.

RNK biosintezi DNKga bog'liq RNK-polimerazalar ishtirokida kechadi. Eukariot hujayralarining yadrosida 3 turdag'i ixtisoslashgan RNK-polimerazalar mavjud: pre-rRNK sintezini boshqaruvchi **RNK-polimeraza I**, pre-mRNKn sinteziga javob beruvchi **RNK-polimeraza II** hamda pre-tRNKn sintezlovchi **RNK-polimeraza III**. RNK-polimerazalar — oligomer oqsil bo'lib, 2 α , 2 β , δ subbirliklardan iborat. 2 α subbirlik (mol. og'irligi 36000 D) initsiatsiyaga javobgar. 2 β subbirlik (mol. og'irligi 151000–155000 D) elongatsiyada qatnashadi; δ -subbirlik promotorni taniydi va bu qismga RNK-polimerazani biriktiradi.

Transkripsiya jarayoni 3 bosqichdan iborat: initsiatsiya, elongatsiya va terminatsiya (2.2-rasm).



2.1-rasm. Transkripsiya bosqichlari: 1 –TATA omilining promotorga bog'lanishi. Promotorni RNK-polimeraza tanishi uchun transkripsiya kompleks – TATA omil/TATA boks (promotor) hosil bo'lishi shart. TATA omil va TATA boks transkripsiya davrida bir biriga bog'liq holda bo'ladi, bu promotordan bir nechta RNK-polimerazalar foydalanishini osonlashtiradi; 2 – transkripsiya ayrining hosil bo'lishi; 3 – elongatsiya; 4 – terminatsiya.

Promotoring faollanishi spetsifik oqsil — **TATA-omili** hisobiga kechadi. Uning promotor qismga birikishi RNK-polimerazaning birikishini yengillashtiradi. Bunda initsiatsiya omillari RNK-polimerazaning konformatsiyasini o'zgartiradi, DNK molekulasini despiralizatsiyalaydi va transkripsiya ayrini hosil qiladi. Transkripsiya ayrida matritsa RNK sintezi uchun tayyor holatda bo'ladi.

RNK-polimerazaning δ -subbirligi 8–10 nukleotidlar qoldig'idan iborat oligonukleotidni sintezlaydi, so'ng RNK-polimerazadan ajraladi, uning o'rniغا elongatsiya omillari birikadi. Elongatsiya omillari RNK-polimerazaning faolligini oshiradi, DNK zanjirlarining ajralishini osonlashtiradi. RNK sintezi 5' → 3' yo'nalishida DNK matritsa zanjiriga komplementar tarzda kechadi. Elongatsiya bosqichida transkripsiya ayrida DNKnинг taxminan 18 nukleotidlar juftligi ochilgan bo'ladi. RNKning o'suvchi zanjiri DNK matritsa zanjirining 12 nukleotidlari bilan vaqtincha gibrildi zanjirni hosil qiladi. RNK-polimerazani matritsa bo'yicha 3'-uchdan 5'-uchga qarab siljishida DNK molekulasingin ochilishi, ortida esa qo'sh spiralning yopilishi kuzatiladi. Terminatsiya saytida DNK molekulasi qo'sh spiralning ochilishi terminatsiya omillarining kirishini ta'minlaydi va bu RNK sintezini to'xtatadi. Terminatsiya omili birlamchi transkriptatni (pre-mRNKn) hamda RNK-polimerazaning matritsadan ajralishini ta'minlaydi. RNK-polimeraza yana qaytadan boshqa transkripsiya siklida faqatgina α subbirligi qo'shilgandan so'ng qatnashishi mumkin.


2.1. RNK protsessingi

mRNKnинг birlamchi transkriptlari oqsil sintezida ishlatalishidan avval kovalent modifikatsiyalarini oshqaganidan so'ng, uning 5'-uchi kepirlanadi. Kepirlanish guaniltransferaza va GTF hisobiga 5',5'-fosfodiefir bog'lari hosil bo'ladi. So'ng GTF tarkibiborib, 5',5'-fosfodiefir bog'lari hosil bo'ladi. So'ng GTF tarkibidagi guanin qoldig'i metillanadi va N₇-metilguanozinni hosil qiladi. Modifikatsiyalangan 5'-uch translyatsiyaning initsiatsiyasini ta'minlaydi.

laydi, mRNKn ni nukleazalardan saqlaydi va shu tariqa uning umrini uzaytiradi. Kepirlangan 5'-uch ribosomalar tomonidan AUG, GUG tripletlarini tanilishini ta'minlaydi hamda intronlarni uzilishida qatnashuvchi murakkab ferment tizimining faoliyatini boshqaradi.

Pre-mRNKnинг 3'-uchi maxsus poliA-polimeraza fermenti ta'sirida 100–200 adenilat kislota qoldiqlaridan iborat poliA ketma-ketligini shakllantiradi. Bu jarayon RNK molekulasida -AAUAAA- nukleotidlar ketma-ketligining paydo bo'lishidan boshlanadi. mRNKnинг 3'-uchida poliadenilat qoldig'ini bo'lishi uni yadrodan chiqishini osonlashtiradi va sitoplazmada gidrolizdan saqlaydi.

Birlamchi transkript (pre-mRNK) — matritsadagi polinukleotid larga komplementardir, shuning uchun ekzonlar va intronlarni tutadi (2.2-rasm).




2.2-rasm. pre-mRNK protsessingi

Intronlarlar 80 dan to 1000 tagacha nukleotidlar tutishi mumkin. Intronlarni kesib tashlash kichik yadroli RNP (kyaRNP) ishtirokida amalga oshiriladi. Intronlar nofaol, ammo 5'- va 3'-uchlarida mos ravishda yuqori spetsifiklikka ega AGGU- va GAGG- nukleotidlar ketma-ketligini tutadi (splaysing saytlari), ular intronlarni pre-mRNK molekulasidan uzib tashlanishini ta'minlaydi. Birinchi bosqichda kyaRNPi splaysing saytlari bilan bog'lanadi, so'ng unga boshqa kyaRNPlar qo'shiladi. Splaysosamaning shakllanishida birinchi ekzonning 3'-uchi ikkinchi ekzonning 5'-uchi bilan yaqinlashadi. Splaysosoma ekzon va intron chegarasida 3',5'-fosfodiefir bog'larini uzadi, intronlar olib tashlanadi, ekzonlar ulanadi. Ekzonlar orasida

3',5'-fosfodiefir bog'larini hosil bo'lishini splaysosamaning tarkibiga kiruvchi fermentlar amalga oshiradi. Splaysing natijasida mRNK birlamchi transkriptidan yetilgan mRNK molekulasi shakllanadi.

Ba'zi genlar uchun splaysing va poliadenillashning alternativ yo'llari aniqlangan. Splaysingning bir variantida ekzon alternativ yo'lida intron bo'lishi mumkin, shuning uchun alternativ yo'lida hosil bo'lgan mRNK ekzonlari bilan farqlanadi. Bu esa bir transkriptondan turli xil mRNK va, demak, turli xil oqsillar sintezlanishiga olib keladi. Masalan, qalqonsimon bezining parafollikulyar hujayralarida kalsitonin geni transkriptiyasida 6 ekzondan iborat birlamchi mRNK transkriptoni hosil bo'ladi. Kalsitonining mRNKsi birinchi 4 ekzonlarning (1–4) birikishidan hosil bo'ladi. Oxirgi 4-ekzon qalqonsimon bezining parafollikulyar hujayralarida poliA-polimeraza tomonidan taniluvchi -AAUAAA- saytini tutadi. Aynan shu birlamchi transkript bosh miya hujayralarida splaysingning boshqa (alternativ) yo'li orqali ta'm bilishni ta'minlovchi kalsitonining o'xshash oqsilning mRNKsiga aylanadi. Ushbu oqsilning mRNKsi kalsitonining mRNKsi bilan umumiy bo'lgan birlamchi uch ekzon tutadi, ammo unda kalsitonin mRNKsiga xos bo'limgan qo'shimcha beshinch va oltinchi ekzonlar ham bo'ladi. Oltinchi ekzon -AAUAAA- ketma-ketligiga ega va poliA-polimeraza tomonidan taniladi va poliA hosil qiladi (2.3-rasm).




2.3-rasm. Prokalsitonin pre-mRNKsining alternativ splaysingi

Alternativ splaysing va poliA saytlarining bo'lishi to'qimalarga xos spetsifik oqsil genlari ekspressiyasini ta'minlaydi. Splaysingning turli xil variantlari bir oqsilning izoshakllarining hosil bo'lishiga olib keladi. Masalan, troponin genida 18 ekzon bo'lib, bu mushak olib keladi. Troponinning turli izoshakllarini hosil qiladi. Troponinning turli xil oqsilining turli izoshakllarini hosil qiladi.

izoshakllari har xil to‘qimalarda ontogenezning turli bosqichlarida hosil bo‘ladi.

Ko‘pchilik struktur RNK kodlovchi genlar RNK-polimeraza I va III ta’sirida hosil bo‘ladi. Pre-rRNK va pre-tRNK yadroda o‘ziga xos protsessingga uchraydi. tRNKnинг birlamchi transkripti taxminan 100 nukleotiddan tashkil topgan, protsessingdan so‘ng 70–90 nukleotid qoldig‘i qoladi (2.4-a rasm).



2.4-rasm. pre-tRNK (a) va pre-rRNK (b) protsessingi


Bu jarayon RNK-azalar (ribonukleaza) ishtirokida kechadi. Masa-
lan, tRNKnинг 3'-uchining shakllanishini 3'-ekzonukleaza bo‘lgan va
bu uchdagи nukleotidlarni barcha tRNKlar uchun xos bo‘lgan -SSA
ketma-ketligiga yetib kelmaguncha birma-bir kesib boruvchi RNK-aza
katalizlaydi. Pre-tRNK 14–16 nukleotiddan tashkil topgan atigi bir intron
tutadi. Uning olib tashlanishi va splaysing «antikodonni» hosil qiladi.

Odam hujayralarida rRNK genining 100 ortiq nusxalari bor.
Ular 5 xromosomada guruhlanib joylashgan. rRNK genlari RNK-
polimeraza I ta’sirida aynan bir xilda transkripsiyanadi. Birlamchi
transkriptlarning uzunligi taxminan 13000 nukleotid qoldig‘idan
iborat (45S rRNK). Protsessing jarayonida ribosomalarning birliklari
bo‘lmish 28S rRNK (5000 nukleotid), 18S rRNK (2000 nukleotid)
va 5,8S rRNK (160 nukleotid) hosil bo‘ladi. Transkriptning qolgan
qismlari yadroda parchalanadi.

3-bob. OQSIL SINTEZI VA GENETIK KOD

3.1. Axborot oqimi

Nuklein kislotalar va oqsillar axborot molekulasi bo‘lib xizmat qiladi. DNK genetik ma’lumotni saqlaydi, genomda organizmning hamma oqsillari va RNKlarining strukturasi haqidagi axborot shifrlangan. DNK sintezi jarayonida axborot ikki hissa oshadi va bo‘linish jarayonida qiz hujayralar tarkibiga o‘tadi. Reparatsiya esa rekombinatsiya va DNK strukturasi o‘zgarishi natijasida kelib chiqqan genetik ma’lumotlardagi xatoliklarni tuzatadi. Axborot oqimi DNKdan RNK orqali oqsilga uzatiladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Genetik axborotning fenotipik belgilarga o’tkazilish sxemasi. Hujayrada genetik axborotning oqimini DNK → RNK → oqsil yo‘nalishi bo‘yicha kechadi.

Ushbu ma’lumotni yetkazish ikki jarayon – transkripsiya va translyatsiya orqali boradi. Birinchi jarayon (transkripsiya) yordamida hujayra yadrosida DNK matritsadan matritsali, transport va

ribosomal RNKlar sintezi amalga oshadi. Ikkinchı jarayon (translyatsiya) yordamida esa DNKdan mRNAga ko'chirilgan axborot oqsil molekulasidagi aminokislotalar ketma-ketligiga o'tkaziladi. Shunday qilib, hujayraning genotipi a'zo va to'qimalarning fenotipik xususiyatlarini belgilab beradi. Nuklein kislotalar va oqsillarning matritsali tabiatи axborotni yuqori aniqlik bilan ko'chirilishini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, genetik axborot replikatsiya, rekombinatsiya, transpozitsiya yoki konversiya yordamida ham uzatilishi mumkin. Ushbu jarayonlar organizmning o'zgaruvchanligini, adaptativ xususiyatlarini ta'minlab beradi, lekin kasalliklarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Prokariotlarda gen, mRNA va oqsil mahsuloti orasida mutlaq moslik mavjud. Birlamchi transkriplarining o'chhami yetuk mRNA o'chhamidan ancha katta bo'lgan yuqori eukariot hujayralarida esa ahvol ancha murakkabdir. Aynan shuning uchun ham ushbu hujayralar mRNA dagi ketma-ketlikni kodlanayotgan oqsil aminokislotalariga aniq va samarali o'tkazishi uchun maxsus mexanizmlarga ega bo'lishi kerak. mRNA molekulalarining aminokislotalarga mosligi mavjud bo'lmasligi sababli, maxsus oraliq adaptor molekulalarning mavjud bo'lishi talab etiladi. Ushbu molekula bir tomonidan, mRNAning spetsifik ketma-ketligini, ikkinchi tomonidan esa, ma'lum bir aminokislani tanishi kerak. Bunday molekula yordamida hujayra mRNA ketma-ketligi tomonidan talab qilinuvchi aynan ma'lum bir aminokislani sintezlanayotgan oqsil molekulasining aynan ma'lum bir joyiga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aminokislotalarning funksional guruhlari o'z-o'zidan mRNA bilan bog'lana olmaydi.


3.2. Genetik kod va oqsil biosintezi

Genetik kodni aniqlanishi inson organizmidagi ayrim oqsil nuqsonlari va irsiy kasalliklarning o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Umumiy amaliyot shifokoriga oqsillar sintezini bilish juda zarur. mRNA da polinukleotidlardan sifatida yozilgan genetik axborotni oqsildagi aminokislota tiliga o'girilishi o'ziga xos kodlanishni talab

qiladi, ya’ni mRNKdagi to’rt nukleotidning almashinishi oqsil tarkibidagi aminokislotalarning o’ziga xos ketma-ketligini belgilab beradigan ma’lum bir qonun mavjud. Translyatsiya jarayonida oqsil strukturasini mRNK va DNK nukleotidlarning chiziqli ketma-ketligi orqali kodlash zaruriyati quyidagilar bilan bog‘liq:

- mRNK matritsadagi monomerlar soni uning mahsuloti struktur birligi bo‘lmish – sintezlangan oqsildagi aminokislotalar soniga mos kelmaydi;
 - RNK va oqsilning birliklari struktur jihatdan farqlanadi.

Bular esa matritsa bilan uning mahsuloti orasidagi komplementlar bog‘lanishni rad etadi. Komplementarlik faqatgina bir xil monomerlar orasida, ya’ni DNK replikatsiyasi va RNK transkripsiyasida bo‘lishi mumkin. Demak, mRNA nukleotidlari ketma-ketligida yozilgan axborotni aminokislota tiliga o‘girish uchun ma’lum bir “lug‘at” bo‘lishi kerak. Bu lug‘at genetik (biologik) kod deb nomланади (3.2-rasm).



3.2-rasm. Genetik kod: U – UMF, A – AMF, G – GMF, C – SMF; Stop – to‘xtatuvychi (stop) tripletlari: Start – boshlovchi (start) tripletlari

Bu lug‘at oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalarni nukleotidlar sifatida shifrlash imkonini beradi. Genetik kodga quyidagi xususiyatlari xos:

1. Tripletlik. Nuklein kislotalar 4 xil turdag'i nukleotidning, oqsillar esa 20 xil aminokislotaning ketma-ket joylashishidan tuzilgan. Shuning uchun, agar har bir nukleotid qandaydir bir aminokislotani biriktiradigan bo‘lsa, sistema faqatgina 4 xil aminokislotani biriktira olishi mumkin ($4^1 = 4$). Agarda bir aminokislotani polipeptid zanjirga kodlashtirishda 2 xil nukleotid kombinatsiyasi (duplet) ishtirok etsa, sistema 16 aminokislotani biriktirishi mumkin ($4^2 = 16$). Ammo bu 16 nukleotid dupleti oqsil tarkibida uchrovchi 20 xil aminokislotan uchun yetarli emas. Shu sababli har bir aminokislotani biriktiruvchi nukleotid kodi uch nukleotid kombinatsiyasidan iborat bo‘lishi lozim. Bunday sistema $4^3 = 64$ aminokislotani kodlashtiradi. Shunday qilib, 20 xil aminokislotaning har birini polipeptid zanjiriga kiritish uchun biologik kod 3 nukleotid kombinatsiyasidan (triplet) iborat bo‘ladi.

Kodonlarning ma’nosisi. M. Nirenberg va G. Mattey *E.Coli* ning hujayrasiz sistemasiga polinukleotidfosforilaza yordamida sintezlangan poliU va radioaktiv uglerod (^{14}C) bilan nishonlangan aminokislotalarni qo’shib tajriba o’tkazganda (1961), oqsil molekulasiiga ^{14}C ga ega bo‘lgan fenilalanin birikkani ma’lum bo‘lgan. Bu tajribaga asosan fenilalanin UUU tripleti yordamida polipeptid zanjiriga biriktirilishi (kodlanishi) mumkin, degan xulosaga kelingan. Shunday yo‘l bilan fenilalaninni – UUU, lizinni – AAA, prolinni – SSS, glitsin – GGG tripleti kodlashtirishi aniqlangan. Shunday qilib, sintetik polinukleotidlar yordamida aminokislotalar polimerlari – poli-fen, poli-pro, poli-liz, poli-gli hosil qilingan. Keyingi tadqiqotlarda jami 64 xil kodon borligi, undan 61 tasi aminokislotalarni kodlashi mumkinligi, 3 tasi esa (**UAA, UAG, UGA**) ma’nosiz, nonsens-kodonligi aniqlangan va terminatsiyalovchi stop-kodonlar deb nomlangan.

Spetsifikligi. Har bir kodonga faqatgina bitta aminokisloti xosdir.

Aynimachilik. DNK va mRNK yozilgan axborot 61 ma’noli, ya’ni aminokislotalarni kodlovchi kodonlarni tutadi, ammo oqsil tar-

kibida faqat 20 xil aminokisloti mavjud. Demak, axborot saqlovchi polinukleotidlarda bitta aminokislotani kodlovchi bir necha xil tripletlar bo‘lishi mumkin. Genetik kodning bunday xususiyati aynimachilik deb nomlangan. Uning bunday xususiyati axborotlar o’tishini ichki va tashqi ta’sirotlarga turg‘unligini belgilaydi. Koddagi birinchi 2 nukleotid aminokisloti tabiatini belgilaydi, 3-nukleotid esa ko‘p hollarda uncha ahamiyatga ega emas.

Axborotning uzluksizligi. Translyatsiya jarayonida mRNKdagi kodonlar boshlang‘ich nuqtadan uzluksiz o‘qiladi, ular orasiga imlo belgilari qo‘yilmaydi. AUG kodi mRNK zanjirining qayerida kelishidan qat’iy nazar metionin (Met) aminokislotasini kodlaydi.

Universallik. Viruslar, bakteriyalar, o’simliklar, sutemizuvchilar, shu jumladan insonlar uchun ham genetik kod universaldir. Oxirgi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mitoxondriya mRNKlarida 4 triplet yadrodagidan farqlanadi. Mitochondrial mRNKning UGA tripleti – Trp (yadro mRNK sida – stop-kodon), AUA – Met (yadro mRNK sida – Ile), AGA va AGG qo‘sishimcha stop-kodonlar (yadro mRNK sida – Arg) sifatida o‘qiladi.

Gen va mahsulotning mosligi (kollinearlik). Prokariotlarda birlamchi transkriptondagi kodonlar ketma-ketligi oqsil molekulasiagi aminokislotalar ketma-ketligiga mos keladi, ya’ni gen va mahsulotning kollinearligi kuzatiladi. Eukariot hujayralarda esa birlamchi transkriptondagi kodonlar ketma-ketligi oqsil molekulasiagi aminokislotalar ketma-ketligiga mos kelmaydi, chunki ma’noga ega qismlar (oqsil molekulasi tarkibiga kiruvchi aminokislotalar ketma-ketligi) – ekzonlar ma’nosiz qismlar (oqsil molekulasi tarkibiga ketma-ketligi) – intronlar ma’nosiz qismlar (oqsil molekulasi tarkibiga ketma-ketligi) – intronlar bilan uzilib kirmaydigan aminokislotalar ketma-ketligi – intronlar bilan uzilib turadi. Kollnearlik faqatgina yetuk mRNK kodonlarida kuzatiladi.

3.3. Oqsil biosintezida transport RNKlar

Polipeptid zanjirini sintezlash uchun juda ko‘p turli xil moddalar bo‘lishi kerak, ularning hamjihatlik bilan ishlashi esa oqsilni sintezlashga olib keladi.

3.1 - jadval

Oqsil sintezi uchun zarur komponentlar va ularning funksiyalari

№	Zarur birikmalar	Funksiyasi
1	Aminokislotalar	Oqsil sintezi uchun zarur substrat.
2	tRNK	Adaptor vazifasini o'taydi: akseptor qismi bilan aminokislotalarni biriktiradi, antikodon bilan mRNKga bog'lanadi.
3	Aminoatsil-tRNK sintetazalar	tRNK kodoniga mos aminokislotani tRNKning akseptor qismiga spetsifik bog'lanishini ta'minlaydi.
4	mRNK	Matriksa kodonlarining chiziqli ketma-ketligini tutib, sintezlanuvchi oqsildagi aminokislotalar ketma-ketligini belgilaydi.
5	Ribosomalar	Ribonukleoprotein saqlovchi hujayra organellalari, oqsilni sintezlash joyi.
6	ATF, GTF	Energiya manbalari.
7	Initiatsiya, elongatsiya va terminatsiyani ta'minlovchi oqsillar	Oqsil sintezini boshlash, polipeptid zanjirini uzaytirish hamda tugatish.
8	Magniy ionlari	Ribosomalar strukturasiyi stabillovchi kofaktor.


Translyatsiya jarayoni DNK ning nusxasini olish (replikatsiya) va DNK matritsasi asosida RNK sintezlanishi (transkripsiya) jarayonlariga qaraganda ancha murakkabdir. Tabiatda uchraydigan yog' kislotalari, aminokislotalar, mononukleotidlari, karbonsuvarlar, lipidlar, vitaminlar va boshqa moddalar noinformativ moddalar hisoblanib, ular ma'lum fermentlar ishtirokida sintez qilinadi, biroq nuklein kislotalarida nukleotidlari, oqsillarda aminokislotalar ma'lum qat'iy tartibda joylashgan molekulalar bo'lgani uchun ular o'ziga xos ajoyib prinsip - qolip prinsipi asosida sintezlanadi.

tRNKn «adaptor molekulalari» deyishadi, chunki uning akseptor qismiga faqatgina ma'lum bir aminokislota birikishi mumkin, ular o'zining antikodon qovuzlog'i bilan mRNKning spetsifik kodonini taniydi. Oqsil biosintezi jarayonida ribosomalarda tRNK antikodonni

mRNK kodoni bilan komplementarlik va antiparallel prinsipida bog'lanadi. Keyingi tekshiruvlarda har bir aminokislota uchun tRNK soni mRNK kodlari soniga mos kelmasligi aniqlandi. Demak, ba'zi tRNK birdan ortiq kodonlar bilan bog'lanishi mumkin. Bu muammoning yechimi jarayonida quyidagilar aniqlandi:


- Kodonning birinchi 2 azot asoslari va antikodonning oxirgi 2 azot asoslari mustahkam juftliklar hosil qiladi (guanin-sitozin va adenin-uratsil) va dekodlanishning spetsifikligiga katta hissa qo'shadi;
- Kodonning 3-asosini antikodonning 1-azot asosi bilan bog'lanishi kuchsiz bo'ladi, shuning uchun ba'zi tRNKlar birdan ortiq kodonni o'qishi mumkin. Masalan, arginin tashuvchi tRNKning biri 5'-I-S-G-3' antikodon ko'rinishga ega va u argininning 3 xil kodonlarini tanishi mumkin: (3)-S-G-A-(3'), (5')-C-G-U-, (5')-C-G-C-. Hujayra sitozolidagi 20 xil turli aminokislotalar tRNKning akseptor uchidagi 3'-gidroksi guruhi o'zining α -karboksil guruhi bilan murakkab efir bog'i hosil qilib birikadi. Bu reaksiyalarni aminoatsil-tRNK-sintetaza (aa-tRNK-sintetaza) fermentlar oilasi katalizlaydi. Bu oilaning har bir a'zosi faqatgina o'zining spetsifik aminokislotasini taniydi va tRNK u bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Demak, tRNK-sintetazalar guruhi o'zining 20 xil fermentlar kiradi.

Bu jarayon 2 bosqichda kechadi: 1-bosqichda aminokislota fermentga birikadi va ATF bilan kompleks birikma — aminoatsil-AMF hosil qiladi (3.3-rasm). 2-bosqichda aminoatsiladenilatning aminoatsil qoldig'i ferment bilan birikkan holda o'zining spetsifik tRNKsi bilan birikadi va aminoatsil-tRNK hosil qiladi.



3.3-rasm. Aminoatsil-tRNK hosil bo'lish reaksiyalari ketma-ketligi

Reaksiyaning umumiy ko‘rinishi:




Aminokislarning aynan o‘zining tRNKsi bilan spetsifik bog‘lanishini ta‘minlovchi aa-tRNK-sintetazalarning o‘ta yuqori spetsifikligi genetik axborotning translyatsiyada yuqori aniqlik bilan olib borilishini ta‘minlaydi. Bu fermentlarning faol markazida 4 spetsifik qismlar bo‘lib, ular aminokislalar, tRNK, ATF va suvni biriktirish markazlaridir. Oxirgi markaz noto‘g‘ri birikkan aminoatsiladenilating gidrolizlash xususiyatiga ega. Ushbu fermentning faol markazida xatolikni tuzatuvchi markazning bo‘lishi, juda tezlik bilan noto‘g‘ri birikkan aminoatsil qoldig‘ini yo‘qotadi va translyatsiyani yuqori aniqlikda ishlashini ta‘minlaydi: har 1300 tRNK bilan bog‘langan aminokislarda 1 xato o‘tishi mumkin. tRNKga birikkan aminoatsila aa-tRNKning spetsifik xususiyatlarini belgilamaydi, chunki uning strukturasini na ribosoma, na mRNK tanimaydi. Sintez jarayoni faqatgina tRNK strukturasi bilan belgilanadi, aniqrog‘i aa-tRNK anti-kodonini mRNKning kodoni bilan komplementar bog‘lanishiga bog‘liq.

3.4. Oqsil biosintezi

Oqsil biosintezi ribasomalarda kechadi. Ribosomalarda tRNK molekulasi biriktirish uchun 2 markaz mavjud: aminoatsil (A) va peptidil (R) markazlar, ularning hosil bo‘lishida ribosomalarning ikki subbirliklari qatnashadi. A va R markazlar birgalikda mRNKning 2 kodoniga mos keluvchi qismini tutadi. Translyatsiya jarayonida A markazga aa-tRNK mRNKning kodoniga mos holda birikadi. Bu kodon strukturasi o‘sib boruvchi polipeptid zanjiriga kiruvchi aminokislota tabiatini belgilab beradi. R markazni peptidil-tRNK, ya’ni yangi sintezlangan peptid zanjiri bilan bog‘langan tRNK egallaydi. Oqsil sintezi kechishida mRNKda yozilgan axborot 5’ → 3’-uch yo‘nalishida o‘qiladiki, bu peptidni N-uchidan S-uchiga qarab sintezlanish imkoniyatini beradi. Eukariotik hujayraning har bir mRNKsi faqatgina bir polipeptid zanjiri tuzilishini kodlaydi,

prokariotik hujayralarda esa mRNK bir necha polipeptid zanjirlarining tuzilishi haqida axborot tutadi. Ribosomalarda kechadigan jarayonlar initsiatsiya, elongatsiya va terminatsiya bosqichlarini o‘z ichiga oladi.


Translyatsiyaning initsiatsiya bosqichi o‘z ichiga Met-tRNK^{Met} (initsiatsiyani boshlovchi tRNK), mRNK va ribosomalarni oluvchi kompleksni hosil qiladigan jarayondir (3.4-rasm). Bu jarayonda o‘nga yaqin initsirlovchi omillar – eIF (*eukaryotic initiation factors*) qatnashadi. Birinchi navbatda eIF-3 omili ribosomaning 40S subbirligiga birikib, uni 60S subbirlikdan ajratadi hamda 40S subbirlikka uchlamchi kompleks – Met-tRNK^{Met}, eIF-2 va GTFni bog‘lanishini ta‘minlaydi. Hosil bo‘lgan bu kompleks mRNKning 5’-uchi bilan birikadi va bunda ham bir necha omillar qatnashadi. eIF-4 omili mRNK molekulasidagi “kep”ni taniydi va u bilan birikadi. mRNK birikkan 40S subbirlik mRNKning kodlanmaydigan qismi bo‘yicha initsirlovchi AUG kodoniga yetguncha siljiy boshlaydi. Bu jarayon ATF gidrolizlanishi natijasida ajralgan energiya hisobiga kechadi. 40S subbirlik mRNKning kodlanuvchi ketma-ketligiga yetgandan so‘ng to‘xtaydi va 40S subbirlikka 60S subbirlikni birikishini jadallashtiruvchi omillar va GTF gidrolizi energiyasi hisobiga 80S ribosomani (initsirlovchi kompleksni) hosil qiladi. Buning natijasida ribosomada A- va R-markazlar yuzaga kelib, R-markazda mRNKning AUG kodoni Met-tRNK^{Met} bilan birikkan holda bo‘ladi.



3.4-rasm. Oqsil sintezining initsiatsiya bosqichi

Elongatsiya. Initsiatsiya bosqichi tugaganidan so'ng, mRNA shunday joylashadiki, R-markazda uning initsirlovchi kodoni AUG Met-tRNK^{Met} birikkan holda, v A-markazida esa sintezlanishi lozim bo'lgan oqsilning birinchi aminokislotasi tripleti joylashadi. So'ng oqsil sintezining eng uzoq kechadigan bosqichi – elongatsiya boshlanadi, ya'ni ribosoma aa-tRNK bilan birga nukleotidlar tripletidan tashkil topgan mRNA ni 5'-uchidan 3'-uchigacha ketma-ket "o'qiy" boshlaydi va aminokislotalarni ketma-ket birikishi natijasida polipeptid zanjirini uzaytirib boradi. Har bir aminokislotaning oqsil molekulasiga kiritilishi 3 bosqichda boradi:


- oqsil molekulasiga kiruvchi har bir aminokislotaning aa-tRNKsi ribosomaning A-markazi bilan bog'lanadi;
- R-markazdagi peptidil-tRNKdagi peptid A-markazdagi aa-tRNKning aminoatsil qoldig'ining α NH₂-guruhi bilan bog'lanib, yangi peptid bog'ini hosil qiladi;
- bitta aminokislot qoldig'iga uzaygan peptidil-tRNK A-markazdan R-markazga ko'chiriladi.



3.5 - rasm. Oqsil sintezining elongatsiya bosqichi.

Aminoatsil-tRNKnинг A markaz bilan bog'lanishi. A-markazda joylashgan mRNA kodoni A-markazga kiritilishi lozim bo'lgan aminoatsil-tRNK tabiatini belgilaydi. aa-tRNK^{aa} ribosoma bilan uchlamchi kompleks (EF-1, aa-tRNK^{aa} va GTF) hosil qiladi. Bu kompleks ribosoma bilan faqatgina aa-tRNK^{aa} antikodonni A-markazdagi mRNA kodoniga komplementar va antiparallel bo'lsagina birikadi. aa-tRNK^{aa}ning ribosomaga kiritilishi GTF energiyasi hisobiga kechadi. Peptid bog'i hosil bo'lishi ribosomadagi kompleksdan EF-1 va GDF ajralgandan so'ng kuzatiladi. Bu *transpeptidatsiya reaksiyasi* deyiladi. Bu reaksiyada Met-tRNK^{met} qoldig'i A-markazga kiritilgan birinchi aminokislotaning α -amino guruhi bilan bog'lanadi va birinchi peptid bog'i hosil bo'ladi. Peptidiltransferaza faolligi ribosomaning katta subbirligidagi 28S rRNK bilan bog'liq. Translokatsiya — elongatsiyaning 3-bosqichi hisoblanadi. Ribosomaga EF-2 elongatsiya omili birikadi va GTF energiyasi hisobiga ribosomani mRNA bo'ylab 3'-uchi tomon bitta kodonga siljitaldi. Natijada dipeptidil-tRNK A-markazdan R-markazga ko'chiriladi. Metionindan ozod bo'lgan tRNK^{Met} ribosomani tark etadi, A-markazga esa keyingi kodon kelib birikadi. Elongatsiyaning 3-bosqichi tugashi natijasida ribosomaning R-markazida dipeptidil-tRNK, A-markazida esa ikkinchi aminokislotani polipeptid zanjiriga kiritilishini kodlovchi triplet joylashadi. Elongatsiyaning keyingi sikli boshlanadi va yuqorida qayd etilgan jarayonlar takrorlanadi. Bunday sikllar mRNA ning ma'noli kodonlarining barchasi o'qilguncha davom etadi.

Terminatsiya. Ribosomaning A-markaziga stop-kodonlardan (UAG, UAA yoki UGA) biri kelib birikishi natijasida translyatsiyaning terminatsiya bosqichi boshlanadi (3.6-rasm). Stop-kodonlar uchun xususiy tRNK yo'q. Ularning o'rniغا ribosomaga 2 xil oqsil – **terminatsiya omillari** – RF (release factors) birikadi. Ulardan biri peptidiltransferaza markazi yordamida tRNKnинг yangi sintezlangan peptidini ajratadi. Ikkinchisi esa GTF energiyasi hisobiga ribosoma subbirliklarini dissotsiatsiyalaydi.



3.6-rasm. Oqsil sintezining terminatsiya bosqichi

Shuni aytish joiz-ki, GTF energiyasi hisobiga ishlaydigan translyatsiya omillari G-oqsillar super oilasiga kiradi. Bu oqsillar gormonlar, boshqa biologik faol moddalarning biologik effektlarini o'tkazishda qatnashadi hamda o'sish omillari kabi funksiyalarni bajaruvchi Ras-oqsillar kabi ta'sir etadi. Ular GTF bilan bog'langanda faol bo'lib, spetsifik metabolik jarayonlarda qatnashadi, markazda GTF gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan GDF bu oqsillarning konformatsiyasini o'zgartirib, nofaol holatga o'tkazadi.

Oqsil sintezi jarayonida ribosoma mRNKnинг 5'-uchiga birikadi va 3'-uchiga qarab siljiy boshlaydi. Buning natijasida mRNKnинг 5'-uchi erkin qoladi va unga yangi polipeptid zanjirini sintezlovchi ribosoma birikishi mumkin. Odatta, bir mRNA zanjirida bir vaqtning o'zida bir-necha ribosomalar oqsil sintezida qatnashadi. Bunday qurilmalar **poliribosomalar** yoki **polisomalar** deyiladi. Har bir ribosoma mRNA da 80 nukleotidgacha bo'lgan qismini egallaydi, shuning uchun mRNA da ribosomalar har 100 nukleotiddan so'ng joylashadi. Sintezlanayotgan oqsilning polipeptid zanjiri qanchalik uzun bo'lsa, shunchalik ko'p ribosomalar sintezda qatnashishi mumkin va bu mRNA matritsasining samaradorligini oshiradi. Har bir ribosoma bir daqiqada 100 dan ortiq peptid bog'larini hosil qilishi mumkin.

Polipeptid zanjirining posttranslyatsion modifikatsiyasi

Polipeptid zanjirlarning turli xil modifikatsiyalari ribosomalar bilan bog'langan holatda yoki sintez tugagandan so'ng kechishi mumkin. Polipeptid zanjirlarining bunday konformatsion va struktur o'zgarishlari posttranslyatsion o'zgarishlar deb nomланади. Ular polipeptid zanjirning ma'lum qismlarining uzilishi, bir yoki bir necha kichik molekulali ligandlarning birikishi, oqsil molekulasing nativ konformatsiyasining shakllanishini o'z ichiga oladi. Ko'pchilik modifikatsiyalar endoplazmatik retikulumda kechadi.

Molekulalar foldingi. Polipeptid zanjirning ribosomadagi sintezi davomida shaperon-oqsillar ishtrokida termodinamik muqobil fazoviy konformatsiyaning shakllanishi kuzatiladi.

Sistein qoldiqlari orasida disulfid bog'larning hosil bo'lishi. Oqsil molekulalarining nativ konformatsiyasi shakllanishida disulfid bog'larning to'g'ri shakllanishi muhim rol o'ynaydi (insulin, immunoglobulinlar, ribonukleazalar va h.k.).

Qisman proteoliz. Hujayradan sekretsiyalanuvchi ko'pchilik oqsillar nofaol shaklda sintezlanadi. Polipeptid zanjirining ma'lum bir qismlarini spetsifik endoproteazalar ta'sirida olib tashlanishi faol oqsil shakllanishiga olib keladi. Ba'zi nofaol oqsillarning parchalanishi ER yoki Goldji apparatida, boshqalariniki esa sekretsiyalangandan so'ng kuzatiladi. Jumladan, sekretsiyalanuvchi nofaol fermentlar – profermentlar (zimogenlar) – qisman proteoliz yo'li bilan faol holatga o'tadi: pankreatik bez zimogenlari ichakka ajralgandan so'ng faollahadi. Ikki bosqichli proteolizga misol qilib insulin yoki glyukagonni keltirish mumkin. Birinchi bosqichda ERda polipeptid zanjirining N-uchidan signal peptid ajraladi va proinsulin hosil bo'ladi. So'ng Goldji apparatining sekretor granulalarida endo-yoki ekzoproteazalar ta'sirida proinsulindan S-peptid ajraladi va faol gormon hosil bo'ladi.

Prostetik guruhlarning birikishi murakkab to'rtlamchi tuzilishga ega bo'lgan oqsil hosil bo'lishini ta'minlaydi (mioglobin, gemoglobin, murakkab fermentlar va h.k.). Protomerlarni oligomer oqsillariga yig'ilishi gemoglobin, tamaki mozaikasi virusi, izooqsillar,

izofermentlar va shu kabi qator to'rtlamchi strukturaga ega bo'lgan oqsillarni hosil qiladi. To'rtlamchi struktura – o'zaro nokovalent, ya'ni vodorod bog'lari, elektrostatik, dipol-dipol hamda molekula yuzasida joylashgan aminokislotalar orasida yuzaga keladigan gidrofob o'zaro ta'sirlashuvlar yordamida bog'langan ikki va undan ortiq polipeptid zanjirlaridan iborat supermolekulyar tuzilmadir.

Aksariyat oqsillarning aminokislota qoldiqlari modifikatsiyaga uchraydi. Struktur oqsillar va fermentlar turli xil kimyoviy guruhlarni (fosfat, atsil, metil, oligosaxarid va boshqalar) birikishi natijasida faollanishi yoki ingibirlanishi mumkin. Oqsillarning fosforillanishi serin, treonin yoki tirozin aminokislotalarining gidroksil guruhi hisobiga bo'ladi. Fosforillanishda proteinkinaza, defosforillanishda esa fosfoproteinfosfataza fermentlari qatnashadi. Glikogenfosforilaza va triatsilglitseridlipazaning fosforillanishi ularning faollashishiga olib keladi, glikogensintazaning fosforillanishi – fermentni nofaol holatga o'tkazadi. Plazmatik membrana tarkibiga kiruvchi yoki hujayralardan sekretsiyalanuvchi oqsillarning glikirlanishi kuzatiladi. Uglevod zanjirlari serin yoki treoninning gidroksil guruhlariga (O-glikozillanish) yoki asparaginga (N-glikozillanish) birikishi mumkin. Uglevod fragmentlarining ortib borishi ER va Goldji apparatida kechadi. Ba'zi aminokislotalarning yon radikallari modifikatsiyalanadi: tireoglobulinda tirozin qoldiqlari yodlanadi; glutamat qoldiqlarini karboksillanishi qon ivish omillarida kuzatiladi; fibroblastlar ERida tropokollagen zanjirlardagi prolin va lizin qoldiqlari gidroksillanadi.

4-bob.

GENLAR EKSPRESSIYASINING BOSHQARILISHI

4.1. Oqsil biosintezining boshqarilishi va oqsil sintezi ingibitorlari

Tashqi muhitning o'zgarishiga organizmlar genlar ekspressiyasi (transkripsiya tezligi)ni o'zgartirish yo'li bilan moslashadi. Bu jarayon haqida aniq tasavvurga ega bo'lish patologiya chaqiruvchi organizmlarning rivojlanishini to'xtatuvchi moddalar ishlab chiqishga yordam bera oladi. Genetik ma'lumot ekspressiyasi ontogenetik jarayonida va organizmni tashkil qiluvchi hujayralar differensirovkasi paytida boshqarilishi lozim. Organizm tashqi muhit sharoitlarining o'zgarishiga energiya va oziq moddalarni tejamli sarflagan holda moslasha olishi uchun genetik ma'lumotni ekspressiya qilish tizimi tashqi signallarga javob berishi kerak. Evolyutsion rivojlanish jarayonida organizm va hujayralarni turli sharoitlarga moslashishi uchun zarur bo'lgan tobora murakkablashgan mexanizmlar paydo bo'lib borgan. Sutemizuvchilarning hujayralaridagi genetik informatsiya hajmi prokariotlarnikidan 1000 barobar ko'pligini hisobga olsak, bu qo'shimcha informatsiyaning asosiy qismi genlar ekspressiyasini boshqarish uchun kerak deb taxmin qilish mumkin.

Genlar ekspressiyasini boshqarishning 2 xil yo'li bor: pozitiv va negativ (4.1-jadval). Agar genetik informatsiya ekspressiyasi darajasi spetsifik omillar ta'sirida miqdoran oshsa **pozitiv regulyatsiya** deyiladi. Agar ekspressiya darajasi boshqaruvchi elementlar ta'sirida pasaysa, **negativ regulyatsiya** deyiladi. Ayrim hollarda ikki negativ ta'sir oqibatida pozitiv natija olish ham mumkin, ya'ni negativ regulator ta'sirini ingibirlovchi effektor oxir-oqibatda pozitiv regulator ta'sirini namoyon qiladi. Xususan, molekulyar darajada indutsibel ta'sir qiladigan ko'pchilik regulator tizimlardagi faollikda aslida derepressiya holati sodir bo'ladi.

4.1-jadval

Gen ekspressiyasi darajasida pozitiv va negativ regulyatsiyaning ta'siri


	Gen ekspressiyasi darajasi	
	Negativ regulyatsiya	Pozitiv regulyatsiya
Regulyator mavjudligida	pasayadi	ortadi
Regulyator bo'lmasa	ortadi	pasayadi

Biologik tizimlar regulyator signalga 3 xil javob berishi mumkin (4.1-rasm):

* initsirlovchi signalning doimiy mavjudligida (masalan, steroid gormonlar) gen ekspressiyasi darajasining doimiy yuqori bo'lishi — A turi;

* regulyator signal doimiy ta'sir qilishda davom etsa ham, gen ekspressiyasining vaqtinchalik kuchayishi (organizmning individual rivojlanishi jarayonida o'sish omillarining ta'siriga javob berish) — B turi;

* regulyator signal ta'siri to'xtagan bo'lsa ham, gen ekspressiyasining uzoq vaqt yuqori darajada saqlanishi (nasldan-naslga o'tadigan trigger mexanizm hisoblanadi) — C turi.



4.1-rasm. Genlar ekspressiyasi darajasini boshqaruvchi tizimning regulyator signalga javob reaksiyalari turlarining diagrammasi

Bakteriya va viruslarda batafsil o'rganilgan ushbu jarayon, o'z ichiga spetsifik oqsillarni DNKning transkripsiya boshlanadigan sohalariga bevosita yaqin joylashgan qismi bilan o'zaro ta'sirini ham oladi. Bunda transkripsiya jarayoni boshlanishi yoki to'xtab qolishi mumkin.

Pro- va eukariot hujayralarda 3 xil oqsillar topilgan:

1) **Konstitutiv oqsillar** organizmning yashash shart-sharoitlari dan qat'iy nazar hujayralarda doimiy miqdorda mavjud bo'ladi. Ular hujayralarning tirikligini ta'minlaydigan «uy xo'jaligi» oqsillaridir (masalan, glikoliz, biologik oksidlanish, ATP sintezi, membranalar va nuklein kislotalar sintezi fermentlari);

2) **Indutsirylanadigan oqsillarning** odatiy sharoitlarda miqdori kam bo'ladi, lekin hujayra ehtiyojiga qarab ularning miqdori 100 va undan ko'p barobar oshishi mumkin;

3) **Repressiyalanadigan oqsillarning** sintezi hujayraning bu oqsillarga ehtiyoji kamayganda ingibirlanadi.

Oqsillar sintezini boshqarishning eng keng tarqalgan mexanizmi transkripsiya tezligini regulyatsiya qilish bilan bog'liq bo'lib, u orqali gen ekspressiyasi darajasi belgilanadi.


4.2. Prokariotlarda genlar ekspressiyasining boshqarilishi

Prokariotlarda genlar ekspressiyasini boshqarishning bir nechta turi mavjud.

Operon nazariyasi. Fransua Jakob va Jak Mono tomonidan 1961-yili *E. coli* hujayralarida laktozani parchalovchi L-galaktozidazani induksiyasi bo'yicha olib borilgan genetik tadqiqotlar asosida yaratilgan. *E. coli* DNKsi boshqa prokariotlar kabi sitoplazmadan yadro qobig'i bilan ajralmagan. Transkripsiya jarayonida intron tutmaydigan birlamchi transkriptlar hosil bo'ladi, mRNKda esa «kep» va poli-A-uchlari yo'q. Oqsil sintezi uning mRNKsi sintezi tugamasdan turib boshlanadi, ya'ni transkripsiya va translyatsiya deyarli bir vaqtning o'zida kechadi. *E. coli* hujayrasining genomi 4×10^6 juft nukleotiddan tashkil topgan bo'lib, o'zida bir necha ming oqsillar

to'g'risidagi ma'lumotni saqlaydi. Lekin bakteriya o'ziga qulay muhitda o'sganida taxminan 600–800 turdag'i oqsillarni sintezlaydi, bunda uning ko'pchilik genlari transkripsiyanmaydi, ya'ni nofaol holatda bo'ladi. Metabolik yo'llarda funksiyalari o'zaro bog'liq bo'lgan oqsillarning genlari genomda ko'pincha birga joylashib struktur birliklar (**operonlar**) hosil qiladi. Jakob va Mono nazariyasiga ko'ra har bir operon DNA molekulasining bir bo'lagi bo'lib, u funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan struktur oqsillarning genlaridan va bu genlar transkripsiyasini nazorat qiluvchi reguluator qismdan iborat bo'ladi (4.2-rasm). Struktur genlarning transkripsiysi operonning 5'-uchida joylashgan promotorga RNA-polimerazaning birika olishiga bog'liq.

E.Coli hujayrasida Lac-operon ekspressiyasining boshqarilishi




4.2-rasm. *E.Coli* hujayrasida Lac-operon ekspressiyasining boshqarilishi

RNA-polimerazani promotorga bilan bog'lanishi promotorning yonidagi «operator» deb ataluvchi qismida repressor-oqsilning mavjudligiga bog'liq. Repressor-oqsil hujayrada doimiy bir xil tezlikda

sintezlanib turadi va operator bilan bog'lanishga moyil bo'ladi. Struktur jihatdan promotor va operator qismlar bir-birini qisman qoplab turadi. Shuning uchun repressor-oqsilning operatorga birikishi RNA-polimerazani promotorga bog'lanishiga yo'l qo'ymaydi.

Operon nazariyasi bo'yicha bu holat quyidagicha tushuntiriladi. Muhitda induktor (laktoza) bo'limganda repressor-oqsil operator bilan bog'langan va RNA-polimeraza promotorga birika olmaydi, struktur genlarda transkripsiya kechmaydi. Muhitga induktor kiritilganda u repressor-oqsili bilan bog'lanib uning konformatsiyasini o'zgartiradi, natijada repressor-oqsilning operatorga moyilligi kamayadi, RNA-polimeraza esa bemalol promotorga birikib struktur genlar transkripsiyasini amalga oshiradi.

Oqsil sintezi repressiyasi. Triptofan va gistidinli operonlar. Bakterial hujayrada ferment miqdorining kamayishi bu fermentlar sintezini repressiya qilish yo'li bilan ham kechishi mumkin. Bunday boshqarilishning mohiyati quyidagicha: agar *E.coli* hujayralarini o'stirilayotgan muhitda azotning yagona manbayi ammoniy tuzi bo'lsa, bakteriya barcha azot tutuvchi moddalarni shu tuzdan sintezlashga majbur bo'ladi (4.3-rasm). Bunday hujayralar 20 xil aminokislotalarni sintezlovchi barcha fermentlarni tutishi kerak. Agar muhitga 1 aminokislottani, masalan gistidin yoki triptofan qo'shilsa, hujayra bu aminokislotalarni ammiak va ugleroddan sintezini ta'minlovchi fermentlarni ishlab chiqilishini to'xtatadi. Metabolik yo'llarning oxirgi mahsulotlari bilan fermentlar sintezini repressiyasi – oxirgi mahsulotlar bilan **repressiyalanish** deb nomlanadi. Bu holdisani quyidagicha izohlash mumkin: muhitda gistidin yoki triptofan bo'limganda boshqaruvchi repressor-oqsilning operatorga moyilligi bo'lmaydi va bu aminokislotalarning sintezida qatnashuvchi fermentlar sintezi bemalol kechadi. Muhitga gistidin («korepressor»ni) kiritilganda u repressor-oqsilga birikadi. Natijada repressor molekulasida konformatsion o'zgarishlar kuzatilib, repressor-oqsil va korepressor kompleksining operatorga moyilligi ortadi, operon transkripsiysi to'xtatiladi va fermentlar sintezi to'xtaydi.



4.3-rasm. Histidin sintezida ishtirok etuvchi fermentlar sintezining repressiyalanishi mexanizmi

Prokariotlarda oqsil sintezining induksiyasi va repressiyasi yashash muhitining o'zgarishiga moslashuvchanlikni va hujayraning imkoniyatlaridan samarali va tejamli foydalanishni ta'minlaydi, ya'ni fermentlar hujayraning ehtiyojiga qarab ishlab chiqilishi yoki ularning sintezi to'xtatilishi mumkin.

4.3. Eukariotlarda genlar ekspressiyasining boshqarilishi

Eukariot organizmlar prokariotlarga qaraganda ancha murakkab tuzilishga ega bo'lib, shunga mos ravishda ancha murakkab boshqarish mexanizmiga muhtoj bo'ladi. Inson organizmida 200 dan ortiq turli xil hujayralar mavjud bo'lib, ular tuzilishi va funksiyalari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. Shu bilan birga, DNKnini

o'rGANISHNING turli usullari yordamida shu narsa tasdiqlangan-ki, tananing deyarli barcha hujayralarining DNKsi miqdor va tuzilishi jihatdan bir xil (limfotsitlar bundan mustasno), ya'ni tananing barcha hujayralarida bir xil genom bo'ladi. Yuqori organizmlarning gaploid hujayrasida prokariotlar bilan solishtirganda DNKnинг miqdori sezilarli darajada oshadi: *E. coli* hujayrasi $4,2 \times 10^6$ juft nukleotid tutsa, odam organizmidagi bitta hujayrada $3,3 \times 10^9$ juft nukleotid bo'ladi. Eukariotlarda gen ekspressiyasi transkripsiya darajasida hamda yadroda RNKnинг protsessingi va mRNA stabilligi darajalarida boshqarilishi isbotlangan. Eukariotlarda genlarning ekspressiyasiga amplifikatsiya va genlarni qayta qurish ta'sir ko'rsatadi.

Sutemizuvchilar hujayralarida organizmning ichki va tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishini ta'minlaydigan adaptiv reguliyatsiya bilan bir qatorda, ba'zi genlarni turg'un repressiya qilish va boshqa genlarni esa barqaror depressiya qilish mexanizmlari mavjud (bu mexanizmlar hujayraning butun umri davomida saqlanishi va hatto ko'plab avlodlarida ham kuzatilishi mumkin). Turli hujayralarda euxromatin sohasiga har xildagi genlar to'g'ri keladi, ya'ni turli to'qimalarda xromatinning har xil qismlari transkripsiya qilinadi.

Geteroxromatin genlarining turg'un repressiyasi quyidagilar yordamida ta'minlanadi:

- geteroxromatinning yuqori darajada kondensirlangan holatda bo'lishi;
- DNKnинг 5'-CG-3' ketma-ketliklarida dezoksitsitidinning DNK-metilazalar ta'sirida metillanishi, bu modifikatsiya xromatinning konformatsiyasini keskin o'zgartirib, uning faol transkripsiyanishiga yo'l qo'ymaydi;
- giston oqsillar bilan bog'lanishi va nukleosomalarning hosil bo'lishi, ular ham o'z navbatida DNKnинг transkripcion faolligini kamaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, faol transkripsiya qilinayotgan genlarni o'z ichiga olgan euxromatin sohalari, tuzilishi jihatidan ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- ular DNKnинг boshqa sohalariga qaraganda DNK-azalar ta'siriga sezgirligi yuqoriroq;

- bu sohalarda DNK bilan bog'liq giston molekulalari modifitsirlangan: lizinning ε-aminoguruhi metillangan yoki atsetillangan bo'ladi; H2A va N2B gistonlardagi ayrim arginin va gistidin qoldiqlari ham metillangan bo'ladi. Ba'zi H2A molekulalari ubikvitin oqsili bilan mustahkam kompleks hosil qiladi. H1 gistonda serin qoldiqlari fosforillanadi. Bunday kovalent modifikatsiyalar natijasida gistonlarning umumiyligini musbat zaryadi kamayadi va nukleosomalarning DNKga moyilligi susayadi.

- «faol» xromatin sohalariga giston bo'limgan HMG-oqsillar (ingl. high-mobility group protein – yuqori mobillikka ega oqsillar) guruhi bog'lanadi. Ushbu oqsillar ko'p miqdorda musbat zaryadlangan aminokislota qoldiqlarini tutadi, DNK va gistonlarning o'zaro ta'sirini zaiflashtiradi va genlarning transkripsion faolligini oshiradi.

Hujayralarning xilma-xilligi va hujayrada kechadigan jarayonlarning murakkabligi ularni boshqarish mexanizmlarining ham turlari ko'p bo'lishini talab qiladi. Jarayonlarni boshqarish quyidagicha amalga oshiriladi:

- struktur genlar miqdorining o'zgartirish;
- xromosomalarda genlarning qayta qurilishi;
- genom turli sohalari transkripsiysi tezligini o'zgartirish;
- birlamchi transkriptlar posttranskripcion modifikatsiyasining xarakteri (alternativ splaysing, RNKnii tahrirlash, mRNA stabilligini o'zgarishi);
- translyatsiya darajasida (translyatsiya tezligini o'zgartirish);
- yangi sintezlangan polipeptid zanjirlarining posttranslyatsion modifikatsiyasi darajasida (oqsil molekulalarining yashash davomiyligidagi farqlar).

Strukturaviy genlar sonining o'zgarishi genlarning sonini ko'paytirish (amplifikatsiya) bilan namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat o'sha genlar mahsulotiga, xususan, giston oqsillari, tRNA va rRNA ga

talab ortganida kuzatilishi mumkin, chunki ularni kodlaydigan genlar umumiy genomning 20 %ini tashkil qiladi. Amplifikatsiya qilingan sohalar xromosomalda tandem (ketma-ket) joylashgan bo'lishi mumkin yoki ikkilangan mini-xromosomalarni (DNKnинг ekstraxromosomal fragmentlari) hosil qilishi mumkin. Bunday genlarga metallotione-inlarni (ularning asosida sintezlangan oqsillar og'ir metallarni bog'lab hujayralarni zaharlanishdan himoya qiladi), digidrofolatreduktaza va P-glikoprotein genlarini (bu gen asosida sintezlangan oqsil o'sma hujayralarining dorilarga turg'unligini ta'minlaydi) misol qilib keltirish mumkin.

Struktur genlar sonini boshqarishning yana bir shakli genetik materialning yo'qotilishi hisoblanadi: eritrotsitlarning yetilishi jarayonida retikulotsitlar yadrosining parchalanib ketishi yoki limfotsitlar yetilishi jarayonida plazmatik hujayralar hosil bo'lishi tufayli barcha genlarning yo'qolishi kuzatiladi.

Genlarni boshqarishning bir turi «genetik rekombinatsiya», ya'ni genlarni bir xromosomadan boshqasiga yoki bir xromosomaning ichida ko'chib o'tishi, genlarni o'zgargan xromosoma hosil qilib birlashishi bo'lib, bunday tarkibiy o'zgarishlardan so'ng ularni replikatsiya va transkripsiya qilishga imkon paydo bo'ladi.

Eukariotlarda rekombinatsiya quyidagi hollarda kuzatilishi mumkin:

- tuxum hujayra bilan spermatozoid birlashganida;
- tarkibida alohida genlar yoki genlar guruhini tutuvchi transpozonlarni (harakatlanuvchi genetik elementlarni) o'zining joyidan o'sha xromosomaning o'ziga yoki boshqa xromosomaga ko'chirishda;
- limfotsitlarda antitanachalar yoki immunoglobulinlarni kodlaydigan genlar «kutubxona»sining shakllanishida.

Inson organizmida 10 millionga yaqin turli antitanachalar hosil bo'ladi. B-limfotsitlarning har bir klon guruhi faqat bir turdag'i antigenni bog'lovchi bir xildagi antitanachalarni ishlab chiqaradi. Organizmga istalgan antigen tushganda organizmda mavjud B-limfotsitlar ichi-


dan antitanachalari aynan shu antigenga komplementar bo'lgan B-limfotsitlar kloni albatta topiladi. Antitanachalar B-limfotsit membranasiga bog'langan bo'lib, ularning aktiv markazi hujayra membranasi yuzasiga chiqib turadi. Organizmga antigen tushganida u o'ziga mos antitanachaning aktiv markazi bilan bog'lanib, B-limfotsitlarning proliferatsiyasi va plazmatik hujayraga aylanishini stimullaydi. Plazmatik hujayralar esa erkin holdagi antitanachalarni sintezlaydi va sekretsiya qiladi. B-limfotsitning o'zak hujayradan differensirovkasi paytida genetik materialning anchagini uzun bo'lagi kesib tashlanishi natijasida B_L - va C_L -sohalar bir-biriga yaqinlashib, immunoglobulinning (Ig) L-zanjirining yaxlit geni hosil bo'ladi. Genomdagi bunday qayta qurilish jarayoni somatik rekombinatsiya nomini olgan bo'lib, limfotsitlarning yetilishi bilan bog'liq va nasldan-naslga o'tmaydi.

L- va N-zanjirlarning tuzilishini kodlovchi gen fragmentlarining 3 xil oilasi aniqlangan. Shulardan ikki oila yengil zanjirlarning sinteziga javobgardir: 22-xromosomada λ tipidagi L-zanjirlarni kodlovchi segmentlar joylashgan, 2-xromosomada κ tipidagi L-zanjirlarning genetik materiali joylashgan, 14-xromosomada esa N-zanjirlar haqidagi barcha ma'lumotlar o'rinni olgan. Variabel (o'zgaruvchan) domenlarga kiruvchi polipeptid zanjirning turli qismlarini kodlovchi segmentlardan va konstant domen ekzonlarining bittasidan Ig ning og'ir va yengil zanjirlarining to'liq genlari yig'iladi. Agar L-zanjirlarning yig'ilishi bitta somatik rekombinatsiyani o'z ichiga olsa, N-zanjirlar yig'ilishi ikkita somatik rekombinatsiya yordamida amalga oshiriladi. B-limfotsitlar M sinfiga tegishli bo'limgan Ig larni sintez qilganda, yana bir qo'shimcha rekombinatsiya sodir bo'ladi. Shunday qilib, yetuk B-limfotsitlarda yuzaga keladigan somatik mutatsiyalar antitanachalarning xilma-xilligini aniqlaydi. T-limfotsitlarning differensirovkasi paytida ham shunga o'xshash jarayonlar kuzatiladi.

Sutemizuvchilarda turli genlarning ekspressiyasi turli vaqtarda va turli intensivlikda amalga oshiriladi. Eukariotlarda konstitutiv tarzda


transkripsiyanadigan (doimiy ravishda va barcha to'qimalarda: glikoliz genlari, RNKn sintezlovchi fermentlar va ba'zi boshqa oqsillarni sintezlovchi fermentlarning genlari) va faqat maxsus hujayralarda transkripsiyanadigan (to'qimaga xos ekspressiya) yoki adaptiv boshqariladigan (indutsibel) genlar aniqlangan. Gen ekspressiyasi promotorning TATA-qismiga TATA-bog'lovchi oqsil, transkripsiya omillari va RNK-polimeraza birikib initsirlovchi kompleks hosil qilsagina sodir bo'lishi mumkin (4.4-rasm). Bular bir yoki bir nechta domenga ega bo'lgan regulyator oqsillardir. Xususan, DNKn bog'laydigan domenlar regulyator omillarni DNK molekulasingin spetsifik joylarini tanib olishi va unga bog'lanishi uchun javobgardir; transkripsiyanı faollashtiradigan domenlar transkripsiya omillari, koaktivatorlar va RNK-polimeraza bilan bog'lanishni ta'minlaydi; anti-repressor domenlar DNKn transkripsiya qilinadigan joylarini ochib beradi; ligandlarni bog'laydigan domenlar konformatsiyani o'zgartirib, ularni DNK molekulasiiga bog'lanishini ta'minlaydi.

Steroid gormonlari, retinol, kalsitriol, tireoid gormonlari induktori-ligandlar vazifasini bajarsa, metabolizmning oxirgi mahsulotlari va boshqa gormonlar repressor-ligandlar sifatida xizmat qilishi mumkin. Konstitutiv genlarning ekspressiyasi transkripsiyanadigan genda 100–200 juft nukleotid uzoqlikda joylashgan maxsus sayt (boks) lar orqali amalga oshiriladi. Aynan konstitutiv ekspressiyalanadigan genlar spetsifik saytlarga muhtoj bo'lganligi uchun ham, ular hamma hujayralarda mavjud. DNK molekulasida adaptiv regulyatsiyada hujayralarda mavjud. DNK molekulasida adaptiv regulyatsiyada ishtirok etuvchi genlarda promotordan 1000 va undan ko'p juft nukleotidga uzoqlashgan sohalari aniqlangan. Ular 2 turga bo'linadi: enxanserlar va saylenserlar. Enxanserlar 10–20 juft nukleotiddan tashkil topgan DNK qismlari bo'lib, ularning regulyator oqsillar bilan ta'sirlashishi natijasida transkripsiya tezligi ortadi, saylenserlar ham DNKn qismlari bo'lib, ular aksincha, regulyator oqsillar bilan bog'langanda transkripsiyaning sekinlashishini ta'minlaydi.



4.4-rasm. Eukariotlarda transkripsiyaning boshqarilishi

Shu bilan birga, cis-elementlar ham mavjud bo‘lib, ular genlar guruhi uchun umumiyo bo‘lgan DNKnning regulyator ketma-ketliklaridir (4.5-rasm). Cis-elementlar promotordan 250 juft nukleotid yuqorida joylashgan. Bunda bitta induktoring o‘zi tegishli regulyator oqsil bilan bog‘lanib, ko‘plab turli genlarni faollashtiradi. Bu holatda, birinchi guruh genlarining oqsil mahsulotlari keyingi genlar guruhining induktori bo‘lib xizmat qilishi va javob reaksiyalarining ketma-ketligini belgilab berishi mumkin. Ularga steroid gormonlariga sezgir genlarni yoki issiqlik shoki oqsillari genlarini kiritish mumkin.



4.5-rasm. Bir induktor ta’sirida genlar guruhining faollanishi

Sutemizuvchilarda genlar ekspressiyasini boshqarish mexanizmlaridan biri posttranskription modifikatsiya hisoblanadi. U alternativ splaysing, RNKn tahrirlash va stabilligini o‘zgartirish ko‘rinishida kechishi mumkin. Alternativ splaysingning yorqin namunasasi sifatida antitanachalarning membrana bilan bog‘langan va sekretor shakllarining sintezini keltirish mumkin. B-limfotsitlar dastlab transkriptlarni sintezlaydi, ular ikkinchi stop-kodonidan keyin poliadenillanadi, bunda birinchi stop-kodonni tutuvchi intron yo‘qotiladi. Natijada membranaga bog‘langan IgM sintezlanadi. B-limfotsitlarni plazmatik hujayralarga aylanishi jarayonida birinchi stop-kodonning introni saqlanib qolgan mRNK hosil bo‘ladi, bu esa erta poliadenillanishni va molekulaning gidrofob qismini kodlovchi ekzonning yo‘qolib ketishini ta’minlaydi. Natijada antitanachalarning qisqartirilgan molekulalari sintezlanadi va qonga chiqariladi.

Transkripsiyanadan keyin mRNK birlamchi strukturasini o‘zgartirish (tahrirlash) holatlari aniqlangan. Bunday genlardagi nukleotidlari ketma-ketligi umuman olganda bir xil, lekin turli to‘qimalarda transkripsiyalanadigan mRNKLarda nukleotidlarni almashtirish, qo‘sishmcha nukleotid kiritish yoki qaysidir nukleotidni tushirib qoldirish natijasida farqlar paydo bo‘ladi. Masalan, apoprotein-Bning jigar (apo-B100) va ingichka ichak (apo-B48) hujayralarida hosil bo‘lishini keltirish mumkin. Apo-B100 o‘zida 4563 aminokislota qoldig‘ini tutadi, apo-B48 esa 2152 aminokislota qoldig‘idan iborat. Bu 2153-kodondagi sitozinning dezaminlanishi natijasida uratsilga aylanishi va mRNKnning translyasiyasini to‘xtatuvchi UAA stop-kodonini hosil bo‘lishi bilan bog‘liq, natijada qisqargan oqsil molekulasi sintezlanadi (apo-B48ning uzunligi jigarda sintezlangan oqsil uzunligining 48 %iga teng bo‘ladi).

Eukariot organizmlarda mRNKnning yarim yashash davri bir necha soatdan bir necha kungacha o‘zgarib turadi, bunda mRNKnning 3'-oxiridagi poli(A)-fragment molekulalarining yashash davrini uzaytiradi. Demak, mRNK molekulalarining stabilligi translyatsiya tezligiga ta’sir qiladi. Masalan, giston molekulalarining sintezi uchun kerak bo‘lgan mRNK ning stabilligi hujayra siklining fazasiga juda

bog'liq, ya'ni S-fazasida gistonlar doimiy ravishda sintezlanadi va yangi hosil bo'lgan DNKn nukleosomalarga joylashtirish uchun ishlataladi (bu davrda gistonlarning mRNKsi bir necha soat davomida stabil bo'ladi). Bu davrdan so'ng hujayralarda gistonlar oz miqdorda hosil bo'ladi, chunki ular nukleosomalar hosil qilish uchun talab qilinmaydi va shuning uchun ularning yarim yashash davri 10–15 minutni tashkil etadi.

Translyatsiya darajasida oqsillarni sintezlash tezligini o'zgartirish oqsillarning miqdori va xilma-xilligini boshqarishning asosiy usullaridan hisoblanmasada, lekin baribir ma'lum darajada ahamiyatga ega. Xususan, retikulotsitlarda oqsil sintezini boshqarish faqat translyatsiya darajasida amalga oshiriladi va hujayradagi gem miqdoriga bog'liq bo'ladi: gem miqdori oshganda, globin sintezi tezlashadi va aksincha. Bu initsiatsiya omili eLF2ning (nofaol shakl) fosforillanishi bilan bog'liq. Gemning yuqori konsentratsiyasi bu oqsilning fosforillanishiga yo'l qo'yaydi (faol shakl).

Oqsillarni mRNKnинг translyatsiya qilinmaydigan qismlariga bog'lanishi natijasida translyatsiyaning ingibirlanishi regulyasiyaning yana bir turi hisoblanadi. Xususan, temir konsentratsiyasi past bo'lganda ferritin mRNKnинг 5'-uchiga ferritinning kelib birikishi ferritinning translyatsiyasini sekinlashtiradi. Hujayradagi temir ionlarining konsentratsiyasi ortganida Fe^{3+} oqsil bilan o'zar o'sirlashib, uning konformatsiyasini va mRNKga moyilligini o'zgartiradi, bu mRNKn regulyator oqsildan ajralishiga olib keladi va ferritin sintezi boshlanadi.

Oqsilning yarim yashash davri proteazalar bilan boshqariladi. Hujayraning funksional holatiga qarab, oqsillarning yarim yashash davri bir necha soatdan bir necha oygacha yoki yilgacha bo'lishi mumkin. Xususan, metabolik yo'llarning regulyator reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar tez parchalanishga uchraydi, ularning yangilanish tezligi yuqori bo'ladi. Oqsillarning yashash davomiyligiga organizmning fiziologik holati, oqsil molekulasida nuqsonlarning mavjudligi ta'sir qiladi. Bundan tashqari, nuqsonli oqsillarni tezda parchalab tashlaydigan kuchli himoya tizimi mavjud. Oqsillarning

parchalanishi lizosomalarda autofagiya yo'li bilan sitoplasmada esa proteazalar ta'sirida amalga oshiriladi; bu jarayon ubikvitinlar ishtirokida kechadi.

4.4. Matritsali biosintetik jarayonlar ingibitorlari

Replikatsiya ingibitorlari o'smaga qarshi dori vositalari hisoblanadi. Irsiy axborotni uzatishning molekulyar asoslarini bilish farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga kuchli turki berdi. DNK, RNK yoki oqsillarning sintezini ingibirlovchi turli dorilar yaratildi. Ular yuqumli, autoimmun va o'sma kasalliklarini davolash uchun tibbiyotda keng qo'llaniladi. Ularning ishslash prinsipi matritsalar – DNK va RNK, oqsil sintezlash apparatini o'zgartirishga yoki fermentlarni inaktivatsiya qilishga asoslangan. Ular orasida yetakchi o'rinni antibiotiklar, ya'ni mikroorganizmlar tomonidan sintezlanadigan kimyoviy tuzilishi turli xil bo'lgan organik birikmalar egallaydi. Bu moddalar kichik konsentratsiyada boshqa mikroorganizmlarga tanlab toksik ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega.

Antibiotiklarning ta'sir mexanizmiga qarab, ular quyidagi guruh-larga bo'linishi mumkin: interkalirlovchi preparatlar, alkillovchi agentlar, DNK-topoizomeraza II ingibitorlari, bakteriyalar hujayra devori oqsillari strukturasini buzuvchi transkripsiya va translyatsiya ingibitorlari. Eukariot va prokariot hujayralardagi RNK-polimerazalar, RNK va ribosoma oqsillari tuzilishida ma'lum farqlar borligi uchun antibakterial dorilar tanlab ta'sir qiladi va inson organizmi uchun toksik ta'siri nisbatan kam bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, viruslarning genetik materiallari kichik DNK yoki RNK molekulasidan iborat bo'lib, faqat virusni ko'paytirish uchun zarur bo'lgan ayrim spetsifik oqsillar va fermentlar haqida ma'lumot tutadi. Virus makroorganizm hujayrasiga kirgandan so'ng, yuqori tezlik bilan virusning DNK, RNK va oqsillari sintezi boshlanib ketadi, bunda ularning sintezi uchun virus makroorganizm hujayrasining fermentlari, oqsillari va energiya manbalaridan foydalananadi. Bunda infitsirlangan hujayralarda makroorganizmning o'zining nuklein kislotalari va oqsillari sintezi to'xtaydi. Virus

zarrachalarining ko‘payishi infitsirlangan hujayraning nobud bo‘lishiga qadar davom etadi.

Matritsa funksiyasini buzadigan antibiotiklar. Ushbu antibiotiklar DNK bilan ta’sirlashib, uning matritsalik funksiyasini buzadi, replikatsiya va transkriptsiya jarayonlarini to‘xtatadi. Ular asosan xavfli o‘smalarni davolash uchun ishlataladi, shuning uchun bunday antibiotiklarni o‘smaga qarshi preparatlar deb ataladi. Ulardan daunomitsin, doksorubitsin va shu kabi antibiotiklar keng qo‘llaniladi. Ushbu antibiotiklarning o‘ziga xos siklik tuzilishi ularga DNA molekulasi bilan ta’sirlashish imkonini beradi, ular G≡S asoslar juftligi orasiga kirib oladi («interkalirlanadi»). Bu esa, ushbu azot asoslarining uglevod komponenti DNKnинг kichik egatchasini egallashiga va natijada DNKnинг strukturasini lokal o‘zgarishiga hamda replikatsiya va transkriptsiyaning ingibirlanishiga olib keladi. Bu guruhga, shuningdek, aktinomitsin D ham mansub bo‘lib, u prov-a eukariotlarda DNA va RNK sintezini bloklaydi.

O‘smaga qarshi antibiotiklar yuqori selektiv ta’sirga ega emas. Ularning tanlab ta’sir qilishi asosan o‘sma hujayralarining DNA va RNKsi sintezining yuqori tezlikda bo‘lishi va o‘sma hujayralari membranalarining o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu dorilar, shuningdek, organizmning tez bo‘linib ko‘payadigan normal hujayralariga ham toksik ta’sir ko‘rsatadi (gemopoetik tizimning o‘zak hujayralari, oshqozon va ichak shilliq qavati hujayralari, soch follikulalari zararlanadi). Shuning uchun o‘sma hujayralari yuzasidagi retseptorlar bilan bog‘lana oladigan oqsillarga biriktirilgan o‘smaga qarshi preparatlar yaratilmoqda (4.2-jadval).

4.2-jadval

Antibiotiklar va ularning ta’sir mexanizmlari	
Antibiotiklar	Ta’sir mexanizmi
<i>Replikatsiya ingibitorlari</i>	
Daunomitsin Doksorubitsin Aktinomitsin D	DNK asoslari juftligi orasiga kirib olib (interkalirlanib), replikatsiya va transkriptsiyani to‘xtatadi

Melfalan	DNKn alkillab replikatsiyani to‘xtatadi
Nomermitsin Novobiotsin	DNKn ning superspiralizatsiyasiga javob beruvchi DNK-topoizomeraza II ni ingibirlab, replikatsiya va transkriptsiyani to‘xtatadi
<i>Transkriptsiya ingibitorlari</i>	
Rifamitsinlar	Bakteriyaning RNK-polimerazasi bilan bog‘lanib transkriptsiyaning boshlanishiga to‘sqinlik qiladi
<i>Translyatsiya ingibitorlari</i>	
Tetratsiklinlar	Elongatsiyani ingibirlaydi: ribosomaning 30S-subbirligi bilan bog‘lanadi va aa-tRNKnинг A-markazga birikishini bloklaydi
Levomitsetin	Ribosomaning 50S-subbirligiga bog‘lanadi va peptidiltransferaza faolligini ingibirlaydi
Eritromitsin	Ribosomaning 50S-subbirligiga bog‘lanadi va translokatsiyani ingibirlaydi
Streptomitsin	Translyatsiya initsiatsiyasini ingibirlaydi: ribosomaning 30S-subbirligi bilan bog‘lanadi, mRNKda kodlangan axborotni o‘qishda xatoliklar chaqiradi

Replikatsiya va transkriptsiyani ingibirlovchi dorilar mavjud. Ular orasida alkillovchi agentlar va DNK-topoizomeraza II ingibitorlari (DNK-girazalar ingibitorlari), masalan, nalidiks kislotasi, novobiotsin va nomermitsin mavjud. Matritsali sintetik jarayonlar ingibitorlari antibakterial ta’sir ko‘rsatishi mumkin, masalan, sil kasalligini davolashda rifampitsin keng qo‘llaniladi. Ular faqat bakterial DNAga bog‘liq RNK-polimerazani ingibirlaydi. Ularning ta’sir mexanizmi fermentning β -subbirligi bilan bog‘liq bo‘lib, transkriptsiyaning initsiatsiyasiga to‘sqinlik qiladi va eukariot hujayralarning yadroviy RNK-polimerazalari ishiga ta’sir qilmaydi.

Translyatsiya ingibitorlari tetratsiklinlar, eritromitsin, puromitsin, xloramfenikol va aminoglikozidlar kabi antibiotiklarni o‘z ichiga oladi. Aminoglikozidlarga mansub bo‘lgan streptomitsin prokariotlarda oqsil sintezi initsiatsiyasini ingibirlaydi va mRNKda kodlangan ma’lumotni o‘qishda xatoliklar keltirib chiqaradi, shuning uchun yurakning yuqumli kasalliklari (karditlar)ni davolashda keng qo‘llaniladi. Tetratsiklinlar keng ta’sir spektriga ega bo‘lib, ribosomaning 30S-subbirligi bilan bog‘lanadi, bu esa ribosomaning

A-markaziga aminoatsil-tRNKnинг бирікшіні блоклады, яғни полипептид зәнжирнің елонгациясы бүзілді. Levomitsetin (xloramfenikол) ham көнг спектрли antibiotiklarga mansub bo‘lib, uning ta’sir mexanizmi ribosomaning 50S-subbirligiga bog‘liq va peptidiltransferaza faoliyatini bloklaydi.

β-laktam antibiotiklari guruhiга penitsillin va sefalosporinlar kiradi, ularning ta’sir mexanizmi gram-manfiy mikroorganizmlarda hujayra devorlarining sintezini ingibirlash bilan bog‘liq. Replikatsiya va transkripsiya ingibitorlaridan farqli o‘laroq, antibakterial dorilarning selektivligi yuqoriroq va odam uchun toksikligi kamroq bo‘ladi. Bu holat eukariot va prokariot hujayralardagi RNK-polimerazalar, RNK va ribosoma oqsillarining tuzilishidagi farqlar bilan bog‘liq.

Viruslar. Viruslar DNK va RNK tutuvchi viruslarga bo‘linadi. Ularning genomi kichik bo‘lib, virusni reproduksiya qilish uchun zarur bo‘lgan spetsifik oqsillar va fermentlar haqidagi ma’lumotni saqlaydi. Virus makroorganizm hujayrasini infitsirlashi bilan virusning spetsifik DNK, RNK va oqsillari katta tezlikda sintezlana boshlaydi, bu jarayonda infitsirlangan hujayraning ferment va oqsillari, substratlari va energiya manbalari sarflanadi. Bu jarayon infitsirlangan hujayraning nobud bo‘lishigacha davom etadi.

Toksinlar. Ularga, masalan, *Amanita phalloides*ning (qurbaqa sallasi qo‘ziqorini) osamanitin toksinini, oddiy kanakunjutdan olingan ritsin oqsilini misol qilib keltirish mumkin. Inson uchun α-amanitinning toksikligi eukariotlarning RNK-polimerazini, ayniqsa RNK-polimeraza II ni ingibirlashi bilan bog‘liq. Ritsinning ta’siri N-glikozilazaning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, u ribosoma katta subbirligining 28S rRNKsidan bitta adenin qoldig‘ini olib tashlaydi va eukariotlarda oqsil sintezini ingibirlaydi. Difteriya kasalligi qo‘zg‘atuvchisi *Corynebacterium diphtheriae*ning enterotoksini tomoq va hiqildoq shilliq qavati hujayralarda oqsil sintezini ingibirlaydi. Makroorganizm hujayralari sitoplazmasida proteolitik fermentlar ta’sirida toksin 2 qismga bo‘linadi, ulardan biri ADF-riboziltransferaza fermenti bo‘lib, elongatsiya omili EF-2ni inaktivatsiya qiladi. Bu ribosomalarning translokatsiyasini buzadi, infitsirlangan hujayralarda

oqsillar biosintezini to‘xtatib, ularning nobud bo‘lishiga olib keladi va difteriya kasalligining asosiy simptomlarini belgilab beradi.

Interferonlar — kichik oqsillar (glikoproteinlar) bo‘lib, taxminan 160 aminokislota qoldig‘idan iboratdir. Interferonlarni umurtqali organizmlarning hujayralari virus bilan infitsirlanishga javoban juda oz miqdorda sintezlaydi (10^9 g yoki nanogrammlardan 10^{-12} g yoki pikogrammlargacha). Interferonlar virusli infeksiyaning boshqa sog‘ hujayralarga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaydi. 1 mg oqsilga 10^6 – 10^9 birlik antivirus aktivligi konsentratsiyasida juda yuqori nospetsifik antivirus faollikka ega bo‘ladi.

Odamlarda B-limfotsitlar va makrofaglar tomonidan α-interferonlar sintezlanadi, ular haqidagi axborot 14 ta genda kodlangan. Fibroblastlar β-interferonlarni sintezlaydi, ular 5 ta genda kodlangan γ-interferonlarni ekspressiya qiladi. Interferonlar infitsirlangan hujayralarning plazmatik membranasi yuzasidagi retseptorlar bilan bog‘lanib, viruslarning mRNKhini parchalay oladigan va ribosomalarda oqsil sintezini to‘xtata oladigan fermentlar sintezini stimullaydi, ya‘ni eukariot hujayrada virus genlarining ekspressiyalanishiga qarshilik qiladi.

Interferonlarning ta’sir mexanizmi quyidagilar bilan bog‘liq:
1) viruslarning replikatsiyalanishi uchun zarur bo‘lgan oqsil sintezini ingibirlash; 2) ribonukleazaning aktivatori bo‘lgan qisqa oligoadenilatlarning ishlab chiqarilishini katalizlovchi oligonukleotid-polymeraza fermentining sintezini stimullah; 3) proteinkinaza sintezini stimullah, uning fosforillangan shakli EIF2 initsiatsiya omilini inaktivlaydi.

Interferonlar ta’siri natijasida infitsirlangan hujayralarda barcha oqsillar sintezi to‘xtaydi. Hujayralar nobud bo‘ladi, lekin ular bilan birga viruslarning ko‘payishi to‘xtaydi va tuzalish jarayoni boshlanadi. Shunday qilib, ko‘p bo‘lмаган miqdordagi hujayralarni qurbon qilib, organizm o‘zini kasallikdan himoya qiladi. Hozirgi vaqtدا interferonlar gen texnologiyasidan foydalangan holda sanoat miyosida ishlab chiqariladi. Ular o‘tkir respirator virusli infeksiyalar, poliomielit, suvchechak, herpes, virusli gepatit va boshqa infeksion kasalliklarni, shuningdek gemoblastozlarni davolash uchun ishlatalidi.

5-bob.

GENETIK O'ZGARUVCHANLIKNING MOLEKULYAR MEXANIZMLARI

5.1. Mutagenez

Replikatsiya, transkripsiya va translyatsiya jarayonlarining aniq ishlashi genomning nusxasini ko'chirib olish va organizmning fenotipik xususiyatlarini avlodlarga, ya'ni nasldan-naslga o'tkazishni ta'minlaydi. Biroq, biologik evolyutsiya va tabiiy tanlanish faqat genetik o'zgaruvchanlik mavjud bo'lgandagina sodir bo'lishi mumkin. Shunday qilib, genomda tashqi va ichki omillar ta'siri ostida doimiy ravishda turli o'zgarishlar sodir bo'lib turadi, bu o'zgarishlardan ayrimlari reparatsiya mexanizmlarining samarali ishlashiga qaramasdan DNK molekulasiда saqlanib qolishi mumkin. Gendagi reparatsiya fermentlari tomonidan tuzatilmay qolgan purin yoki pirimidin asoslari ketma-ketligidagi o'zgarishlar "mutatsiyalar" deb nomlangan. Mutatsiyalar ham somatik hujayralarda paydo bo'lishi va ham jinsiy hujayralarda kuzatilishi mumkin, nasldan-naslga o'tishi va irlsiy kasallik sifatida keyingi avlodning fenotipida namoyon bo'lishi mumkin.

Genetik o'zgaruvchanlik eukariotlarda, asosan, spermatozoid bilan tuxum hujayrani birlashishidagi meyoz jarayonida xromosomalarning qayta qurilishi hisobiga bo'ladi. Bu genetik rekombinatsiyalar bilan birga kechadi, ya'ni gomologik xromosomalor orasida DNK qismlari almashinadi, natijada avlodlarda genlarning yangi kombinatsiyasi yuzaga keladi. DNKning ko'chib o'tuvchi fragmentlari DNK-transpozonlar (bir xromosomaning lokusidan ajralib chiqib, o'sha xromosomaning boshqa joyiga yoki boshqa xromosomaga ko'chib o'tib joylashadigan DNK qismlari) va retrotranspozonlar (ular DNK molekulasidagidastlabki joyini tark etmaydi, ularning faqat

nusxalari yangi joyga ko'chirib joylashtiriladi) deb ataladi. Genlar yoki genlar yaqinidagi joylarga qo'shilib kirgan transpozonlar va retrotranspozonlar mutatsiyalarga olib kelishi va ularning ekspressiyasini o'zgartirishi mumkin. Masalan, bu holat DNK yoki RNK tutuvchi viruslar bilan infitsirlanishda sodir bo'ladi, viruslar o'zining genetik materialini infitsirlangan hujayralarning DNKhiga kiritadi.

Genomdagi o'zgarishlar juda xilma-xildir va ular xromosomalardan hamda genlardagi DNKning turli qismlaridan tortib alohida nukleotidlarga bo'lgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi (5.1-jadval).

5.1-jadval

Mutatsiyalar tasnifi		
Mutatsiya turi	Mutatsion o'zgarishlar xarakteri	Mutatsiya oqibatiga misollar
Genom darajasidagi mutatsiya	Xromosomalar sonining o'zgarishi	Daun kasalligi (qo'shimcha xromosomaning paydo bo'lishi)
Xromosoma darjasidagi mutatsiya	Xromosomalarning umumiy miqdori o'zgarmaydi. Xromosomalarning qayta qurilishi kuzatiladi, odatda, bunday qayta qurilish mikroskopik tekshiruvda ko'rindi	Dyushenn mushak distrofiyasi (X-xromosoma deletsiyasi)
Gen mutatsiyalari	O'zgarishlar bitta kodon darajasida yoki genning kichik bo'lagi darajasida bo'lishi mumkin va sitogenetik usul yordamida aniqlab bo'lmaydi	O'roqsimon-hujayrali anemiya, globinning β -zanjirining genidagi bitta nukleotidning almashinib qolishi natijasida kelib chiqadi

Gen va xromosoma mutatsiyalari ko'pincha somatik hujayralar darajasida kuzatiladi va fenotipik xilma-xillik shaklida namoyon bo'ladi. Agar bunday mutatsiyalar jinsiy hujayralarda yuzaga kelsa, bu jinsiy hujayradan rivojlanadigan organizm uchun letal oqibatga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, jinsiy hujayralardagi mutatsiyalar darajasi ancha yuqori bo'ladi; ma'lumotlarga ko'ra, 20%

homiladorlik holatlarida embrionlarda xromosomalar strukturasining buzilishi kuzatiladi. Xromosomalar strukturasi buzilgan embrionlarning 90% qismida gestatsiyaning birinchi uch oyligida homila rivojlanishi buzilib, spontan abort bilan tugaydi. Qolgan 10% hollarda homila turli nuqsonlar bilan tug'ilib, shulardan yarmi autosom xromosomalar trisomiyasiga (masalan, 21-xromosoma 3 nusxada mavjud bo'ladigan Daun kasalligi) to'g'ri keladi.

Ba'zi gen mutatsiyalari populyatsiya orasida keng tarqalib mustahkam joylashib oladi va evolyutsion jarayonlarni belgilab beradi. Bu shikastlangan gen tomonidan kodlangan oqsil sintezining to'xtashi yoki o'zgargan oqsil sintezlanishi bilan namoyon bo'ladi va irsiy xarakterga ega bo'ladi. Gen (nuqtaviy) mutatsiyalar 3 turda bo'ladi: 1) DNKda bir azotli asosning boshqasiga almashinishi; 2) DNK molekulasiaga bir yoki bir nechta qo'shimcha nukleotidlarning kiritilishi; 3) DNK molekulasing qisqarishi bilan kechadigan bir yoki bir nechta nukleotidlarning yo'qotilishi. Bir aminokislotali bir nechta triplet kodonlar kodlashi mumkin, bunda bu kodonlar o'zaro uchinchi aminokislotsi bilan farqlanadi, shundan kelib chiqib, agar o'zgargan nukleotidni tutuvchi triplet kodon kodlaydigan aminokislota o'zgarmay qolsa, unda bunday mutatsiya "sukut saqlovchi" ("saylens") mutatsiya deb ataladi va genning oqsil mahsuloti o'zgarmay qoladi. Agar bir azot asosining o'zgarishi natijasida kodon boshqa aminokislotali kodlaydigan bo'lib qolsa, bunday mutatsiyaga "missens mutatsiya" deyiladi va bu gen mutant oqsil sintezlanishiga olib keladi. Masalan, serin kodonidagi nuqtali mutatsiya natijasida serin proteazalari (tripsin, ximotripsin va boshqa fermentlar)ning aktiv markazlari o'z faolligini to'liq yo'qotadi. Nonsens mutatsiyalar nisbatan kuchliroq zararli ta'sirga ega bo'lib, ular stop-kodonlardan birining hosil bo'lishiga olib keladi. Natijada oqsil sintezi jarayonida ribosomaning ishi mRNK mutant tripletiga kelganda to'xtab qoladi: UAA, UAG, UGA. Nonsens mutatsiyalarning namoyon bo'lishi ularning gen ichida joylashuviga bog'liq: mutatsiya genning 5'-uchiga qanchalik yaqin bo'lsa, uning oqsil mahsuloti shunchalik qisqa va biologik faolligi shunchalik past bo'ladi.

Nukleotidlarning qo'shilishi yoki ajralishi natijasidagi mutatsiyalar hujayralarda ko'p uchraydi va nisbatan xavfli hisoblanadi. Agar mutatsiya bir nukleotid juftining yoki 3 yoinki uchga karrali bo'lmagan miqdordagi monomerlarni tutuvchi ikki zanjirli DNK molekulasi qismining genga kirib o'rnashishi yoki gandan uzilib chiqib ketishi bilan sodir bo'lgan bo'lsa, unda mutatsiya joyidan keyingi barcha kodonlarning o'qilishi o'zgaradi va bu kodonlar endilikda oqsildagi aminokislotalar ketma-ketligiga mos kelmay qoladi. Tripletlarni o'qishdagi bunday o'zgarishlar ko'pincha ichki stop-kodonlarning paydo bo'lishiga olib keladi va natijada polipeptid zanjirining sintezi vaqtidan avval yakunlanib, biologik faollikka ega bo'lmagan va qisqartirilgan mahsulotning shakllanishi bilan tugaydi. Bunday siljishlar matritsali biosintetik jarayonlar ingibitorlari (interkalyatorlar) ta'sirida kelib chiqadi. Bunday o'zgargan DNK zanjirining replikatsiyasi jarayonida "interkalirlangan" molekula bilan noto'g'ri juftlash natijasida qo'shimcha nukleotid kelib o'rnashishi mumkin.

Kam hollarda 3 yoki uchga karrali bo'lgan miqdordagi nukleotidlardan tashkil topgan oligodezoksinukleotid DNKga kelib qo'shiladi yoki chiqib ketadi. Bunday mutatsiyalar o'zidan keyingi kodonlarining o'qilish tartibini buzmaydi. Hosil bo'ladigan oqsil mahsulotida mutatsiya sohasiga mos joyda qaysidir bitta yoki bir nechta aminokislotalar tushib qolgan bo'ladi yoki, aksincha, qo'shimcha bir yoki bir nechta aminokislotalar paydo bo'lib qoladi, lekin qolgan aminokislotalar ketma-ketligi asl molekulaga mos keladi. Bunday mutatsiyalar katta zarar yetkazmaydi.

Inson strukturaviy lokuslarida mutatsiyalar yuzaga kelishining o'rtacha chastotasi har bir avlodda bir gametaga 10^{-5} dan 10^{-6} gacha oraliqda o'zgarib turadi. Shuni aytish kerakki, bu ko'rsatkich turli genlar uchun katta chegaralarda farq qilishi mumkin. Bu mutatsion zararlanish tabiatи, mutatsiyaning paydo bo'lish mexanizmi, mutant gen kodlovchi qismining uzunligi, bu genda kodlangan oqsil vazifalari bilan bog'liq. Biroq, insoniyat bunday mutatsion yuklama bilan kurasha oladi, chunki genlarning kodlovchi qismlari genomning

10% dan ortiq bo'lmagan ulushini tashkil qiladi, kodlamaydigan qolgan asosiy qismdag'i mutatsiyalar esa unchalik xavfli emas. Boshqa tomondan, kodlovchi qismdag'i har qanday mutatsiya ham fenotipik namoyon bo'lavermaydi, chunki ularning ko'pchiligi kodonlarning 3-pozitsiyasidagi nukleotidga to'g'ri keladi va shuning uchun "sukut saqlovchi" mutatsiyalar hisoblanadi, ba'zilari esa oqsillarning funksional aktivligi uchun ahamiyatsiz bo'lgan domenlarda joylashgan bo'ladi. Nasldan-naslga faqat gametalarda sodir bo'ladigan mutatsiyalar o'tadi, ularning foizi esa katta emas.

Eukariot hujayralar genomni prokariotlarning genomiga qaraganda ancha ko'p DNK tutadi. Masalan, ichak tayoqchasi *E. coli* ning DNKsi $4,6 \times 10^6$ juft nukleotidni yoki 4 600 ga yaqin genni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, butun DNK muayyan vazifalarni bajaradi: oqsillar, rRNK, tRNK ni kodlaydi yoki gen mahsulotlari hosil bo'lishini boshqarishda ishtirok etadi.

Odamning 23 xromosomadan iborat gaploid to'plami $2,8 \times 10^9$ juft nukleotiddan iborat bo'lib, prokariotlar genomni o'lehamidan 1000 barobar katta hisoblanadi. D NKning bunday miqdori bir necha million genlarni shakllantirish uchun yetarlidir. Inson genomini sekvenirlash asosida olingan va 2001-yilda e'lon qilingan Xalqaro konsorsium ma'lumotlariga ko'ra, oqsil-kodlovchi genlar soni 31 780 taga teng, "Selera Genomiks" firmasining ma'lumotlariga ko'ra esa — 39 114 ta genden iborat.

Inson DNKsidagi nukleotidlari ketma-ketligida oqsillarni kodlaydigan (umumiyligi genomning 2% dan ko'p bo'lmagan qismi), RNKni kodlaydigan (genomning taxminan 20% qismi) va takrorlanadigan ketma-ketliklar (umumiyligi genomning 50% dan ko'proq qismi) bo'ladi. "Ortiqcha" D NKning vazifalari to'liq o'r ganilgan emas, olimlarning fikriga ko'ra, bu "ortiqcha" qismlar genlar ekspressiyasini va RNK protsessingini boshqarishda ishtirok etadi, struktur vazifani bajaradi, meyoz jarayonida gomologik juftlashish va xromosomalar rekombinatsiyasi aniqligini oshiradi, muvaffaqiyatli replikatsiyaga xizmat qiladi. Ushbu "ortiqcha" D NKning aksariyat qismi RNKning teskari transkripsiysi natijasida va harakatlanuvchi elementlarning mavjudligi hisobiga yuzaga kelgan.


"Ortiqcha" D NK fraksiyasida 2 tadan 10 tagacha nukleotid juftlaridan iborat nisbatan qisqa ketma-ketliklar farqlanib, ular millionlab marta takrorlanadi va "satellit D NK" deb ataladi. ular insonning jami genomining taxminan 10 %ini tashkil qiladi, hujayraning genetik materialida tarqoqjoylashadi, va asosan, ko'pchilik xromosomalarning sentromer va telomer sohalarida bo'ladi. Shuningdek, o'rtacha darajada takrorlanadigan D NK ketma-ketliklari ham mavjud bo'lib, o'lchami va takrorlanish soni anchagina keng chegarada o'zgarishi mumkin, odam genomining 30 %dan ko'proq qismini tashkil qiladi va rRNK, tRNK va ayrim mRNK tuzilishini kodlaydi, masalan, giston genlarini misol qilib keltirish mumkin. O'rtacha takrorlanadigan D NK ketma-ketliklari transkripsiyanmaydigan sohalarni ham o'z ichiga oladi, ammo bu joylar genlar ekspressiyasini boshqarishda ishtirok etadi (promotorlar va enhancerlar). D NKning noyob ketma-ketliklari genomda bir yoki bir nechta nusxada mavjud bo'ladi va turli oqsillar haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan mRNK hosil qilib transkripsiyanadi.

Odatda, odamning bir geni taxminan 28 000 nukleotiddan iborat bo'ladi va o'rtacha 8 ta ekzon tutadi, uning kodlovchi ketma-ketligi 1 340 juft nukleotiddan iborat bo'lib, 447 ta aminokislota qoldig'ini saqlaydigan oqsilni kodlaydi. Eng yirik gen $2,4 \times 10^6$ juft nukleotiddan tashkil topgan distrofin mushak oqsilining geni bo'lsa, eng ko'p ekzon (234 ta) tutuvchi gen – skelet mushaklarining passiv elastikligi uchun javobgar bo'lgan titin fibrillyar oqsilining genidir. D NKning noyob ketma-ketliklari, shuningdek, multigen oilalarni tashkil qilishi mumkin. Ular bir yoki bir nechta xromosomalarning muayyan hududlarida klasterlar ko'rinishida joylashadi, masalan, ribosomal, transport va kichik yadroviy RNKlar genlari, α - va β -globinlarning genlari, tubulinlar, mioglobin, aktin, transferrin genlari va boshqa ko'plab genlar.

Funksional faol multigenlar bilan bir qatorda mutatsion o'zgargan ketma-ketliklardan iborat bo'lgan psevdogenlar ham mavjud. Ular transkripsiyanish xususiyatiga ega emas. Bu o'ziga xos ketma-ketliklar tuzilishi jihatdan muayyan genlarga juda o'xshab ketadi va har xil xromosomalarda joylashishi mumkin.

5.2. Oqsillar polimorfizmi

Odam normal hujayralarining ko‘pchiligi diploiddir, chunki ularda har bir xromosomaning 2 nusxasi bor (biri otadan, ikkinchisi onadan o‘tgan). Aynan bir xromosomaning 2 nusxasini **gomologik xromosomalar** deb ataladi (5.1-rasm), ularning har birida mingdan ortiq gen mavjud. Gomologik xromosomalardagi bir-biriga mos keladigan genlar **allel genlar** deb ataladi. Allellar bir-biriga aynan o‘xhash va bir xil nukleotidlardan ketma-ketligidan iborat bo‘lsa, individ o‘sha allel genlar belgisi bo‘yicha gomozigot bo‘ladi, agar allellar o‘zaro farq qilsa, demak gen geterozigot irlisylangan bo‘ladi. Bu holda individ bir genning aminokislotalar ketma-ketligi o‘zaro farqlanuvchi 2 oqsil mahsulotiga ega bo‘ladi.




5.1 rasm. Gomologik xromosomaning sxematik tasviri

Insonda har bir genning faqat 2 har xil alleli bo‘lishi mumkin, lekin odamlar populyatsiyasi miqyosida olganda istalgan genning ko‘plab turli allellari uchrashi mumkin. Agar meyoz paytidagi rekombinatsiya jarayonida DNKnинг gendaн ko‘ra kichikroq bo‘lakchasingin almashinishi sodir bo‘lsa, unda bu jarayon yangi allellarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Genlarning kodlovchi qismlarida mutatsiyadan ko‘ra rekombinatsiya jarayoni tez-tez sodir bo‘lishini hisobga olsak, allellarning xilma-xilligi asosan rekombinatsiya bilan bog‘liq deb hisoblash mumkin. Populyatsiyada bitta genning 2 va undan ortiq allelining uchrashi “allelomorfizm”, yoki “polimorfizm”, ularning oqsil mahsulotlari esa “polimorflar”

deb ataladi. Populyatsiyada turli allellar turli chastotada uchraydi. Polimorflar qatoriga faqatgina aholi orasida uchrash chastotasi 1 % dan kam bo‘lmagan variantlar kiritiladi.

Evolyutsiya jarayonida alohida genlar o‘zining nusxalarini hosil qilib amplifikatsiyaga uchraydi, ularning tuzilishi va holati mutatsiyalar tufayli va nafaqat bir xromosoma ichida, balki xromosomalararo ko‘chib o‘tish hisobiga ham o‘zgarishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan, bu jarayon o‘zining asl nusxasiga o‘xshash bo‘lgan, lekin ma’lum xususiyatlari bilan farq qiluvchi va xromosomaning boshqa lokusini egallovchi yangi genlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bir organizm turi doirasida uchrab, aynan bir xil funksiyani bajaradigan qarindosh oqsil variantlari izooqsillar deyiladi. Masalan, odamda transkripsiya omillari va transkripcion aktivatorlarni kodlovchi 2000 ta gendaн 900 tasining oqsil mahsuloti “rux barmoqchalari”ni (koordinatsion bog‘lar hisobiga bir yoki ikki rux ionlari bilan bog‘langan oqsilning kichik bir bo‘lagi) tutuvchi oqsillar oilasiga mansub. Glyukozaning piruvatgacha parchalanishi jarayonidagi yagona oksidlanish reaksiyasini amalga oshiradigan glitseraldegid-3-fosfatdehidrogenaza fermentining 46 ta geni ma’lum. Evolyutsiya jarayonida bitta umumiy “ajdod” genidan yoki o‘tmishdosh gendaн kelib chiqqan qarindosh oqsillar oilalari aniqlangan, masalan, mioglobin geni va gemoglobin protomerlari; proteolitik fermentlar guruhi: tripsin, ximotripsin, elastaza, plazmin, trombin va ba’zi boshqa oqsillar va fermentlar.

Odam gemoglobinlari. Gemoglobin genlarining xilma-xilligi 16- va 11-xromosomalarda joylashgan o‘tmishdosh-genlarning evolusion o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, mos ravishda α - va β -globin genlari oilalari paydo bo‘lgan (5.2-rasm). Ontogenet jarayonida odamda gemoglobin (Hb)ning har xil turlari hosil bo‘ladi. Ular o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashishni ta’minladi: HbE — embrional gemoglobin, rivojlanishning dastlabki oyalarida embrionda sintezlanadi, HbF — fetal gemoglobin, homilaning keyingi rivojlanishini ta’minlaydi, HbA va HbA₂ katta odamlar tanasida kislorod tashishni amalga oshiradi. Ular tetramer bo‘lib, ikki turdagи polipeptid zanjirlardan iborat: HbA da α va β ($2\alpha 2\beta$), HbE da α va ϵ ($2\alpha 2\epsilon$), HbF da α va γ ($2\alpha 2\gamma$), HbA₂ da α va δ ($2\alpha 2\delta$).




5.2-rasm. Odamning turli gemoglobinlarining sintezlanishi

Izooqsillarni kodlaydigan va xromosomada turli lokuslarni egallagan genlar bilan bir qatorda, HbAning allel genlar mahsulotи bo‘lgan turli xillari aniqlangan. Masalan, HbS — HbAning bir varianti bo‘lib, HbAning β -zanjiridagi 6 holatdagi glutamat qoldig‘ini valinga almashinib qolishi tufayli kelib chiqqan. Dunyodagi barcha odamlarni HbA va HbS allellari bo‘yicha 3 genotipik jihatdan farq qiluvchi guruhga bo‘lish mumkin: AA, AS va SS. Ko‘pincha S allelga ega odamlarni Afrika va Osiyoning bezgak kasalligi tarqalgan hududlarida (35 % gacha) uchratish mumkin.

Qon guruhlari. Qon quyishda nomutanosiblikni yuzaga keltiradigan oqsillar polimorfizmi mavjud. Odamlar populyatsiyasida oligosaxarid sintezida ishtirok etuvchi glikozil-transferaza fermenti genining 3 allel varianti (A, B va 0) mavjud. U eritrotsitlar plazmatik membranasining tashqi yuzasida joylashgan bo‘lib, eritrotsitlarning antigenlik xususiyatini belgilab beradi. Fermentning A va B variantlari bir-biridan farqlanuvchi substrat spetsifikligiga ega: A variant oligosaxaridga N-atsetilgalaktozaminning birikishini ta’minlasa, B variant galaktozaning birikishini katalizlaydi. Ferment genining 0 varianti fermentativ faollikka ega bo‘lmagan oqsilni kodlaydi. Bu holat oligosaxaridlar strukturasining farq qilishiga sabab bo‘ladi (5.3-rasm). Odatda, eritrotsitlari yuzasida antigen mavjud bo‘lmagan I (0) qon guruhli odamlarning qon zardobida A va B antigenlarga qarshi antitanachalar bo‘ladi. Eritrotsitlari yuzasida A antigeni bo‘lgan II qon

guruhli odamlar zardobida B antigeniga qarshi (anti-B) antitanachalar bo‘ladi, III qon guruhidagi odamlarda esa eritrotsitlar yuzasida B antigeni bo‘lib, zardobida A antigeniga qarshi (anti-A) antitanachalar bo‘ladi (5.2-jadval). Qon zardobida anti-A va anti-B antitanachalari, odatda, yuqori titrlarda bo‘ladi va organizmga mos antigenlar tushganda komplement tizimi fermentlarini aktivlashtiradi.



Qon guruhi: 0

5.3-rasm. Qon guruhlarini belgilab beradigan oligosaxaridlar strukturasi

Qon quyish paytida donor va retsipyentning qoni o‘zaro ta’sirlashuvchi antigen va antitanachalarni tutmasligi kerak. Aks holda eritrotsitlar agglyutinatsiyasi sodir bo‘lib, ular komplement fermentlari va fagotsitlar tomonidan parchalab tashlanadi.

5.2-jadval

Qon guruhlari xarakteristikasi

Eritrotsit antigenlari	Yo‘q	A	B	AB
Genotip	00	AA yoki A0	BB yoki B0	AB
Qon zardobidagi antitanachalar	anti-A va anti-B	anti-B	anti-A	yo‘q
Qon guruhi	0 (I)	A (II)	B (III)	AB (IV)
Chastota (%)	45	40	10	5

AB (IV) qon guruhiga ega geterozigot odamlarning eritrotsitlarida A- va B-antigenlar mavjud bo‘lib, glikoziltransferazaning 2 varianti (A va B) mavjud, shuning uchun antitanachalar hosil bo‘lmaydi va ular “universal” retsipyentlar sifatida qaralishi mumkin. Lekin, faqat qon zardobining o‘ziga quyiladigan bo‘lsa, IV qon guruhiga ega

odamlarga boshqa qon guruhidagi zardobni quyish mumkin emas, chunki boshqa guruhdagi qon zardobida A va/yoki B antigenlariga qarshi antitanachalar bo‘ladi va ular retsipyent eritrotsitlarining agglyutinatsiyasiga sabab bo‘ladi. 0 (I) qon guruhiga ega bo‘lgan shaxslar, glikoziltransferazaning nofaol 0 varianti bo‘yicha gomozigot bo‘lib, ularning eritrotsitlari yuzasida antigen bo‘lmaydi. Bunday odamlar eritrotsitar massaning “universal” donorlaridir. Shu bilan birga, 0 (I) qon guruhidagi donorlarning qon zardobida A- va V-antigenlariga qarshi antitanachalar mavjud bo‘lib, ularning zardo-bini faqat 0 (I) qon guruhidagi retsipyentlargagina quyish mumkin.

Gisto-muvofiqlik asosiy kompleksining oqsillari va transplantatsion nomutanosiblik. Hujayraviy immun javobning shakllanishida T-limfotsitlar faqatgina hujayra membranasi glikoproteinlarining yaqinida joylashgan antigenlarni taniy oladi. Ushbu glikoproteinlar gisto-muvofiqlik asosiy kompleksining oqsillari (MNC oqsillari, major histocompatibility complex) deb ataladi. Ushbu oqsillarning 2 sinfi mavjud: I va II sinflar. I sinf MNS oqsillari yadrosi bor deyarli barcha hujayralarda topilgan, II sinf MNC oqsillari immun tizimi hujayralarida, ya’ni antigen-namoyish etuvchi B-hujayralar va T-xelperlarda bo‘ladi. MNS oqsillarini kodlovchi genlar oilasi 6-xromosomaning qisqa yelkasida joylashgan va DNKnинг 6000 juft nukleotid qoldig‘idan ko‘proq qismini egallaydi. Kompleksning genlari juda yuqori darajadagi polimorfizm bilan ajralib turadi va odam organizmidagi eng polimorf tizim hisoblanadi. Bu transplantatsion nomutanosiblikka sabab bo‘ladi, hujayraviy immunitetning reaksiya berishiga va transplantantni ko‘chib ketishiga olib keladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, turli oqsillarning polimorfizmi shu darajada yuqoriki, har bir insonning biokimyoviy jihatdan individualligi va betakrorligi haqida gapirishimiz mumkin.

5.3. Irsiy kasalliklar

Har bir genetik lokus ma’lum darajada o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Gen allellari 2 guruhga bo‘linadi: normal (“yovvoyi” tip) (gen funksiyasi buzilmagan) va mutant allellar (gen funksiyasi

buzilgan). Mutant allelning oqsil mahsuloti normal funksiya bajara olmaydi va gomozigot nasllanishda irsiy kasallik sifatida fenotipik namoyon bo‘ladi. Irsiy kasalliklar gameta yoki zigotada sodir bo‘lgan mutatsiyalar natijasidir. Ular birlamchi (gametalarda yoki zigotaning shakllanishi jarayonida paydo bo‘lgan) yoki ikkilamchi (mutant gen ilgariroq paydo bo‘lgan va keyingi avlodga o‘tgan) bo‘lishi mumkin. Birlamchi mutatsiyalar, odatda, kasallik rivojlanishiga olib kelmaydi, chunki ular ko‘pincha xromosomalardan birida sodir bo‘ladi va bunday mutatsiyani olgan shaxs zararlangan genning geterozigot tashuvchisiga aylanadi. Geterozigot holatda mutant gen ko‘pincha kasallik sifatida namoyon bo‘lmaydi, lekin uning populyatsiyada tarqalishiga imkoniyat paydo bo‘ladi. Ikkilamchi mutatsiyalarda, agar ota-onalarning har biri mutant genning tashuvchisi bo‘lsa, ushbu allel bo‘yicha gomozigot bolalar tug‘ilishi mumkin. Bunday holda irsiy kasallik rivojlanadi va ko‘pincha juda og‘ir kechadi.

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi barcha chaqaloqlarning 2,4 %’i irsiy kasallik bilan tug‘iladi, ularning 40 %’i erta chaqaloqlik davrida nobud bo‘ladi yoki nogiron bo‘lib qoladi. Inson xromosomalarida 800 ga yaqin genlardagi mutatsiyalar turli irsiy kasalliklarga olib kelishi aniqlangan. Monogen (ya’ni, ma’lum bir gendagi mutatsiya tufayli kelib chiqqan) kasalliklar soni taxminan 950 ta (bunda, bir gendagi har xil mutatsiyalar klinik jihatdan farq qiladigan har xil irsiy kasalliklarga sabab bo‘lishi mumkin). Masalan, tirozinkinaza faolligiga ega retseptor geni (*ret*)dagi mutatsiyalar 4 har xil nasliy kasallikka olib kelishi mumkin. Eng ko‘p mutatsiyalar fermentlarning genlarida (31 %), boshqa oqsillar faoliyatini modulyatsiya qiluvchi va foldingda ishtirok etuvchi oqsillar genlerida (14 %) uchraydi. Eng ko‘p mutant genlar X-xromosomada aniqlangan.

Gemoglobinning α - yoki β -zanjiri sintezining buzilishi bilan bog‘liq irsiy kasalliklar (talassemiyalar) ancha yaxshi o‘rganilgan. Talassemiya bir yoki bir nechta nukleotidlarning almashinib qolishi yoki deletsiyasi, ba’zan esa protomerlardan birining strukturasini kodlovchi butun bir genning deletsiyasi bilan ifodalananadigan mutatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Ushbu kasalliklar 4 turiga ko‘ra

tasniflanadi: α^0 - yoki β^0 — agar zanjirlardan biri sintez qilinmasa, α^+ -va β^+ — qaysidir zanjirning sintezi kamaygan bo'lsa.

α -talassemiyalar α -zanjirlar sintezi buzilganda yuzaga keladi. Har bir odamning genomida ushbu genning 4 nusxasi (xromosomalar juftidagi 2 xromosomada ikkitadan) borligi sababli, α -zanjirlar yetishmovchiligining bir necha turlari farqlanadi. Agar 4 nusxadan biri nuqsonli bo'lsa, bu fenotipik tarzda namoyon bo'lmaydi, mutatsiya tashuvchi odamda genning 2 nusxasida nuqson bo'lsa, kasallikning yengil belgilari kuzatiladi va agar 3 nusxa nuqsonli bo'lsa gemolitik anemiya rivojlanadi. α -zanjirlar umuman sintezlanmasa (ya'ni, genning barcha 4 nusxasi nuqsonli bo'lganda) homila nobud bo'ladi.

β -talassemiyalar gemoglobinning β -zanjirlari sintezining pasayishi natijasida rivojlanadi, buning uchun har bir xromosomada bittadan gen mavjud. HbA sintezi bola tug'ilgandan keyin boshlanadi: genning nusxalaridan birida nuqson bo'lsa, yetishmovchilik yengil darajada namoyon bo'ladi va maxsus davolashni talab qilmaydi. Ikkala nusxada nuqson bo'lganda β -zanjirlar sintezi to'liq to'xtaydi, natijada og'ir darajali anemiya rivojlanadi va suyak ko'migini ko'chirib o'tkazish talab etiladi.

Irsiy tabiatini aniqlangan kasalliklar bilan bir qatorda, oilaviy moyillik bilan ajralib turadigan ko'plab kasalliklar mavjud: qandli diabet, podagra, ateroskleroz, shizofreniya, Kron kasalligi, oilaviy polipoz va boshqalar. Ular multifaktorial kasalliklarga kiradi, ularni aniqlash uchun moyillik chaqiruvchi genlarni o'rganish kerak bo'ladi.

5.4. Apoptoz


Ko'pchilik to'qimalarning hujayralari yangilanib turadi. Bunda mitotik bo'linayotgan va nobud bo'layotgan hujayralar o'rtasida dinamik muvozanat kuzatiladi. Ko'p hujayrali organizmlarning shakllanishi va normal faoliyat olib borishi uchun nafaqat hujayralarning ko'payishi, balki genetik kodlangan o'limi ham muhim ahamiyatga ega. Hujayralar o'limining normal boshqarilishi buzilsa, bu gomeostaz buzilishiga va turli kasalliklar rivojlanishiga olib keladi.

Ko'p hujayrali organizmda hujayralar o'limi doimiy ravishda sodir bo'lib turadi, ammo turli to'qimalar va a'zolarda ma'lum sharoitlarda yuz beradi. Hujayra o'limining turli mexanizmlari va shakllari mavjud. Hujayra o'limining biologik mohiyati turlich ra'isli mumkin.

Hozirgi vaqtida hujayra o'limining 2 turi farqlanadi: nekroz va apoptoz. Nekroz hujayra o'limining eng ko'p uchraydigan nospetsifik shakli bo'lib, hujayraning turli xil og'ir darajali shikastlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Apoptoz (yunonchadan olingen bo'lib, "xazonrezgi" degan ma'noni anglatadi) — bu hujayraning genetik dasturlashtirilgan va boshqariladigan o'limi bo'lib, hujayraning bo'laklarga parchalanishi bilan kechadi, organizm uchun destruktiv bo'limgan ichki va tashqi signallar ta'sirida sodir bo'ladi. Apoptoz energiya sarfini, maxsus genlar transkriptiyasini va oqsillarning de novo sintezini talab qiladigan aktiv jarayondir. Har kuni sog'lom odam tanasida 50–70 milliard yangi hujayralar paydo bo'ladi va xuddi shuncha miqdorda asosan apoptoz tufayli nobud bo'ladi. Bir yil davomida yangilangan hujayralarning umumiyo og'irligi tana vazniga teng bo'ladi.

Apoptoz va nekroz morfologik va biokimiyoviy xususiyatlari bilan farqlanadi (5.4-rasm). Nekrozdabir guruh hujayralar nobud bo'ladi va atrofida yallig'lanish reaksiyasi kuzatiladi, hujayralar shishadi, yadrosidagi xromatin bo'laklarga bo'linib, sitoplasmaga ham chiqadi. Sitoplazmatik va yadro membranalari hamda boshqa organellalarning membranalari lokal yoki to'liq parchalanib ketadi, mitochondriyalar bo'kib shishib qoladi, ko'plab erkin ribosomalar aniqlanadi.

Apoptozda hujayralar yakka holda nobud bo'ladi, bujmayadi va yallig'lanish belgilari bo'lmaydi. Yadro xromatini ixcham granulyar massalarga to'planadi, yadro membranasi uzuq-uzuq bo'lib qoladi, xromatin organellalar orasiga aralashib ketadi, sitoplazma zichlashadi, mitochondriya va ribosomalar strukturasi o'zgarmaydi, hujayra membranasi konturi egri-bugri ko'rinishga kiradi va hujayra har biri membrana bilan o'ralgan bir nechta apoptotik tanachalarga bo'laklanib ketadi. Bu bo'lakchalar atrofda joylashgan boshqa hujayralar tomonidan fagotsitozga uchraydi.



5.4-rasm. Nekroz va apoptozning histologik belgilari

Apoptozning asosiy funksiyalari: hujayralarni zararlangan organellalardan himoya qilish; to'qimalarni zararlangan hujayralardan himoya qilish; ontogenezda vaqtincha paydo bo'lgan to'qimalardan xalos bo'lish kabilardir. Apoptoz bilan bog'liq fiziologik jarayonlar 5.3-jadvalda keltirilgan.

5.3-jadval

Apoptoz bilan bog'liq fiziologik jarayonlar


Jarayon	To'qima va hujayra turlari
Embriogenet, morfogenet	Turli turlar
To'qimaviy gomeostaz	Qon yaratuvchi, limfold, epithelial, gormonga bog'liq to'qimalar, fibroblastlar
Immun javobning to'xtashi	T-limfositlar, B-limfositlar
Sitotoksik hujayralarning nishonlarga ta'siri	Virus bilan infitsirlangan hujayralar, o'sma hujayralari
Stress-reaksiya	Limfold hujayralar

Apoptoz immun tizimining rivojlanishi va faoliyatida muhim rol o'yndaydi: timusda timotsitlarning yetilishi davrida autoantigenlarga nisbatan tolerantlikni o'rnatish uchun 95–98 % timotsitlar manfiy seleksiya tufayli nobud bo'ladi; immun tizimining periferik a'zolarida ligand-retseptor o'zaro ta'sirlar paytidagi limfotsitlar seleksiyasi jarayonida; limfotsitlarning faollashishida; gaptenni eliminatsiya qilgandan keyin immun javobni cheklash paytida apoptozning ahamiyati katta. Sitotoksik limfotsitlar nishon-hujayralarni apoptozni induksiya qilish yo'li bilan nobud qiladi. Apoptoz yordamida genlari mutatsiyaga uchragan yoki retseptorlarining spetsifikligi nomutanosib bo'lgan limfotsitlarning eliminatsiyasi amalga oshiriladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, apoptoz organizmning yot hujayralardan, genetik apparatida nuqsoni bo'lgan hujayralardan, autoagressiv limfotsitlardan va immun tizimining o'z vazifasini o'tab bo'lgan hujayralaridan xalos bo'lish mexanizmi ekan.

Immuntizimida apoptoz jarayonining induksiysi quyidagi hollarda kuzatiladi: 1) hujayra DNKsida shikastlanishlar soni oshganda; 2) hujayraning yashovchanligini ta'minlaydigan zarur o'sish omillari yoki molekulalarning eliminatsiyasi yoki yetishmovchiligidagi; 3) maxsus retseptorlarning (R) stimullanishi: o'simta nekrozi omili, Fas (FasR yoki CD95, yoki aro-1), CD30, CD40 va boshqalar. Har bir jarayon asparaginspetsifik proteazalarining (kaspazalar) faollashuviga olib keladigan turli hujayraichi shalola reaksiyalarini yuzaga keltiradi: CED-3, ICE, ICH, CPP32 va boshqalar. Shundan keyin apoptoz qaytmas bosqichga o'tadi, kaspazalar induksiyalanguncha apoptozni to'xtatib qo'yish mumkin.

Maxsus retseptorlar yordamida apoptozni induksiyalash mexanizmi. Fas-L ning Fas-R bilan o'zaro ta'siri T-limfotsitlar spetsifik klonlarining giperekspresiyasi bosqichida immun javobni chegaralashda kuzatiladi. Ular o'simta nekrozi omili (TNF- α), nervlar o'sish omili va boshqa omillarning retseptorlarini ekspressiya qiladi. Bu retseptorlarning spetsifik ligandlar bilan bog'lanishi quyidagi mexanizm bo'yicha apoptozni induksiya qiladi (5.5-rasm). Fas-L va TNF-R1 bir nechta hujayradan tashqarida joylashadigan domenlarga

ega bo'lib, ulardan biri sitotoksik domen ("o'lim domeni") hisoblanadi, ligandning shu domen bilan bog'lanishi maxsus proteazalarni aktivlash orqali apoptoz jarayonini ishga tushiradi.



5.5-rasm. Fas-L va Fas-R sistemasi orqali apoptozning induksiyalanishi

Aptozga kirishgan huylara membranalari erta bosqichlardoq jiddiy o'zgarishlarga uchraydi, bu fagotsitlar va makrofaglar tomonidan atrofdagi to'qima huylariga parchalanish mahsulotlari bilan zarar yetkazmasdan nobud bo'layotgan huylaralarni tezda eliminatsiya qilishga imkon beradi. Immun tizimda apoptozni tartibga solishdagi muhim nuqta Fas retseptorlarining ishlab chiqarilishidir. Ushbu retseptorni kodlovchi gendagi mutatsiyalar o'smalar paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha turli xil autoimmun kasalliklarda qon zardobida va tananing suyuq muhitlarida Fas-R ning eruvchan shakllari aniqlanadi, ular apoptozning normal kechishini buzib, tizimli autoimmun jarayonning rivojlanishiga olib keladi.

O'sish omillarining yetishmovchiligidagi apoptozning induksiyalanish mexanizmi. Immun tizim huylaralarning apoptozini boshqarishda interleykinlar (IL), interferonlar (IF) va o'sish omillari

(O'O) muhim o'rinn tutadi. ILlar sog'lom huylaralarda ham, o'sma huylaralarda ham apoptozni induksiyalay olishi aniqlangan. Masalan, IL-12 tabiiy killerlarni, IL-4 va IL-10 odamning periferik monotsitlarini, IL-10 T-limfotsitlarni apoptozga uchratadi. Shu bilan birga, interleykinlar nafaqat apoptozni induksiya qilishi, balki ingibitsiya qilishi ham mumkin. Bunda bitta interleykinning o'zi bir vaqtning o'zida ham induktor, ham ingibitor bo'lib xizmat qilishi mumkin, faqat bu jarayon turli nishon-huylaralarda kuzatiladi hamda ma'lum darajada ularning differensialish darajasiga bog'liq bo'ladi. IL-2 T-limfotsitlar va B-limfotsitlarga apoptoz ingibitori sifatida ta'sir ko'rsatadi. IL-4 ham T-limfotsitlar va B-limfotsitlarning apoptozini ingibirlaydi. IL-3, IL-6, IL-9 faqat huylara apoptosi ingibitorlari sifatida tanilgan.

IFlar ham huylaralarga ikki xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi hollarda IF apoptozni induksiyalasa (suyak ko'migi huylaralari), boshqa hollarda apoptogen signal ingibitori (odamning periferik monotsitlari) sifatida namoyon bo'ladi.


O'sish omillari huylaralarning apoptozga uchrashiga yo'l qo'y-maydi, o'sish omillarining yetishmovchiligi tipik apoptotik jarayonlarga sabab bo'ladi.

Glyukokortikosteroidlar (GKC) huylara ichidagi maxsus retseptorlari bilan bog'lanib genlar ekspressiyasini boshqarishda ishtirot etadi. GKClar kalmodulin ekspressiyasini tezlashtiradi, IL-2 produksiyasini kamaytiradi, huylara ichida sAMF konsentratsiyasini oshiradi, kislorodning faol shakllarining hosil bo'lishini keskin kuchaytiradi.

Aptoz va kanserogenezi. Bcl-2 oqsillari ekspressiyasining o'zgarishi apoptozning boshqarilishini buzadi. Onkologik kasalliklarda bu oqsilning giperekspresiyasi tufayli o'sma huylaralarning yashov-chaligi ortadi, poliximioterapiyaga nisbatan rezistentligi oshadi. Bcl-2 geni protoonkogen hisoblanadi, lekin boshqa onkogenlardan farq qilib, uning giperekspresiyasi faqatgina apoptozni ingibirlaydi, ammo o'sma huylaralarning bo'linib ko'payishini kuchaytirmaydi.

Molekulyar, genetik va biokimyoiy usullar yordamida bu oqsilning ko'plab gomologlari borligi aniqlandi, xususan, ular orasida apoptozni

stimullaydiganlari ham bor: Bax, Bad, Bcl-Xs kabi oqsillar. Ular apoptoz stimulyatorlariga nisbatan hujayra sezgirligining oshishiga olib keladi va Bcl-2 oqsilining ta'sirini bostiradi. Ushbu oqsilning ta'siri ISega o'xhash sitoplazmatik proteazalar sinfiga ta'siri bilan bog'liq. Bcl-2, Apaf-1 (adaptor oqsil) va proteaza-1 mitoxondriyalar membranasida yaxlit kompleks hosil qilishi mumkin (5.6-rasm).




5.6-rasm. Bcl-2 oqsillar oilasi tomonidan proteazalarning faollanishi

Apoptoz jarayoni quyidagicha boshlanadi: apoptozni induksiyalovchi signal ta'sirida Bad oqsili defosforillanadi, natijada Bad va Bcl-2 geterodimer kompleks hosil qiladi, bu kompleks ta'sirida mitoxondriyadan sitoxrom c ajralib chiq qoshlaydi. Bcl-2 ning bir qator kasalliklar patogenezida apoptozni boshqarishdagi muhim roli isbotlangan.

DNK shikastlanganda apoptozning induksiyalanish mexanizmi. Yaqin-yaqingacha, DNKdagi reparatsiya qilinmagan shikastlanishlar zararlangan gen transkriptiyasining buzilishi tufayli bu hujayraning nobud bo'lishiga olib keladi deb hisoblanardi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shikastlangan DNKga ega hujayralarning nobud bo'lish mexanizmi aniq bir genetik dasturga muvofiq amalga oshiriladigan jarayon ekanligi haqida tasavvur uyg'onishiga olib keldi. Ushbu dasturni ishga tushirishda p53 oqsili muhim o'rinni.

tutadi. Bu oqsil hujayra yadrosida bo'ladi va genlar transkriptiyasini boshqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu oqsilning yuqori ekspressiyasi tufayli miqdorining oshishi transkriptiyani boshqaruvchi bir qator genlarning repressiyalanishiga va hujayralarni siklining G₁ fazasida to'xtab qolishiga olib keladi (5.7-rasm).



5.7-rasm. D NK shikastlanganda D NKning reparatsiya qilinishi va apoptozda p53 oqsilining ahamiyati.

DNK zararlanganda p53 genining ekspressiyasi ortadi. D NK replikatsiyasigacha G₁ fazasida hamda mitozgacha G₂ fazasida hujayra siklini to'xtatib qo'yilishi, shikastlangan D NKni reparatsiya qilishga imkon yaratadi va bu bilan mutant hujayralar paydo bo'lishining oldi olinadi. Agar reparatsion tizimlar faolligi yetarli bo'lmasa va D NKdagi shikastlanish bartaraf etilmasa, organizmni bunday zararlangan D NKli hujayradan himoya qilish uchun apoptoz induksiya qilinadi, chunki shikastlangan D NKli hujayralar mutant hujayralar bo'lib, ular xavfli o'smaga aylanib ketishi mumkin.

Viruslar hujayraga kirganda apoptozni induksiyalashi (adenoviruslar, bakuloviruslar, odam immun tanqisligi virusi, odam T-limfotrop virusi, retrovirus, sibivirus) yoki, aksincha, bloklashi (Afrika isitmasi virusi, qizamiq virusi, sitomegalovirus, Epshteyn-Barr virusi, herpes virusi) mumkin. Bu holat sitotoksik limfotsitlar yoki tabiiy killerlarning (NK) ta'siri natijasida yuzaga keladi, ular virus yuqqan hujayralarni tanib olib ularga sitotoksik ta'sir ko'rsatadi. Bu virus genlari mahsulotlarining spetsifik ta'siri va virus kirib olgan hujayralar membranasining o'ziga xos o'zgarishlari bilan bog'liq. Aynan shu o'zgarishlar sitotoksik immun hujayralar diqqatini tortib, ularni hujum qilishga majbur qiladi. Viruslar apoptozni asosan Bcl-2 gomologlari yoki kaspaza ingibitorlari yordamida bloklaydi.

Shunday qilib, apoptoz, fiziologik hodisa sifatida, hujayralarning bo'linib ko'payishi va nobud bo'lishi o'rtaсидagi muvozanatni saqlab gomeostazni ta'minlashga yordam beradi, bunda nuqsonli va differensiallashmagan hujayralar yo'q qilinadi. Apoptozning kuchayishi va susayishi bilan bog'liq patologik holatlar mavjud. Apoptozning kuchayishi bilan kechadigan patologik jarayonlar 5.4-jadvalda keltirilgan.

Apoptozning susayishi fonida rivojlanadigan patologik jarayonlar 5.5-jadvalda keltirilgan.

5.5-jadval

Apoptozning susayishi bilan bog'liq patologik jarayonlar

Jarayon	To'qima va hujayralar turlari
Neoplaziya	Limfomalar, karsinomalar, gormonga bog'liq o'smalar (sut bezi, prostatva tuxumdon raki)
Autoimmun kasalliliklar	T- va B-hujayralar, sinovial va epitelial hujayralar, fibroblastlar
Virusli infeksiyalar (adenoviruslar, Epshteyn-Barr (B-hujayralar), herpes)	Limfoid va epitelial hujayralar

Bundan kelib chiqadiki, kasalliliklar patogenezi apoptozning asosiy regulyator mexanizmlari buzilishi bilan bog'liq ekan. Ushbu jarayonlarni o'rGANISH, apoptozning morfologik va biokimyoiy markerlarini aniqlash kasalliklarning patogenetik mexanizmlarini chuqurroq tushunishga, differensial diagnostikani yaxshilashga, apoptoz regulyator mexanizmlarining buzilishi bilan bog'liq kasalliklarni davolashda yangi istiqbolli dori-darmonlarni yaratishga yordam beradi.

5.4-jadval

Apoptozning kuchayishi bilan bog'liq patologik jarayonlar

Jarayon	To'qima va hujayralar turlari
VICh-infeksiya	T-limfotsitlar
Neyrodegenerativ kasalliliklar (Alsgeymen kasalligi, Parkinson kasalligi va b.)	Neyronlar
Gematologik kasalliliklar (anemiyalar, neytropeniylar)	Qon yaratuvchi hujayralar
Ishemiya	Neyronlar, kardiomiotsitlar
Intoksikatsiya, gepatitlar	Gepatotsitlar
Ateroskleroz	Silliq mushak hujayralari
Katarakta	Gavhar hujayralari
Tireoidit	Tireotsitlar

6-bob.

REKOMBINANT DNK TEXNOLOGIYASI

6.1. Gen muhandisligining asosiy tushunchalari

Molekulyar biologiya sohasida erishilgan yutuqlar genlarning ekspressiyasi va ko'plab kasalliklarning sabablari haqida bilimlarni chuqurlashtirdi hamda bu kasalliklarni tashxislash va davolashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam berdi. Masalan, irsiy kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan faoliyati buzilgan genlarni aniqlash ushbu kasalliklar patogenezinining genetik va biokimyoiy asoslarini batafsil tahlil qilish va davolashning eng samarali usullarini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Molekulyar tibbiyot usullari yordamida virusli gepatitlarning oldini olish uchun vaksinalar, qandli diabet kasalligini davolash uchun insulin, qonning normal ivishini tiklash va gemofiliyani davolash uchun VIII omil va boshqa ko'plab dori vositalari yaratildi.

Boshqa tomondan, gen terapiyasi yordamida bemorning tanasiga normal ishlaydigan genlarni kiritish va mutant genlar ta'sirida yuzaga kelgan metabolik buzilishlarni bartaraf etish mumkin bo'ldi. Masalan, bolalarda adenozindezaminaza yetishmovchiligi tufayli kelib chiqqan immunitet tanqisligi davolanmoqda, oilaviy giperxolesterinemiya, gemofiliya B, mukovissidoz va ayrim boshqa irsiy kasalliklarni genetik korreksiyalash usullari amalga oshirilmoqda.


DNKni har qanday to'qima va yadroga ega bo'lgan hujayralardan ajratib olish mumkin. Ushbu ko'p bosqichli jarayon hujayralarni tez lizisga uchratish, hujayralar organellalarini va membranalarining parchalarini olib tashlash, oqsillarni proteinazalar yordamida fermentativ parchalash, DNKni eritmadan fenol va xloroform

yordamida ajratib olish, uni etanol bilan cho'ktirish va bufer eritmasida eritishni o'z ichiga oladi. Olingen DNK sifatini nazorat qilish oqsil va nuklein kislotalarining yutilish spektrlari, ya'ni mos ravishda 280 va 260 nm sohasida DNK eritmasining optik zichligini o'chashdan iborat. Sof DNK namunalari uchun 260/280 nm sohasida olingen optik zichlik nisbati 1,8 dan katta bo'lishi kerak.

Ajratib olish jarayonida aslidagidan ancha kichikroq bo'lgan DNK molekulalari olinadi, lekin ular baribir anchagina katta o'chamda bo'lganligi uchun (minglab yoki o'n minglab nukleotidlar juftlari) qo'shimcha parchalanishni talab qiladi. D NKni parchalash uchun bakterial hujayralardan ajratilgan restriktaza fermentlari qo'llaniladi. Restriktazalar ikki zanjirli D NK molekulasidagi 4-6, ba'zan 8-12 nukleotiddan iborat maxsus ketma-ketliklarni topib, D NK molekulasini shu joylarda kesib tashlaydi. Bir restriktaza ta'sirida hosil bo'ladigan restriksion fragmentlar soni restriksiya saytlarining soniga bog'liq, fragmentlarning o'chami esa ushbu saytlarning boshlang'ich D NK molekulasining butun uzunligi bo'ylab joylashishiga bog'liq bo'ladi.

Bakterial restriktazalarning 500 dan ortiq turli xillari ma'lum, ularning har biri o'ziga xos ketma-ketlikni taniydi (6.1-rasm). Masalan, HPA I (*Haemophilus parainfluenzae*) dan ajratilgan restriktazalar D NK molekulasining ikki zanjirini bir joydan to'mtoq uchlar hosil qilib kesadi (1), Eco RI (*E. Coli*) yoki Hind III (*Haemophilus parainfluenzae*) restriktazalari ta'sirida esa D NK molekulasini ikki zanjirining kesilish joyi sal farq qilib, natijada bir zanjirli yopishqoq uchlar hosil bo'ladi (2).

Bo'laklarga parchalangan polinukleotid zanjirlarining birlamchi tuzilishini o'rganish *sekvenirlash* deb nomlanadi. Taxminan 300 nukleotid juftlaridan iborat bo'laklar o'rganish uchun qulay hisoblanadi. Demak, 150×10^6 nukleotid juftligidan iborat bitta xromosomaning DNKsini 500000 bo'lakka bo'lish va har bir bo'lakni alohida o'rganish kerak bo'ladi.



6.1-rasm. DNK molekulasining HPA I, Eco RI va Hind III restriktazalari taniydiyan nukleotid ketma-ketliklari

Restriksiya natijasida hosil bo'lgan DNK fragmentlari agaroz yoki poliakrilamid gelida elektroforez usuli bilan tahlil qilinadi, bu jarayonda bo'yovchi modda sifatida etidiy bromidi ishlataladi, u DNK bo'laklariga bog'lanib, gelning butun uzunligi bo'ylab spektrning ultrabinafsha sohasida bir tekis o'ziga xos pushti rang beradi. Bunday gelda DNKnинг kerakli fragmentlarini identifikatsiya qilish uchun nishonlangan DNK-zondlari bilan gibridizatsiya qilish lozim bo'ladi: Sauzern bo'yicha blot-gibridizatsiya metodi 1975-yilda taklif qilingan. Gellarda molekulyar og'irligi bo'yicha ajratilgan DNK denaturatsiyaga uchratiladi va kapillyar kuchlar, elektr maydon yoki vakuum yordamida geldan zinchashuvchiga – nitrotsellyulozali filtr yoki neylon membranasiga o'tkaziladi. Filtrda fiksatsiyalangan DNKn ni nishonlangan DNK- yoki RNK-zondlari bilan gibridizatsiya qilinadi. Radioavtografiya usulidan foydalanib elektroforegrammada genom DNKnining qidirilayotgan fragmentining holati aniqlanadi. Blot-gibridizatsiya DNKnинг spetsifik ketma-ketliklarini aniqlashda juda sezgir usul hisoblanadi.


Ko'pincha DNKnинг birlamchi tuzilishini aniqlash uchun didezoksisekvenirlash usuli qo'llaniladi. Denaturatsiyalangan bir zanjirli DNK, DNK-polimeraza, dNTF (ulardan biri radioaktiv bo'ladi) va praymerni tutuvchi reaksiyon namunalarda spetsifik didezoksinukleozidtrifosfatlar ishtirokida (ddNTF) DNK sintezi boshlanadi. Sintez bir vaqtning o'zida to'rt parallel namunalarda amalga oshiriladi, ularning har biriga reaksiyon aralashmaning tarkibiy qismlari bilan birga 4 ddNTFdan biri qo'shiladi. ddNTFlar o'sib borayotgan polinukleotid zanjiriga kirish uchun oddiy dNTFlar bilan raqobatlashadi. Mos keladigan nukleotid o'rniga ddNTF kirib qolganda DNK sintezi to'xtaydi. Natijada har bir probirkada uzunligi bir-biridan farq qiladigan va uchi spetsifik didezoksinukleotidlardan biri bilan nishonlangan DNK fragmentlari to'plami hosil bo'ladi. Ushbu fragmentlarni bir vaqtida elektr maydonida 4 yonma-yon yo'lakchalarda ajratib, radioavtografiya qilinganidan so'ng, sintez qilingan molekulalar o'lchamini aniqlash mumkin bo'ladi, bu esa terminirlovchi didezoksinukleotidlarning lokalizatsiyasini aniqlashga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, DNK-matritsasiga komplementar ravishda yangidan sintezlangan fragmentlarda nukleotidlар ketma-ketligi aniqlanadi. Hozirgi vaqtida turli xil flyuoroxromlar bilan nishonlangan didezoksinukleotidlardan foydalangan holda ko'p sonli namunalarni avtomatik ravishda bir vaqtning o'zida sekvenirlashga mo'ljallangan asboblar yaratilgan.

Genlar va DNKnинг boshqa qismlaridagi nukleotidlар ketma-ketligi bilan ishlash uchun tekshirilayotgan material miqdori yetarli bo'lishi kerak. Shuning uchun o'r ganilayotgan DNK fragmentlari ularni istalgan vaqtida va cheklanmagan miqdorda olish uchun odatda, oldindan amplifikatsiya qilinadi (miqdori millionlab marta ko'paytiriladi). Rekombinant (ximer) DNKlardan (ya'ni, kelib chiqishi turli bo'lgan qismlardan qurilgan DNKlardan) foydalanish ushbu muammoni hal qilishda juda muhim vosita bo'lib chiqdi. Bunday molekulalarni olish uchun dastlab DNK ikki xil manbadan ajratib olinadi. Ularning har birini alohida holda qaysidir aynan bir restriktaza yordamida «yopishqoq» uchlar hosil qilib fragmentlarga

parchalanadi. Isitish va sekin sovutish natijasida dastlabki D_{NK_x} va D_{NK_t} molekulalari bilan bir qatorda o'zaro «yopishqoq» uchlar bilan bog'langan D_{NK_x} va D_{NK_t} fragmentlaridan tashkil topgan rekombinant molekulalar paydo bo'lishi mumkin. Fragmentlarning kovalent o'zaro ulanishi ATF energiyasi va D_{NK}-ligaza yordamida amalga oshiriladi.

Rekombinant DNK texnologiyasida yadroga ega hujayralardan ajratilgan DNK fragmentlaridan tashqari, teskari transkriptaza yordamida olingan DNK ham ishlataladi. Reaksiyon muhitga 4 xil dNTF qo'shilganda, ferment mRNAga komplementar ravishda DNK nusxasini yoki kDNKnii sintezlaydi. Yetilgan sitoplazmatik mRNA kDNKnning hosil bo'lishi uchun informatsiya manbayi bo'lib xizmat qilganligi sababli, bunday DNK, eukariotlarning genom DNKsinining parchalanishidan hosil bo'ladigan fragmentlardan farqli o'laroq o'zida intron tutmaydi.

Tekshirilishi kerak bo'lgan materialni ko'p miqdorda olish uchun DNKn klonlash amalga oshiriladi, bunda kerakli DNK fragmenti vektor DNK molekulasiga kiritiladi (6.2-rasm). Vektor ushbu rekombinant yoki ximer DNKn bakterial hujayralarga kirishini ta'minlaydi. Vektor sifatida plazmidalar, faglar, retro- va adenoviruslar qo'llaniladi. Ayniqsa, plazmidalar DNKsi vektor sifatida ko'p qo'llaniladi. Plazmidalar katta bo'limgan balgasimon ikki zanjirli DNK molekulalari bo'lib, bakteriyalar hujayralarida har xil miqdorda mavjud bo'ladi. Ular replikatsiyani bosqarishining avtonom tizimiga ega bo'lib, bu tizim hujayra ichida plazmidalar miqdorini me'yorda ushlab turadi. Klonlashda ishlataladigan plazmid DNK va bizni qiziqtiradigan DNK ma'lum joylarda restriktazalar bilan kesilib, rekombinant DNK olinadi, keyin gibrild plazmida halqa shakliga qaytariladi va bakteriya hujayralariga kiritiladi, ya'ni bakteriyalar transformatsiya qilinadi. Transformatsiyalangan bakteriyalar ko'payganda, plazmidaga kiritilgan DNK fragmentlari sen ko'payadi, ya'ni shu tarzda, bakteriyaga begona bo'lgan genetik material ko'p miqdorda olinishi mumkin. Klonlash vektorlari sifatida fagar ko'p ishlataladi. Agar ekzogen DNK eukariot hujayralarga kiritilsa **transduksiya** deb ataladi.



6.2-rasm. Bakteriya hujayrasida DNKnii klonlash sxemasi

6.2. Polimeraza zanjir reaksiyasi

Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usuli 1983-yilda Kerri Mullis tomonidan taklif qilingan (Nobel mukofoti, 1993-yil) bo‘lib, bu XX asrning molekulyar biologiya sohasidagi muhim kashfiyoti edi. Bu usul *in vitro* sharoitida har qanday DNK namunalarini matritsa sifatida ishlatib, uzunligi bir necha o‘ndan bir necha yuz juft nukleotidgacha bo‘lgan DNK qismlarini spetsifik amplifikatsiya qilishga imkon beradi. PZRni amalga oshirish uchun amplifikatsiya qilinishi kerak bo‘lgan sohaning nukleotid ketma-ketligini bilish shart. DNKning

tekshirilayotgan qismini sun'iy ravishda sintezlangan va uzunligi 15 tadan 30 tagacha nukleotid juftidan tashkil topgan ikki praymerlar bilan gibrizatsiya qilinadi, ular DNKnинг amplifikatsiya qilinadigan sohasidagi kodlovchi va kodlamaydigan zanjirlarning 3'-uchlariga komplementar bo'ladi. Praymerlar orasidagi masofa sintez qilinadigan molekulalarning uzunligini belgilaydi. PZR usulida matritsa sifatida har qanday DNK xilini ishlatish mumkin, masalan odamning genomi DNKsi, turli xil pro- va eukariotlar DNKsi, hujayralar kulturasidan ajratilgan DNK, genlar "kutubxonalar"dan va boshqa manbalardan olingan DNK. Usul tekshirilayotgan DNKnинг ko'p miqdorda bo'lishini talab qilmaydi, umuman olganda bir dona molekulaning bo'lishi yetarli, masalan, boshdagи bitta soch tolasi, bir tomchi qon yoki sperma tarkibidagi bir dona molekula kifoya.

Usulni ishlab chiqishdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan ferment sifatida issiq geyzer buloqlarda yashovchi bakteriyalardan ajratib olingan va yuqori harorat ta'siriga chidamli bo'lgan termofil DNK-polimerazani ishlatilishi bilan bog'liq. Bizni qiziqtirgan DNKn ni hosil qilish uchun reaksiyon aralashmada o'rganilayotgan DNK namunasi, reaksiya substratlari — 4 xil dNTF, 2 ta praymer, termostabil yoki Taq-polimeraza va Mg²⁺ ionlarini tutuvchi bufer bo'ladi.

Har bir polimerizatsiya sikli 3 bosqichni o'z ichiga oladi (6.3-rasm):


- erish: 90–97°C haroratda o'rganilayotgan ikki zanjirli DNK namunasi denaturatsiyaga uchraydi va bir zanjirli shaklga o'tadi;

- DNKn ning praymerlar bilan gibrizatsiyasi: matritsa DNKn ning har bir zanjiri bilan praymerlarning komplementar bog'lanishi va har ikki DNK ipida ikki zanjirli sohalarning shakllanishi;

- elongatsiya: matritsa DNKga komplementar ravishda Taq-polimeraza ta'sirida DNK iplarining 5'-uchidan 3'-uchiga tomon uzayishi.

Keyin harorat yana ko'tariladi va erish bosqichi takrorlanadi, bunda yuqori harorat tufayli DNK sintezi to'xtab, matritsa va yangi sintezlangan DNK molekulalari orasidagi ikki zanjirli soha denaturatsiyaga uchraydi. Ikkinchи va undan keyingi sikllarda praymerlar ham dastlabki matritsa DNK, ham miqdori geometrik progressiya bo'yicha ko'payayotgan yangi sintezlangan DNK molekulalari bilan

gibrizatsiyalaradi. Eng oxirgi siklida DNK sintezining to'xtashi haroratning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmay, balki DNK-polimerazaning amplifikatsiya qilinayotgan qismning chegarasiga yetib borjanligi bilan tushuntiriladi, bu holat hosil bo'lgan mahsulot o'chamining bir nukleotid darajasigacha o'ta aniqligini belgilaydi. Siklning har bir bosqichi bir necha o'n soniyadan 1–3 daqiqagacha davom etadi, natijada to'liq sikl bir daqiqadan bir necha daqiqagacha bo'lgan vaqtida sodir bo'ladi.



6.3-rasm. Polimeraza zanjir reaksiyasi: 1- va 2-bosqichlar – 90–95°C haroratgacha qizdirish va DNK denaturatsiyasi, 50–60 °C gacha sovutish va DNKn ning praymerlar bilan komplementar bog'lanishi. 3-bosqich – Taq-polimeraza va dNTF ishtirokida ~70°C haroratda praymerlarning elongatsiyasi.

Yuqorida keltirilgan DNKn ning amplifikatsiya qilish jarayoni maxsus qurilmada (siklizator yoki termotsikler, DNK amplifikatori) avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bunday qurilmada sikllarning

kerakli miqdorini belgilash hamda vaqt va haroratning optimal ko'rsatkichlarini tanlash mumkin. 25–30 sikel davomida sintezlangan DNK nusxalari soni bir necha millionga yetadi. PZR yordamida mutatsiyalar yoki saytlar polimorfizmi mavjudligi taxmin qilingan DNK sohalarining kerakli miqdorda nusxalarini olish, bemorlarning virusli, bakterial va zamburug'li kasallik qo'zg'atuvchilari bilan infitsirlanganligini aniqlash mumkin.

6.3. Kasalliklarning DNK-diagnostikasi

Rekombinant DNK texnikasidan foydalanib, ko'plab kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lgan genlarning variantlarini o'rGANISH mumkin. Shu tarzda bir azot asosining almashinib qolishi, tushib qolishi yoki ortiqchasingin qo'shilib qolishi natijasida funksional faol bo'limgan oqsillarni kodlovchi allellarning paydo bo'lishiga olib keladigan nuqtali mutatsiyalar aniqlangan. Ishlab chiqilgan texnologiyalar "Inson genomi" xalqaro loyihasi doirasida odam genlarini maqsadli ravishda xaritalashga imkon berdi. Rasman bu ilmiy dastur AQSH, G'arbiy yevropa davlatlari, Rossiya va Yaponiyadagi yetakchi molekulyar-genetik laboratoriylar ishtirokida 1990-yilda shakllantirilgan. Loyiha ustida olib borilgan ishlar davomida monogen kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan 923 gen xaritasi tuzilgan, ularning 100 dan ortig'i to'liq sekvenirlangan. 2001-yil oxiriga kelib AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va bir qator yevropa davlatlari laboratoriylarining ishi natijasida 90 % aniqlik bilan genom rasshifrovkasi yakuniga yetkazildi. Yaqin kelajakda odamlarda patologik jarayonlar rivojlanishiga sababchi bo'lgan barcha genlar o'rGANIB chiqiladi. Bu esa ko'plab kasalliklarni tashxislash va davolashni yangi bosqichga olib chiqadi.

Ushbu maqsadda turli xil tadqiqot usullari qo'llaniladi: restriksion fragmentlar uzunligi polimorfizmi (RFUP), allel-spetsifik sinamalar yordamida mutatsiyalarni aniqlash va boshqalar.

Ma'lum bir restriktazalar taniydigan sohalarda yuzaga keladigan mutatsiyalar DNKnинг ushu joylarini ferment ta'sir qila olmaydigan

qilib qo'yadi. Buni DNK restriksion fragmentlari uzunligining o'zgarishiga qarab osongina aniqlash mumkin. RFUP-tahlili quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: genom DNKsini ajratib olish, uni spetsifik endonukleaza bilan restriksiyalash, natijada paydo bo'lgan DNK fragmentlarini elektroforetik yo'l bilan ajratish va ushbu fragmentlarni Sauzern bo'yicha blot-gibrnidizatsiya yo'li bilan identifikasiya qilish. Tekshirilayotgan DNK polimorf sohasida restriksiya sodir bo'lmasa elektroforegrammada bir yirik fragment aniqlanib, u uzunligi bo'yicha o'sha endonukleaza ta'sirida restriksiya sodir bo'lgan ikki qo'shni soha orasidagi DNK ketma-ketligi uzunligiga teng bo'ladi. Polimorf sohada restriksiya sodir bo'lgan bo'lsa elektroforegrammada o'lchami kichikroq fragment aniqlanib, u uzunligi bo'yicha polimorf restriksiya sohasi va eng yaqin joylashgan doimiy restriksiya sohasi orasidagi masofaga teng bo'ladi. Bemorlarni va ularning oila a'zolarini patologik gen tashuvchiligiga tekshirishda RFUP usuli keng qo'llaniladi, uning yordami bilan distrofin genidagi deletsiyani (Dyushenn midistrofiyasiga olib keladigan 60 % mutatsiyalar aynan shu gen bilan bog'liq) aniqlash mumkin, gemofiliya A, talassemiyaning ayrim turlarini, retinoblastoma va granulematoz kasalliklarini tashxislash mumkin, o'roqsimon hujayrali anemiya geni va boshqa nuqsonli genlar bo'yicha ota-onalari geterozigot tashuvchi bo'lgan oilalardagi bolalarning sog'lig'ini nazorat qilish mumkin.

Gen kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladigan ko'plab mutatsiyalar restriksiya fermentlari taniydigan sohalarga to'g'ri kelmaydi. Bunda agar mutatsiya sohasidagi nukleotidlari ketma-ketligi ma'lum bo'lsa, uni allel-spetsifik oligonukleotidlari yordamida aniqlanadi. Buning uchun qisqa oligonukleotid zondlari sintezlanadi, ular, odatda, 19 nukleotiddan iborat bo'lib, DNKdagi normal va mutant alleller sohalariga komplementar bo'ladi. Genomning tekshirilayotgan qismini PZR usuli yordamida amplifikatsiya qilinadi, gen joylashgan nitrotsellyulozali filtrlarga ko'chirib hosil bo'lgan DNK namunalarini nitrotsellyulozali filtrlarga ko'chirib o'tkaziladi (dot- yoki slot-blotting). Namunalar normal yoki mutant ketma-ketlikni aniqlash uchun ^{32}R -zondlari bilan inkubatsiya qilinadi. O'rGANILAYOTGAN mutatsiya bo'yicha gomozigot organizmlar DNKsi

faqatgina ushbu mutatsiya ketma-ketligiga komplementar bo'lgan zond bilan gibrizatsiyalanadi. Normal gomozigot individ DNKsi o'zgarmagan nukleotidlar ketma-ketligiga mos keladigan zond bilan bog'lanadi, geterozigotlarning DNKsi esa ikkala zond bilan ham gibrizatsiyalanadi.

Ma'lum bir mutatsiyalar uchun allel-spetsifik bo'lgan oligonukleotidlarni aholi orasida patologik gen borligini klinik tekshirish uchun PZR-diagnostikasida praymer sifatida ishlatish mumkin. Agar bemordan olingan DNA namunasi mutant oligonukleotid bilan amplifikatsiyaga uchrasa, bemor mutant gen tashuvchisi hisoblanadi. Agar tekshirilayotgan gendagi nukleotidlar ketma-ketligi o'zgarmagan bo'lsa, mutant oligonukleotid DNA-matritsa bilan bog'lana olmaydi va polimeraza zanjir reaksiyasi sodir bo'lmaydi.

6.4. Biologiya va tibbiyotda gen texnologiyalaridan foydalanish

DNA-texnologiyalari va DNA-konstruksiyalaridan foydalaniб, nafaqat tibbiy, balki boshqa bir qator muammolar hal qilinadi:

- biotexnologiyada: gormon (insulin, o'sish gormoni, somatostatin va boshqalar), biologik faol peptidlar, qon ivish omillari ishlab chiqaruvchi modifikatsiyalangan mikroorganizmlarni yetishtirish;
- qishloq xo'jaligida: o'simlik va hayvonlarning yangi turlarini yaratish;
- gen terapiyasida: irsiy kasallikkarni davolashda bemorlardagi funksiyasi yo'qolgan yoki nuqsonli genlar o'mniga hujayralarga sog'lom genlarni kiritish uchun. Ushbu maqsadda asosan polimer tashuvchilar — nano-zarrachalar ishlatila boshlandi, ular zararlangan a'zo va to'qimalarga kerakli komponentlarni aniq yo'naltirilgan holda yetkazib olib boradi.

Vaksinalar virusli va bakterial infeksiya qo'zg'atuvchilarining tozalangan antigen oqsillaridir. So'nggi vaqlarda ularni rekombinant DNA texnologiyasi yordamida ishlab chiqarilmoqda. Ushbu usul bilan sintezlangan birinchi vaksina gepatit B virusiga qarshi vaksina edi.

Terapevtik ahamiyatga ega oqsillar ushbu texnologiya yordamida dunyoning ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqariladi. Birinchilar qatorida odam insulini sintez qilingan edi. Insulinning A- va B-zanjirlarini kodlovchi DNA tutgan plazmidalar yordamida transformatsiya qilingan *E. coli* hujayralarida insulinning A- va B-oqsil zanjirlari sintezlanadi. Tozalangandan keyin ular folding va oksidlanish jarayoniga uchratiladi, natijada kerakli disulfid ko'rikchalari paydo bo'ladi. Shunga o'xshash yo'l bilan o'sish gormoni olingan bo'lib, bu gormonning yetishmovchiligi bo'lgan bolalarni davolash uchun ishlatiladi. Nisbatan murakkab oqsillarni sutemizuvchilar hujayralari kulturasida sintez qilinadi: VIII qon ivish omili, plazminogenning to'qima aktivatori, eritropoetin, interleykinlar, koloniya-stimullovchi omillar. Transgen hayvonlar yordamida inson oqsillarini sintezlash usullari ishlab chiqilgan; bu oqsillarni olish uchun sutemizuvchilarning urug'langan tuxum hujayrasi yoki embrioniga sun'iy ravishda begona gen kiritiladi. Gen-muhandisligi tadbirleri bilan shunday qilish mumkinki, bizni qiziqtirgan oqsil sut tarkibiga sekretsiya qilinishiga erishiladi.

Gen terapiyasi — irsiy, multifaktorial va yuqumli kasallikkarni bemorlarning somatik hujayralariga genetik nuqsonlarni bartaraf etadigan yoki hujayralarga yangicha funksiyalarni beradigan genlarni kiritish yo'li bilan davolash hisoblanadi. Gen terapiyasi qo'llanilgan birinchi klinik tajriba 1990-yilda Betesda shahrida adenozindezaminaza genidagi mutatsiya bilan bog'liq irsiy (AQSH) immuntanqisligi bilan kasallangan to'rt yoshli qizchada o'tkazilgan. Qizaloqning organizmiga oldindan organizmdan tashqarida "ADA geni + neo gen + retrovirusli vektor" dan iborat gen konstruksiyasini kiritib, transformatsiya qilingan o'zining limfotsitlari yuborilgan edi. Terapevtik ta'sir bir necha oy davom etdi, shundan keyin genni kiritish muolajasini sezilarli nojo'ya ta'sirlarsiz ko'p marta takrorlashdi.

Bugungi kunga kelib, begona genni nishon-hujayralarga kiritishning kimyoviy, fizik va biologik usullari ishlab chiqilgan. Biroq, hozircha faqat virusli vektorlar yoki virusning nukleotid ketma-ketligini

tutuvchi genetik konstruksiyalarga kerakli genni samarali yetkazib olib borishga va uning ekspressiyasi uzoq davom etishini ta'minlashga qodir. Begona DNKnini bemorning genomiga hujayra kulturasida (*ex vivo*) yoki bevosita bemor organizmiga (*in vivo*) kiritilishi mumkin. Birinchi usulda bemorning spetsifik hujayralari ajratib olinadi va ko'paytiladi, ularga begona gen kiritiladi, transformatsiyaga uchragan hujayralar tanlab olinadi va o'sha bemorning o'ziga qayta yuboriladi. Ikkinci usulda bemorga klonlashtirilgan kerakli DНK ketma-ketligi to'g'ridan-to'g'ri yuboriladi, ular retseptorlar orqali kerakli hujayralarni tanib ichiga kirib ketadi. Ushbu usulda genlarni, odatda, aerozol va inyeksiyon shaklda kiritiladi. Aerozolli genoterapiyani ko'pincha o'pka kasalliklari va mukovissidozni davolashda qo'llaniladi. Irsiy nuqsonlarni davolash bilan bog'liq tadqiqotlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, gen terapiyasini borgan sari irsiy bo'lman, asosan, yuqumli va onkologik kasalliklarni davolashda ko'proq qo'llanila boshlandi. Bunday ishlarning yagona va ajralmas cheklovi shundaki, barcha genoterapeutik choralar aniq bir bemorga qaratilgan bo'lishi va uning faqat somatik hujayralariga ta'sir qilishi kerak.

Mavjud bilimlar darajasi olimlarni jinsiy hujayralar va odam embrionining implantatsiyagacha bo'lgan erta davrdagi hujayralarida genetik nuqsonlar korreksiyasini o'tkazishdan qaytaradi, chunki genofondni istalmagan gen konstruksiyalari bilan shikastlash va kutilmagan oqibatlarga olib keluvchi mutatsiyalar paydo bo'lishining real xavfi borligi kundek ravshan. Odamlar populyatsiyasida nuqsonli genlar tarqalishi va bolalarning irsiy patologiya bilan tug'ilishining oldini olish uchun dunyoning ko'plab mamlakatlarida genetik maslahatxonalar faoliyat yuritadi, shuningdek, rivojlanishning eng erta bosqichlarida DНK tahlilidan foydalanib homila salomatligini baholashga imkon beradigan prenatal diagnostika yo'lga qo'yilgan.

7-bob. ONKOGENEZ

7.1. O'smalarning paydo bo'lishi sabablari

O'smalar—bu gen kasalliklarining bir guruhi bo'lib, hujayralarning nazorat ostidan chiqib ketgancha qayishi bilan tavsiflanadi. Organizmda tarqalish usuliga ko'ra, ular 2 guruhga bo'linadi: **xavfsiz** (qo'shni to'qimalarga o'sib kirmaydigan lokal o'smalar) va **xavfli** (to'qimalarga invaziyalanish xususiyatiga ega bo'lgan va tananing boshqa joylariga metastazlana oladigan o'smalar). 100 dan ortiq turli xil saraton turlari ma'lum. Kasallikning barcha tashxis qo'yilgan holatlarining 50 %idan ko'prog'i o'pka, ko'krak bezi, yo'g'on va to'g'ri ichak, prostata, bachadon va tuxumdonlar saratoniga to'g'ri keladi. Qaysi to'qima hujayralaridan rivojlanganligiga qarab o'smalar quyidagi guruhlarga bo'linadi: **karsinomalar** (ektoderma va endoderma hujayralaridan shakllangan), **sarkomalar** (mezoderma hujayralaridan rivojlangan) va **gemoblastozlar** (gemopoetik va limfatik to'qimalarning kambial hujayralaridan paydo bo'lgan o'smalar). Onkologik kasalliklar o'lim ko'rsatkichi bo'yicha yurak-qon tomir kasalliklaridan keyin 2-o'rinni egallaydi. Odamlarda saraton kasalligining asosiy va eng ko'p o'r甘ilgan sabablari radiatsiya, kimyoviy kanserogenlar va viruslardir.

Odamlarda saraton kasalligining paydo bo'lishida yetakchi o'rinni (taxminan 80 %) atrof-muhit omillari – turmush tarzi, oziq-ovqat mahsulotlari va shu kabilar egallaydi. Qolgan qismi o'smalar rivojlanish xavfini oshiradigan kasalliklar va genomdagagi irsiy o'zgarishlar tufayli kelib chiqadi. O'sma paydo bo'lishini stimullaydigan omillar **kanserogenlar** deb ataladi. Ularni katta uch guruhga bo'lish mumkin: nurlanish, kimyoviy birikmalar va viruslar.

Ultrabinafsha, rentgen va γ -nurlari DNKnini shikastlab, mutagen va kanserogen ta'sir ko'rsatadi. Nurlanish ta'sirida DНK molekulasida

apurin saytlari, bir yoki ikki zanjirli uzilishlar, qo'shimcha bog'lar paydo bo'lishi mumkin. Ultrabinafsha nurlari ta'sirida pirimidin dimerlari paydo bo'lishi mumkin. Bulardan tashqari, ular genetik apparatni shikastlovchi erkin radikallar hosil bo'lishini kuchaytirish yo'li bilan bilvosita ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Avstraliya va Yangi Zelandiyada karsinoma va melanomaning ko'p uchrashi ultrabinafsha nurlar bilan bog'liqligi, Yaponiyada atom bombalari portlashidan keyin yaponiyaliklar orasida leykoz bilan kasallanishning ko'payishi, radioaktiv rudalar bilan ishlaydigan konchilarda o'pka saratoni ko'p uchrashi nurlanishning zararli ta'sirini isbotlaydi.

Juda ko'p kimyoviy moddalar kanserogen ta'siriga ega (7.1-jadval).

7.1-jadval


Asosiy kimyoviy kanserogenlar

Moddalar guruhi	Guruhg'a kiruvchi moddalar
Politsiklik aromatik uglevodorodlar	Benzpiren, dimetilbenzantratsen
Aromatik aminlar	2-atsetilaminofluoren, N-metil-4-aminoazobenzol
Nitrozaminlar	Dimetilnitrozamin, dietilnitrozamin
Alkillovchi agentlar	Siklofosfamid, dietilstilbestrol
Tabiiy moddalar	Daktinomitsin, aflatoksin B ₁
Noorganik birikmalar	Xrom, berilli, asbest, qo'rg'oshin, kadmiy

Ularning ko'pchiligi hujayraning genetik apparatini bevosita shikastlay olmaydigan prokanserogenlar bo'lib, ular jigarda mikrosomal oksidlanish sistemasi ta'sirida kanserogen tabiatli

moddalarga aylanadi. Natijada hosil bo'lgan kanserogenlar nuklein kislotalari va oqsillarning molekulalari bilan ta'sirlashib, hujayralarning regulator mexanizmlari ishini buzadi va o'smalar rivojlanishiga olib keladi. Kanserogen moddalar ta'siri ostida hujayralarning transformatsiyasi *kimyoviy kanserogenez* deb ataladi.


Bo'linmayotgan hujayralarda DNK ikki zanjirli spiral ko'rinishida bo'lib, azot asoslari shikastlovchi moddalar ta'siridan himoyalangan bo'ladi. Biroq, replikatsiya paytida ular kanserogenlarga sezgir bo'lib qoladi va zararlanadi (7.1-rasm).



7.1-rasm. Kanserogenlar tomonidan hujayra DNKsining shikastlanishi oqibatlari


Organizmda turli xil himoya mexanizmlari mavjud. Masalan, atrof-muhit omillari ta'sirida sodir bo'lgan DNK shikastlanishi reparatsiya tizimi tomonidan tiklanadi. Agar DNK molekulasidagi shikastlanish tiklanmay saqlanib qolsa, u holda mutant hujayra paydo bo'ladi va u, odatda, apoptozga uchraydi. Ushbu mexanizmlarning ishdan chiqishi hujayralar transformatsiyasi va neoplaziyaga olib keladi.

Eng xavfli kimyoviy kanserogenlar benzantratsen, benzpiren, 7,12-dimetilbenzantratsen va kondensirlangan aromatik halqalar tutuvchi kimyoviy birikmalar kabi politsiklik aromatik uglevodorod-lardir. Monooksigenazalar tomonidan fermentativ faollashgandan so'ng, hosil bo'lgan birlamchi va ikkilamchi epoksidlar DNK molekulasidagi purin asoslariga bog'lanishi mumkin (7.2-rasm).




7.2-rasm. Jigarda monooksigenazalar ishtirokida benzo(a) pirenning metabolizmga uchrashi

Aromatik aminlarga (2-naftilamin) anilin bo'yoyqlari va rezina buyumlar ishlab chiqarishda ishlataladigan moddalar kiradi. Bunday moddalar bilan ishlaydigan ishchilarda siylik pufagi raki ko'p uchraydi. Jigarda 2-naftilamindan 2-amino-1-naftol, u keyin FAFS bilan ta'sirlashib 2-amino-1-naftilsulfat hosil bo'ladi va buyraklar orqali chiqariladi (7.3-rasm). Qovuqda kon'yugatlarning bir qismi gidrolazalar ta'sirida parchalanib, yana kanserogen bo'lgan 2-amino-1-naftol hosil bo'ladi:



7.3-rasm. Sutemizuvchilar organizmida 2-naftilaminning metabolizmi

Kanserogen nitrozaminlar organizmda ikkilamchi alifatik aminlarning nitritlar bilan o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Ikkilamchi aminlar va nitritlar oziq-ovqat mahsulotlarining doimiy tarkibiy qismidir (ular go'sht va baliqni pishirganda paydo bo'ladi, yashil o'simliklarda ham hosil bo'ladi). Mikrosomal oksidazalarning ta'siri ostida ulardan metildiazoni ionlari hosil bo'ladi.



7.4-rasm. Sutemizuvchilar organizmida nitrozaminlarning metabolizmi.


Metildiazoniy ionlari hujayralar DNKsini metillab o'pka, oshqozon, qizilo'ngach, jigar va buyraklarda xavfli o'smalar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin (7.4-rasm).

Alkillovchi va atsillovchi moddalar DNKnинг nukleofil amino-va gidroksil guruhlari bilan o'zaro ta'sirlashib, genlarning tuzilishiga zarar yetkazishi va o'smalar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Vinilxlorid kabi birikmalar, o'sma kasalligini davolashda ishlataladigan ba'zi dorilar yoki immunosupressantlar (siklofosfamid, bisulfan, dietilstilbestrol) ayrim bemorlarda ikkilamchi o'smalar keltirib chiqarishi mumkin.

7.2. Onkogen viruslar

O'smalar rivojlanishida viruslarning roli isbotlangan. Masalan, 1908-yilda tovuqlarga o'smadan olingan hujayrasiz ekstraktini kiritish ularda leykoz rivojlanishiga olib kelgan, 1910-yilda R. Raus tovuqlarda sarkoma qo'zg'atishi mumkin bo'lgan birinchi onkogen virus haqida axborot bergan. 1968-yilda L.A. Zilber o'smalar paydo bo'lishining virus-genetik nazariyasini yaratdi. Viruslar odamlarda ba'zi o'smalarning rivojlanishida ishtirok etishi mumkin: DNK tutuvchi Epshteyn-Barr virusi Byorkitt limfomasi, papilloma virusining DNKsi teri va jinsiy a'zolar saratonii, RNK tutuvchi odam immunitet tanqisligi virusi sarkomalarning rivojlanishiga olib keladi.

DNK tutuvchi viruslar inson hujayra genomiga qisman yoki to'liq qo'shib kirib olishi, virus genlarining ekspressiyasi natijasida hosil bo'lgan oqsillar esa hujayra siklini izdan chiqarishi isbotlangan. DNK tutuvchi onkoviruslarga Epshteyn-Barr virusi, papilloma virusi, herpes virusi, adenovirus, papovavirus, suvchechak virusi kiradi. Odatda, ular yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradi va milliondan bir holatdagina xavfli transformatsiyaga sabab bo'ladi. DNK tutuvchi gepatit B virusi 20–25 yilda jigar saratoniga olib keladi. Raus sarkoma virusi genomida, barcha viruslarda keng tarqalgan 3 gen bilan bir qatorda, xavfli transformatsiyaga sabab bo'luvchi src onkogeni topilgan (7.5-rasm).



7.5-rasm. Raus virusi genomining tuzilishi

RNK tutuvchi viruslar inson hujayralariga kirgandan so'ng qaytar transkriptaza fermentidan foydalaniib DNKn sintezlaydi va uni provirus (latent virus) ko'rinishida eukariot hujayraning genomiga qisman yoki to'liq joylashtiradi.

Genomdagi irsiy o'zgarishlar kanserogenezda muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolalarda retinoblastomaga moyillik autosom-dominant belgi sifatida nasllanadi. 40 % hollarda kasallik oilaviy xarakterga ega bo'ladi. Shuningdek, yo'g'on ichak polipoziga moyillik ham nasldan-naslga o'tadi va deyarli barcha holatlarda, balog'at yoshidagi bemorlarda adenokarsinoma rivojlanadi. Bu reparatsiya fermentlarining defekti tufayli xromosoma DNKsining nostabilligi bilan bog'liq. Masalan, pigmentli kseroderma bilan kasallangan bemorlarda terida ultrabinafsha nurlar ta'sirida karsinoma rivojlanishi holatlari ko'p uchraydi.

7.3. O'sma hujayralari tavsifi

Differensiallashgan hujayralar hujayra bo'linishini boshqarish qobiliyatiga ega, ular to'qima chegaralaridan tashqariga chiqmaydi va invaziyalanmaydi, bu kontakt tormozlanish bilan bog'liq. Neoplastik hujayralarda bu xususiyat yo'qoladi. Morfologik jihatdan ular odatdagidan biroz kattaroq, yadro-sitoplazmatik nisbati o'zgargan

bo'ladi, asosan, poliploidiya yoki aneuploidiya kuzatiladi. O'sma hujayralarda adgeziya qobiliyati past bo'ladi, bu ularga boshqa hujayralarning yuzasiga yopishmasdan bemalol o'sishga va ko'p sonli qatlamlar hosil qilishga imkon beradi.

O'sma hujayralarining metabolizmi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- ribonukleotidreduktazaning faolligi yuqori, DNK va RNK sintezi ortgan, pirimidin va purinlarning katabolizmi pasaygan bo'ladi;

- aerob va anaerob glikolizning tezligi oshadi, qon tomirlari bilan yetarli ta'minlanmagan holda o'sma hujayralarining tez o'sishi tufayli «Varburg effekti» ustunlik qiladi;

- turli xil oqsillar va fermentlarning izoferment spektrida fetal shakllar miqdori oshadi (ATF va sitrat bilan ingibirlanmaydigan fosfofruktokinaza, glyukoza moyilligi o'ta yuqori bo'lgan geksokinaza izofermenti va yuqori faollikka ega laktatdegidrogenaza);

- izofermentlar spektrida shunga o'xshash siljishlar metabolizmning boshqa yo'llarida ham kuzatiladi, bu o'sma hujayralari tomonidan glyukoza va boshqa hayotiy metabolitlarni yuqori darajada o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

- normal hujayralardan farqli o'laroq, o'sma va embrion to'qimalarida telomeraza fermenti xromosomalar DNKhining 3'-uchidagi telomerlarni oxirigacha sintezlab beradi va replikatsiyadan keyin hosil bo'lgan qiz zanjiri ona zanjirining uzunligiga teng bo'ladi, natijada hujayralar qarishi to'xtaydi va ular nobud bo'lmaydigan hujayralarga aylanadi;

- hujayralarning neoplastik transformatsiyasi plazmatik membranening glikoproteinlari va glikosfingolipidlarining oligosaxarid zanjirlarining tarkibi va tuzilishini buzadi, natijada membranening o'tkazuvchanligi va zaryadi, adgeziv xususiyatlari va integrin retseptorlari o'zgaradi;

- kollagenazalar va glikozidazalarning sekretsiyasi va faolligi oshadi, ular hujayralararo matriksning kollagen tolalari, oqsillari, glikozaminoglikanlarini parchalaydi va o'smani qo'shni to'qimalar va qon tomirlariga invaziyalanib kirib borishiga yordam beradi;

- saraton hujayralarini oziqa moddalari bilan ta'minlaydigan qon tomirlari o'sishini stimullaydigan angiogenez omillarining sintezi kuchayadi;

- mutatsion o'zgarishlar tufayli retseptorlarni, signal transduktorlarini va transkripsiya omillarini kodlovchi genlar doimiy ravishda ekspressiyalanadi va boshqariladigan o'sish cheksiz proliferatsiya bilan almashinadi;

- o'sma hujayralari parakrin yoki autokrin hujayra o'sishi mexanizmiga o'tib olishi natijasida avtonom o'sish xususiyatini qo'liga kiritadi.

7.4. Onkogenlar, protoonkogenlar va o'smalarga qarshi suppressor-genlar

Protoonkogenlar — organizmning rivojlanishi uchun javobgar genlar. Ular organizmning o'sishi va rivojlanishi jarayonlarini boshqarishda markaziy rol o'ynaydigan oqsillarni kodlaydi (o'sish omillari (O'O). O'Oning retseptorlari, transkripsiya omillari va signalni o'tkazishda ishtiroy etadigan oqsillar).

Onkogenlar — o'smalarning rivojlanishi uchun javobgar genlar (*Jun, fos, myc, myb, erba*). Onkogenlar uchta kichik lotin harfi bilan yoziladi va odatda, bu onkogen birinchi bo'lib qaysi obyektdan ajratib olinganini ko'rsatadi. Harflardan keyin raqam yozilgan bo'lsa, ko'pincha genlar bir-biri bilan yaqin oilalarning a'zolari ekanligidan daloiat beradi va bu raqam ma'lum bir oilada genning o'rmini ko'rsatadi. Virusli onkogenlarni ifodalash uchun, v harfini (inglizcha *virus* - virus), mutatsiya tufayli paydo bo'lgan hujayra onkogenlarini ifodalash uchun esa s harfini onkogenning uch harfli belgisining oldiga qo'shib yoziladi.

Suppressor-genlar — hujayralarning bo'linishi va rivojlanishi jarayonlarini ingibirlovchi genlar (*pbl, p53, p21, p16, p15, wp1*). Genning ikki va uch harfli kodi bilan bir qatorda oqsil mahsulotining o'lehamini ham bildirishi mumkin. *p53* geni molekulyar massasi 53 kD bo'lgan oqsilni kodlagani uchun shunday nomlangan.

Virusli onkogenlarning 50 %idan ortig‘i tirozinli proteinkinazalarni kodlaydi (tir-PK), qolganlari turli xil funksional faollikka ega bo‘lgan oqsillar haqida ma’lumot saqlaydi: qisqargan trombotsitlar O‘O, qisqargan epidermal o‘sish omili (EO‘O) va uning retseptori (rEO‘O), DNK-bog‘lovchi, GTF-bog‘lovchi va ba’zi boshqa regulyator oqsillar haqida.

Tir-PK guruhiga quyidagilar kiradi: qushlar eritroblastozini virusining *erb-B* onkogeni, trombotsitlar o‘sish omillarining hamda I va II insulinsimon omillar retseptorlarining gomologlari. Tir-PK guruhiga onkogenlardan tashqari ayrim protoonkogenlar ham kiradi (insulin retseptorlari, rEO‘O, trombotsitlar o‘sish omili retseptori). Normal hujayralarda fosfotirozin miqdori juda kam bo‘ladi (barcha fosforillangan aminokislotalarning 1 %idan ko‘p bo‘ligan qismi). O’sma hujayralarda tir-PKning faolligi oshib ketadi va oqsillar tarkibiga kiruvchi aminokislolar fondida fosfotirozin miqdori ortadi.

Onkooqsillarning yana bir guruhini *ras* genlari oilasi kodlaydi. Ras-oqsillari katta bo‘ligan G-oqsillaridir. Normal hujayralarning G-oqsillaridan farqli o‘laroq, ular signal o‘tkazishda ishtirok etuvchi monomerlardir. Ular sitoskeletning tuzilishini o‘zgartirishda, ekzo- va endotsitzni boshqarishda, mitogen signallarni o‘tkazishda, genlar transkripsiyasini amalga oshiruvchi oqsillarni faollashtirishda ishtirok etadi. Ras-onkooqsillarning GTF-aza faolligi juda past, natijada adenilatsiklaza yoki fosfolipaza C uzoqroq vaqt faol holatda qoladi va signaling ko‘proq vaqt o‘tib turishiga olib keladi. Ras-onkooqsillar insondagi barcha o’smalarining 25 %ida: oshqozon osti bezi karsinomalarining 90 % va to‘g‘ri ichak karsinomalarining 50 %idan ortig‘ida uchraydi.

Yadroviy onkogenlar oilasiga *jun*, *fos*, *tue*, *myb* va *erb A* genlari kiradi. Ushbu genlarning ekspressiyasi natijasida hosil bo‘lgan onkooqsillar DNKdagi spetsifik ketma-ketliklar bilan bog‘lanadi va transkripsiya omillari sifatida ishlaydi.

Normal hujayralar o’sma hujayralari bilan birlashganda xavfli bo‘ligan gibrildi hujayralar paydo bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, normal hujayralarda maxsus genlar bo‘lib, ularning oqsil-

mahsulotlari hujayralarning replikativ potensialini susaytiradi va o’smalar rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi. Ular supressor-genlar yoki antionkogenlar deyiladi. Xavfli transformatsiya paytida bu genlarning funksiyasi yo‘qoladi va hujayra proliferatsiyasining boshqarilishi izdan chiqadi. Hozirgi vaqtda 10 dan ortiq supressor-genlar (*pbl*, *p53*, *p21*, *p16*, *wtl* va boshqalar) aniqlangan bo‘lib, ular hujayraning anomal o‘sishi va transformatsiyasini ingibirlovchi oqsillarni kodlaydi.

pbl genining mahsuloti yadroviy oqsil bo‘lib, u hujayraning G_0 tinchlik fazasidan G_1 DNK sinteziga tayyorgarlik fazasiga o‘tishini va G/S tekshiruv nuqtasidan o‘tishini boshqaradi. Defosforillangan shaklda u E2F transkripsiya omilini bog‘lab inaktivlashi mumkin, natijada E2F o‘sishni stimullovchi oqsil va fermentlar ekspressiyasini kuchaytirish vazifasini bajara olmay qoladi. Normal hujayralarda S-fazasiga kirish chog‘ida Rbl oqsili fosforillanadi va hujayraning sikl bo‘ylab fazalardan o‘tishini tormozlamay qo‘yadi.

p53 geni yadroviy fosfoproteinni kodlaydi, u hujayralarni S-fazasiga kirishiga, DNK amplifikatsiyasi va mutatsiyalariga to‘sinqinlik qiladi. Uning asosiy vazifasi G_1 va G_2 fazalarida turgan DNKsi shikastlangan hujayralarni bu shikastlanishlar bartaraf qilinmaguncha himoya qilishdir. Agar reparatsiya tizimlari DNK strukturasidagi nuqsonlarni tiklay olmasa, *p53* genining oqsili shikastlangan hujayrani yo‘q qiladigan apoptoz mexanizmining faollashuvini ta’minlaydi. *p53* oqsili *p21* genining transkripsiyasini kuchaytiradi, bu genning mahsuloti bo‘lgan *p21* oqsili ko‘philik siklinga bog‘liq kinazalarning ingibitori bo‘lib, uning ta’sirida hujayra o‘sishi va bo‘linishi ingibirlanadi. Bundan tashqari, *p53* oqsili *gadd45* genining transkripsiyasini oshiradi, bu genning oqsil mahsuloti reparativ jarayonlarni stimullaydi.

p53 oqsiliga yana 2 gen sezgir: *bcl2* va *bax*, bu genlar apoptozni boshqaruvchi oqsillarni kodlaydi. *p53* oqsilining *bcl2* va *bax* genlarning regulator sohalariga bog‘lanishi apoptozni faollashtiradi, bunda *bcl2* anti-apoptotik genning ekspressiyasi pasayadi va proapoptotik *bax* genning ekspressiyasi esa ortadi.

Natijada shikastlangan va transformatsiyaga uchrashi mumkin bo‘lgan potensial xavfli hujayralarning yo‘q qilinishi tezlashadi. Bundan tashqari, *p53* trombospondin oqsilini kodlovchi genning ekspressiyasini oshiradi, trombospondin angiogenezga va o’smaning metastazlanishiga qarshilik qiladi. Shuning uchun ham *p53* oqsili hujayra sog‘lig‘ining “qo‘riqchisi” yoki “molekulyar politsiyachi” deb nomlanadi.

7.5. Neoplastik transformatsiya mexanizmlari

Hujayralar o‘sishi va differensiatsiyasini tartibga solishda 100 dan ortiq turli xil genlar va 10ga yaqin suppressor-genlar ishtirok etadi. Neoplastik transformatsiya bir hodisaning natijasi bo‘lmay, balki ko‘p bosqichli jarayondir. Hozirgi vaqtida protoonkogenlarni onkogenlarga aylanishining 5 ta asosiy mexanizmi aniqlangan:

- genomdagi DNKga yangi promotorlarning kiritilishi;
- yangi enxanser ketma-ketliklarning paydo bo‘lishi;
- genlar amplifikatsiyasi;
- nuqtali mutatsiyalar;
- **Xromosoma translokatsiyasi.**

Xromosoma kariotiplarini, onkogenlarni, suppressor-genlarni va DNKnинг metillanish darajasini to‘g‘ri ichakning o‘zgarmagan to‘qimasi namunalarida, turli o‘lchamdagи adenomalar, to‘g‘ri ichak karsinomalari va metastazlari namunalarida taqqoslanishi asosida ko‘p bosqichli kanserogenez modeli taklif qilingan. Saraton rivojlanishidan oldin onkogenlar va suppressor-genlarda 5–7 ta mutatsiya sodir bo‘ladi, DNKnинг gipometillanishi va DNK reparativ tizimlarining ishida buzilishlar kuzatiladi. Ushbu jarayonda dastlab 5-xromosomada joylashgan suppressor-genda mutatsiya ro‘y beradi. Jarayonning dastlabki bosqichlarida DNK metillanish darjasini pasayadi va 12-xromosomada joylashgan ras-onkogen faollashadi, bu holat adenomalar o‘sishiga olib keladi. Reparatsiya tizimlari ishidagi nuqsonlar, suppressor-genlarning yo‘qolishi yoki inaktivatsiyasi genetik beqarorlikka sabab bo‘ladi va malignizatsiyaga olib keladi.

Bunda o‘zgarishlar ketma-ketligi ahamiyatlι emas, eng muhim, genomda o‘zgarishlarning umumiy to‘planishidir. Dedifferensirovka va mutatsiyalarning yig‘ilib borishi o‘sma hujayralarida invaziyalanish va metastazlanish xususiyati paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xavfsiz o’smalar ba’zan tez o’sib, katta o‘lchamlarga yetib borishi mumkin, ammo ular metastazlanmaydi. Dastlab o‘sma hujayralari genetik jihatdan bir xil bo‘lgan (monoklonal) hujayralar klonini hosil qiladi. Ushbu hujayralarning avlodlari ham genetik, ham fenotipik jihatdan o‘zgara boshlaydi. O’simta hujayralari to‘plamining o‘lchami 2 mm ga yetganida, hujayralar biriktiruvchi to‘qima va tomirlar o’sishini stimullovchi, angiogenetni indutsirlovchi oqsil omillarini sekretsiya qilib, o‘sish va invaziyalanishga sharoit yaratadi.

Metastazlanayotgan hujayralarda membrana oqsillarining tarkibi o‘zgaradi. Integrinlar hujayralarni kollagen bilan bog‘lashda ishtirok etsa, fibronektin va lamininlar hujayralararo matriksning boshqa komponentlari va basal membranalar bilan bog‘lanishga yordam beradi. Ko‘philik o’smalarda fibronektin miqdori kamaygan bo‘ladi va o‘zgargan integrinlar sintezlanadi, bu esa invaziv hujayralarni biriktiruvchi to‘qima va kapillyarlar devori orqali migratsiyalanishiga yordam beradi.

Invaziya — aktiv jarayon bo‘lib, bunda o‘sma hujayrasi quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

- hujayralararo matriksdan o‘tib, qon yoki limfa tomiriga yetib boradi;
- tomir devoridan o‘tib, qon yoki limfaga tushadi;
- qonda oqsillar va qon hujayralari bilan komplekslar hosil qilib sirkulyatsiyalanadi;
- tomir devoriga yopishadi va jarayonni teskari yo‘nalishda takrorlaydi, 2–3 hujayra diametriga teng masofaga invaziyalagan to‘qima ichiga kiradi;
- joylashib olib, yangi o’smani shakllantira boshlaydi.

Ushbu jarayonni amalga oshirishda metastazlanayotgan hujayra va o’smani o‘rab turgan to‘qima fibroblastlari tomonidan sintezlanadigan kollagenazalar, geparazalar, katepsinlar, plazminlar va metalloproteinazalar ishtirok etadi.

Alovida ajralib chiqqan o'sma hujayralari qon tomiri tomonga yo'nalib, endotelial hujayralar orasidan o'tib, qon oqimiga tushadi. Ular qonda trombotsitlar, migratsiya omillari va hujayralararo matriksning fragmentlari bilan kompleks hosil qilgan holda suzib yuradi, bunday himoya qobig'i o'sma hujayrasini immunologik nazoratdan to'sib qo'yadi va nishon-organlar basal membranasiga yopishishini ta'minlaydi. O'sma hujayralari yuzasiga chiqib turgan yopishishini ta'minlaydi. O'sma hujayralari retseptori selektini bilan bog'lanadi uglevodlar endotelial hujayralar retseptori selektini bilan bog'lanadi va hujayra integrinlar yordamida tomir devoriga mustahkam yopishadi. Ular to'qimaviy tropizmga ega.

7.6. O'sma kasalligini tashxislash va davolashning asosiy prinsiplari

O'sma markyorlari (O'M) deganda o'sma hujayralari yoki o'sma rivojlanishiga javoban normal hujayralar tomonidan sintezlanadigan birikmalar (oqsillar, biologik faol peptidlar, gormonlar, fermentlar va metabolitlar) tushuniladi. O'M qonda yoki organizmdagi boshqa suyuqliklarda tekshiriladi va aholini o'sma kasalligiga skrining tekshirishda, klinik bosqichda esa bemor holatini baholash va davolash samarasini monitoring qilishda prognostik omil sifatida, shuningdek kasallikning qaytalanishini aniqlash uchun ishlatiladi. Zamonaviy tasnifga ko'ra, O'M 3 asosiy guruhga bo'linadi:

- birlamchi o'sma bilan bog'liq;
- ikkilamchi o'sma tomonidan hosil bo'lgan (spetsifik va nospetsifik);
- ikkilamchi, o'sma jarayoni tomonidan indutsirlangan.

Ushbu tasnif kamchiliklardan holi emas, chunki aynan bir birikmaning o'zi ham o'sma hujayralari tomonidan, ham o'sma invaziyasiga javoban, a'zoning normal hujayralari tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin.

Onkofetal oqsillar. Bularga karsinoembrional antigen (KEA) kiradi. Ko'pincha to'g'ri ichak rakini tashxislash va postoperatsion davrda bemorning holatini kuzatish uchun ushbu o'sma markyori

tekshiriladi. O'sma to'liq va muvaffaqiyatli olib tashlangan bo'lsa, KEA miqdori pasayadi. Operatsiya qilingan bemorlarda ushbu ko'rsatkich miqdorining qayta oshishi kasallikning retsidivlanganligini va metastazlar bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Katta yoshli odamlarda α -fetoprotein konsentratsiyasi atigi 20 ng/ml ni tashkil qiladi. Jigar saratoni rivojlanganda qondagi α -FP konsentratsiyasi oshadi, shuning uchun bu oqsilning qondagi miqdorini aniqlash jigar saratoniga tashxis qo'yish va davolash samaradorligini baholash uchun ishlatiladi.

Xorionik gonadotropin, platsentar ishqoriy fosfataza va ba'zi boshqa yo'ldosh oqsillari ham ko'pincha o'sma markyorlari sifatida ishlatiladi. Odatda, xorionik gonadotropin umuman aniqlanmaydi yoki ahamiyatsiz konsentratsiyalarda mavjud. Homiladorlik paytida gormon sintez qilinib, qonga chiqarila boshlaydi va homiladorlikning 12-hastasida maksimal ko'rsatkichlarga yetadi (homiladorlik testi). Keyin uning miqdori asta-sekin kamayadi va tug'ruqqacha hamda tug'ruqdan keyin juda past darajada qoladi. Tuxumdonlar va urug'donlarning o'smalarida bu gormonning konsentratsiyasi ko'tariladi.

O'sma markyorlari sifatida differensial antigenlar ham ishlatiladi, ular limfotsitlarning organospetsifik va o'smaspetsifik glikoproteinlari bo'lib (to'qimaviy polipeptid antigen, to'qimaviy polipeptid spetsifik antigen va boshqalar), qonda monoklonal antitanachalar yordamida aniqlanadi.

Prostata saratoni uchun eng sezgir o'sma markyori prostataspetsifik antigen (PSA) hisoblanadi. Ayollarda u deyarli aniqlanmaydi, erkaklarda esa normada 2 ng/mg dan past bo'ladi, ammo prostata bezining xavfli va xavfsiz o'smalarida sezilarli darajada oshadi.

Gormonlar va ularning retseptori (estrogenlar va androgenlar, paratgormon, kalsitonin, o'sish gormoni, insulin, glikukagon, AKTG, katekolaminlar, serotonin) gormon ishlab chiqaruvchi a'zolarning o'sma markyorlaridir. Ularning miqdorini tekshirish klinik amaliyotda keng qo'llaniladi. Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlar uchun estrogen va progesteron retseptorlarini aniqlash kasallikning keyingi kechishini prognozlash uchun muhim

hisoblanadi. Retseptorlarning mavjudligi ko‘p holatlarda (50–75%) tamoksifen antiestrogen bilan davolashda ijobiy natijalarga erishishga imkon beradi va omon qolish darajasini oshiradi.

Ba’zi fermentlar va oqsillar tashxis qo‘yish hamda terapiya samardorligini nazorat qilish uchun ishlataladi. Masalan, o‘pka saratonining turli xil morfologik variantlari uchun nevronspetsifik yenolaza va bronxlar epiteliysi sitoskeletining struktur komponenti bo‘lgan sitokeratinning eruvchi fragmentini aniqlash muhim hisoblanadi. Biopsiya materialida D katepsinining yuqori faolligi o‘smaning metastazlanish qobiliyati kuchli ekanligini va bemorlarning omon qolish ehtimolligi pastligini bildiradi.

Kasallikning noxush kechishini ko‘rsatuvchi yana bir o‘sma markyori serinli proteazalarga mansub urokinaza tipidagi plazminogen aktivatorining yuqori faolligidir. Ushbu ferment plazmin hosil bo‘lishini katalizlaydi, plazmin esa metalloproteinazalarning faolla-shuvida ishtirok etadi va invaziyalanish hamda metastazlanish jara-yonlarini kuchaytiradi.

Davolashda kimyoterapiya, radioterapiya, radikal xirurgik terapiya va simptomatik terapiya qo‘llaniladi. Davolash taktikasi 2 asosiy talabni qondirishi kerak: sitostatik ta’sir (proliferatsiyani to‘xtatish) va sitotoksik ta’sir (o‘sma hujayralarini yo‘q qilish). Ammo kimyoterapiya barcha hujayralar uchun umumiyl bo‘lgan mexanizmlar asosida DNK sintezini va hujayralarning bo‘linishini to‘xtatadi, shuning uchun sog‘lom va tez ko‘payadigan hujayralar: soch follikulalari, gemopoez tizimi hujayralari va ichak epiteliysiga ham zararli ta’sir ko‘rsatadi. Davolashning muvaffaqiyati neoplastik hujayralarning normal hujayralarga nisbatan dorilarga yuqoriroq sezgirligi bilan bog‘liq. Kimyoterapiyada ishlataladigan dorilar DNKn shikastlaydigan alkillovchi vositalarni (siklofosfan, sisplatin, karboplatin va boshqalar); nuklein kislotalarning sintezini ingibirlovchi antimetabolitlarni (metotreksat, 5-florouratsil va sitozinabinozid); antibiotiklarni (doksorubitsin, karminomitsin va rubomitsin); gormonlarni (tamoksifen) va turli xil ta’sirga ega tabiiy birikmalarini (vincristin va vinblastin) o‘z ichiga oladi.

O‘sma kasalligini davolashda yangi dorilar va yondashuvlarning qo‘llanilishiga qaramay, ko‘p hollarda kimyoterapiya samarasiz bo‘lib qolmoqda. O‘sma qarshi dorilarning samaradorligini cheklaydigan asosiy omil o‘sma hujayralarining ularga nisbatan turg‘unlik paydo qilishidir. Bunday turg‘unlik birlamchi (dori preparati kiritilmasidan oldin ham turg‘unlik mavjud bo‘lsa) va ikkilamchi (dori preparatining kiritilishiga javoban turg‘unlik paydo bo‘lsa) bo‘lishi mumkin.

O‘sma hujayralarining dorilarga turg‘unligi quyidagi biokimyoviy mexanizmlar bilan tushuntirilishi mumkin:

- hujayralarda preparatning to‘planishining pasayishi;
- dori metabolizmining alternativ yo‘llarining paydo bo‘lishi;
- ushbu dori ta’sir qiladigan nishon-hujayralar strukturasining o‘zgarishi;
- apoptozning susayishi.

Nishon-hujayralarga dori moddalarning tanlab yo‘naltirilishi o‘sma va normal hujayralar yuzasida membrana antigenlari ekspresiyasi (o‘sish omillarining retseptorlari, karsinoembrional antigen va antitanachalar)ning farq qilishiga asoslangan. Saraton hujayralarining plazmatik membranasida bunday oqsillarning miqdori normal hujayralarga nisbatan juda ko‘p bo‘ladi. Ushbu oqsillarning ligandlarini dorining o‘tmishdoshini o‘sma hujayrasi yuzasida faol doriga aylan-tiradigan fermentni yetkazib olib borish uchun yoki shu oqsillar tufayli sitotoksik dorini endotsitoz yo‘li bilan turg‘unlik shakllantirmasdan nishon-hujayraga kiritish uchun ishlataladi.

Angiogenezni ingibirlash, ya’ni yangi qon tomirlarning paydo bo‘lishini bostirish o‘smaning o‘sishiga to‘sqinlik qiladi. Kapillyarlar endotelial hujayralari proliferatsiyasini yaqinda kashf etilgan angiogenet ingibitorlari: angiotatin yoki trombospondin bilan bostirish mumkin.

Gen terapiyasi deganda irlsiy va o‘sma kasalliklarini davolashda genlardan foydalanish tushuniladi. Davolashning ushbu usuli “terapevtik” genni o‘zida saqlagan rekombinant DNKn olish imkonini beruvchi gen injeneriyasi yutuqlari tufayli tobora ko‘proq haqiqatga aylanib bormoqda. Bunda asosiy qiyinchilik bemor organizmiga kiritiladigan genni o‘z joyiga yetkazib olib boradigan usulni ishlab chiqish bilan bog‘liq.

II QISM FUNKSIONAL BIOKIMYO

8-BOB QON BIOKIMYOSI

8.1. Qonning umumiy va maxsus xususiyatlari

Qon — kimyoviy moddalarning tashilishini amalga oshiruvchi, qon tomirlari orqali yopiq tizimda harakat qiluvchi, harakatchan suyuq to‘qima bo‘lib, u tufayli turli to‘qimalar va hujayralararo bo‘shliqda metabolik jarayonlar nazorat qilinadi. Qon organizmda turli vazifalarni bajaradi.

Qonning vazifalari:

1. **Nafas olish vazifikasi.** Qon gazlarni tashiydi: O₂ ni o‘pkadan a’zo va to‘qimalarga, SO₂ ni aksincha o‘pkaga;

2. **Trofik.** Qon a’zo va to‘qimalarga oziqaviy moddalarni yetkazib beradi;

3. **Ekskretor.** Qon to‘qimalardan metabolizmning oxirgi mahsulotlari: siydkhil, siydk kislotosi va ayiruv a’zolari tomonidan organizmdan ajratiladigan moddalarni chiqarib tashlaydi;

4. **Kommunikativ.** Qon gormonlarni hosil bo‘lish joyidan nishon-a’zolarga tashilishini ta’minkaydi;

5. **Transport.** Qon a’zo va to‘qimalarga hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan turli moddalar, gazlar va modda almashinuv mahsulotlarini yetkazib beradi;

6. **Termoregulyator.** Qon organizmda issiqlik energiyasini to‘g‘ri taqsimlash vazifasini bajaradi;

7. **Kislota-ishqor muvozanatini ushlab turish.** Qon o‘z tarkibida turli bufer tizimlarini saqlaydi va ular hisobiga kislota-ishqor muvozanatini ushlab turishda ishtirot etadi;

8. **Himoya.** Qon spetsifik va nospetsifik immunitet tizimi yordamida organizmni tashqi va ichki omillardan himoya qiladi.

Shunday qilib, qon organizmda gomeostazni ushlab turilishini ta’minkaydi.

Qon plazma va muallaq holdagi shaklli elementlardan tashkil topgan. Undagi plazma ulushiga qonning umumiyligi hajmini 55 % to‘g‘ri keladi. Eritrotsitlar qonning umumiyligi hajmidagi shaklli elementlarning asosiy massasi – 44 %ni tashkil etadi, boshqa shaklli elementlar ulushiga faqat 1 %ga yaqin massa to‘g‘ri keladi. Qonning boshqa elementlariga leykotsitlar va trombotsitlar to‘g‘ri keladi. Agar yangi qonni xona haroratida shisha idishga solib qo‘yilsa (20°C), ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng qonli laxta (tromb) hosil bo‘ladi va sariq rangdagagi suyuqlik – qon zardobi ajralib chiqadi. U plazmadan tarkibida fibrinogen va qon ivish tizimining ba’zi oqsil (omil) larini bo‘lmasligi bilan farqlanadi. Me’yorda qonning hajmi erkaklarda o‘rtacha 5200 ml, ayollarda esa – 3900 ml ni tashkil etadi. Me’yorda yangi qonning nisbiy zichligi 1,050 – 1,064, plazmaniki – 1,024 – 1,030, hujayralarni esa – 1,080 – 1,097 ni tashkil etadi. Qon tarkibida oqsil va eritrotsitlar miqdori yuqori darajada bo‘lganligi sababli sezilarli qovushqoqligka ega bo‘ladi. Qonning qovushqoqligi suvning qovushqoqligidan 4–5 marta yuqoridir.

8.2. Qonning kimyoviy tarkibi

Me’yorda qonning kimyoviy tarkibi nisbatan doimiydir (8.1-jadval). Bu organizmda jigar, buyraklar, o‘pka va yurak-qon tomir tizimi kabi a’zo va to‘qimalar ishidagi o‘zaro aloqani ta’minkovchi boshqaruv mexanizmlarining (markaziy asab sistemasi, gormonal tizim va h.k.) mavjudligi bilan tushuntiriladi. Qon tarkibining yoshga bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xosliklari 8.2-jadvalda keltirilgan.

Qon plazmasining tarkibi. Qon plazmasining 90 % suvdan iborat bo‘lib, faqat 10 % erigan moddalardan, jumladan: 6–8 % – oqsillar, 2% – oqsil bo‘lmagan organik birikmalar va 1 % – anorganik tuzlardan iboratdir.

8.3. Qon plazmasi oqsillari

8.3.1. Umumiy ma'lumotlar

Qon plazmasida 200 turdan ortiq oqsillar aniqlangan, ular plazma hajmining o'rtacha 7 %ini tashkil etadi.

8.1-jadval

Qon plazmasida erigan kimyoviy moddalarning tarkibi

Guruh	Modda	Plazma
Erituvchi	Suv	90 – 91 %
Quruq qoldiq	Organik va neorganik moddalar	9 – 10 %
Uglevodlar	Glyukoza	4,22 – 5,6 mmol/l
Lipidlar	Umumiylipidlar	4 – 8 g/l
	Umumiylolesterolin	< 5,2 mmol/l
	Triatsilglitserollar	0,50 – 2,10 mmol/l
	Erkin yog' kislotalari	400 – 800 mkmol/l
	Zichligi yuqori lipoproteidlar	0,9 – 1,9 mmol/l
	Zichligi past lipoproteidlar	< 2,2 mmol/l
	Aterogenlik koeffitsiyenti	3 birlikkacha
Oqsillar	Umumiyoqsil	70 – 90 g/l, 7 %
	Albuminlar	54 – 62 %
	Globulinlar	33,5 – 43,5 %
	α_1 -globulinlar	2,5 – 5,0 %
	α_2 -globulinlar	5,1 – 9,2 %
	β -globulinlar	8,1 – 12,2 %
	γ -globulinlar	12,8 – 19,0 %
Fermentlar	AST	40 Me gacha
	ALT	30 Me gacha
	Kreatinkinaza	6 Me (kreatin bo'yicha) gacha
	Lipaza	0 – 28 Me
	Nordon fosfataza	10 Me gacha
	Ishqoriy fosfataza	120 Me gacha
	LDG	460 Me gacha

Past molekulyar organik moddalar	Laktat	0,99 – 1,75 mmol/l
	Kreatinin	50 – 115 mkmol/l
	Siydikchil	2,5 – 6,4 mmol/l
	Siydik kislotasi	214 – 458 mkmol/l (erkak) 149 – 404 mkmol/l (ayol)
	Aminokislotlar	48 – 68 mg/l
	Umumiy bilirubin	8,5 – 20,5 mkmol/l
	Bevosita bilirubin	0 – 5,1 mkmol/l
	Bilvosita bilirubin	do 16,5 mkmol/l
	Natriy	135 – 152 mmol/l
	Kaliy	3,6 – 6,3 mmol/l
Mineral moddalar, umumiyl miqdori 0,9 %	Kalsiy	2,2 – 2,75 mmol/l
	Magniy	0,7 – 1,2 mmol/l
	Xloridlar	95 – 110 mmol/l
	Noorganik fosfatlar	0,81 – 1,55 mmol/l
	Umumiy karbon kislota	22,2 – 27,9 mmol/l
	Temir	8,95 – 28,65 mkmol/l (erkak) 7,16 – 26,85 mkmol/l (ayol)
	Mis	11 – 22 mkmol/l (erkak) 11 – 24,4 mkmol/l (ayol)
Gormonlar	Ayrim ichki sekretsiya bezlari gormonlari	$10^{-6} – 10^{-12}$ mmol/l
Eriyan gazlar	Kapillyar qon pSO ₂	32 – 48 mm.s.u
	Venoz qon pSO ₂	42 – 55 mm.s.u
	Kapillyar qon pO ₂	83 – 108 mm.s.u
	Venoz qon pO ₂	37 – 42 mm.s.u

8.2-jadval

Qon tarkibining yoshga bog'liq xususiyatlari


Ko'rsatkich	Yosh						
	1 kun	1 oy	6 oy	1 yosh	1-6 yosh	12 yosh	13-15 yosh
Gemoglobin, g/l	180-240	115-175	110-140	110-135	110-140	110-145	115-150
Eritrotsitlar, 10¹²/l	4,3-7,6	3,8-5,6	3,5-4,8	3,6-4,9	3,5-4,5	3,5-4,7	3,6-5,1
Leykotsitlar, 10⁹/l	8,5-24,5	6,5-13,5	5,5-12,5	6,0-12	5-12	4,5-10	4-15
Trombotsitlar, 10⁹/l	180-490	180-400	180-400	180-400	160-390	160-380	160-360

Qon plazmasidagi oqsillar asosan jigar va makrofaglarda, shuningdek tomirlar endoteliysi, ichaklar, limfotsitlar, buyraklar va endokrin bezlarida sintezlanadi. Qon plazmasidagi oqsillar jigar, buyraklar, mushaklar va boshqa a'zolar tomonidan parchalanadi. Qon plazmasidagi oqsillarning yarim yashash davri bir necha soatdan bir necha haftagacha bo'lgan muddatlarni tashkil etadi.

Plazma oqsillarini tuzlash usuli bilan 3 fraksiyaga ajratish mumkin: albuminlar, globulinlar va fibrinogen (8.1-rasm). Qog'ozdag'i elektroforez qon plazmasidagi oqsillarni 6 fraksiyaga ajratish imkonini beradi:

1. Albuminlar — 54–62 %;
2. α_1 -Globulinlar — 2,5–5 %;
3. α_2 -Globulinlar — 5,1–9,2 %;
4. β -Globulinlar — 8,1–12,2 %;
5. γ -Globulinlar — 12,8–19,0 %
6. Fibrinogen (startda qoladi) — 2–4 %.

Elektroforez — bu shunday usulki, unda turlichay zaryadlangan va og'irlikdagi moddalar doimiy elektr maydonida bir-biridan ajraladi. Elektroforez turli tashuvchilarda o'tkaziladi, bunda turli miqdordagi fraksiyalar olinadi. Zamonaviy usullar 60 dan ortiq individual qon plazmalarini olish imkonini beradi.



8.1-rasm. Qon zardobi oqsillarini elektroforegrammasi va oqsil fraksiyalarining tarkibi

Qon oqsillari ko'p sonli vazifalarni bajaradi:

1. Qondagi kolloid-osmotik bosim doimiyligini ushlab turadi.
 2. Kislot-aishqor tarkibining boshqaruvi holatida ishtirok etadi;
 3. Kalsiy, magniy, temir, mis va boshqa ionlar kationlarini tashiydi va bog'langan holatda ushlab turadi, ularni peshob bilan chiqib ketishiga qarshilik qiladi;
 4. Uglevodlar, lipidlar, gormonlar, dori moddalari, vitaminlar, zaharli moddalarni bog'lab oladi va tashiydi;
 5. Qonning qovushqoqligini belgilab beradi va qon oqimida eritrotsitlar hamda leykotsitlarning turg'unligini saqlaydi, kapillyarlarda me'yordagi qon oqimini ta'minlaydi (qonning reologik xususiyatlari);
 6. Maxsus oqsillar qon ivishida ishtirok etadi (fibrinogen, prothrombin, antigemofil globulin va boshqalar);
 7. Organizmning immun himoyasini ta'minlaydi (immunoglobulinlar, komplementning tizim omillari, transferrin va properdin);
 8. Aminokislotalar zaxirasi bo'lib hisoblanadi.
- Qon plazmasidagi oqsillar tuzilmasi.** Qon plazmasidagi oqsillar tuzilmasiga ko'ra globulyar bo'lib hisoblanadi, tarkibiga ko'ra esa

oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Albuminlar oddiy oqsillardir. Murakkab oqsillarga esa lipoproteinlar (XM, ZJPLP, OZLP, ZPLP, ZYU LP), glikoproteinlar hamda metalloproteinlarni (transferrin, seruloplazmin) kiradi.

Qon plazmasidagi oqsillarning umumiy miqdori me'yorda 70–90 (60 – 80) g/l ni tashkil etadi. Qon plazmasidagi oqsillarning umumiy miqdorini ortishi **giperproteinemiya**, kamayishi esa – **gipoproteinemiya** deb nomlanadi. Giperproteinemiya degidratatsiyalarda (nisbiy), jarohatlarda, kuyishda, mieloma kasalligida (absolyut) yuzaga kejadi. Gipoproteinemiya tanadagi shishlar qaytganda (nisbiy), ochlikda, jigar patologiyalarida, buyrak kasalliklarida, qon yo'qotishda (absolyut) yuzaga keladi. **Disproteinemiya** – qon plazmasida umumiy oqsillarning me'yordagi miqdori fonida oqsil fraksiyalarining foiz nisbatini o'zgarishi, masalan, albuminlar miqdorini pasayishi va turli yallig'lanish kasalliklarida bir yoki bir necha globulin fraksiyalarini miqdorini ortishi. **Paraproteinemiya** – qon plazmasida patologik immunoglobulinlar – paraproteinlarning paydo bo'lishi. Bunday oqsillarga krioglobulinlar, α -fetoglobulin, karsinoembrional antigen kiradi.

8.3.2. Qon plazmasidagi oqsil fraksiyaları

I. Albuminlar. Molekulyar og'irligi 70000 D ga yaqin bo'lgan oqsillardir. Ushbu fraksiyadagi asosiy oqsil albumin bo'lib hisoblanadi. Qon tarkibidagi albuminning vazifalari:

— *Tashuvchilik.* Albumin erkin yog' kislotalari, o't kislotalari, konyugirlanmagan bilirubin, Ca^{2+} , Cu^{2+} , triptofan, gormonlar (tiroksin va triyodtironin, aldosteron, progesteron, gidrokortizon), vitamintarni tashiydi. Ko'plab dori vositalari (digoksin, barbituratlar, penitsilin, atsetilsaltsil kislota, yurak glikozidlari, dikumarol, sulfanilamidiilar) qonda albumin bilan bog'lanadi. Bu holatni gipoalbuminemiyasi bilan kuzatiluvchi kasalliklarni davolashda hisobga olish zarur, chunki bunday holatlarda qon tarkibida dori vositasining erkin konsentratsiyasi ortib ketadi.

— *Holloid-osmotik bosimni ushlab turish.* Nisbatan uncha katta bo'lмаган molekulyar og'irligi hamda yuqori konsentratsiyasi sababli

albumin plazmaning 80%igacha bo'lgan osmotik bosimini ta'minlaydi. Albumin molekulasi ko'p miqdorda dikarboksil aminokislotalarni saqlaydi, shu sababli qon zardobida musbat zaryadlangan Ca^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Na^+ ionlarni ushlab turadi va shu yo'l bilan qonning osmotik bosimini sezilarli qismi yuzaga keladi. Albuminning 40 %iga yaqini qon tarkibida, qolgan 60 % esa hujayralararo suyuqlikda bo'ladi.

Albumin qondan hujayralararo suyuqlikka kelib tushadi, undan limfatik tizim bo'ylab yana qonga keladi. Kapillyarlar o'tkazuvchanligi oshganda albumin katta miqdorda hujayralararo suyuqlikka ajralib chiqadi. Tananing turli qismlarida osmotik bosim turlicha bo'lishi mumkin emasligi sababli, albumin va Na^+ ionlari bilan qondan hujayralararo bo'shliqqa suv chiqsa boshlaydi.

Albumin konsentratsiyasi kamayganda qon plazmasidagi osmotik bosim pasayadi. Bu tomirlar oqimi va hujayralararo bo'shliq o'rtasidagi hujayradan tashqari bo'lgan suyuqlikda taqsimlanish muvozanating buzilishiga olib keladi. Klinik bu xuddi shish kabi namoyon bo'ladi. Qon oqimining sekinlashishiga olib keluvchi qon aylanishini buzilishlarida (yurak kasalliklarida, trombozlar va venalarni kengayishida), shuningdek albuminni hujayralararo bo'shliqqa chiqishi kuchayadi. Bunday holatlarda reaksiyani sekin yuzaga kelishi sababli, qon hajmining kamayishi tiklanayotgan qon hajmidagi renin-angiotenzin-aldosteron tizimlarining ta'siri ostida qoplanadi. Bunday holatlarda tanada chanqash hissi paydo bo'ladi, biroq ichilgan suv qondan hujayralararo bo'shliqqa ketadi, buning natijasida shish paydo bo'ladi.

Qondagi albumin konsentratsiyasi pasayishi mumkin va buyrak kasalliklarida (albuminuriya) uning peshob bilan ajralishi natijasida shishlarga olib kelishi mumkin. Sutka davomida inson jigari 10–15 g albumin sintez qilishi va qonga ajratishini hisobga olsak, jigarning ba'zi kasalliklarida masalan, jigar sirrozida ham albuminning hosil bo'lishi buzilishi hisobiga shishlar yuzaga kelishi mumkin. Agarda kapillyarlarning o'tkazuvchanligining ortishi tezda yuzaga kelsa (og'ir shikastlanish va kuyishlarda), bunda qon hajmi keskin kamayadi, qon oqimi keskin tushiib ketadi, shok holati rivojlanadi.

Shuningdek, albuminlar aminokislotalarning boy va yaxshi o'slashtiriluvchi zaxirasi bo'lib xizmat qiladi.

II. α_1 -globulinlar

Nordon α_1 -glikoprotein (orozomukoid). 40 %gacha uglevodlarni saqlaydi, uning izoelektrik nuqtasi nordon muhitda joylashgan ($\text{pH}=2,7$). Mazkur oqsilning vazifasi hali oxirigacha aniqlanmagan.

α_1 -Antitripsin (α_1 -proteinaza ingibitori). Glikoprotein, jigarda hosil bo‘ladi, o‘tkir faza oqsili hisoblanadi, proteinazalar (tripsin, ximotripsin, kallikrein, plazmin va leykotsitlar elastazasi) ingibitori va qonning umumiy antiproteolitik funksiyasining 92–94% α_1 -antitriptinsinga to‘g‘ri keladi.

Retinolbog‘lovchi oqsil. Yog‘da eruvchi A vitaminini tashish vazifasini bajaradi.

Tiroksinbog‘lovchi oqsil. Qalqonsimon bezning yod saqlovchi gormonlarini bog‘lab oladi va tashiydi.

Transkortin. Glyukokortikoid gormonlarini (kortizol, kortikosteron) bog‘lab oladi va tashiydi.

III. α_2 -Globulinlar.

Gaptoglobinlar (25 %ni α_2 -globulinlar). O‘tkir faza oqsillarining haqiqiy vakillari bo‘lib, jigarda hosil bo‘ladi va organizmning ko‘plab suyuqliklarida: likvor, limfa, sinovial suyuqlik, o‘t tarkibida past konsentratsiyada mavjud bo‘ladi. Eritrotsitlarning tomir ichi gemolizi natijasida plazmada paydo bo‘luvchi gemoglobin bilan turg‘un kompleks hosil qiladi. Gaptoglobin-gemoglobin komplekslari RES hujayralari tomonidan yutiladi, bu yerda oqsil zanjiri parchalanadi, temir esa gemoglobin sintezi uchun takroriy qo‘llaniladi. Bu bilan organizmda temirni yo‘qotilishi va buyraklarni gemoglobin bilan shikastlanishining oldi olinadi.

Seruloplazmin. Mis ionlarini saqlovchi oqsil seruloplazminning bir molekulasi 6 – 8 ion Cu^{2+} saqlaydi, bu unga moviy rang beradi. Bu o‘tkir faza oqsili bo‘lib, plazmadagi barcha mis ionning 90% ini saqlaydi va apotransferrinning temir bilan to‘yinishiga olib keladi, biogen aminlar (adrenalin, noradrenalin, serotonin) va askorbin kislotasi almashinuvida ishtirok etadi. Organizmda mis ionlarini tashish shakli bo‘lib hisoblanadi.

IV. β -Globulinlar.

β -globulinlarning fraksiyalari lipoproteinlar (ZJPLP, OZLP, ZPLP, ZYU LP), transferrin, gemopeksin, komplement komponentlarini saqlaydi.

Transferrin – β -globulin fraksiyasining asosiy oqsili, turli to‘qimalar, ayniqsa qon hosil qiluvchi to‘qimalarda Fe^{3+} ni tashish va bog‘lab olishda ishtirok etadi. Transferrin qonda Fe^{3+} miqdorini boshqaradi, uni ortiqcha to‘planishi va peshob bilan chiqib ketishining oldini oladi.

Gemopeksin gemni bog‘laydi va uni buyraklar orqali chiqib ketishining oldini oladi.

S-reaktiv oqsili (S-RO) – pnevmokokklarning S-polisaxaridi bilan pretcipitatsiya reaksiyasiga kirishish qobiliyatiga ega bo‘lgan oqsil. Sog‘lom organizmning qon zardobida S-reaktiv oqsil uchramaydi, ammo yallig‘lanish va to‘qimalar nekrozi bilan kuzatiluvchi patologik holatlarda aniqlanadi.

V. γ -globulinlar – qon zardobidagi himoya oqsillari

Himoya oqsillariga immunoglobulinlar va interferonlar kiradi.

Immunoglobulinlar (antitanalar) – organizmga yot tuzilma (antigen)larni tushishiga javob sifatida hosil bo‘luvchi oqsillar guruhi. Ular limfa tugunlarida va taloqdagil V limfotsitlar tomonidan hosil qilinadi. Immunoglobulinlarning 5 sinfi – IgA, IgG, IgM, IgD va IgE ajratiladi.

Interferonlar – bu glikoproteinlardir. 26 kDa ga yaqin molekulyar og‘irlikka ega. Turga xos spetsifiklikka ega. Viruslarni kirishiga javob sifatida hujayralarda hosil bo‘ladi. Sog‘lom kishilar plazmasida uning konsentratsiyasi oz miqdorda bo‘ladi. Ammo virusli kasalliklarda ularning konsentratsiyasi ortadi.

8.3.3. Yallig‘lanishning o‘tkir faza oqsillari

Shikastlanishda javob reaksiyasi sifatida yuzaga keladigan yallig‘lanish mexanizmida ishtirok etuvchi 30 ga yaqin oqsillar “o‘tkir faza oqsillari” tushunchasi bilan birlashtiriladi. O‘tkir faza oqsillari jigarda hosil bo‘ladi hamda ularning konsentratsiyasi kasallikning bosqichi, kechishi va shikastlanishning darajasiga bog‘liq

ravishda sezilarli o'zgaradi. O'tkir fazada oqsillariga C-reaktiv oqsil, zardobning A amiloidi, gaptoglobin, α_2 -makroglobulin, seruloplazmin, α_1 -glikoprotein, α_1 -antitripsin, orozomukoid, interferon, krioglobulin, C1-C4, C9 komplementlar komponentlari kiradi. Shuningdek, transferrin ham o'tkir fazada oqsillariga kiradi, ammo yallig'lanishlarda uning konsentratsiyasi pasayadi – salbiy oqsil. Qonda o'tkir fazada oqsillari konsentratsiyasining ortishi nafaqat ochiq, balki yashirish yallig'lanishlar uchun ham yaxshi indikator bo'lib hisoblanadi (masalan, ateroskleroz). Mazkur oqsillarning hosil bo'lishi tezligi birinchi navbatda albuminlar, transferrinlarning hosil bo'lishini pasayishi hisobiga ortadi, ularning konsentratsiyasi o'tkir yallig'lanishlarda mos holda pasayadi.

8.3.4. Bolalardagi oqsil fraksiyalarini miqdorining o'ziga xosliklari

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori kattalarga nisbatan sezilarli darajada kam va hayotining birinchi oyi oxiriga kelib, eng kam darajaga tushadi (48 g/l gacha). Bolalar hayotining ikkinchi, uchinchi yillariga kelib, umumiy oqsil kattalar darajasigacha ortadi.

Chaqaloqlar hayotining birinchi oyi davomida globulin fraksiyalarining konsentratsiyasi past bo'lib, bu 66–76 %gacha bo'lgan salbiy giperalbuminemiyaga olib keladi. 2–12 oylar o'rtaсидаги даврда α_2 -globulinlar konsentratsiyasi vaqtinchalik kattalar darajasidan ortadi.

Tug'ilganda fibrinogenlar miqdori kattalarga nisbatan ancha past (2,0 g/l ga yaqin), ammo birinchi oyning oxiriga kelib, odatiy me'yorga yetadi (4,0 g/l).

8.3.5. Qon plazmasining fermentlari

Qon plazmasida mavjud bo'lgan fermentlarni 3 asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. *Sekretor*. Ular jigar, tomirlar endoteliysi, ichaklarda hosil bo'ladi, o'z vazifasini bajarish uchun qonga tushadi. Masalan, qon tizimi-dagi ivituvchi va ivitishga qarshi ta'sir qiluvchi fermentlar (trombin,

plazmin), lipoprotein almashinuv fermentlari (LXAT, LPL). Plazmada ushbu fermentlar faolligini pasayishi hujayralarning sintetik qobilyatini pasayganligidan yoki qon plazmasida ingibitorlarni to'planligidan guvohlik beradi.

2. *To'qima yoki indikator fermentlar*. A'zo va to'qima hujayralining fermentlari. Ular qonga hujayra devorlarining o'tkazuvchanligi oshganda yoki to'qima hujayralari nobud bo'lganda tushadi.

Turli hujayralarda turli fermentlar ustunlikka ega bo'ladi, shuning uchun u yoki bu a'zo shikastlanganda qonda unga xos bo'lgan ferment paydo bo'ladi. Bu kasalliklarni tashxislashda qo'llanilishi mumkin. Masalan, jigar hujayralari shikastlanganda (*hepatit*) qonda alaninaminotranferaza (ALT), laktatdegidrogenazaning izoshakli – LDG5, glutamatdegidrogenaza, ornitinkarbamoiltransferaza faolligi ortadi. Miokard hujayralari shikastlanganda (*infarkt*) qonda aspartataminotransferaza (ACT) va laktatdegidrogenazaning izoshakli – LDG1, kreatinkinazaning MB izoshakli faolligi ortadi. Me'da osti bezi hujayralari shikastlanganda (*pankreatit*) qonda tripsin, α -amilaza, lipaza faolligi ortadi.

3. *Ekskretor*. Me'da ichak tizimi bezlari (jigar, me'da osti bezi, so'lak bezlari) sintezlanib tomonidan, me'da ichak tizimi bo'shlig'iga ajraluvchi hamda ovqat hazm qilish jarayonida ishtirok etuvchi fermentlar. Qonda bu fermentlar ularga mos bo'lgan bezlar shikastlanganda paydo bo'ladi. Masalan, pankreatitda qonda lipaza, amilaza, tripsin faolligi aniqlanadi; so'lak bezlari yallig'langanda — amilaza, xolestazda — ishqoriy fosfataza (jigardan) faolligi aniqlanadi. Mazkur fermentlar faolligini o'rganish, ularga mos bo'lgan a'zoning funksiyasi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

8.3.6. Qonda fermentlar faolligini o'zgarishi sabablari

Odatda, qon zardobida hujayra metabolizmi fermentlarining faolligini o'zgarish darajasi a'zoning shikastlanish darajasiga, to'qimalar o'rtaсида fermentlarning taqsimlanishiga, hujayraichi organellalarida fermentlarning joylashuviga bog'liq bo'ladi.

Qon zardobida faollikning ortishi quyidagi jarayonlardagi o'zgarishlar natijasi bo'lishi mumkin:

- sintez — raxit va gepatitda ishqoriy fosfataza;
- hujayralar nekrozi — miokard infarktida AIAT, AsAT, LDG, KK, pankreatitda lipaza, amilaza; prostata adenomasida nordon fosfataza;
- chiqarib yuborilishni pasayishi — o't-tosh kasalligida ishqoriy fosfataza;
- hujayra membranalari o'tkazuvchanligining ortishi — gepatitda AIAT, AsAT, LDG.

Faollikning pasayishi esa quyidagilar tomonidan chaqiriladi:

- fermentlarni hosil qiluvchi hujayralar sonining kamayishi (jigar sirrozida xolinesterazalar);
- hosil bo'lishni yetarli miqdorda bo'lmasligi;
- fermentlarni chiqarib yuborilishini ortishi;
- proteinaza ta'siri natijasida faollikning to'xtab qolishi.

Ayrim fermentlar faolligi orasidagi nisbatni aniqlash ma'lum tashxisiy ahamiyatga egadir (qonning ferment spektri). Bunda alohida kasalliklar uchun ishonchli ferment o'zgarishlarini aniqlashga erishiladi.

Masalan, o'tkir gepatitlar alanin- va aspartataminotransferazalar hamda aldolaza faolligining keskin ortishi bilan tavsiflanadi; miokard infarktida laktatdegidrogenaza, kreatinkinaza va aspartataminotransferazalar faolligining ortishi kuzatiladi; mexanik sariqlikda amino-transferazalar va aldolazalar faolligining sezilarsiz ortishi fonida ishqoriy fosfataza faolligining sezilarli ortishi kuzatiladi.

8.4. Qonning oqsil bo'limgan azot komponentlari (qoldiq azot)

Oqsil bo'limgan azotli moddalarga quyidagilar kiradi: mochevina, siydiq kislotasi, aminokislotlar, kreatin, kreatinin, ammiak, indikan, bilirubin va boshqalar. Sog'lom kishilar qon plazmasida qoldiq azot miqdori – 15–25 mmol/l ni tashkil etadi. Qonda qoldiq azot miqdorining ortishi **azotemiya** deb nomlanadi. Sababiga bog'liq holda azotemiya retension va produksion turlarga bo'linadi.

Produksion azotemiya azotli moddalarni qonga haddan ortiq ko'p tushganida rivojlanadi va bu to'qima oqsillarining kuchli parchalanishidan guvohlik beradi. Bu holat uzoq vaqt och yurish, qandli diabet, og'ir jarohatlanish va kuyishlarda, yuqumli kasalliklarda kuzatiladi. Retension azotemiya peshob bilan azot almashinuv mahsulotlarining (birinchi navbatda mochevinani) chiqarilishini buzilishida yuzaga keladi va buyraklar funksiyasidagi yetishmovchiliklarga xos bo'lib hisoblanadi.

Mochevina – inson organizmidagi oqsillar almashinuvining asosiy yakuniy mahsuloti. Jigarda ammiakni zararsizlantirish natijasida hosil bo'ladi va organizmdan buyraklar orqali chiqarib yuboriladi. Jigar kasalliklarida qonda mochevina miqdori pasayadi va buyraklar yetishmovchiligida esa ortadi.

Aminokislotalar – me'da ichak yo'llaridan so'riliş natijasida qonga kelib tushadi yoki to'qima oqsillarining parchalanish mahsuloti hisoblanadi.

Siydik kislotasi – purin nukleotidlari katabolizmining yakuniy mahsulotidir. Uning qondagi miqdori xaddan tashqari ko'p hosil bo'lish (podagrada) yoki yetarli miqdorda chiqarib yuborilmaslik (buyraklar funksiyasining buzilishida) natijasida ortishi mumkin.

Kreatin – jigar va buyraklarda hosil bo'ladi, mushaklarda kreatinfosfatga aylanadi. Bu makroergik birikma bo'lib, mushaklar qisqarishida energiya manbayi sifatida qo'llaniladi. Mushaklar tizimi kasalliklarida qondagi kreatin miqdori sezilarli ortadi.

Kreatinin – azot almashinuvning yakuniy mahsuloti, mushaklarda kreatinfosfatni defosforillanishi natijasida hosil bo'ladi, organizmdan buyraklar orqali chiqariladi. Mushak tizimlari kasalliklarida qondagi miqdori kamayadi, buyraklar yetishmovchiligida – ortadi.

Indikan – indolni zararsizlantirish mahsuloti, jigarda hosil bo'ladi, buyraklar orqali chiqariladi. Uning qondagi miqdori jigar kasalliklarida pasayadi, ichaklarda oqsillarni chirish jarayonlarining kuchayishida, buyrak kasalliklarida ortadi.

Bilirubin (bevosita va bilvosita) – gemoglobin katabolizmining mahsulotlari. Qondagi bilirubin miqdori turli genezli sariqliklarda ortadi: gemolitik (bilvosita bilirubin hisobiga), obturatsion (bevosita bilirubin hisobiga), parenximatoz (har ikki fraksiya hisobiga).

8.5. Qonning azotsiz organik komponentlari

Bu guruhga oziqaviy moddalar (uglevodlar va lipidlar) va ularning metabolizm mahsulotlari (organik kislotalar) kiradi.

Glyukoza — organizmning eng asosiy energetik substrati. Sog'lom odamlar qonida, nahorgi glyukoza miqdori — 3,3–5,5 mmol/l ni tashkil etadi. Qonda glyukoza miqdorining ortishi (*giperglykemija*) ovqat iste'molidan keyin, emotsiyal zo'riqishlarda, qandli diabet bilan og'igan bemorlarda, gipertireozda, Itsenko-Kushing kasalligida va boshqalarda kuzatiladi. Qonda glyukoza miqdorining pasayishi (*gipoglikemija*) ochlikda, jadal jismoniy yuklamalarda, spirtli ichimliklar bilan o'tkir zaharlanishda, insulin dozasi ortib ketganda va boshqalarda kuzatiladi.

Xolesterol — biologik membranalarning majburiy lipid komponenti, steroid gormonlari, vitamin D₃, o't kislotalarining o'tmishdoshi hisoblanadi. Sog'lom kishilar qon plazmasidagi uning miqdori — 3,9–5,5 mmol/l ni tashkil etadi. Qonda xolesterol miqdorining ortishi (*giperxolesterolemija*) aterosklerozda, qandli diabetda, miksedemada, o't-tosh kasalliklarida kuzatiladi. Qonda xolesterol miqdorining pasayishi (*gipoxolesterolemija*) gipertireozda, jigar sirrozida, ichak kasalliklarida, ochlikda, o't haydovchi dori vositalarini qabul qilganda aniqlanadi.

Erkin yog' kislotalari (EYOK) a'zo va to'qimalar tomonidan energetik material sifatida foydalaniлади. Qonda EYOKning miqdori ortadi; gipotireozda, insulin kiritilganda esa pasayadi.

Ketontanachalari. Ketontanachalariga atseton, β -gidroksibutirat, atseton kabi yog' kislotalarining to'liq oksidlanmagan mahsulotlari kiradi. Qonda keton tanachalari miqdorining ortishi (*giperketonemija*) ochlikda, tana harorati yuqori bo'lgan holatlarda, qandli diabetda kuzatiladi.

Sut kislotasi (laktat) — uglevodlarning anaerob oksidlanishining yakuniy mahsuloti. Uning qon tarkibidagi miqdori gipoksiyada (jismoniy yuklamalar, o'pka, yurak, qon kasalliklarida) ortadi.

Pirouzum kislota (piruvat) — ba'zi aminokislotalar va uglevodlar katabolizmining oraliq mahsuloti hisoblanadi. Qonda pirouzum kislota miqdorining keskin ortishi mushaklarning zo'riqib ishlashida va B₁ vitamini yetishmovchiligidagi qayd etiladi.

8.6. Qon plazmasidagi mineral komponentlar

Mineral moddalar qon plazmasining zaruriy komponenti bo'lib hisoblanadi. Natriy, kaliy, kalsiy va magniy ionlari muhim kationlar bo'lib hisoblanadi. Ularga xloridlar, bikarbonatlar, fosfatlar va sulfatlar kabi anionlar mos keladi. Qon plazmasidagi kationlarning bir qismi organik anionlar va oqsillar bilan bog'langan. Barcha kationlar yig'indisi anionlar yig'indisiga teng, chunki qon plazmasi elektroneytraldir.

Natriy — hujayra tashqi suyuqligining asosiy kationi. Qon plazmasida uning miqdori 135–152 mmol/l ni tashkil etadi. Odatda, gipernatriemiyada organizm gipergidratatsiyasiga bog'liq bo'lgan sindrom rivojlanadi. Qon plazmasida natriyning to'planishi parenximatoz nefrit kabi alohida buyrak kasalliklarida, tug'ma yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda, birlamchi va ikkilamchi giperdosteronizmda kuzatiladi. Giponatriemiyada organizmning degidratasiysi bilan birga kuzatiladi. Natriy almashinuvini normallashtirishga, hujayradan tashqi bo'shliq va hujayralarda uning yetishmasligini hisobga olgan holda, natriy xlorid eritmasini kiritish bilan erishiladi.

Kaliy — asosiy hujayra ichi kationi bo'lib hisoblanadi. Qon plazmasida uning miqdori 3,6 – 6,3 mmol/l, eritrotsitlarda esa — 73,5–112 mmol/l ni tashkil etadi. Giperkaliemiyada o'tkir buyrak yetishmovchiligidagi va buyrak usti bezining po'stloq moddasi gipofunksiyasida kuzatiladi. Aldosteronning yetishmasligi peshob bilan suv va natriyni ajralib chiqishini kuchayishiga va organizmda kaliyning ushlanib qolishiga olib keladi. Gipokaliemiyada aldosteronning gipersekretsiyasida va davolash maqsadida buyrak usti bezi po'stloq moddasi gormonlarini katta miqdorda kiritishda kuzatiladi.

Kalsiy — eritrotsitlarda juda ham kam miqdorda kalsiy aniqlanadi, shu bilan birga plazmada uning miqdori 2,25–2,80 mmol/l ni tashkil

etadi. Kalsiyning bir qancha fraksiyalari farqlanadi: ionlashtirilgan kalsiy; ionlashtirilmagan, ammo dializ qobiliyatiga ega bo'lgan kalsiy; dializ bo'lmaydigan (diffuziyalanmaydigan), oqsillar bilan birkkan kalsiy. Qon plazmasida kalsiy darajasining yaqqol ortishi suyaklardagi destruktiv jarayonlarda, giperplaziyada yoki qalqonsimon bez adenomasida kuzatiladi. Bunday holatlarda kalsiy sinuvchan bo'lib qolgan suyaklardan plazmaga o'tadi. Gipokalsiemiya gipoparatireozda kuzatilib, bu titroqli hurujlar (tetaniya) bilan kechadi, yana gipokalsiemiya raxit, obturatsion sariqlik, nefrozlar va glomerulonefritlarda kuzatiladi.

Magniy. Organizmda magniy 1 kg tana og'irligiga — 15 mmol miqdorda asosan hujayra ichida joylashadi; plazmadagi magniyning konsentratsiyasi — 0,7–1,2 mmol/l, eritrotsitlarda — 2,4–2,8 mmol/l. Mushak to'qimasi qon plazmasiga nisbatan 10 marta ko'p magniy saqlaydi. Plazmadagi magniy miqdori, uni sezilarli yo'qotilgan holatlarida ham, mushaklar deposidan plazmaga o'tib turishi oqibatida, uzoq vaqt turg'un holatda saqlanib turishi mumkin.

Fosfor. Quyidagi fosfor fraksiyalari farqlanadi: umumiy fosfat, kislotada eruvchi fosfat, lipoid fosfat va noorganik fosfat. Klinik maqsadlar uchun ko'pincha qon plazmasi (zardobi) da noorganik fosfat miqdori aniqlanadi. Qon plazmasida noorganik fosfatning darajasi gipoparatireoz, D gipervitaminizi, tiroksin qabul qilinganda, organizmning ultrabinafsha nurlar bilan nurlanishida, jigarning sariq distrofiyasida, mieloma, leykozlar va hakozolarda ortadi. Gipofosfatemiya (plazmada fosfor miqdorining pasayishi) raxitda, insulin kiritilganida, giperparatireozda, osteomalyasiya va boshqa ba'zi kasalliklar uchun xosdir.

Temir. Yangi qonda temir asosan eritrotsitlarda saqlanadi (18,5 mmol/l ga yaqin), plazmada uning konsentratsiyasi: erkaklarda — 8,95–28,65 mkmol/l; ayollarda — 7,16–26,85 mkmol/l ni tashkil etadi.

Xloridlar. Qon plazmasida ularning miqdori 95–110 mmol/l ni tashkil etadi, osmotik bosimni, hujayradan tashqi suyuqlikdagi kislota-asos holatini ushlab turishda ishtirok etadi.

Fosfatlar. Qon plazmasida bufer tizim komponenti bo'lib hisoblanadi, ularning konsentratsiyasi 0,81–1,5 mmol/l ni tashkil etadi.

Mikroelementlar. Ularga yod, mis, rux, kobalt, selen va b. kiradi. Qondagi mikroelementlarning aksariyat qismi oqsillar bilan bog'langan holatda bo'ladi. Demak, plazmadagi mis seruloplazmin tarkibiga kiradi, eritrotsitlardagi rux to'liq holda karboangidrazalar (karbonatdegidrataza) bilan bog'langan, qondagi yodning 65–70 %i organik bog'langan shaklda – tiroksin ko'rinishida bo'ladi. Qondagi kobalt oqsil bilan bog'langan shaklda mayjud bo'ladi va uning faqat ma'lum bir qismi B₁₂ vitaminining tuzilmaviy komponenti sifatida aniqlanadi. Qondagi selenning asosiy qismi glutationperoksidaza fermentining faol markazi tarkibiga kiradi, shuningdek boshqa oqsillar bilan bog'langan bo'ladi.

8.7. Temir almashinuvi


Temir gem saqlovchi oqsillar, shuningdek metalloflavoproteinlar, temir oltingugurt oqsillari, transferrinlar va ferritin tarkibiga kiradi. Jigar va taloq hujayralarida eritrotsitlarning doimiy parchalanishi natijasida erkin holatdagagi temir elementi temir saqlovchi oqsillar sintezi uchun takroran qo'llanilishi mumkin. Inson organizmida 3–4 g temir moddasi mayjud. U ikki xil ko'rinishda bo'ladi: hujayradagi temir moddasi va hujayradan tashqari bo'lgan temir moddasi. Hujayradagi temir moddasi gemoproteid fermentlar (gemoglobin, mioglobin) tarkibiga kiradi. Hujayradan tashqari bo'lgan temir moddasi — bu temirni o'ziga bog'lovchi va tashuvchi oqsillardir, ularga transferrin, laktoferrinlar kiradi. Temir organizmda quyidagilar tarkibida bo'ladi:

- eritrotsitlardagi gemoglobin temiri 70 %ni tashkil etadi;
- mushaklardagi mioglobin temiri 20 %ni tashkil etadi;
- taloq, suyak ko'migi va jiggardagi ferritin oqsili bilan bog'langan holda 15 %;
- 1 %ga yaqin temir hujayraichi gemoproteinlari (katalaza, sitoxrom va boshqalar), shuningdek gumin bo'limgan temir saqlovchi oqsillar tarkibida mayjud bo'ladi.

Sutkalik ehtiyoj. Temir hayvon mahsulotlaridan yaxshi o'zlashtiriladi. 10 mg temir so'riliishi uchun (sutkalik ehtiyoj), sutka davomida ovqat bilan 50 – 60 mg temir moddasini qabul qilish lozim. Odamlarning turli guruhlari uchun temirga bo'lgan ehtiyoj turlichadir. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan sutka davomida erkaklar 10 mg, tug'ish yoshidagi ayollar doimiy qon yo'qotishi sababli 20 mg, homilador ayollar 40–50 mg va laktatsiya vaqtida 30 – 40 mg temir moddasi qabul qilishi lozim.

So'riliishi. Temir ichaklarda Fe^{2+} ioni ko'rinishida so'riliishi mumkin, ammo bu jarayon juda sekin ketadi. Bunda faqat go'sht mahsulotlari tarkibidagi temir ikki valentli gem shaklida bo'ladi. Me'daga kelib tushganida me'da shirasi tarkibidagi HCl ta'siri ostida oziq ovqat mahsulotlaridan temir moddasi uch valentli temir shaklida ajralib chiqadi. So'riliish ingichka ichakda 1,0–2,0 mg/kuniga (10–15 % oziqaviy temir) miqdorda amalga oshadi. Fe^{3+} dan Fe^{2+} ga qaytarilish askorbin kislotasi ishtirokida amalga oshadi. Inson organizmi va ichak mikroflorasi o'rtasida Fe^{2+} uchun raqobat mavjuddir. Oziq-ovqat mahsuloti tarkibida fitin kislotasi (quruq nonushta, o'simlik mahsulotlari), kofein va tanin (choy, qahva, salqin ichimliklar), fosfatlar, oksalatlar (o'simlik mahsulotlari) mavjudligi temirning so'riliшини yomonlashtiradi, chunki erimaydigan komplekslar hosil bo'ladi.

Temir metabolizmi. Temirning eritrotsitlardan qonga kelib tushishi ularda apoferritin oqsilini sintezlanish tezligiga bog'liq bo'ladi (8.2-rasm). Apoferritin ichaklar shilliq qavat hujayralaridan temirni «ushlab oladi» va enterotsitlarda qoluvchi ferritin moddasiga aylanadi. Bu ichak hujayralaridan qon kapillyarlariga temirni kelib tushishini kamaytiradi. Bundan tashqari, temir so'rildigan so'ng zudlik bilan qon oqimiga tushadi va transferrin bilan kompleks holda (Fe^{3+}) jigar, suyak ko'migi yoki boshqa to'qimalarga yetkaziladi, shuningdek bu yerda ham ferritin bilan bog'lanadi. Oqsillar bilan bog'lanmagan holda temir juda ham zaharlidir, chunki u bunday holatda kislorodning faol shakllarini hosil qilish bilan erkin-radikal reaksiyalarini yuzaga keltiradi. Transferrin retseptorlarining miqdori hujayradagi temir moddasining miqdoriga bog'liq bo'ladi va oqsil-retseptor geni transkripsiysi darajasida boshqariladi.



8.2-rasm. Temir metabolizmi

Temir (Fe^{3+}) hujayraga kelib tushadi va ferritin shaklida saqlanadi – bu zaharsiz, suvda yaxshi eruvchi birikma, ferritinning bir molekulasi 4,5 minggacha bo'lgan temir atomlarini biriktirib olishi mumkin.

Chiqarib yuborilishi. Temir organizmda doimiy ravishda aylanib yuradi. Hujayra tuzilmalari parchalanganda temir moddasi erkin holatga o'tadi va 9/10 holatda takroran foydalilanadi, 1/10 holatda esa o't bilan, me'da ichak tizimidagi epiteliylarning tushib ketishi bilan, tug'ish yoshidagi ayollarda hayz ko'rish oqibatida oyiga 14 dan 140 mg gacha, to'kiluvchi sochlari va olib tashlangan tirnoqlar bilan organizmdan chiqarib yuboriladi. Odatda, sutka davomida 1–2 mg temir moddasi chiqarib yuboriladi.

Temir almashinuvining buzilishi. Ichaklarda temirni xaddan ortiq ko'p so'riliishi bilan bog'liq bo'lgan autosom-retsessiv kasallik – gemoxromatoz mavjuddir. Organizmda temirning ko'p to'planishi

bir qator kasalliklarning qo'zg'atishi mumkin, ularga jigar sirrozi, yurak yetishmovchiligi, qandli diabet, artrit, me'da osti bezining shikastlanishi, qalqonsimon bez kasalliklarini kiritish mumkin.

Temir yetishmovchiligi. Temir tanqisligi kamqonligi — temir yetishmaslik natijasida gemoglobin sintezining buzilishi bilan tavsiflanuvchi gemolitik sindrom. U takrorlanuvchi qon ketishlarda, homiladorlikda, tez-tez yuzaga keladigan tug'ruqlarda, yara kasalliklarida va me'da-ichak tizimidagi havfli o'smalarda, me'da-ichak tizimidagi jarrohlik amaliyotlarida kuzatilishi mumkin.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va ko'krak yoshidagi bolalarda temir moddasining yetishmasligi, birinchi navbatda, bu moddani ona qornida rivojlanish vaqtida yetarli miqdorlarda olmaganligi, shuningdek hayotining birinchi yilda o'sish sur'atining yuqoriligi bilan bog'liqdir (fiziologik kamqonlik).

Sitoxromlar hosil bo'lishini, temir saqlovchi oqsillarning pasayishi va to'qimalarga kislород yetkazilishining buzilishi (gemoglobin miqdori kamayganda) bir qator spetsifik va nospetsifik belgilarni yuzaga keltiradi:

- Bolalar va kattalarda diqqat va xotiraning yomonlashishi;
- Ba'zida bolalardagi giperfaollik;
- Tirnoqlarning qalinlashishi, bir tekisda bo'lmasligi va sinuvchan bo'lishi, tirnoqlarda chiziqlarni, oq dog'larni va yo'l-yo'l chiziqlarning paydo bo'lishi;
- Mushaklarning holsizlanishi;
- Noinfektion laringofaringotraxeit (giperemiya va bo'g'ilib qolish), bu shifokorlarni ko'pincha chalg'itishi mumkin;
- To'kiluvchi va sinuvcchi sochlari;
- Umumiy charchoq;
- Siyidik pufagi sfinkterining yetarli darajada qisqarmasligi natijasida yo'tal, kulgu va aksa urganda bir necha tomchi peshobning ajrab chiqishi;
- Jig'ildon qaynashi;
- Atrofik gastrit: temir yetishmovchiligining ham sababi, ham natijasi bo'lishi mumkin. Gastrit bilan og'rigan bemorlarning yarmida temir yetishmasligi natijasida temir tanqisligi holati yuzaga keladi;

- Hujayralarning gipoenergetik holatining kuchayishi sababli yurak-qon tomir kasalliklari zo'rayadi;
- Qo'l va oyoq terisidagi qurish va yorilishlar ko'rinishida namoyon bo'lgan epiteliyning shikastlanishi;
- Hidga bo'lgan moyillikning buzilishi — bo'yoqlar, benzin, dudbo'ron gazlari, rezina, peshob hidini yoqtirish;
- Ta'm bilishga bo'lgan moyillikning buzilishi — bemorlar bo'r, shtukaturka, ko'mir, qum, xom go'sht qiymasi, muzni iste'mol qiladilar.

8.8. Eritrotsitlar va gemoglobin

Eritrotsitlar — yuqori darajada ixtisoslashgan hujayralar bo'lib, ularning asosiy vazifasi o'pkadan to'qimalarga kislород tashish hisoblanadi. Eritrotsitlarning hayot davomiyligi o'rtacha 120 sutkani tashkil etadi; ularning parchalanishi retikulo-endotelial hujayralarida kechadi. Yetilgan eritrotsitlar yadro, ribosoma, mitochondriya, lizosomaga ega bo'lmaydi. Shuning uchun eritrotsitlar almashinuviga bir qator o'ziga xosliklarga ega:

1. Yetilgan eritrotsitlarda oqsillarning biosintez reaksiyasi ketmaydi.

2. Energiyaning hosil bo'lishi — faqat glikoliz yo'li bilan, substrat — faqat glyukoza.


Eritrotsitlarda gemoglobinni oksidlanishdan saqlovchi mexanizmlar mavjud bo'lib, bular:

- NADFHni hosil qiluvchi glyukoza parchalanishining pentozofosfat yo'li faol ketadi;
- SH-guruuhini saqlovchi peptid — glyutation konsentratsiyasi yuqori.

Eritrotsitlar quruq moddasining taxminan 95 %i gemoglobingga to'g'ri keladi, shu sababli eritrotsitlar o'zining asosiy vazifasi — kislородни tashishni bemalol bajara oladi. Qondagi gemoglobinning umumiy miqdori 16 g/l ni tashkil etadi.

Gemoglobin. Eritrotsitlarning asosiy oqsili hisoblanadi. Gemoglobin gemoprotein oqsillari guruhi kiradi. Uning oqsil bo'lmagan

qismi gem – o‘zida porfirin halqasi (4 pirrol halqalaridan tashkil topgan) va Fe^{2+} ioni saqlagan tuzilma hisoblanadi (8.3-rasm). Temir porfirinlangan halqa bilan ikki kordinatsion va ikki kovalent bog‘lar bilan bog‘lanadi. Gemoglobin o‘zida 4 oqsil subbirliklarini saqlaydi. Protomerlar o‘zaro komplementarlik prinsipi bo‘yicha gidrofob, ionli va vodorod bog‘lar orqali birikadi.



8.3-rasm. Gemoglobin A ning sxematik tuzilishi

Me’yordagi gemoglobinda oqsil subbirliklari turli tipdagi polipeptid zanjirlar ko‘rinishida taqdirm etilishi mumkin: α , β , γ , δ , ϵ , ξ . Gemoglobin molekulasi tarkibiga ikki turli tipdagi ikki zanjir kiradi.

Gemoglobinning me’yoriy shakllari. Gemoglobinning bir necha me’yoriy variantlari mavjud:

- **HbR** — primitiv gemoglobin, 2ξ - va 2ϵ -zanjirni saqlaydi, embrion hayotining 7–12 haftasi orasida uchraydi;

- **HbF** — fetal gemoglobin, 2α - va 2γ -zanjirni saqlaydi, ona qornida rivojlanishning 12-haftasidan so‘ng paydo bo‘ladi va 3 oydan so‘ng asosiy bo‘lib hisoblanadi;

- **HbA** — kattalar gemoglobininining 98 %ini tashkil etadi, 2α - va 2β -zanjirni saqlaydi, homilada hayotining 3-oyidan so‘ng paydo bo‘ladi va tug‘ilish vaqtiga kelib, jami gemoglobinning 80 %ini tashkil etadi;

- **HbA₂** — kattalar gemoglobininining 2 %ini tashkil etadi, 2α - va 2β -zanjirni saqlaydi;

- **HbO₂** — oksigemoglobin, o‘pkada kislorod bilan bog‘lanish natijasida hosil bo‘ladi, o‘pka venalari jami gemoglobinning 94–98 %ini saqlaydi;

◦ **HbCO₂** — karbogemoglobin, to‘qimalarda karbonat angidrid bilan bog‘lanish natijasida hosil bo‘ladi, venoz qon tarkibidagi jami gemoglobin miqdorining 15–20 %ini tashkil etadi.

Gemoglobinning patologik shakllari. Ularga quyidagilar kiradi:


HbS — o‘roqsimon hujayrali kamqonlik gemoglobini;

MetHb — metgemoglobin, ikki valentli temir ioni o‘rniga uch valentli ion kiritilgan gemoglobin shakli. Odatta, bunday shakl tasodifan hosil bo‘ladi, bunday holatlarda hujayraning fermentativ quvvati uning tiklanishi uchun yetadi. Sulfanilamidlar qo‘llanilganda, oziq-ovqat mahsulotlari bilan natriy nitriti va nitratlarni iste’mol qilinishida, askorbin kislota yetishmagan holatlarda Fe^{2+} ni Fe^{3+} ga o‘tishi tezlashadi. Hosil bo‘lgan metHb kislorodni biriktirib olish qobiliyatiga ega emas va buning natijasida to‘qimalar gipoksiyasi yuzaga keladi. Klinikada temir ionlarining tiklanishi uchun askorbin kislota va metil ko‘ki qo‘llaniladi.

Hb-CO — karboksigemoglobin, nafas oladigan havo tarkibida is gazi (SO) mavjud bo‘lganida hosil bo‘ladi. Ukichik konsentratsiyalarda qon tarkibida mavjud bo‘ladi, biroq uning ulushi hayot sharoiti va turmush tarziga bog‘liq holda o‘zgarib turishi mumkin.

HbA_{1s} — glikozillangan gemoglobin. Uning konsentratsiyasi surunkali giperglikiemiyada oshadi va davomli uzoq davr uchun qondagi glyukoza darajasini yaxshi skrining ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Kooperativ o‘zaro ta’sir. Oligomer oqsillar protomerlarining bir-biriga o‘zaro ta’siri kooperativ o‘zaro ta’sir deb nomlanadi (8.4-rasm).



Kislorodga moyilligi
past shakllar


Kislorodga moyilligi
yuqori shakllar

8.4-rasm. Gemoglobin subbirliklarining kooperativ o‘zaro ta’sir sxemasi

O‘pkada gemoglobin subbirliklarining bunday o‘zaro ta’siri ularning kislorodga bo‘lgan moyilligini oshiradi va kislorodning 149

birikishini 300 martaga tezlashtiradi. To'qimalarda esa teskari jarayon ketadi, moyillik pasayadi va kislorodni berish tezligi ham 300 martaga pasayadi.



Bu shu bilan tushuntiriladiki, o'pkada kislorodning birinchi molekulasi temirga birikkanda temir atomi gem yuzasiga tortiladi, kislorod yuzadan tashqarida qoladi (8.5-rasm). Bu oqsil zanjiri maydonining surilishi va birinchi protomer konformatsiyasining o'zgarishini chaqiradi. Bunday o'zgargan protomer boshqa subbirliklarga ta'sir ko'rsatadi va kislorodning ikkinchi subbirlikka bog'lanishini osonlashtiradi. Bu kislorodning keyingi molekulalarining birikishini osonlashtirgan holda, ikkinchi subbirlik konformatsiyasini va boshqa protomerlarni o'zgartiradi.



8.5-rasm. Kislorod birikkandagi gemoglobin subbirliklarining o'zgargan shakllari

8.9. Gemning sintezlanishi va uning boshqaruvi

Gemoglobin tarkibidagi gem retikulotsitlardagi eritroblastlarni qayta hosil bo'lish bosqichida suyak ko'migi hujayralarida, keyin esa eritrotsitlarda sintezlanadi. Gem gemoglobin, mioglobin, sitoxromlar, katalaza va peroksidazalarning prostetik guruhi bo'lib hisoblanadi. Gem barcha hujayralar tomonidan sintez qilinadi, ammo eng faol sintez jigar va suyak ko'migida kechadi. Porfirinlar hosil bo'lishida asosiy reaksiya aminolevulin kislotosining hosil bo'lish reaksiyasidir (8.6-rasm). Bu reaksiyani eritroblastlar mitoxondriyasining piridok-salfosfatga bog'liq fermenti aminolevulinatsintaza katalizlaydi.



8.6-rasm. Gemning hosil bo'lishi

Aminolevulinatsintazalar allosterik boshqariladi. Gem va gemoglobin aminolevulinatsintazalar sintezining allosterik ingibitorlari va repressorlari bo'lib hisoblanadi. Steroid gormonlar va ba'zi dori vositalari (barbituratlar, diklofenak, sulfanilamidlar, estrogenlar va progestinlar) aminolevulinatsintazalar sintezining induktori bo'lib hisoblanadi. Aminolevulinatdegidratazalar ishtirokidagi keyingi reaksiya (porfobilinogen-sintazlar) sitozolda ketadi. Bu bosqichni katalizlovchi ferment, shuningdek sintezning yakuniy mahsulotlari bilan ingibirlanishga uchrab, boshqaruvchi ferment bo'lib hisoblanadi. Porphobilinogen sintezidan so'ng uning to'rt molekulasi tetrapirrolga

kondensirlanadi. Tetrapirrollarning ikki turi farq qilinadi — I tipdagi uroporfirinogen va III tipdagi uroporfirinogen. Porfirinlarning ikki turi sintezida uroporfirinogen I sintaza ishtirok etadi, uroporfirinogen III ning hosil bo'lishida qo'shimcha ravishda uroporfirinogen III kosintaza fermenti ishtirok etadi. Keyin uroporfirinogenlar mos bo'lgan koproporfirinogenlarga aylanadi. Koproporfirinogen III protoporfirinogen IX ga o'tadi va keyin protoporfirin IX ga aylanadi. Oxirgi modda temir bilan birikib, gemni hosil qiladi, reaksiyani ferroxelataza (gemsintaza) katalizlaydi.

Gemoglobin sintezining buzilishi. Gem sintezida ishtirok etuvchi fermentlarning genetik nuqsonlari ma'lumdir. Bunda organizmda protoporfirin o'tmishdoshlarining to'planishi yuzaga keladi. Bu kasallik «porfiriya» deb nomlanadi. Shunday porfiriya turlari borki, ularda uroporfirinogen to'planadi. Bunday bemorlarda peshob qizil rangda bo'ladi, tishlar esa ultrabinafsha nurlantirilganda kuchli fluressensiyalanadi, teri quyosh nuriga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega bo'ladi.

Porfirinogenlar yorug'likda porfirinlarga aylanadi, ular kislород билан та'sirlanish natijasida teri hujayralarini shikastlantiruvchi faol radikallar hosil qiladi. Ba'zi porfiriyalarda porfobilinogenlarning to'planishi yuzaga keladi, bu esa asab-ruhiy buzilishlar bilan birga kuzatiladi. Birlamchi porfiriyalar gem sintezi fermentlarini genetik nuqsonlari bilan bog'liqidir, ikkilamchilari esa gem sintezi reaksiyalarini boshqaruvini buzilishi bilan bog'langan bo'ladi.

Talassemiya. Talassemiya uchun gemoglobinning α -zanjiri (α -talassemiya) yoki β -zanjiri (β -talassemiya) sintezining pasayishi xosdir. Bu eritropoezning buzilishi, gemoliz va og'ir kamqonlikga olib keladi.

8.10. Qonning ivish tizimi

8.10.1. Gemokoagulyatsiya jarayoni to'g'risida tushuncha

Gemokoagulyatsiya yoki qonning ivishi — bu qon laxtasining (tromb) hosil bo'lishi natijasida shikastlangan tomirlardan qon ketishining to'xtashiga olib keluvchi molekulalar jarayonlarning

jamlanmasidir. Ivishning ko'plab omillari qonda nofaol o'tmishdoshlar — profermentlar ko'rinishida mavjud bo'ladi, ularni faollashtirish qisman proteoliz yo'li bilan amalgalashadi. Qonning ivishi reaksiyalar kaskadi ko'rinishida namoyon bo'ladi: qon ivishning faollashgan birinchi omili keyingi omilni va u esa o'z navbatida keyingi omilni faollashtirishi to asosiy tromb tuzilmasi bo'lib hisoblangan yakuniy omil faollashmaguncha davom etadi.

Qonning ivishida asosiy rolni trombotsitlar va qon plazmasidagi bir qator oqsillar o'ynaydi.

Laxta hosil qilib qonning zararlangan joydan oqib chiqishini to'xtatishda 4 bosqich farqlanadi. 1-bosqichda shikastlangan qon tomirining qisqarishi amalgalashadi. 2-bosqichda shikastlangan joyga trombotsitlar yopishadi, ular bir-birini ustiga to'planib, trombotsitar tiziqin (oq tromb) hosil qiladi, ammo u mustahkam bo'lmaydi va faqat uncha katta bo'limgagan qon tomirining yopishi mumkin. 3-bosqichda qon plazmasidagi erigan fibrinogen oqsili trombotsitlar orasida joylashuvchi erimaydigan fibrin oqsiliga aylanadi va mustahkam fibrin trombini shakllantiradi. Bunday tromb o'z tarkibida eritrotsitlarni saqlaydi va shuning uchun qizil tromb deb nomlanadi. Fibrin trombinining hosil bo'lishida trombin fermentini faollashishiga olib keluvchi proteolitik reaksiyalar natijasi bo'lib, bunda fibrinogen fibringga aylanadi. 4-bosqichda qon laxtasining qisman yoki to'liq erishi yuzaga keladi.

8.10.2. Qon ivishi omillarining qon plazmasidagi miqdori va asosiy vazifalari

Qonning ivishida ishtirok etuvchi barcha omillar — ivish omillari deb nomlanadi. Ular asosan nofaol o'tmishdoshlar ko'rinishida jigar va qon hujayralarida hosil bo'ladi hamda rim raqamlari bilan belgilanadi, ammo trivial nomlarga ham egadir. Ushbu oqsillarning aksariyat qismi qon ivishining fermentativ reaksiyalarini kaskadida faollashtiriladi. Ushbu oqsillarning faol shakli xuddi shunday rim raqamlari bilan belgilanadi, biroq ularga «a» harfi qo'shiladi (8.3-jadval).

Qon plazmasida qon ivish omillarining miqdori va asosiy vazifalari

8.3-jadval

Omil	Trivial nomlanish	Miqdori, g/l	Vazifasi
I	Fibrinogen	2–4	Fibrinning o'tmishdoshi, eruvchi oqsil
Ia	Fibrin		Fibrin gelini hosil qiladi
II	Protrombin	0,1	Proferment*
IIa	Trombin		Fibrinogenni fibringga aylantiruvchi proteaza va V, VII, VIII, XIII, protein S larni faollashtiruvchi omil
III	To'qima omili (TO)		VIIa-TO-Ca ²⁺ membrana kompleksini faollashtiruvchi oqsil
IV	Ca ²⁺	0,9–1,2 mmol/l	Prokoagulyant yo'li fermentlarini fosfatidilserin bilan o'zaro ta'sirida vositachi.
V	Proakselerin	0,01	Xa-Va-Ca ²⁺ membrana kompleksini oqsil tabiatli faollashtiruvchisi o'tmishdoshi
Va	Akselerin		Xa-Va-Sa ²⁺ membrana kompleksini faollashtiruvchi oqsil
VII	Prokonvertin	0,005	Proferment*
VIIa	Konvertin		X i IX omillarini faollashtiruvchi proteaza*
VIII	Nofaol antigemofil A omili (nofaol antigemofil globulin)	0,01–0,02	IXa-VIIIa-Ca ²⁺ membrana kompleksini faollashtiruvchi oqsilning o'tmishdoshi
VIIIa	Faol antigemofil A omili (faol antigemofil globulin)		IXa-VIIIa-Ca ²⁺ membrana kompleksini faollashtiruvchi oqsil
IX	Nofaol antigemofil V omili (Kristmas nofaol omili)	0,003	Proferment*

IXa	Faol antigemofil V omili (Kristmasning faol omili)		X omilini faollashtiruvchi proteaza*
X	Styuart-Prauerning nofaol omili	0,01	Proferment*
Xa	Styuart-Prauerning faol omili		II omilni faollashtiruvchi proteaza*
XI	Tromboplastinning nofaol plazma o'tmishdoshi	0,005	Qon ivishi kontakt yo'li profermenti
XIa	Tromboplastinning faol plazma o'tmishdoshi		IX omilni faollashtiruvchi proteaza
XII	Xagemanning nofaol omili	0,03	Qon ivishi kontakt yo'li profermenti
XIIa	Xagemanning faol omili		XI omil, prekallikrein, plazminogenni faollashtiruvchi proteaza
XIII	Nofaol transglutamidaza (fibrinstabillovchi nofaol omil)	0,01–0,02	Proferment
XSha	Faol transglutamidaza (faol fibrinstabillovchi omil)		Fibrin-monomerlar, fibrin va fibronektin molekulalari orasida amid bog'lari hosil bo'lishini katalizlaydi.
	Prekallikrein	0,05	Qon ivishi kontakt yo'li profermenti
	Kallikrein		XII omil, plazminogenni faollashtiruvchi proteaza
	Yuqori molekulyar kininogen	0,06	Qon ivishi kontakt yo'lini faollashtiruvchi oqsil

* Qon ivishning prokoagulyant yo'llarida membrana ferment komplekslarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan karboksiglutamin kislota qoldiqlarini saqlaydi.

Ferment komplekslarini hujayra membranalari bilan o'zaro ta'siri Ca^{2+} ionlari ishtirokida amalga oshadi. Prokoagulyant yo'lning barcha profermentlari (II, VII, IX, X) γ -karboksiglutamin kislota qoldiqlarini saqlaydi.


Qon ivishida K vitaminining ahamiyati. Qon ivishida bir qator omillar – protrombin (II omil), prokonvertin (VII omil), Kristmas (IX) va Styuart-Prauer (X) omillari faolligi K vitaminiga bog'liq. Bunda K vitaminining ahamiyati ushbu oqsillarning N-uchlaridagi glutamat qoldiqlarini carboksillab, γ -karboksiglutamat hosil qilishidadir (posttranslyatsion modifikatsiya). Glutamin kislota qoldiqlarida γ -karboksil guruhining mavjud bo'lishi bu oqsillarga (II, VII, IX, X omillar) Ca^{2+} yordamida hujayra membranalarining manfiy zaryadlangan fosfolipidlari yoki boshqa shu kabi oqsillar bilan bog'lanishimkonini beradi. Plazmaning koagulyatsiya reaksiyalaridagi molekulalar orasidagi o'zaro ta'sirni aynan shunday bog'lanishlar ta'minlaydi. Qon ivish omillari faolligining yetishmovchiligi yoki pasayishida patologik qon ketishlar kuzatilishi mumkin. Bu jigarning og'ir va degenerativ kasalliklarida, K vitaminining yetishmasligida kelib chiqishi mumkin.

K vitamini yog'da eruvchi vitamin, shuning uchun uning yetishmasligi o't hosil bo'lishi tezligini pasayishi natijasida ichaklarda yog'larni so'rilibshini kamayishida kuzatilishi mumkin. K vitamini ichak mikroflorasi tomonidan ham sintez qilinadi, shuning endogen yetishmasligi ichak mikroflorasi faolligining antibiotiklar ta'sirida pasayishida ham kuzatiladi.

8.10.3. Fibrinogenni fibringa aylanishi

Fibrinogen — glikoprotein bo'lib, u jigarda sintezlanadi va qon plazmasidagi miqdori – 8,02–12,9 mkmol/l (2–4 g/l) ga teng. Fibrinogen molekulasi 6 polipeptid zanjiridan tashkil topgan va ular o'zaro disulfid bog'lari bilan bog'langandir. Fibrinogen molekulasi

polipeptid zanjirlari tarkibi – $\text{A}\alpha_2$, $\text{B}\beta_2$, γ_2 bilan belgilanadi. Katta harflar fibrinogenni fibringa aylanishida trombin ta'siri ostida ajralib chiquvchi fragmentlarga mos keladi. $\text{A}\alpha$ zanjiridagi A va $\text{B}\beta$ zanjiridagi B fragmenti aspartat va glutamatning katta miqdordagi qoldig'i ni saqlaydi. Bu fibrinogen molekulasing N-uchlarida kuchli manfiy zaryadni hosil qiladi va ularning agregatsiyasiga qarshilik ko'rsatadi. Fibrinogen molekulasi 3 globulyar domenlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ikkisi molekulaning yon tomonlarida (D domenlar), biri esa (E domen) o'rtada joylashgan (8.7-rasm). Domenlar bir-biridan sterjensimon shaklga ega bo'lgan polipeptid zanjir uchastkalar orqali ajralgan. Markaziy E domendenan $\text{A}\alpha$ va $\text{B}\beta$ zanjirlarining A va B fragmentlari N-uchlari ajralib chiqqan.




8.7-rasm. Fibrinogenning tuzilishi

Fibrinli trombning hosil bo'lishida 4 bosqich ajratiladi.

1. *Fibrinogenning fibrin monomeriga aylanishi.* Bunda fibrinogen molekulalari A va B manfiy zaryadlangan fragmentlardan ozod bo'ladi, natijada fibrin monomerlari hosil bo'ladi. Fibrinogenning (I omil) fibringa (Ia omil) aylanishini trombin (IIa omili) fermenti katalizlaydi. Fibrinogendan hosil bo'lgan fibrin monomeri (α , β , γ)₂ tarkibga ega bo'ladi.

2. *Erimaydigan fibrin gelining hosil bo'lishi.* Bu bosqichda fibrin geli – erimaydigan polimer fibrinli laxta hosil bo'ladi. fibrinogenni fibrin-monomerga aylanishi natijasida E domenda D domen bilan bog'lanish markazlari ochiladi. Bunda E domeni trombin ta'siri ostida

fibrinogenning qisman proteolizidan so'ng shakllangan agregatsiyalar markazini saqlasa, D domeni agregatsiyaning doimiy markazlari tashuvchisi bo'lib hisoblanadi (8.8-rasm). Fibrin molekulalarining birlamchi agregatsiyasi bir molekulaning E domenining bog'lanish markazlari boshqa molekulalarning D domenining komplementar uchastkalar bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keldi.




8.8-rasm. Fibrin gelining hosil bo'lishi

Shunday qilib, fibrin-monomer molekulalari domenlari orasida nokovalent bog'lar hosil bo'ladi.

3. Fibrin gelining turg'unligi. Amid bog'lar hosil bo'lishi natijasida fibrinning bir molekulasidagi lizin qoldiqlari va boshqa molekuladagi glutamin qoldiqlari o'rtaida Ca^{2+} ionlari ishtirokida fibrin geli turg'unlashadi. Transamidlanish reaksiyasini *transglutaminaza* (XIIa omil, fibrinni turg'unlashtiruvchi omil) ferment katalizlaydi. XII omil trombin ta'siri ostida qisman proteoliz bilan faollashtiriladi.

Shuningdek, transglutaminaza qon plazmasi va hujayralararo matriks glikoproteini — fibronektin hamda fibrin o'rtafigi amid bog'ini hosil qiladi (8.9-rasm). Natijada tromb tomirning shikastlangan devori sohasida matriksga bog'lanib qoladi. Fibrin iplarini bir-biri bilan kovalent bog'lanishi mustahkam uch o'chamli tarmoqni hosil qiladi, uning tarkibida trombotsitlar, eritrotsitlar va leykotsitlar bo'ladi.




8.9-rasm. Fibrin molekulalari o'rtaida amid bog'larining hosil bo'lishi.

4. Fibrin laxtasining retraksiyasi. Gel retraksiyasini ATF-aza faolligiga ega trombotsitlar aktomiozini — qisqaruvchi oqsil trombostenin ta'minlaydi. Trombostenin, shuningdek, trombotsitlarning faollashiши va agregatsiyasida ishtirok etadi. Qon laxtasi zichlashadi va undan zardobning bir qismi siqib chiqariladi. Yakuniy trombining shakllanishi fibrinning polimerizatsiyasidan so'ng 10–15 daqiqa o'tib yuzaga keladi. Qon laxtasining retraksiyasi qon oqimining to'liq tiklanishiga sharoit yaratib, tomirlarning to'liq yopilib qolishining oldini oladi.

8.10.4. Qon ivishining tashqi va ichki yo'llari

Qon ivishining ikki — tashqi va ichki mexanizmlari mavjud (8.10-rasm).



8.10-rasm. Qon ivishining tashqi va ichki yo'llari

Tashqi mexanizm tashqi (to'qima) omillarning ishtiroki bilan ishga tushadi, ichkisi esa – manbai qon, plazma, xususiy fermentlar va qonning shaklli elementlari bo'lgan ichki omillar ishtirokida yuzaga keladi. Protrombin (f.II) faollashgungacha faqat boshlang'ich bosqich bo'lgan tashqi va ichki mexanizmlar farqlanadi. Keyingi bosqichlar har ikki holatda ham bir xilda kechadi.

Ivishning tashqi yo'lli. Tomir shikastlangandan so'ng hujayralarda bo'lgan tomir to'qima omili (TF) to'qimalarda bo'lgan VII omilni bog'lab oladi va faollashtiradi. Hosil bo'lgan kompleks X omilni to'g'ridan-to'g'ri faollashtiradi. f.Xa esa Ca²⁺ ionlari ishtirokida Va kofaktori bilan protrombinni trombinga aylantiruvchi kompleks Xa-Va-Ca²⁺ — protrombinazani shakllantiradi.

Tashqi yo'llining faolligi ijobiy teskari aloqa mexanizmlari hisobiga ushlab turiladi:

- Hosil bo'lgan trombin V va VIII omillarini faollashtiradi;
- Xa omili Ca²⁺ ionlari ishtirokida VII omilni faollashtiradi.

Ivishning ichki yo'lli. Ivishning ichki yo'lli trombotsitlar yoki boshqa hujayralarning fosfolipid yuzasida boshlanadi, aynan shu yerda prekallikrein va yuqori molekulalgi kininogen, XII, XI omillardan tashkil topgan komplekslar yig'iladi.

1. XII omilning faollashuvi. XII omilning tromboplastin (to'qima omili) bilan bog'lanishi uning konformatsiyasini o'zgartiradi va u uncha katta bo'limgan faollikka ega bo'lib qoladi. Bu XIIa omiliga prekallikreinni kallikreinga aylanishini boshlash uchun imkon beradi. So'ngra kallikreinning ta'siri natijasida XIIa omili to'planadi va kallikreinning faollashishi kuchayadi. Shunday qilib, XIIa omili va kallikrein bir-birini o'zaro faollashtiradi. Shuningdek, XII omil VIIa omili bilan ham faollashishi mumkin.

2. XI omilning faollashuvi. XIIa omili XI omilni faollashtiradi.

3. IX omilning faollashishi. XIa omil Ca²⁺ ionlari ishtirokida membranada joylashib, IX omilni faollashtiradi. IX omil, shuningdek, VIIa omili bilan ham faollashishi mumkin. So'ngra IXa omil o'zining kofaktori bilan VIIIa omiliga bog'lanib, tenaza yoki tenaz kompleksi (inglizcha ten — o'n) deb nomlanuvchi IXa-VIIIa-Ca²⁺ kompleksini hosil qiladi.

4. X omilni faollashtirish. Tenaza (IXa-VIIIa-Ca²⁺ kompleksi) X omilni faollashtiradi. Faollashgan Xa omili o'zining Va kofaktori yordamida Ca²⁺ ionlari ishtirokida fosfolipid membranada Xa-Va-Ca²⁺ — protrombinaza kompleksini shakllantiradi.

5. II omilini faollashtirish (trombin). Protrombinaza protrombinga hujum qiladi hamda uning molekulasi dagi ikki bog'ni birin-ketin uzib, N-yakuniy fragmentni ajratgan holda, faol trombinni shakllantiradi.

6. Trombin. Fibrinogenni fibrin-monomeriga aylantiradi. Bundan tashqari, u o'zining hosil bo'lishi davomida teskari ijobiy bog'lanish mexanizmi orqali V, VIII, XI omillarni faollashtirib, fermentativ kaskad faolligini ushlab turadi.


Qonning ivish tezligi nafaqat ivish tizimining ishiga, balki tabiiy antikoagulyantlar — qonning ivishini oldini oluvchi muddalarning

ishtirokiga ham bog'liqdir. Kuchli ivituvchi va ivishga qarshi tizim moddalarning ta'siri mavjudligi sababli organizmda qon suyuq holatda bo'ladi.

8.11. Ivishga qarshi mexanizmlar

Qonning ivishiga sabab bo'lувчи moddalalar bilan bir qatorda qon oqimida gemokoagulyatsiyaga qarshilik qiluvchi moddalalar ham bo'ladi. Ular tabiiy antikoagulyantlar deb nomlanadi. Ba'zi antikoagulyantlar doimiy ravishda qonda mavjud bo'ladi. Bular birlamchi antikoagulyantlardir. Ikkilamchi antikoagulyantlar qonning ivish jarayoni va fibrinolizda hosil bo'ladi. Qonning ivish fermentlarining fiziologik ingibitorlari trombning keng tarqalishini chegaralaydi va qonni suyuq holatda saqlab turadi. Tabiiy antikoagulyantlar to'qimalarda hosil bo'ladi, qonga tushadi va u yerda qonni ivish omillarining faollashishiga qarshilik ko'rsatadi. Ularga heparin, antitrombin-III va α_2 -makroglobulin kiradi.

Geparin ba'zi omillarning faollashishini to'xtatadi, ammo bevosita omillarning o'ziga ta'sir ko'rsatmaydi. Geparin antitrombin-III konformatsiyasini o'zgartirib, uni faollashtiradi va qonda trombinni darhol bog'lab olish qobiliyatiga ega bo'lgan antitrombinga aylantiradi, bunda antitrombin-III serin proteinazalari – trombin, IXa, Xa, XIIa omillari, plazmin, urokinaza, kallikreinlarni faolsizlantirish qobiliyatiga ega bo'lib qoladi (8.11-rasm). Serin proteazalariga aloqador bo'limgan omillar, antitrombin ta'sirida faolligini yo'qotmaydi. Geparin trombotik holatlarni davolashda antikoagulyant sifatida qo'llaniladi.



8.11-rasm. Antitrombinni faollashtirish

Shunday genetik nuqson ma'lumki, unda qondagi antitrombin konsentratsiyasi me'yordan ikki marta kam bo'ladi; bunday odamlarda ko'pincha trombozlar kuzatiladi.

Antitrombin — ivishga qarshi tizimning asosiy komponentidir: jami trombining taxminan $\frac{3}{4}$ qismi ushbu ingibitor tomonidan chetlashtiriladi. Qon zardobida proteinazaning boshqa ingibitorlari ham mavjud bo'lib, ular ham qonning tomir ichida ivib qolish ehtimolligini kamaytirishi mumkin. Ulardan biri — α_2 -makroglobulin. Bu molekulyar og'irligi 720000 Da bo'lgan yirik oqsil bo'lib, to'rt bir xil subbirliklardan tuzilgan. U qon ivishida ishtirok etuvchi ko'p sonli proteinazalarni ingibirlaydi. Mazkur oqsil ko'plab proteinazalar uchun substrat bo'lib hisoblanadigan peptid uchastkalarini saqlaydi; proteinazalar bu "xo'rak"ka birikadi, undagi ba'zi peptid bog'larini gidrolizlaydi, natijada α_2 -makroglobulin konformatsiya o'zgaradi, u fermentni «qopqon» singari ushlab oladi va uni faolsizlantiradi. Buning uchun ingibitor katta o'lchamlarga ega bo'lishi lozim. α_2 -Makroglobulinning ferment bilan kompleksi qondan tezda chiqarib yuboriladi: uning qondagi yarim yashash davri 10 daqiqaga yaqinini tashkil etadi.

Qon oqimiga faollashtirilgan qon ivish omillarining katta miqdorda tushishida ivishga qarshi tizim quvvati yetarli bo'lmasligi mumkin, natijada tromboz xavfi paydo bo'ladi. Bunday vaziyat jumladan katta jarohatlar va katta hajmdagi jarrohlik amaliyotlarida yuzaga keladi.

Antikonvertin «to'qima omili-VIIa-Ca²⁺ » ferment kompleksi bilan spetsifik ravishda o'zaro ta'sirlashadi. Shunday qilib, u alohida fermentlarni ingibirlamaydi, balki membranada hosil bo'lgan ferment kompleksini ingibirlaydi, shuning uchun uni koagulyatsiyaning lipoprotein bilan bog'langan ingibitori deb atashadi.

Qonning ivish jarayonini tezlashtiruvchi omillar:

1. Issiqlik, chunki qonning ivishi fermentativ jarayon bo'lib hisoblanadi;
2. Kalsiy ionlari, chunki ular gemokoagulyatsiyaning barcha fazalarida ishtirok etadi;

3. Qonning g'adir-budur yuzalarga tegishi (tomirlarning ateroskleroz bilan shikastlanishi, jarrohlikda tomirlarning tikilishi);

4. Mexanik ta'sir (bosim, to'qimalarning zararlanishi, qon solingan idishlarning chayqatilishi, bu qonning shaklli elementlarini parchalanishi va qon ivishida ishtirok etuvchi omillarning chiqishiga olib keladi).

Gemokoagulyatsiyani sekinlashtiruvchi va bartaraf etuvchi omillar:

1. Haroratning pasayishi;

2. Sitrat va oksalat natriy (kalsiy ionlarini bog'lab oladi);

3. Geparin (gemokoagulyasiyaning barcha fazalarini susaytiradi);


4. Silliq yuza (jarrohlikda tomirlarni tikishdagi silliq choklar, sili-konli qoplama yoki parafinlangan kanyulyalar va donorlik qoni uchun idishlar).

Fibrin laxtalarining hosil bo'lishi va erishi bir vaqtda sodir bo'lganligi sababli, qon suyuq holatini saqlab qoladi hamda qonning ivish reaksiyasi fibrinoliz tizimi bilan muvofiqlashadi.

8.12. Fibrinolizning asosiy mexanizmlari

Fibrinoliz — fibrin laxtasini parchalanish jarayoni bo'lib, uning natijasida tomir o'zanining tiklanishi yuzaga keladi (8.12-rasm). Fibrinoliz qon laxtasi retraksiysi bilan bir vaqtda boshlanadi, ammo sekin kechadi. Fibrinoliz ham fermentativ jarayon bo'lib, plazmin (fibrinolizin) ta'siri ostida amalga oshadi. Plazmin qon plazmasida nofaol plazminogen ko'rinishida bo'ladi. Qon va to'qimaning faollashtiruvchilar ta'siri ostida plazminogenning faollandishi amalga oshadi.


Fibrinoliz tizimi fermentlar, nofermentativ oqsil kofaktorlari va fibrinoliz ingibitorlaridan tashkil topgan. Ushbu tizimning yakuniy maqsadi plazmin fermentining hosil bo'lishi va fibrinli laxtaning bo'lib, unda 18 turdag'i oqsillar ishtirok etadi.



8.12-rasm. Fibrinolizing parchalanishi

Qon proaktivatorining plazminogen aktivatoriga aylanishi *to'qimalizokinazalari*, shuningdek *streptokinazlari* (8.13-rasm) ta'siri ostida amalga oshadi. Streptokinaza gemolitik streptokokk tomonidan ishlab chiqariladi va oddiy sharoitda qonda mavjud bo'lmaydi. Biroq, streptokokkli infeksiyalarda streptokinaza katta miqdorda hosil bo'lishi mumkin, bu esa alohida holatlarda fibrinolizning kuchayishiga va gemorragik diatezga olib keladi.

Plazmin juda faol, ammo shunga qaramay fibrin va fibrinogenni gidrolizlash qobiliyatiga ega bo'lган nisbatan nospetsifik serin proteazasidir. Fibrin plazmin bilan gidrolizlanganda, plazminogenni faollashtirib, o'z faolligini yo'qotadi. Gidrolizning ba'zi mahsulotlari yaqqol namoyon bo'lган fiziologik faollikka egadir: ular trombotsitlar agregatsiyasini pasaytiradi va umuman olganda antikoagulyant funksiyasini bajarib, fibrin-monomer polimerizatsiyasini buzadi.



8.13-rasm. Fibrinoliz reaksiyalarini

Shu bilan bir vaqtida shuni hisobga olish lozimki, inson qonida fibrinolitik tizim bilan bir qatorda antifibrinolitik tizim ham mavjud. U turli antikinazalar, antiplazmin hamda boshqa antiaktivatorlardan iboratdir. Amaliy tibbiyotda davolash maqsadida fermentativ dori vositalari va ularning ingibitorlari qonning ivish va ivishga qarshi tizimi buzilishlarida keng qo'llaniladi. Shuning uchun tromboembolik kasalliklarda hosil bo'lgan trombni erishiga yoki qon ivishining pasayishiga olib keluvchi fermentlar qo'llaniladi. Fibrinolizrivojlanishi bilan kechuvchi holatlarda ferment ingibitorlari qo'llaniladi.

8.13. Ivish jarayonlarining buzilishi

Gemofiliya — qon ivishining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikdir. VIII yoki IX ivish omillari mavjud bo'lmasaganligi uchun yuqori darajadagi qon ketishi qayd etiladi. Kasallik retsessiv tip bo'yicha, X-xromosomaga bog'liq holda nasldan naslga o'tadi. Ushbu kasallik bilan faqat erkaklar kasallananadilar, ayollar esa gemofiliya

tashuvchisi bo‘lib hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, gemofiliya bilan og‘rigan qizlarni tug‘ilish holatlari bayon etilgan. Bunday qizlarning ota-onalari – bemor ota va tashuvchi ona hisoblanadi. 70 %dan yuqori holatlarda gemofiliya bemorlarning nogiron bo‘lishiga olib keladi. Bunday patologiya har 50000 yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan birida uchraydi.

Gemofiliyaning uch turi farqlanadi:

Gemofiliya A — X-xromosomadagi retsessiv mutatsiya. A gemofiliyasida VIII (antigemofil globulin) omilning yetishmovchiligi qayd etiladi. Bu gemofiliyaning eng keng tarqalgan turi bo‘lib, 80 – 85 % holatlarda uchraydi. VIII omil darajasi 5 – 20% bo‘lgan holatlarda, jarohatlar va jarrohlik aralashuvlarida og‘ir qon ketishlar kuzatiladi.

Gemofiliya B — X-xromosoma bo'yicha retsessiv mutatsiya, IX (Kristmas omili) omilning yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi. Gemofiliyaning bu turida ikkilamchi koagulyatsion tiqinning hosil bo'lishi buziladi.

Gemofiliya C — autosom-retsessiv, yoki irlisylanishni to'liqmas namoyon bo'lishi (penetrantlik) bilan kechuvchi dominant turi. Gemofiliyaning bu turi erkaklarda ham, ayollarda ham uchrashi mumkin. XI omilning yetishmovchiligi qayd etiladi. Gemofiliyaning bu turi asosan ashkenazi yahudiylari (Markaziy yevropa yahudiylari) erasida keng tarqalgan.

9-bob. BUYRAKLAR BIKIMYOSI


9.1. Siyidik hosil bo'lish mexanizmi

Katta odamlarda ikki buyrakning og'irligi taxminan 300 g. Buyraklar asosiy a'zolardan biri bo'lib, ularning asosiy vazifasi organizm ichki muhiti doimiyligini saqlashdan iboratdir (9.1-rasm). Ular organizmning asosiy sekretor a'zosi bo'lib, qon plazmasi komponentlaridan siyidik ishlab chiqaradi. Buyraklar suv-elektrolit balansini boshqarish, kislota-ishqor muvozanatini saqlash, azot qoldiqlarini chiqarish, organizm suyuqliklari osmotik bosimini saqlash, qon bosimini boshqarish, eritropoezni stimullash va boshqalarda qatnashadi.

Buyrak to'qimasi 2 zonadan iborat: tashqi (po'stloq) va ichki (miya) moddasi. Nefron buyrak parenximasining funksional birligi hisoblanadi. Nefronning Boumen kapsulasidan qondagi suv hamda plazmaning boshqa past molekulyar moddalarini filtrlanib o'tadi; bu filtrlanishning harakatlanuvchi kuchi koptokcha kapillyarlari bilan Boumen kapsulasi bo'shlig'idagi gidrostatik bosim farqidir. Boumen kapsulasi filtrati (birlamchi siyidik) tarkibi va past molekulyar moddalar konsentratsiyasi bo'yicha qon plazmasidan farq qilmaydi.

Nefronda 3 asosiy jarayon sodir bo'ladi: koptokchalarda filtratsiya, kanalchalarda reabsorbsiya va sekresiya.

Siyidik hosil bo'lishining birlamchi bosqichi filtratsiya hisoblanadi: buyrak koptokchalaridagi kapillyar tugundan koptokcha bo'shlig'iga qonning suyuq qismi filtrlanadi. Filtratsiya davrida koptokchalardan har ikki buyrak orqali 1 daqiqada 1300 ml qon o'tadi. Buyrak koptokchalarining umumiy filtrlanadigan yuzasi taxminan 1,5 m² ni tashkil etadi. Koptokchalarda qon kapillyarlaridan buyrak koptokchasiga qon plazmasining ultrafiltratsiyasi sodir bo'ladi, natijada birlamchi oqsilsiz siyidik hosil bo'ladi.




9.1-rasm. Siyidik hosil bo'lishi jarayoni

Buyraklarda kapillyar bosim nafaqat arterial bosimga, balki koptokchalardagi “olib keluvchi” va “olib ketuvchi” arteriolalar diametri nisbatiga ham bog’liqdir. “Olib ketuvchi” arteriolaning diametri “olib keluvchi” arteriola diametridan taxminan 30 % ga kichikdir, tomirlar diametrlerining o’zgarishi, birinchi navbatda, kinin sistemasi orqali boshqariladi. “Olib ketuvchi” arteriolaning siqili filtratsiyani oshiradi. Bunga qarama-qarshi, “olib keluvchi” arteriolaning siqili filtratsiyani kamaytiradi. Koptokchalar filtratsiyasi kattaligi bo'yicha buyraklarning filtratsion qobiliyati haqida fikr yuritishadi. Kanalchalarda 99 % suv, natriy, xlor, gidrokarbonat, aminokislotalar, 93 % kaliy, 45 % siydikchil reabsorbsiyalanadi. Nefronlarda 1 sutkada 180 l suyuqlik filtrlanadi va qaytadan so'riladi. Reabsorbsiya natijasida birlamchi siydikdan ikkilamchi siydik hosil bo'lib, u kosacha va qovuqda to'planadi. Uning tarkibidagi asosiy moddalar 9.1-rasmda keltirilgan.

Nefron proksimal qism hujayralari filtratga o'tgan glyukoza, aminokislota, vitamin, elektrolitlarni; birlamchi siydikdagagi 6/7 qism suyuqlikni proksimal kanalchalarda reabsorbsiyalaydi.

Distal kanalchalarda natriy qo'shimcha reabsorbsiyalanadi, unda nefron bo'shlig'iga kaliy ionlari, ammoniy, vodorod ajralishi mumkin. Hujayradagi ATFning 80 % energiyasi natriy reabsorbsiyasida faoliyat ko'rsatuvchi “natriy nasosi” ga sarflanadi. Proksimal qismda suvning so'riliishi natriyning faol so'riliishi hisobiga passiv amalgao shsa, distal qismda, natriy ionlari so'riliishga bog'liq bo'limgan holda, antidiuretik gormon yordamida boshqariladi. Natriydan farqli ravishda kaliy nafaqat reabsorbsiyalanadi, balki “natriy-kaliy nasosi” ishi hisobiga sekretsiya ham qilinadi. Turli moddalarning reabsorbsiya va sekretsiyasi MNS va gormonal omillar yordamida boshqariladi.

Buyraklarda natriy va suv reabsorbsiyasi quyidagicha boshqariladi: buyrak koptokchalaridagi qon oqimi pasayganda arteriolalar devori cho'ziladi, natijada arteriolalar devoridagi yukstaglomerulyar apparat hujayralari qo'zg'alib, renin fermentini ishlab chiqara boshlaydi. Uning ta'sirida angiotenzinogen angiotenzin I ga aylanadi.



O'pkada dipeptidil-karboksipeptidaza I ta'sirida angiotenzin I dan oktapeptid – angiotenzin II hosil bo'ladi. Uning ta'sirida buyrak usti bezida aldosteron sekresiyasi kuchayadi, natijada kanalchalarda natriy reabsorbsiyasi ortadi, bir vaqtida suvning reabsorbsiyasi ham ortadi. Sirkulyatsiya qiluvchi qon hajmi ortadi. Arteriolada bosim oshadi va sistemada muvozanat tiklanadi (9.2-rasm).

Yukstaglomerulyar apparat hujayralarida reninining ishlab chiqarilishi buyrakning muhim inkretor (ichki sekretor) a'zo ekanligini ko'rsatadi. Buyraklarda ishlab chiqarilgan eritropoetin oqsil tabiatiga ega bo'lib, eritropoezni kuchaytiradi.

9.2. Buyrakning kislota-ishqor muvozanatni saqlashdagi vazifasi

Kislota-ishqor muvozanatiga buyraklar sezilarli ta'sir ko'rsatadilar, lekin bu ta'sir qon va o'pka bufer sistemalari ta'siriga nisbatan uzoqroq muddatdan keyin namoyon bo'ladi. O'pkalarga qondagi vodorod ionlari konsentratsiyasini me'yorlashtirish uchun taxminan 1–3 daqiqa talab etiladi, buyraklarga o'zgargan kislota-ishqor muvozanatini tiklash uchun esa 10–20 soat zarurdir.

Organizmda vodorod ionlari konsentratsiyasini saqlab turishning asosiy mexanizmi bo'lib, buyrak kanalchalari hujayralarida natriyning reabsorbsiyasi va vodorod ionlarining sekretsiyasini hisoblanadi. Bu mexanizm bir necha kimyoviy jarayonlar yordamida amalga oshadi. Ulardan birinchisi – digidrofosatlarning monogidrofosatlarga aylanishidagi natriyni reabsorbsiyasidir. Koptokchalarda hosil bo'luvchi buyrak filtrati yetarli miqdorda tuzlar, shuningdek fosfatlar saqlaydi. Lekin monogidrofosatlarni miqdori birlamchi siydkini buyrak kanalchalari bo'ylab harakatlanishi davrida asta-sekin kamayadi. Qonda digidrofosatlarni monogidrofosatlarga nisbati – 1:4, koptokcha filtratida – 9:1, nefron distal segmentidan o'tuvchi siydkda – 50:1. Buni natriy ionlarini kanalcha hujayralari orqali tanlab so'riliishi bilan tushuntirish mumkin. Ular o'rniga hujayralardan buyrak kanalchasi bo'shlig'iga vodorod ionlari ajratiladi. Shunday

qilib, monogidrofosfat Na_2HPO_4 digidrofosfat NaH_2PO_4 ga aylanadi va, shunday holda, siydk bilan ajraladi. Kanalcha hujayralarida karbonat kislotadan bikarbonat hosil bo'ladi, natijada qonning ishqoriy zaxirasi ortadi. Natriyning organizmda ushlab qolinishi va ortiqcha vodorod ionlarining chiqarilishini ta'minlovchi ikkinchi kimyoviy jarayon – kanalcha bo'shlig'ida bikarbonatlarni karbonat kislotaga aylanishidir. Kanalcha hujayralarida karboangidraza ta'sirida suvni karbonat angidridi bilan birikishi natijasida karbonat kislota hosil bo'ladi. Karbonat kislotaning vodorod ionlari kanalcha bo'shlig'iga chiqadi va u yerda bikarbonat anionlari bilan bog'lanadi; bu anionlarga teng miqdordagi natriy buyrak kanalchalari hujayralariga tushadi. Kanalcha bo'shlig'ida hosil bo'lgan H_2CO_3 , oson CO_2 va H_2O ga parchalanadi va organizmdan chiqariladi.

Natriyni organizmda saqlanishini ta'minlovchi uchinchi jarayon – buyraklarda ammiakni hosil bo'lishi. U boshqa kationlar o'rniga teng miqdordagi nordon moddalarni neytrallash va chiqarib yuborish uchun sarflanadi. Uning asosiy manbayi bo'lib glutaminni dezaminlash jarayoni, shuningdek aminokislotalarni, asosan glutamatni oksidlanishi bilan boruvchi dezaminlanishi hisoblanadi.

Glutaminning parchalanashi glutaminaza fermenti ishtirokida borib, bunda glutamat va erkin ammiak hosil bo'ladi. Glutaminaza odamni turli a'zo va to'qimalaridan topilgan, lekin uning eng yuqori faolligi buyrak to'qimasida aniqlangan. Siydk va qondagi vodorod ionlari konsentratsiyasini nisbati 800:1 bo'lib, buyrakni organizmdan vodorod ionlarini chiqarish qobiliyatining juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Organizmda vodorod ionlari to'planishiga moyillik bo'lgan holatlarda bu jarayon kuchayadi.

Shunday qilib, kislota-ishqor muvozanatni saqlash quyidagi kimyoviy jarayonlar yordamida amalga oshiriladi:

1. Gidrofosatni digidrofosfatga aylanishida natriy reabsorbsiyasi;
2. Kanalchalarda bikarbonatlarning karbonat kislotaga aylanishi;
3. Glutaminaza fermenti ta'siri ostida glutamindan erkin ammiakinin hosil bo'lishi va uning boshqa kationlar o'rniga neytrallanish reaksiyalarida qatnashishi.

9.3. Buyrak to‘qimasida me’yorda va patologik holatlarda modda almashinuvining o‘ziga xos tomonlari

Buyrak to‘qimasida kechuvchi murakkab fiziologik jarayonlar metabolik jarayonlarda hosil bo‘luvchi energiyani doimo ko‘p sarflash bilan boradi. Tinch holatda organizmga qabul qilinayotgan kislorodning 8–10% buyraklardagi oksidlanish jarayonlariga sarflanadi. Boshqa a’zolarga qaraganda buyrak massasiga nisbatan sarflanadigan energiya ko‘pdir. Buyrak po‘stloq qismida aerob, mag‘iz qismida esa anaerob jarayonlar kechadi. Buyrakda boshqa a’zolarda uchraydigan fermentlar mavjuddir, lekin buyrak to‘qimasida uning o‘zi uchun xos fermentlar ham bor. Bunday fermentlarga glitsin-amidinotransferaza (transamidinaza) kiradi. U quyidagi reaksiyani boshqaradi:




Bu kreatin sintezidagi boshlang‘ich reaksiyadir. Bu ferment oshqozon osti bezida ham bo‘ladi. Mazkur fermentning qonda paydo bo‘lishi shu a’zolarda o‘zgarish borligidan dalolat beradi. Buyrak po‘stloq qismida LDG₁ va LDG₂, mag‘iz qismida esa LDG₅ va LDG₄ uchraydi. Buyrakning o‘tkir yetishmovchiligidagi qon zardobida LDG₁ va LDG₂ faolligi ortadi.


Alaninaminopeptidaza (AAP) izofermentlari faolligini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Alaninaminopeptidazaning 5 izofermenti mavjud bo‘lib, AAP buyraklarda uchraydi. Buyrak to‘qimasi jarohatlanganda qon va siydikda AAP aniqlanadi. Buyrak kasalliklarini tashxis qilishda siydikdagি fermentlar faolligini tekshirish ham muhimdir. Buyrakning o‘tkir yallig‘lanish jarayonlarida koptoqcha membranalarining o‘tkazuvchanligi ortadi. Bu hol oqsil, shuningdek, fermentlarning siydik bilan chiqarilishiga olib keladi. Umuman buyrak to‘qimasida modda almashinuvining o‘zgarishi koptoqchada qon aylanishining blokadasi, filtratsiya va reabsorbsiyaning buzilishi, siydik chiqarilishining blokadasi, yuktaglomerulyar apparatning jarohatlanishi, sekretsiyaning buzilishi va boshqalar bilan chaqirilishi mumkin.

9.4. Siy dikning umumiy xususiyatlari va tarkibiy qismlari

Katta yoshdagagi odamlarda me’yorda bir sutkada ajralib chiqadigan siy dik miqdori 1000 ml dan 2000 ml gacha bo‘lib, qabul qilingan suyuqlik hajmining o‘rtacha 50–80 %ini tashkil etadi. 500 ml dan kam va 2000 ml dan ko‘p sutkalik siy dik miqdori katta yoshdagilarda patologik holat deb hisoblanadi.



Siydik: umumiy ma’lumotlar



9.3-rasm. Siy dikning tarkibiy qismlari

Siydik hajmining ortishi (**poliuriya**) ko‘p miqdorda suyuqlik, diurezni ko‘paytiruvchi oziq-ovqatlar (tarvuz, qovoq va boshqalar) qabul qilinganda kuzatiladi. Patologik hollarda diurez buyrak kasalliklari (surunkali nefrit va pielonefrit), qandli diabet va boshqalarda uchraydi. Ko‘p miqdorda siydikning ajralishi – sutkada 15 l gacha va undan ko‘p qandsiz diabetda (diabetes insipidus) kuzatiladi (9.3-rasm).

Sutkalik siydik miqdorining kamayishi (**oliguriya**) kam miqdorda suyuqlik qabul qilinganda, tana harorati ortganda (terlash hisobiga ko‘p miqdorda suv yo‘qotiladi), qusganda, ich ketganda, toksikoz, o‘tkir nefrit va boshqalarda kuzatiladi. Buyrak parenximasining og‘ir jarohatlarida (o‘tkir diffuz nefrit), siydik tosh kasalligida (siydik nayi berkilganda), rux, simob, margimush bilan zaharlanganda, kuchli asabiylashishda siydik chiqarilishi to‘liq to‘xtashi (anuriya) mumkin. Uzoq davom etadigan **anuriya uremiyaga** olib keladi.

Me’yor bo‘yicha kechasiga nisbatan kunduzi siydik ko‘p ajraladi. Kunduzgi va tungi diurez o‘rtasidagi nisbat 4:1 dan 3:1 gacha bo‘ladi. Ba’zi patologik holatlarda (yurak dekompensatsiyasining boshlang‘ich shakllari, sistopielit va boshqalar) kunduziga nisbatan kechasi siydik ko‘p miqdorda ajraladi. Bu holatga **nikturiya** deb ataladi.

Me’yorda siydikning rangi somon-sariqdan to‘q sariqqacha bo‘ladi. Siydik rangi undagi pigmentlar – uroxrom, urobilin, uroeritrin, urozein va boshqalarning saqlanishiga bog‘liq. To‘q sariq rangga ega bo‘lgan siydik, odatda, konsentrangan, yuqori zichlikka ega va nisbatan kam miqdorda ajralib chiqadi. Och sariq (somon) rangidagi siydik past zichlikka ega bo‘lib, ko‘p miqdorda ajralib chiqadi.

Patologik holatlarda siydikning rangi qizil, yashil, jigar rang va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bu unda me’yorda uchramaydigan bo‘yovchi moddalarning mavjudligiga bog‘liq. Masalan: qizil yoki pushti-qizil rang gematuriya va gemoglobinuriyada, shuningdek, antipirin, amidopirin, santonin va boshqa dori moddalarni qabul qilgandan keyin kuzatiladi. Jigar rang yoki qizil-qo‘ng‘ir rang siydikda urobilin va biliarubin konsentrasiyasi yuqori bo‘lganda kuzatiladi.

Sog‘lom odam siydigida juda kam miqdorda gemorroidal vena sistemalaridan so‘riluvchi sterkobilinogen bo‘ladi. Yorug‘lik va havo ta’sirida rangsiz sterkobilinogen oksidlanib, rangli pigment – sterkobilinga aylanadi. Klinik amaliyotda siydikda siydik sterkobilini ba’zida **urobilin** deb ataladi. Jigar kasalliklarida, ichakdan so‘rilgan mezobilinogen (urobilinogen) va tripirrollar parchalanishi buzilganda, siydikda ko‘p miqdorda urobilinogen paydo bo‘ladi (yorug‘lik va havo ta’sirida urobilinga aylanadi). Bunday holatlarda siydik rangi to‘qlashadi.

Yashil yoki havorang siydik organizmga metil ko‘ki qabul qilinganda, shuningdek ichakda oqsillarning chirish jarayonlarini kuchayishida kuzatiladi. Ichakda oqsillarni chirish jarayoni kuchayganda siydikda ko‘p miqdorda indoksilsulfat kislota bo‘ladi, ular indigo hosil qilib parchalanishi mumkin.

Me’yorda siydik tiniq bo‘ladi. Tuzlar, hujayra elementlari, bakteriya, shilliq, yog‘ (lipuriya) siydikning loyqalanishini vujudga keltiriши mumkin. Siydik loyqalanishining sababini mikroskop ostida (siydik cho‘kmasini tekshirish) yoki kimyoviy analiz orqali aniqlash mumkin.

Katta odamlarda sutka davomida siydikning nisbiy zichligi o‘zgarib turadi (1,002 dan 1,035 gacha), bu ovqat, suv qabul qilinishi tartibi va suyuqlikning organizmdan chiqarilishiga (ter ajratish va boshqalar) bog‘liq. Ko‘pincha u 1,012–1,020 ga teng. Siydikning zichligi unda erigan moddalar miqdori haqida tushuncha beradi. Sutka davomida siydik bilan 50–75 g quruq moddalar ajralib chiqadi. Siydik tarkibidagi quruq moddalarning taxminiy miqdorini (11 ga g hisobida) siydik zichligining oxirgi ikki sonini 2,6 koeffitsiyentiga ko‘paytirish orqali topish mumkin.

Buyraklarning og‘ir yetishmovchiligidagi doimo bir xil zichlikka ega bo‘lgan, birlamchi siydik yoki ultrafiltrat (~ 1,010) zichligiga teng bo‘lgan siydik ajraladi. Bu holat **izostenuriya** deb ataladi.

Siydikning doimo past zichlikka ega bo‘lishi surunkali nefritda, birlamchi yoki ikkilamchi burishgan buyrakda buyraklar

konsentratsion funksiyasining buzilganligini ko'rsatadi. Qandsiz diabetda ham past zichlikka ega bo'lgan siyidik ajraladi (1,001–1,004), bu kanalchalarda suv qayta so'rili shining buzilishi bilan bog'liqdir. **Oliguriyada** (sutkalik siyidik miqdorini kamayishi), masalan, o'tkir nefritda, siyidik yuqori zichlikka ega. Yuqori zichlik qandli diabetdagi **poliuriya** uchun xos, bunda u siyidik tarkibida katta miqdorda glyukozaning saqlanishi bilan bog'liqdir.

Siyidik reaksiyasi (pH) me'yorda aralash ovqat iste'mol qilganda nordon yoki kuchsiz nordon (pH 5,3–6,5) bo'lib, uni, odatda, laksus qog'ozni yoki test-poloskalar yordamida aniqlanadi. Odatda, sutka davomida siyidik bilan 40 dan 75 mekv gacha kislotalar ajralib chiqadi, pH kattaligiga ovqat turi ta'sir etadi. Go'shtli ovqat iste'mol qilinganda siyidik nordon xarakterga, sabzavotli dietada esa siyidik reaksiyasi ishqoriy xarakterga ega.

Odam siydigining nordon reaksiyasi unda asosan bir almashingan fosfatlarni (masalan, KH_2PO_4 yoki NaH_2PO_4) mavjudligiga bog'liq. Ishqoriy siyidikda ikki almashingan fosfatlar yoki bikarbonat natriy (kaliy) ko'proq saqlanadi.

Siydikning kuchli kislotali reaksiyasi isitmalagan holatlarda, qandli diabetda (ayniqsa, siyidikda keton tanachalari bo'lganda), ochlikda va organizmdagi boshqa o'zgarishlarda kuzatiladi. Siydikning ishqoriy reaksiyasi sistit va **pielitlarda** (siyidik pufagi bo'shlig'ida mikroorganizmlar siyidikchilni ammiakkacha parchalaydi), kuchli quсиqdan keyin, ba'zi dorilar qabul qilganda (masalan, bikarbonat natriy), ishqoriy mineral suvlar iste'mol qilganda va boshqalarda kuzatiladi.

9.5. Siyidikning kimyoviy tarkibi

Siyidik tarkibidagi quruq moddalar (sutkalik miqdori taxminan 60 g) organik va anorganik moddalardan tarkib topgan (1-jadval).

Ba'zi anorganik moddalar ionlari va organik moddalarning o'rta yoshdag'i odam siyidigida saqlanishi

Tarkibiy qismi	Miqdori (sutkalik siyidik miqdori hisobida)		Qon plazmasida saqlanishiga molyar nisbati
	g/sut	mmol/sut	
Na ⁺	3 – 6	130 – 260	0,8 – 1,10
K ⁺	1,5 – 3,2	38 – 82	7 – 12
Mg ⁺²	0,1 – 0,2	4,2 – 8,4	4 – 5
Ca ⁺² (umumiy)	0,1 – 0,25	2,5 – 6,2	0,8 – 1,5
Ammiak azoti	0,5 – 1,0	36 – 71	2000 – 3500
Xlorid (Cl ⁻)	3,6 – 9,0	100 – 250	0,8 – 2,0
Noorganik fosfat	0,9 – 1,3	29 – 45	22 – 29
Siyidik kislotasi	0,2 – 1,2	1,2 – 7,1	4 – 16
Siyidikchil	20 – 35	333 – 583	50 – 80
Kreatinin:			
erkaklarda	1,0 – 2,0	8,8 – 17,7	70 – 98
ayollarda	0,8 – 1,8	7,1 – 15,9	66 – 80
Indikan	0,01 – 0,012	0,047 – 0,056	10 – 30

Hozirgi vaqtida siyidikda jami 150 dan ortiq kimyoviy moddalar aniqlangan.

9.6. Siyidikdagi organik moddalar

Siyidikchil (mochevina) – siyidik tarkibidagi organik moddalarning katta qismini tashkil etadi. Katta odam siyidigi bilan o'rtacha bir sutkada 30 g ga yaqin (12–36 g) siyidikchil chiqariladi. Bir sutkada siyidik bilan ajratiladigan azotning umumiy miqdori 10 dan 18 g gacha bo'lishi mumkin, aralash ovqatlanganda siyidikchilning azoti 80–90 %ni tashkil etadi. Siyidikda siyidikchilga to'g'ri keladigan azotning miqdori oqsillarga boy bo'lgan ovqat iste'mol qilganda, to'qima oqsillarining parchalanishi bilan boruvchi kasalliklar (isitmalaganda, saraton, gipertireoz, diabet va boshqalar), shuningdek, ba'zi dorilar buyrak ajraladigan siyidikchil miqdori jigar og'ir jarohatlanganda, buyrak kasalliklarida (ayniqsa, buyrakning filtratsiya qilish qobiliyati buzilganda), shuningdek insulin va boshqalar qabul qilganda kamayadi.

Kreatinin -- azot almashinuvining oxirgi mahsuloti hisoblanadi. U mushak to'qimasida fosfokreatindan hosil bo'ladi. Har bir odam uchun kreatininning sutkalik ajralish miqdori doimiy bo'lib, u asosan mushak massasi holatini aks ettiradi. Erkaklarda tananlig har bir kg massasiga sutkada siyidik bilan 18–32 mg kreatinin ajraladi, ayollarda esa 10 dan 25 mg gacha. Bu sonlar ovqat tarkibidagi oqsil miqdoriga ham bog'liq. Shuning uchun siyidik bilan kreatinin sutkalik ekskresiyasini aniqlashdan, ko'pchilik holatlarda, sutkalik siyidik yig'ilishi to'liqligini nazorat qilishda foydalanish mumkin.

Kreatin – katta odamlar siydigida me'yorda deyarli bo'lmaydi. U siydkida kreatinni ko'p miqdorda iste'mol qilinganda yoki patologik holatlarda aniqlanishi mumkin. Qon zardobida kreatin miqdori 0,12 mmol/l ga yetganda u siydiq bilan ajraladi. Bola bir yoshga kirguncha «**fiziologik kreatinuriya**» kuzatilishi mumkin. Ehtimol, go'daklar siydigida kreatinining paydo bo'lishi, muskul rivojlanishga nisbatan, kreatin sintezining kuchliroq ekanligi bilan bog'liqdir. Ba'zi tadqiqotchilar qariyalardagi mushak atrofiyasi va jigarda hosil bo'lgan kreatinining to'liq foydalanmasligi natijasida kelib chiquvchi kreatinuriyani ham fiziologik holat deb qaraydilar. Kreatinining siydkida eng ko'p miqdorda saqlanishi mushak sistemasining patologik holatlarida, avvalambor miopatiya yoki progresslanuvchi mushak distrofiyasida kuzatiladi. Miopatiyalı bermorlar siydigida kreatinining paydo bo'lishi skelet mushagida uning fiksatsiyasi va fosforillanishining buzilishi natijasida vujudga kelishi mumkin. Fosfokreatinining sintez jarayoni buzilgan bo'lsa, kreatinin hosil bo'lmaydi: uning miqdori siydkda keskin kamayadi. Kreatinuriya natijasida va kreatinin sintezi buzilishi siydkda kreatin ko'rsatkichi ('kreatin+kreatinin/kreatinin') keskin oshadi. Me'yorda bu ko'rsatkich - 1,1 ga yaqin. Kreatinuriya jigar jarohatlanganida, qandli diabetda, endokrin o'zgarishlarda (gipertireoz, addison kasalligi, akromegaliya va boshqalar), yuqumli kasalliklarda kuzatilishi mumkin.

Aminokislotalar – sutkalik siyidikda 1,1 g atrosida bo'ldi. Qon va siyidikdagи ayrim aminokislotalar miqdorining nisbati bir xil emas. Siyidik bilan ajralayotgan u yoki bu aminokislotaning miqdori uning qon plazmasidagi miqdori va kanalchalardagi reabsorbsiya darajasiga

bog'liq. Siydikda glitsin va gisti dinnning konsentratsiyasi eng yuqori, ulardan so'ng glutamin, alanin va serinlarning miqdori turadi. **Giperaminoasiduriya** – jigar parenximasini kasalliklarida uchraydi. Bu jigarda dezaminlanish va transaminlanish jarayonlarining buzilishi bilan tushuntiriladi. Giperaminoasiduriya, shuningdek, og'ir yuqumli kasalliklar, saraton, katta jarohatlar, miopatiya, komatoz holatlari, gipertireoz, kortizon va AKTG bilan davolaganda va boshqa holatlarda kuzatiladi. Ayrim aminokislotalar almashinuvining buzilishlari ham ma'lum. Bunday buzilishlarning ko'philigi tug'ma yoki irlsiydir. Bunga fenilketonuriya misol bo'lishi mumkin. Kasallikning sababi – jigarda fenilalanin-4-monooksigenazaning irlsiy yetishmovchiligi, buning natijasida fenilalaninning tirozinga aylanishi sodir bo'lmaydi. Bu holda organizmda fenilalanin hamda uning ketohosilalari to'planadi va siyidik bilan ko'p miqdorda ajraladi. Fenilketonuriyani temir xloridi yordamida aniqlash juda oson: siydikka bir necha tomchi temir xlorid eritmasi qo'shilganida 2–3 daqiqadan so'ng zaytun-yashil rang hosil bo'ladi. **Alkaptonuriyada** (gomogentizinuriya) siydikda tirozin almashinuvni metabolitlaridan biri – gomogentizin kislotasi miqdori keskin ortadi. Natijada havoda qoldirilgan siyidik havo kislороди yordamida gomogentizin kislotasining oksidlanishi hisobiga keskin qorayadi. Alkaptonuriyada metabolizm buzilishining sababi bo'lib, gomogentizin kislotasi oksidazasining yetishmovchiligi hisoblanadi. Shuningdek, yana tug'ma kasalliklar: **giperprolinemiya** (prolinoksidaza fermentining yetishmovchiligi natijasida vujudga keladi, oqibati – prolinuriya); **gipervalinemiya** (valin almashinuvining irlsiy buzilishi, siydikda valin konsentratsiyasining keskin ortishi bilan boradi); **sitrulinemiya** (siydikchil hosil bo'lish siklining irlsiy buzilishi, argininsuksinat-sintetaza fermentining yetishmovchiligidagi bog'liq, siydik bilan ko'p miqdorda sitrullin ajralib chiqadi) va boshqalar kuzatiladi.

Siydik kislota purin almashinuvining oxirgi mahsulotlari hisoblanadi. Sutka davomida siydik bilan 0,7 g yaqin siydik kislota chiqariladi. Nukleoproteinlar saqllovchi ovqatlar ko‘p iste’mol qilinganda malum vaqtidan keyin siydik kislota chiqarilishi ortadi. Va, aksinchalik, purinlarni kam saqllovchi ovqat iste’mol qilinganda siydik kislotaning

chiqarilishi sutkada 0,2 g gacha pasayadi. Siydiq kislotaning ko‘p chiqarilishi leykemiya, politsitemiya, gepatit va podagrada ham kuzatiladi. Asetilsalitsil kislota va ba‘zi steroid gormonlar qabul qilinganda ham siydiq kislotaning siydikdagini miqdori ortadi. Siydiqda siydiq kislota bilan bir qatorda endo- va ekzogen tabiatga ega bo‘lgan oz miqdorda purinlar saqlanadi.

Gippur kislotasi odam siydigida oz miqdorda aniqlanadi (sutkalik hajmda taxminan 0,7 g). Bu modda glitsin va benzoy kislotaning birikmasidir. Aromatik birikmalarga boy bo‘lgan o‘simlik ovqatlarni iste’mol qilganda, ulardan benzoy kislota hosil bo‘lganligi sababli gippur kislota siydiq bilan ko‘p ajraladi. 1940-yilda A. Kvik va A.Ya. Pitel klinik amaliyatga gippur probasini (Kvik-Pitel probasini) kiritdilar. Me’yorda jigar hujayralari organizmga qabul qilingan benzoat kislotani (yengil nonushtadan keyin bemor 3–4 g benzoat natriy qabul qiladi) glitsin bilan biriktirish orqali zararsizlantiradi. Hosil bo‘lgan gippur kislota siydiq bilan chiqariladi. Kvik-Pitel probasi o‘tkazilganda me’yorda siydiq bilan qabul qilingan benzoat natriyning 65–85 %i chiqariladi. Jigar jarohatlanganda gippur kislota hosil bo‘lishi buziladi, shuning uchun siydiqda uning miqdori keskin pasayadi.

Siydikning azotsiz organik tarkibiy qismlari – bu shavel, sut va limon (sitrat), shuningdek moy, valerian, qahrabo (suksinat), β -oksimoy, asetosirka va boshqa kislotalardir. Sutkalik siydiqda organik kislotalarning umumiy miqdori, odatda, 1 g dan ortmaydi. Me’yoriy sutkalik siydiqda bu kislotalarning miqdori milligrammlarga to‘g‘ri keladi, shuning uchun ularning miqdorini aniqlash juda murakkabdir. U yoki bu holatlarda ularning ko‘philigini chiqarilishi ko‘payadi va ularni aniqlash siydiqda oson kechadi. Masalan: mushaklar zo‘riqish bilan ko‘p ishlaganda sut kislota miqdori, alkalozda – sitrat va suksinat miqdori ortadi.

9.7. Siydikning anorganik (mineral) tarkibiy qismlari

Qon va organizmning boshqa to‘qimalari tarkibiga kiruvchi barcha mineral moddalar siydiq tarkibida bo‘ladi. Sutkalik siydiq quritilganda hosil bo‘lgan 50 – 65 g quruq moddaning 15 – 25 g anorganik moddalarga to‘g‘ri keladi.

Natriy va xlor ionlari – me’yorda ovqat bilan qabul qilingan xloridlarning 90 % (bir sutkada 8 – 15 g NaCl) siydiq bilan chiqariladi. Ba‘zi patologik holatlarda (surunkali nefrit, diareya, o‘tkir bo‘g‘im revmatizmi va boshqalar) siydiq bilan xloridlarning chiqarilishi pasa-yadi. Na⁺ va Cl⁻ ionlarining maksimal konsentratsiyasi (siydiqda 340 mmol/l) organizmga ko‘p miqdorda gipertonik eritmalar yuborilgandan keyin kuzatilishi mumkin.

Kaliy, kalsiy va magniy ionlari – ko‘philik tadqiqotchilar koptoqcha filtratida bo‘lgan kaliy ionlarining barchasi, nefron proksimal qismida birlamchi siydiqdan qayta so‘riladi, deb hisoblaydilar. Distal segmentda kaliy ionlarining sekresiyasi yuz beradi. U asosan kaliy va vodorod ionlarining almashinuvi bilan bog‘liqdir. Demak, organizmda kaliyning kamayishi nordon siydiqning ajralishi bilan boradi. Ca²⁺ va Mg²⁺ ionlari buyrakdan kam miqdorda ajraladi. Organizmdan chiqarilishi kerak bo‘lgan Ca²⁺ va Mg²⁺ ionlarining taxminan 30 %i siydiq orqali ajratiladi. Ishqoriy yer metallarining asosiy qismi najas orqali chiqariladi.

Bikarbonatlar, fosfatlar va sulfatlar – siydiqning pH ko‘rsatkichi bilan bog‘liqdir. pH 5,6 bo‘lganda siydiq bilan 0,5 mmol/l, pH 6,6 bo‘lganda 6,0 mmol/l va pH 7,8 bo‘lganda 9,3 mmol/l bikarbonatlar ajraladi. Bikarbonatlar miqdori alkalozda ko‘paysa, asidozda – kamayadi. Odatta, organizmdan chiqariladigan fosfatlarning 50 %idan kamroq miqdori siydiq bilan chiqariladi. Asidozda siydiq bilan fosfatlarning chiqarilishi ortadi. Qalqonsimon oldi bezi giperfunksiyasida siydiqdagagi fosfatlar miqdori ko‘payadi. D vitaminini qabul qilinganda fosfatlarni siydiq bilan chiqarilishi pasayadi.

Oltingugurt saqlovchi aminokislotalar – sistein, sistin va metionin siydiq sulfatlarining manbayi hisoblanadi. Bu aminokislotalar to‘qimalarda sulfat kislota ionlarini hosil qilib oksidlanadi. Sutkalik siydiq tarkibida sulfatlarning umumiy miqdori 1,8 g dan (oltingugurtga hisoblaganda) ortmaydi.

Ammiak – buyrakda ko‘p miqdorda saqlanuvchi glutaminaza fermenti ishtirokida glutamindan ammiakning hosil bo‘lishining maxsus mexanizmi mavjud. Ammiak siydiq bilan ammoniy tuzlari sifatida chiqariladi. Uning miqdori organizmdagi kislota-ishqor muvozanati-

ni aks ettiradi. Asidozda ularning siydikdagi miqdori ko'payadi, alkalozda esa kamayadi. Buyraklarda glutamindan ammiak hosil bo'lish jarayoni buzilganda siydikda ammoniy tuzlarining miqdori past bo'ladi.

9.8. Siydikning patologik tarkibiy qismlari

Keng foydalaniladigan "siydikning patologik tarkibiy qismlari" tushunchasi shartli bo'lib, siydikning patologik tarkibiy qismi sifatida ko'rildigan ko'pchilik birikmalar, ko'p bo'laman miqdorda bo'lsa ham, me'yoriy siydikda doimo bo'ladi. Boshqacha aytganda, so'z analitik aniqlanadigan miqdorda uchramaydigan moddalar haqida ketyapti. Bularga avvalambor oqsil, glyukoza, aseton (keton) tanachalari, o't va qon pigmentlari kiradi.

Oqsil – me'yorda odam siydigida juda kam miqdorda bo'lib, uning borligini, odatda, sifat reaksiyalari bilan aniqlab bo'lmaydi. Qator kasalliklarda, ayniqsa, buyrak kasalliklarida, siydikdagi oqsil miqdori keskin ortishi mumkin (proteinuriya). Qon zardobi oqsillari, shuningdek ma'lum darajada buyrak to'qimasi oqsillari, siydik oqsilining manbayi bo'lishi mumkin. Proteinuriyalar 2 katta guruhga bo'linadi: buyrak va buyrakdan tashqari. Buyrak proteinuriyalari oqsillar (asosan qon plazmasi oqsillari) siydikka nefronning organik jarohatlanishi, buyrak filtri teshiklari o'lchamining ortishi, shuningdek, koptokchalarda qon oqimi pasayishi natijasida vujudga keladi. Buyrakdan tashqari proteinuriya siydik yo'llari yoki prostata bezining jarohatlanishiga bog'liqidir. Klinik amaliyatda ko'p qo'llanilaniladigan «**albuminuriya**» iborasi (siydikda oqsil aniqlanganda) noto'g'ridir, chunki siydik bilan nafaqat albumin, balki globulinlar ham ajraladi. Masalan: nefrozlarda siydikdagi oqsilning umumiyligi miqdori 26 g/l gacha bo'lishi mumkin, bunda albuminlar konsentratsiyasi 12 g/l, globulinlarniki esa – 14 g/l dir.

Odam siydigida lipaza, ribonukleaza, LDG, aminotransferaza, urokinaza, fosfataza, α -amilaza, leytsinaminopeptidaza va boshqa qator fermentlar faolligini aniqlash mumkin. α -Amilaza va ba'zi boshqa fermentlardan tashqari fermentlar faolligini aniqlashning

asosiy qiyinchiliklari siydikning quyuqlashishi va bunda ferment faolligini ingibirlashdan muhofaza qilishga bog'liqidir.

Qon – siydikda qizil qon tanachalari (**gematuriya**) yoki erigan qon pigmentlari (**gemoglobinuriya**) sifatida aniqlanishi mumkin. Gematuriyalar buyrak va buyrakdan tashqari bo'lishi mumkin. Buyrak gematuriyasi – o'tkir nefritning asosiy simptomi. Buyrakdan tashqari gematuriya siydik yo'llarining yallig'lanish jarayonlari yoki jarohat olganda kuzatiladi. Gemoglobinuriya, odatda, gemoliz va gemoglobinemiya bilan bog'liqidir. Gemoglobinning plazmadagi miqdori 1 g/l dan ortgandan so'ng, u siydikda paydo bo'ladi. Gematuriyani, odatda, sitologik tekshiruv (siydik cho'kmasini mikroskop ostida tekshirish), gemoglobinuriyani esa kimyoviy yo'l bilan aniqlash mumkin.

Glyukoza – me'yorda odam siydigida minimal miqdorda glyukoza bo'ladi. Ularni oddiy sifat reaksiyalari bilan aniqlab bo'lmaydi. Patologik holatlarda glyukozaning siydikdagi miqdori ko'payadi (**glyukozuriya**). Masalan, qandli diabetda siydik bilan ajralayotgan glyukoza miqdori sutka davomida bir necha o'n grammga yetishi mumkin.

Ba'zida siydikda boshqa uglevodlar, xususan fruktoza, galaktoza va pentozalar aniqlanishi mumkin. **Fruktozuriya** fruktozani glyukozaga aylantiruvchi fermentlarni irlsiy yetishmovchiligidagi kuzatiladi; shuningdek, irlsiy **pentozuriya** va irlsiy **galaktozuriya** ham uchraydi.

Keton (aseton) tanachalari – me'yoriy siydikda bu birikmalar juda kam miqdorda (0,01 g sutkada) uchraydi. Ular oddiy sifat sinamalari bilan (Legal, Lange va boshqa nitroprussid sinamalari) aniqlanmaydi. Keton tanachalari ko'p miqdorda chiqarilganda sifat sinamalari ijobiy bo'ladi. Bunday patologik holat **ketonuriya** deb ataladi. Masalan: qandli diabetda kuniga 150 g gacha keton tanachalari chiqarilishi mumkin. Siydikda aseton hech qachon asetosirkha kislotasisiz va, aksincha, atsetosirkha kislotasi atsetonsiz chiqarilmaydi. Odatdagagi nitroprussid sinamalari nafaqat asetonni, balki asetosirkha kislotanining borligini ham aniqlashga imkon beradi; β -oksimoy kislotasi siydikda keton tanachalari (qandli diabet va boshqalar) juda ko'payganda paydo bo'ladi. Keton tanachalari siydik bilan nafaqat qandli diabetda, balki ochlikda, ovqat tarkibida uglevodlar bo'lamanida ham kuzatiladi. Ketonuriya bundan tashqari uglevodlarni ko'p ishlatalishi

bilan kechadigan kasalliklarda kuzatiladi. Masalan: tireotoksikozda, subaraxnoidal bo'shliqlarga qon quyilishida, bosh suyagi-miya jarohatlarida. Ilk yoshlik davrida oshqozon-ichak yo'lida uzoq davom etadigan kasalliklar (dizenteriya, toksikozlar) ochlik natijasida **ketonemiya** va **ketonuriyani** vujudga keltirishi mumkin. Ketonuriya skarlatina, gripp, tuberkulyoz, meningit kabi yuqumli kasalliklarda ham kuzatilishi mumkin. Bu holatlarda ketonuriya diagnostik ahamiyatga ega bo'lmay ikkilamchidir.

Bilirubin – me'yoriy siydikda juda kam miqdorda bilirubin bo'lib, uni oddiy sifat reaksiyalari bilan aniqlab bo'lmaydi. Bilirubin ko'p ajralganda, bilirubinga sifat reaksiyalari musbat bo'lganda **bilirubinuriya** deb ataladi. U o't yo'llari berkilib qolganda va jigar parenximasi kasalliklarida uchraydi. Bilirubinning siydik bilan chiqarilishi obturatsion sariqlikda kuchli rivojlangan. O't dimlanganida o't kanalchalari jarohatlanadi va bilirubinni qon kapillyarlariga o'tkazadi. Agar jigar parenximasi jarohatlangan bo'lsa, bilirubin parchalangan jigar hujayralari orqali qonga o'tadi. Qonda bevosita bilirubin miqdori 3,4 mkmol/l dan ortganda **bilirubinuriya** kuzatiladi. Bilvosita bilirubin buyrak filtri orqali o'ta olmaydi. U faqat buyraklar qattiq jarohatlanganida bo'lishi mumkin.

Urobilin – aniqrog'i sterobilin, siydikda doimo juda kam miqdorda bo'ladi. Uning konsentratsiyasi gemolitik va parenximatoz sariqlikda keskin ortadi. Bu jigarni ichakdan so'rilgan mezobilinogeni (urobilinogen) ushlab qolishi va parchalash xususiyatining yo'qolishi bilan bog'liqidir. Aksincha, siydikda o't pigmentlari (bilirubin) bo'lganda urobilinogenni bo'imasligi o't yo'lining berkilishi natijasida o'tni ichakka tushishini to'xtaganligini ko'rsatadi.

Porfirinlar – me'yorda siydik juda kam miqdorda I turdag'i porfirinlarni saqlaydi (sutkalik miqdori 300 mkg gacha). Lekin porfirinlarni chiqarilishi jigar kasalliklarida va pernitsioz anemiyada keskin ortishi mumkin (10–12 barobar). Irsiy porfiriyyada I tur porfirinlar hosil bo'ladi (uroporfirin I va koproporfirin I). Bu holatlarda sutkalik siydikda 10 mg gacha porfirinlar aniqlanadi. O'tkir porfiriyyada uroporfirin III, koproporfirin III, shuningdek, porfobilinogenning siydik bilan ekskresiyasi kuzatiladi.

10-bob. SUT BIOKIMYOSI

10.1. Laktatsion funksiyaning umumiyl tavsifi

Sut bezlarining rivojlanishi homiladorlik paytida boshlanadi, differensiatsiyalanishi, yog' qatlamlari, biriktiruvchi to'qimaning o'zgarishlari esa ayollarning butun umri davomida kechadi. Bu jarayonning boshqarilishi ichki sekretsiya bezlari, aynan gipofiz, gipotalamus, qalqonsimon bez, jinsiy bezlar va boshqa bezlardan ishlab chikariladigan gormonlar ta'siri ostida bo'ladi. Bu gormonlar qiz bolaning balog'atga yetish davrida – 10–12 yoshda faollashadi.

Sut bezning to'liq rivojlanishi 18–20 yoshda bo'lib, undagi anatomik va fiziologik o'zgarishlar hayz ko'rganda, homiladorlik va emizish davrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Homiladorlikning dastlabki kunlaridan boshlab ona bilan bola orasida o'zaro aloqa o'rnatiladi va bu «ona-yo'l dosh-homila» tarzida bo'ladi. Farzand dunyoga kelgach, bu aloqa «ona-ko'krak suti-bola» tariqasida davom etadi. Bu o'zaro aloqa yordamida bola onadan biologik faol moddalarni oladi.

Sutning ajralib chiqishi laktatsiya deb nomlanadi, bu jarayonning boshqarilishida MNS muhim o'rinn tutadi. Laktatsion funksiyani bir qator o'zaro bog'liq jarayonlar belgilaydi: mammogenet – sut bezining rivojlanishi, laktogenet – tug'ruqdan keyin sutni ishlab chiqarilishi, laktopoez – sut ajrab chiqishini quvvatlab turilishi. Sutning hosil bo'lishi va chiqarilishi murakkab neyrogormonal muvozanatni saqlash mexanizmi bilan boshqariladi. Laktatsiyani boshqaruvchi oliy apparat bosh miyaning qobig'i bo'lib, u tashqi va ichki muhit qo'zg'atuvchilarini analiz va sintezini amalga oshiradi. Sut bezidan impulslar MNS ga boradi, u yerdan gipotalamus sekretsiyasini tezlashtiruvchi laktogen gormon – prolaktinni ajratadi. U sut sekretsiyasini, shuningdek, oqsillar, yog'lar va uglevodlar hosil

bo'lishida qatnashuvchi fermentlar sintezini kuchaytiradi. Bu bilan parallel holda gipofizning orqa bo'lagida sutning sut yo'llari bo'yab harakatini va uning so'rg'ichlar orqali ajralishini tezlashtiruvchi oksitotsin ajraladi. Laktatsiyaning kuchli stimulyatorlaridan biri – ko'krakning bola tomonidan so'riliши va uning sut qoldiqlaridan yuqori darajada to'liq ozod bo'lish jarayonidir.

Laktatsiya ko'pgina omillarga – она sog'lig'inинг holati, kun tartibi, uning mehnati va dam olishining shart-sharoitlariga bog'liqdir. Laktatsiyaring miqdoriga va sut tarkibining sifatlari bo'lishiga onaning homiladorlik vaqtidagi va emizish davridagi ovqatlanishi katta ta'sir ko'rsatadi. Emizikli onaning oziq-ovqat mahsulotlari turli tuman bo'lib, ularning tarkibida to'la qimmatli oqsillar, yog'lar, mineral tuzlar, mikroelementlar vitaminlar bo'lishi kerak. Ayniqsa она organizmiga oqsilning yetarli miqdorda kirishi katta ahamiyatga ega, chunki u sut oqsilining sintezi, shuningdek fermentlar, gormonlar, immun tanachalarining manbayi bo'lib hisoblanadi.

10.2. Og'iz sutining umumiy tavsiyi

Bola tug'ilgandan so'ng daslabki 2–3 kun ichida onaning sut bezi sarg'imtir rangli suyuqlik — og'iz sutini ajratadi. Og'iz suti quyuq, nihoyatda oziq moddalarga boy bo'ladi. Uning miqdori 10–100 ml atrofida bo'ladi. Sariq rangni uning tarkibidagi karotin belgilab beradi. Karotin miqdori og'iz sutida yetilgan sutga nisbatan 50–100 barobar ko'proq bo'ladi. Og'iz sutida vitamin A, E va K lar ham ancha ko'proq bo'ladi. Og'iz sutida taurin, nervlarni o'stiruvchi omil kabi moddalar ham ko'p miqdorda aniqlangan.

Og'iz sutida yetilgan sutga nisbatan lakteza, yog'lar, suvda eriydigan vitaminlar kamroq, lekin oqsil, mineral moddalar ko'proq bo'ladi. Og'iz sutida oqsillar miqdori 20 % bo'lsa, sut tarkibida ular faqat 4 % ni tashkil qiladi (10.1-jadval). Oqsillarning asosiy qismi – immunoglobulinlar tashkil qiladi. Ular yangi tug'ilgan chaqaloqlarning yetilmagan ichak yuzasini qoplab, himoya qatlamini hosil qilib, uni bakteriya, virus, parazit va boshqa patogenlar ta'siridan himoya qiladi.

Og'iz suti va yetilgan sut tarkibi

Ko'rsatkichlar	Laktatsiya kunlari			Yetilgan sut
	2 – 3	4 – 5	6 – 7	
Oqsillar (%)	5 – 6	2,5 – 2,0	2,1 – 1,5	1,0 – 1,5
Yog'lar (%)	4	4	3,5 – 4	3,5 – 4,0
Uglevodlar (%)	4,5	–	–	6,5 – 7,5
Mineral tuzlar	0,4 – 0,5	–	–	0,2 – 0,3
Kaloriyasi	150 – 80	75 – 70	67,5 – 60	65

Laktatsiyaning 4–7 kunlaridan oraliq sut, 2–4 haftadan boshlab esa yetilgan sut ishlab chiqariladi.

Ona suti bola uchun beباо oziqa. Ona suti suyuq, yengil hazm bo'ladigan va kaloriyasi yetarli, turli mikroblardan holi, pishirishni va isitishni talab qilmaydigan tayyor oziqdir. Yangi tug'ilgan chaqaloq organizmi fiziologik jihatdan to'la yetilmagan, hazm qilish va moddalar almashinuvni yaxshi takomillashmagan bo'lgani uchun unga faqat ona suti mos keladi. Ona sutida 100 dan ortiq turli oziq moddalar bo'ladi, bu sut faqat miqdor jihatidan bola ehtiyojini qoplasmay, sifat jihatidan ham bolaning yoshi va sog'lig'iga mos keladi. U o'z tarkibida hamma kerakli oziq moddalar – oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar, tuzlar va mikroelementlarni tez o'suvchi bola organizmi ehtiyojlarini to'la qondira oladigan miqdorda saqlaydi, ular yengil hazm bo'ladigan nisbatda hamda tarkibi bola to'qimasi tarkibiga yaqin bo'ladi. Shu jihatlari bilan ona suti sigir sutidan tubdan farq qiladi (10.2-jadval).

10.2-jadval

Ayol va sigir sutining kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Sut	
	Ayol	Sigir
Titrlanuvchi kislotalilik	5 – 9	17 – 18
Faol kislotalilik	6,7	6,8
Zichlik (kg/m^3)	1,026	1,028
Yog' donachalarining kattaligi (ml)	3 – 5	1 – 10
Ivishga ketadigan vaqt (soat)	11 – 12	0,5
Sut laxtasining ko'rinishi	yupqa laxta	zich quyqa
Quruq moddalar (%)	12,7	12,7
Sutning quruq qoldig'i (%)	9,2	8,5
Oqsillar (%)	1,0 – 1,5	3,0 – 3,4
shu jumladan kazein (%)	0,7	2,5
Zardob oqsillari (%)	0,8	0,7
shu jumladan albumin (%)	0,60 – 0,45	0,5
Globulin (%)	0,35	0,2
Yog' (%)	3,5	3,5 – 3,7
To'yingan yog' kislotasi (yog'ga nisbatan % larda)	44,3	55,1 – 65,6
To'yinmagan yog' kislotasi (yog'ga nisbatan % larda)	55,7	44,9 – 34,4
Polito'yinmagan yog' kislotalari (to'yinmagan yog'ga nisbatan % larda)	13,0 – 15,0	3,7 – 4,5
Sut shakari (%)	7,0	4,5
Tuzlar (%)	0,2 – 0,3	0,7 – 0,8
Kalsiy (mg/dl)	35 – 40	115 – 120
Fosfor (mg/dl)	18 – 20	100
Ca/P nisbati	2:1	1,2:1
Temir (mg/dl)	0,2	0,1
K ⁺ /Na ⁺ nisbati	1:3 (3,2)	1:2,5 (3,0)
Kaloriyaligi (1 l)	670	660

Ona suti va sigir sutining oqsillari bir xil aminokislotalardan iboratligiga qaramay, ulardagи hamma aminokislotalarning miqdori turlichadir. Bu farqlar oqsillarning o'ziga xos sifati va tuzilishini belgilab beradi.

10.3. Yetilgan sutning tarkibi

Oqsillar – oziqa tarkibiy qismlaridan odam organizmi uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki ular hamma hujayra va to'qimalarning asosiy tuzilish birligi bo'lib hisoblanadi. Ularning ishtirokida organizmnning hamma vazifalari – o'sish, modda almashinuvi, muskul faoliyati, ruxiy rivojlanish va boshqalar amalga oshadi. Ularni oziqaning boshqa hech qanday komponentlari bilan almashtirib bo'lmaydi. Laktatsianing birinchi oylarida ona suti chaqaloq uchun oqsillarning yagona manbayi hisoblanadi. U 1–1,5 % atrofida bo'lib, sigir suti esa 2,8–3,4 % atrofidadir. Ona suti almashtirib bo'lmaydigan aminokislolar tarkibi jihatidan to'la qimmatli bo'lib, ular bola organizmi oqsillariga juda yaqin va shuning uchun juda yaxshi o'zlashtiriladi. Chaqaloqlar hayotining 4,5–5 oylari mobaynida asosan ko'krak suti o'suvchi organizmnning plastik materialga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Ko'krak sutida oqsillar miqdori 11,5–20,5 g/l bo'ladi. Ona suti oqsili albumin va immunoglobulinlarga boy. Sigir sutida esa kazein miqdori ko'proq bo'ladi. Ona sutida kazein β -kazein, sigir sutida esa α -kazein shaklida bo'ladi. Ona suti oqsillari emizikli bolalar me'da shirasining past kislotaliligi sharoitida parchalanib ketadi va yengil o'zlashtiriladi. Sigir suti oqsillari sekin parchalanadi, bolaning hazm a'zosidan katta kuchlanishni talab qiladi, hazm jarayonida ulardan anchagina ko'p qoldiq qoladi. Shuning uchun sigir sutiga o'zgartirish kiritib, uning oqsillarning parchalanishi hamda bola organizmida hazm bo'lishini yaxshilash maqsadida uni qayta ishslashning turli usullari qo'llaniladi.

Yog'lar. Yog'ning biologik qiymati, avvalo, uning yuqori kaloriyaligini o'z ichiga oladi. Yog'lar bilan birga bola yog'da eruvchi A, D, E va K vitaminlarini qabul qiladi. Og'iz sutida yog'larning miqdori 2 %, yetilgan sutda esa 4,0–4,5 % ni tashkil etadi. Bundan tashqari, yog'lar bilan birga organizmga fosfatidlardan – letsitin va uning tarkibiga kiruvchi xolin, shuningdek, sterinlardan – xolesterin kabi biologik muhim moddalar kiradi. Fosfatidlар yog'ning yaxshi hazm bo'lishiga ularning to'g'ri almashinishiga yordam beradi. Letsitin va xolin lipotrop ta'sirga ega bo'lib, ular yog'ning jigarda yig'ilib qolishiga

yo'l qo'y maydi. Yog'lar energiya bilan ta'minlash vazifasini bajarish bilan bir vaqtda, organizmning hamma to'qimalari tuzilishining shakllanishida ishtirok etadi. Ona sutidagi yog' tarkibida 53,5–70,0 % to'yinmagan yog' kislotalari bo'ladi, ular uzun zanjirli kislotalar, sigir sutida esa kalta zanjirli yog' kislotalari ko'proq bo'ladi. Yog'lar sut tarkibida emulsiyalangan holatda bo'lib, o'zlashtirishga tayyor, shuning uchun hazmlanish me'daning o'zidayoq boshlanadi. Sutning bu xususiyati hamda uning tarkibida lipazaning mavjudligi sutning yuqori o'zlashtirishini belgilaydi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ona suti tarkibidagi lipaza ta'sirida yog'ning 25 %i bolaning o'n ikki barmoqli va ingichka ichaklariga yetmasdan me'daning o'zida parchalanib ketadi. Sut qaynatilganda undagi lipaza o'z faolligini yo'qotadi.

Uglevodlar. Ona sutida qand 6–5,7 % miqdorda bo'lib, u β -laktoza holida bo'ladi. Sigir sutida esa α -laktoza bo'lib, uning miqdori 4–4,5 % ga teng. Laktoza organizmda faqatgina energiya manbayi bo'lmay, u shuningdek, hazm jarayonlariga va ichak mikroflorasi tabiatiga ta'sir ko'rsatadi, bifidobakteriyalarning ko'payishiga olib keladi. Bifidoflora esa ichak tayoqchasing o'sishiga yo'l qo'y maydi va boshqa patogen qo'zg'atuvchilarga nisbatan alohida antagonistik xususiyatlarga egadir. Bolalarda uglevodlarga bo'lgan ehtiyoj ularning yoshi va energetik sarflariga bog'liq. Bolalarning tez o'sishi sintetik jarayonlar, ayniqsa oqsil sintezi uchun ko'p iste'mol qilinadigan energiyaga bog'liq. Bundan tashqari, bolalar uchun ko'proq harakat qilish va, binobarin, issiqlik energiyasining katta sarfi xosdir. Shuning uchun bola organizmi, uni zarur energiya bilan ta'minlab tez parchalanuvchi va o'zlashtiriluvchi, doimiy oziq moddalar oqimiga muhtoj bo'ladi. Ma'lum bo'ldiki, ichakda bifidobakteriyalarning rivojlanishi uchun ona sutida umumiy miqdorda 0,45 % ni tashkil qiluvchi boshqa uglevodlar – poli- va oligoaminoqandlar ham muhim ahamiyatga ega. Sigir sutida ularning miqdori sezilarsiz darajada bo'lib, ona sutidagiga qaraganda 40 marta kam bo'ladi. Ona sutidagi poli- va oligoaminoqandlar xromatografiya usulida tarkibiy qismlarga ajratilganda 14 xil turli uglevodlar aniqlangan bo'lib, ular orasida bifidogen xususiyatlariga ko'ra β -galaktozidfruktoza ustun turadi. Bu modda ona sutining bifidum omili deb nom olgan. Bifidum florani

ko'payishida laktoza ham ahamiyatli. U sun'iy sut aralashmalariga uglevod qo'shimchasi sifatida qo'shiladi. Disaxaridlar (dekstrin va maltoza) ham ichak mikroflorasi tarkibiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Ona sutida oqsillar, yog'lar va uglevodlar bilan bir qatorda bolalar uchun zarur boshqa moddalar – mineral tuzlar, mikroelementlar va vitaminlar bor.

Mineral moddalar. Organizm uchun mineral tuzlarning ahamiyati juda katta, chunki ular faqat suyak to'qimasining shakllanishida ishtirok etibgina qolmay, balki hujayra darajasidagi muhim almashinuv jarayonlarining boshqaruvchilari hamdir. Ular qon va boshqa biologik suyuqliklarning osmotik bosimini ma'lum darajada ushlab turib, kislota-asos muvozanati, shuningdek, qon va to'qima hujayralari pH ining boshqaruvida ishtirok etadi, hujayra membranalarining o'tkazuvchanligiga ta'sir qiladi, ko'pgina ferment sistemalarining faolligini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Mineral elementlar organizmdagi miqdoriga bog'liq holda makro- va mikroelementlarga bo'linadi. Makroelementlarga Ca^{2+} , P, K⁺, Na⁺, Mg²⁺ va boshqalar kiradi. Organizmning ularga bo'lgan ehtiyoji g va kg larda ifodalanadi. Mikroelementlarga Co^{2+} , Cu²⁺, I, Zn²⁺, Mn, F va boshqalar kiradi. Ularga bo'lgan ehtiyoj mg yoki g lar ulushida hisoblanadi. Temir esa makro- va mikroelementlar o'rtaida oraliq o'rinni egallaydi. Bolalar ona suti bilan boqilganda hayotining 1-oylarida sutkasiga o'rtacha 0,135 g Na⁺, 0,450 g K⁺ qabul qiladi, sigir sutida esa Na⁺ va K⁺ miqdori mos ravishda 0,350 va 1,270 g ga tengdir. Temir qon yaratilishi uchun zarurdir. U gemoglobin va sitoxrom sistemasi tarkibiga kirib, oksidlanish jarayonida ishtirok etadi. Erta bolalik davrida temirga ehtiyoj sutkasiga 7–8 mg ni tashkil etadi. Odatda, ona suti bilan oziqlangan bolalarda 2–3 marta kam bo'ladi. Odatda, ona suti bilan oziqlangan bolalarda temir tanqisligi anemiyasi kuzatilmaydi. Bunga sabab – ona sutidagi temirning so'rilib darajasi 70 %ni tashkil qiladi. Ayollar sutida Zn²⁺ oz bo'lishiga qaramay emizikli bola ehtiyojini qondiradigan miqdorda bo'ladi. Ona sutida 0,8–64 mkg % Co²⁺ va Cu²⁺, sigir sutida esa taxminan 2–3 marta kam bo'ladi. Yosh bolalarda Cu²⁺ ga bo'lgan ehtiyoj sutkasiga 1–2 mg ni tashkil kiladi.

Vitaminlar — kimyoviy tabiatni har xil organik birikmalar bo‘lib, ovqatning noyob moddalarini hisoblanadi. Ular organizmda yetishmasa moddalar almashinuvni buziladi, bu esa sog‘liqni izdan chiqishiga olib keladi. Asosiy moddalar (oqsil, yog‘, uglevod, mineral tuzlar) ga qaraganda vitaminlar organizmga juda kam miqdorda kerak bo‘ladi. Ulgayg‘an odamning vitaminlarga bo‘lgan o‘rtacha sutkalik ehtiyoji mkg lar hisobidadir. Ayol sutida hamma vitaminlar yetarli miqdorda bo‘ladi va bola organizmi uchun doimiy va muhim vitamin manbayi bo‘lishi jihatidan alohida o‘rin tutadi. Ayol sutidagi ularning miqdori emizikli onaning ovqatlanishi va yil mavsumlariga qarab o‘zgarib turadi.

Vitamin A. Ko‘zning ko‘rish quvvatini saqlash va organizmning normal o‘sishi uchun zarurdir. Sutda odatda karotin ham, vitamin A ham bo‘ladi. Bu juda muhimdir, chunki odam organizmi karotinni vitamin A ga aylantira oladi. Oziq tarkibida karotin miqdori juda o‘zgarib turadi, shu boisdan vitamin A sutda ham doimiy bo‘lmaydi.

Vitamin D. Ovqatda bu vitamin yetishmasa, suyaklarda kalsiy to‘planishi susayadi, kalsiy va fosfor tuzlarining ichakdan qonga o‘tish tezligi pasayadi va buning oqibatida organizmda fosfor-kalsiy almashinishi izdan chiqadi. Bu holat pirovardida raxit kasalligining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunda suyaklar yumshab mo‘rt bo‘lib qoladi, suyak bo‘g‘imlari kengayadi. Shu boisdan vitamin D raxitga qarshi vosita deb juda to‘g‘ri aytilgan.

Vitamin E nasl qoldirish bilan bog‘liq bo‘lgan hamma jarayonlarni monandlashtirish uchun zarurdir. Sutda vitamin ye 9 mkg % miqdorda bo‘ladi.

Vitamin K qon ivish jarayonlarida ishtirok etadi, qon hosil bo‘lishini kuchaytiradi va modda almashinuvini yaxshilaydi. U sut tarkibida juda oz bo‘ladi.

V guruhi vitaminlari. Bu guruhdagi vitaminlarga 15 ta vitamin — B_1 dan B_{15} gacha vitaminlar kiradi. Bular orasida B_1 , B_2 , B_3 , B_6 hamda B_{12} odam sog‘ligi uchun ayniqsa muhimdir. Taomda vitamin B_1 ning bo‘lmasligi organizmda uglevod va yog‘ almashinuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, oqibatda miya faoliyatidagi asosiy jarayonlar buziladi,

polinevrit kasalligi yuzaga kelib, harakat nervlari shikastlanadi. Organizmda bu vitamin yetishmaganida mushaklar zaiflashadi, oshqozonichaklarning ishi buziladi va badanda, jumladan yurak atrofida ham har xil og‘riqlar paydo bo‘ladi. Vitamin B_6 to‘qimalarning nafas olish jarayonlarida qatnashadi, ayniqsa bolalarning o‘sishi hamda vaznni oshishiga yordam beradi. Bu vitamin yetishmasa teri va shilimshiq pardalar yoriladi, ularga mayda yara toshadi, shuningdek teri qipiqlashadi. Bundan tashqari, ko‘zning shilimshiq pardasining kasallanishi, yorilishidan qichishishi va qurishi, quvvati pasayishi mumkin. Sutda uning miqdori 30–50 mkg/dl. Vitamin B_6 organizm uchun juda zarur, chunki u barcha modda almashinuvni jarayonlarida qatnashadi. Teri kasalining oldini oladi, fermentlar tarkibiga kiradi, nerv sistemasini faoliyatini tartibga solib turadi, homiladorlik va tug‘ishning me’yorda o‘tishiga yordam beradi, ichakdagisi foydali bakteriyalarning ko‘payishiga yordam qiladi. Sutda uning miqdori 15 mkg/dl. Organizmda vitamin B_12 ning yetishmasligi, aksari, og‘ir havfli anemiya kasalligining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Sutda uning miqdori 0,1 mkg/dl tashkil qiladi. Sutda biotin miqdori 0,8 mkg/dl, C vitamini miqdori 4 mkg/dl. Boshqa vitaminlar sutda juda oz miqdorda bo‘ladi. Sut tarkibidagi qator vitaminlarning ahamiyati yuqorida ko‘rilganidek unchalik katta emas va ular hali yetarlichcha o‘rganilmagan.

Himoya vositalari. Bola tug‘ilib «mikroblar dunyosiga» tushgan dan so‘ng, yashab ketishiga moslashish uchun ko‘krak sutining himoya mexanizmlari muhim ahamiyatga egadir. Immunoglobulin A toksinlar, bakteriyalar va makromolekulyar antigenlarni biriktirib oladi. Uning miqdori og‘iz sutida 30 g/l bo‘lib, yetilgan sutda 10 g/l gacha pasayadi. Yetilgan sut tarkibida stafilokokka qarshi omil ham mavjud bo‘lib, u stafilokokkning virulent shtammlaridan saqlaydi. Interferonlar esa nospetsifik himoya vositasi sifatida viruslarga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Sutning himoya omillariga lizotsim fermenti kiradi, uning konsentratsiyasi ona sutida boshqa biologik suyuqliklaridagi qaraganda yuqoridir. Bu enzim ona sutida 0,29–0,30 g/l chegaralarda bo‘ladi. Lizotsim spetsifik bo‘lmasan kuchli himoya omilidir. Ko‘krak sutida u ancha barqaror shaklda bo‘ladi.

Lizotsim bakterial devorning tuzilish birligi – peptidoglikanlarni yemirish xususiyatiga ega. Ona sutida, shuningdek, kasal yuqishidan saqllovchi modda – komplementning hamma tarkibiy qismlarining bo‘lishi aniqlangan. Komplement sistemasi spetsifik bo‘lmagan himoyaning juda muhim omilidir, u antigen-antitelo kompleksi ta’sirida faollanadi. Ona sutida himoya xususiyatiga ega bo‘lgan, temirga bog‘liq oqsil laktoferrin (2–6 g/l) ham mavjud, u sut zardobi oqsilidagi temirga bog‘liqidir. U ona sutining antimikrob faolligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Fermentlar. Sutda fermentlar ko‘p bo‘ladi. Ularning bir qismi sut bezi hujayralarida sintezlanib, sutga qo‘shiladi, ba’zilari esa bevosita sutning o‘zida har xil mikroorganizmlar vositasida hosil bo‘ladi. Sutda doimo bir necha xil mikroblar bo‘lib, ular o‘zlarining hayot faoliyatları jarayonida sut tarkibi va xossalari o‘zgartiradigan fermentlar va boshqa moddalarni ajratib turadi. Sutda fermentlardan lipaza, laktaza, fosfataza, reduktaza, peroksidaza va katalazalar topilgan.

Lipaza yog‘ni parchalash xususiyatiga ega. U sutga sut bezida sintezlanish natijasida hamda sut bakteriyalarining hayot faoliyati mahsuli sifatida tushadi.

Laktazani mikroorganizmlar hosil qiladi, u sut laktozasining parchalanishini, ya’ni glyukoza va galaktoza hosil bo‘lishini tartibga solib turadi. Bu moddalar jigarning bir me’yorda ishlab turishi uchun zarurdir.

Fosfataza suyak va qon hosil bo‘lishida, muskullarning xarakat funksiyalarida, jumladan yurakning ishida ham qatnashadi, shuningdek moddalar almashinuvini qisman tartibga solib turadi. U faqat xom sutda mavjud bo‘ladi, chunki hatto pasterizatsiya ham uni buzadi.

Katalaza fermenti moddalar almashinuvi jarayonida hosil bo‘ladigan vodorod peroksidining zaharli ta’siridan himoya qiladi. Katalaza sutda juda kam miqdorda bo‘ladi, ammo sut bezi kasallanganida uning miqdori keskin darajada oshadi. Kasal hayvonlarni aniqlashda aynan ana shundan foydalaniladi.

Reduktaza ba’zi ranglarni (metilen ko‘ki va boshqalarni) tiklash (rangsizlantirish) xususiyatiga ega. Sut reduktazasining manbayi sut mikroflorasidir. Sutda mikroflora nechog‘lik ko‘p bo‘lsa, unda

reduktaza ham shu qadar ko‘p bo‘ladi, demak, ranglar shu qadar tez rangsizlanadi. Hozirgi vaqtida reduktaza sinamalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yordamida sutning sifatini (undagi mavjud mikroflorani hisobga olgan holda) aniqlash mumkin.

Peroksidaza organizm uchun juda muhim hisoblangan oksidlanish reaksiyalarini jadallashtiradi. Sutdagagi uning miqdori mikroblarga bog‘liq emas, chunki u sut bezi to‘qimalarida hosil bo‘ladi. Sut 80°C gacha qizdirilganda, u buziladi. Bu sut qaynatilgan yoki qaynatilmaganini bildiradigan ishondchli ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Gormonlar. Sutdagagi gormonlarning tarkibi sut emizuvchilarning turlari, sutni sog‘ib olish vaqtini, laktatsiya davri, emizish muddati va oralig‘i, hayvonlarda bir vaqtida tug‘ilgan bolalar soni, laktatsiya qiluvchi onaning fiziologik holati, uning organizmiga u yoki bu preparatni yuborilishiga bog‘liqidir. Hozirda sut emizuvchilar sutida bir qator gormonlarning mayjudligi isbot qilingan, ammo yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning me’d-a-ichak yo‘liga sut bilan kirgan gormonlarning taqdiri hamda emizikli chaqaloqlarning rivojlanishi uchun sutdagagi mavjud ko‘pchilik gormonlarning ahamiyati haqidagi masalalar yechimini topmagan. Shunday qilib, ko‘krak suti, laktatsiya qiluvchi ona organizmida kechuvchi barcha metabolik jarayonlarni aks ettiruvchi, murakkab biologik suyuqlik deb hisoblanishi mumkin. U emuvchi chaqaloqlar uchun ekzogen gormonlar manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Sut tarkibidagi oziq moddalarning sifati va miqdori bilan o‘sayot-gan organizmning to‘la qondira olishi hamda tarkibida turli xil biologik faol va himoya omillarning bo‘lishiga qaramasdan, ona suti bilan boqilayotgan bolalarning orasida vazni yetishmayotgan va yomon rivojlanayotgan bolalar uchraydi. Bunday hollarda vrach-pediatr bola ovqat bilan qabul qilayotgan asosiy oziq moddalarni (oqsil, yog‘, uglevodlar) hisoblab, u qabul qilishi kerak bo‘lgan oziq moddalar bilan taqqoslaydi va ona suti tarkibidagi oqsil, yog‘, uglevodlar miqdoridan kelib chiqqan holda ovqatga qo‘sishchalar kiritadi. Shu bilan bir vaqtida ona suti o‘zgaruvchan bo‘lib, bir qator ekzo- va endogen omillarga bog‘liq. Bu esa ona sutining tarkibidagi asosiy oziq moddalar miqdorini aniqlash uchun ma’lum tekshiruvlar o’tkazish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

11-bob. JIGAR BIOKIMYOSI

11.1. Jigarning vazifalari va tarkibi

Jigar uglevod, lipid, oqsil, vitamin va shu kabi moddalarning oraliq metabolizmi, organizm uchun zaharli moddalarni zararsizlantirish (endo-, ekzotoksinlar va ksenobiotiklar) uchun juda muhimdir; u yana ayirish funksiyasini bajaradi (o‘t bilan birga ichaklarga bilirubin, xolesterin, ba’zi dorilar va toksinlar ajratiladi). Jigarda “eksport uchun” qon plazmasi oqsillari, glyukoza, keton tanachalari, lipoproteinlar sintezlanadi, shuningdek ammiak neytrallanib, azot almashinuvining oxirgi mahsuloti sifatida mochevina sintezlanadi.

Jigarning asosiy vazifalari:

- zararsizlantirish – endogen substratlar, shu jumladan steroid va peptid gormonlari, ichakda hosil bo‘luvchi indol va skatollarni; ekzotoksin va ksenobiotiklar, shu jumladan dori moddalari, konservantlar, motor gazlari va tamaki tutunining benzpireni kabilarni metabolizmi va ekskretsiyasi;
- ovqat hazm qilish – o‘t hosil qilish;
- almashinuv – moddalar almashinuvida ishtirok etish: oqsil (qon plazmasi oqsillari, shu jumladan albuminlar; qon quyulishi omillari; mochevina sintezi; aminokislotalarning oraliq almashinuvi); yog‘-lar (yog‘ kislotalari, keton tanachalari, lipoproteinlar, xolesterin, fosfolipidlar sintezi, D vitaminining gidroksillanishi); uglevodlar (glyukoneogenet, glikogen sintezi va parchalanishi, monosaxaridlar almashinuvi); pigmentlar (bilirubin metabolizmi va ekskretsiyasi) almashinuvlari;
- gomeostatik – organizm ichki muhitini saqlashda ishtirok etish;


- zaxiralash — o‘z qon tomirlarida zaxira sifatida 600 ml gacha qon saqlaydi, glikogen, A, B₁₂ vitaminlari, temir uchun depo vazifasini o‘taydi;
- gormonal — biologik faol moddalarning hosil bo‘lishidagi ishtiroki;
- sintetik — ba’zi moddalarni (plazma oqsillari, mochevina, kreatin, xolesterin) sintezlaydi va zaxiralaydi;
- qon hosil qilish — embrional davrda qon hosil qilish (eritropoez) a’zosi hisoblanadi;

Jigarning tuzilishi. Jigar — hazm bezlarining eng kattasi bo‘lib, qorin bo‘shlig‘ining yuqori qismida, diafragma ostida, asosan o‘ng tomonda joylashgan. Jigar parenximasini asosan hepatotsitlardan – 80 %, endotelotsit va jigar makrofaglaridan – 20 % tashkil topgan. Barcha jigar funksiyalari hepatotsitlar tomonidan amalgalashadi.

Jigar bo‘laklari tarkibida hepatotsitlar sinusoidlar endotelotsitlari hamda o‘t yo‘llari devori hujayralari bilan aloqa qiladilar. Jigar qon aylanish tizimining o‘ziga xosligi, unda sinusoidlarning mavjudligidir. Sinusoidlarda (shakli o‘zgargan kapillyarlar) qopqa vena va jigar arteriyasidan keladigan aralash arterial-venoz qon oqadi. Sinusoidlardan qon, pastki kovak venaga quyiladigan jigar venalari shoxchalarida to‘planadi.

11.2. Jigarning uglevodlar, lipidlar va oqsillar almashinuvida ishtiroki

Jigar, qon aylanish tizimidagi o‘ziga xosliklar asosida, nutrientlarni (uglevodlar, lipidlar va oqsillar) qayta taqsimlashda noyob a’zo hisoblanadi. Me’da, ichak va oshqozon osti bezidan kelayotgan venoz qon, umumiy qon aylanishi tizimini chetlab o‘tib, jigarning qopqa vena tizimiga tushadi. Shunday qilib, jigar nutrientlar va insulin bilan boy qon bilan yuviladi, ularni absorbtiv davrda faol yutadi va periferik to‘qimalarda oziq moddalarni qayta taqsimlash, zaxiralashda asosiy rolni o‘ynaydi (11.1-rasm).



11.1-rasm. Jigarni oraliq metabolizmga jalb qilish sxemasi.

Uglevodlar almashinuvi va qonda glyukoza miqdorini ushlab turishda jigarning roli. Jigar — glikogen deposi, glyukoneogenez hisobiga glyukoza produtsenti hamda qonda glyukoza miqdorini boshqarishning faol ishtirokchisidir. Glyukoza gepatotsitlarga spetsifik transmembran oqsil GLYUT-2 orqali kiradi, bu transportyorni faollash uchun insulin zarur emas, bu holat glyukozi hujayra ichiga chegaralanmagan holatda kirish imkonini beradi.

Gepatotsit ichida glyukozaning samarali sarflanishi uni glyukozo-6-fosfatga aylantiruvchi glyukokinaza orqali amalga oshadi. Bu ferment glyukozo-6-fosfat bilan ingibirlanmaydi, glyukozaning yuqori konsentratsiyalarida faol va bu glyukozi portal venadan doimiy so'rilihiga imkon beradi. Glyukozo-6-fosfataza, umumiyl qon aylanish tizimiga tushadigan erkin glyukozaning hosil bo'lishini katalizlaydi.

Glyukozo-6-fosfataza faqat jilda saqlanib, glikogenni parchalanishida hosil bo'ladigan glyukozo-6-fosfatdan erkin glyukoza hosil bo'lishini katalizlaydi, buning natijasida qonga tushadigan va periferik to'qimalarda energetik almashinuvni saqlab turish imkonini beradigan glyukoza paydo bo'ladi. Jigarning yana bir o'ziga xos

xususiyati laktatning Kori va glyukozo-alanin siklida sarflanishi, glyukoneogenez reaksiyalarini kechishi hisoblanadi.

To'q va ochlik paytida jigarda uglevod almashinuvining o'ziga xosliklari. Jigar glyukozi iste'mol qiluvchidan ko'ra ko'proq glyukozi hosil qiluvchi a'zolar qatoriga kiradi. Absorbtiv davrda jilda 60–100 g glyukoza tushib, u to'lig'igacha sarflanadi. Glyukoza almashinuvining kuchayishi 5 mechanizm hisobiga amalga oshadi:

- 1) glyukozaning fosforillanishining kuchayishi (glyukokinaza ge-patotsitdag'i glyukozaning hujayraichi konsentratsiyasining yuqorili-gidan faollashadi);

- 2) glikogen sintezining kuchayishi (insulin/glyukagon nisbati ortadi, insulinning yuqori konsentratsiyasi hisobiga glikogensintaza faolligi ortadi, glikogenfosforilaza faolligi pasayadi);

- 3) geksozomonofosfat yo'li faolligining ortishi;

- 4) glikolizning kuchayishi (insulin tomonidan fosfofruktokinaza faollashadi);

- 5) glyukoneogenezning susayishi (jarayonning asosiy fermenti — fruktozo-1,6-bisfosfataza insulin tomonidan ingibirlanadi; piruvat-karboksilaza faolligining pastligi).

Ochlikda jilda, birinchi navbatda, glikogenning parchalanishi, so'ng miya va boshqa glyukoza bog'liq to'qimalarning energetik metabolizmini ta'minlash va qonda glyukozaning normal miqdorini ushlab turish uchun glyukoneogenez kuzatiladi.

Jilda fruktoza va galaktoza almashinuvining xususiyatlari. Jilda — fruktoza almashinuvining markaziy a'zosidir. Jilda tashqari fruktoza almashinuvi faol ravishda buyraklarda, ichakning shilliq qavatida kechadi, chunki bu to'qimalar fruktokinaza saqlaydi. Fruktokinaza fruktozani fruktozo-1-fosfatga aylantiradi, u esa o'z navbatida aldolaza ta'sirida digidroksiatsetonfosfat va glitseraldegidga parchalanadi. Fruktoza va galaktoza jilda glikoliz yoki glyukoneogenez yo'li bo'yicha metabolizmga uchrashi mumkin. Tug'ma fruktozani ko'tara olmaslikda aldolazaning yetishmasligi jilda zararlanishiga olib keladi.

Jigarning lipidlar almashinuvidagi roli. Jigar *de novo* sharoitida yug' kislotalari, keton tanachalari, xolesterin, triglitseridlar, fosfolipid

lar sintezlaydigan muhim a'zo hisoblanadi. ZJPLP, ZPLP kabi lipoproteinlar sintezi uchun jigarning ahamiyati juda kattadir. Jigarda xolesterindan o't kislotalari sintezlanadi; D vitaminidan uning faol shakllari — oksixolekalsiferol hosil bo'ladi; A vitamini zaxiralanadi. To'q va ochlik holatida jigarda kechadigan lipid almashinuvi quyidagi xususiyatlarga egadir. absorbtiv davrda jigarda 2 jarayon kechadi:

1) yog' kislotalari sintezi kuchayadi, chunki bunda, bir tomondan, glyukoza metabolizmi natijasida hosil bo'ladigan atsetil-KoA va NADFN kabi substratlar miqdori ortsa, ikkinchi tomondan, atsetilKoA-karboksilaza faolligi ortishi oqibatida atsetil-KoA dan malonil-KoA sintezi ortadi;

2) triglitseridlar (TG) sintezi ortadi. TG keyin ZJPLP tarkibida qonga chiqadi va u yerdan periferik to'qimalarga, asosan mushak va yog' to'qimalariga yetkazib beriladi.

Ochlik holatida gepatotsitlarda yog'larning oksidlanishi va ketogenez kuchayadi. 3-gidroksibutirat, atsetoatsetat va atseton kabi keton tanachalari sintezi faqat jigarda kechadi, 3-gidroksibutirat va atsetoatsetat periferik to'qimalarda sarflanadi (mushaklar, miya va b., jigaridan tashqari), atseton buyraklar orqali siydk bilan chiqariladi. Periferik to'qimalarning keton tanachalarini oksidlash va uglevodlar (oksaloatsetat) tanqisligi sharoitida atsetil-KoAning Krebs siklida sarflash imkoniyatining pasayishi ketoatsidozga va atsetonning neyrotosikligiga olib keladi. Metionin, B₁₂ vitamini, xolin kabi moddalar lipotrop moddalar hisoblanadi. Ular yetishmaganda jigarning yog'li distrofiyasi — jigarda neytral yog'larning to'planishi, fosfolipidlar sintezining pasayishi, glikogen to'planishining susayishi kuzatiladi. Jigarning yog'li distrofiyasi alkogolizm va qandli diabetda kuzatiladi.

Jigarning oqsil va aminokislotalar almashinividagi roli. Jigarning oqsil almashinividagi ahamiyati quyidagilardadir: faqat jiga dagina mochevina sintezi kechadi; qon plazmasi oqsillari sintezlanadi, ularidan: albuminlarning barchasi (13–18 g sutkasiga), 75–90% α-globulinlar, 50 % β-globulinlar, qon quyilish tizimining barcha oqsillari (γ-globulinlardan tashqari). Jigarda aminokislotalar almashinividan dezaminlanish (aminoguruuhning ajralishi va ammiak-

ni ajratib chiqarish) va transaminlanish (erkin ammiak ajralmaydi) kuzatiladi. Jigarda yana alohida aminokislotalarning spetsifik yo'llari kechadi; almashtirib bo'ladigan aminokislotalar va xolin sintezi kechadi. Bundan tashqari, jigarda yallig'lanish, yurak hastaliklari va sepsisning markeri hisoblangan – C-reaktiv oqsil sintezlanadi.


Jigar leytsin, izoleytsin, valin kabi tarmoqlangan zanjirli aminokislotalarni katabolizmga uchrata olmaydi, ular mushaklarda parchalanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda jigarda oqsil almashinuvi fermentlarning o'tib ketuvchi yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin. Bu quyidagi holatlarga olib keladi: 1) gipoproteinemiya – chaqaloq hayotining 2–3 yilda o'tib ketadi; 2) gipoprotrombinemiya – chaqaloq hayotining 3–4 oyida normallahadi; 3) giperfenilalaninemiyva gipertirozinemiya (fenilalaniningidrosilaza va tirozintransaminaza yetishmovchiligi) – chaqaloq hayotining 2–4 oylarida o'tib ketadi; 4) gistedinemiyva (gistedin-ammiak-liaza yetishmovchiligi); 5) giperammoniemiya (ornitinkarbamoiltransferaza va karbamoilfosfatsintaza yetishmovchiligi).

Absorbtiv davrda jigarda oqsillar sintezi kuchayadi, shu jumladan qonga chiqarish uchun ham, ochlik holatida esa, aksincha, glyukoneogenezni ta'minlash uchun aminokislotalar katabolizmi kuchayadi.

11.3. Bilirubin metabolizmi va ekskretsiyasi, sariqlik sindromi

Bilirubin — gem katabolizmi mahsuloti bo'lib, u asosan eritrotsitlarning, qisman sitoxromlar va mioglobinning parchalanishida hosil bo'ladi. Qonda bilirubin ikki xil fraksiya sifatida bo'ladi: erkin va bog'langan bilirubin. Erkin bilirubin umumiyl qon bilirubinin 90 %idan ortig'ini tashkil qiladi. U suvda erimaydi, shuning uchun qonda albumin bilan bog'langan holda aylanib yuradi; lipidlarda yaxshi eriydi, shu sababli MNS uchun zaharlidir. Buyrak to'sig'idan o'ta olmaydi, shuning uchun qonda uning konsentratsiyasi ortgani bilan siydkda paydo bo'lmaydi. Jigarda u bog'langan bilirubin – bilirubin-diglyukuronidiga aylanadi. U suvda eriydi, o't bilan ichakka ajraladi, qonda juda oz bo'ladi, buyrak to'sig'idan bemalol o'ta oladi, qonda miqdori ortsa siydkda paydo

bo‘ladi, bunda siyidik rangi pivo rangiga bo‘ladi. Jigarda erkin bilirubin, UDFGK-bilirubin transferaza fermenti ta’sirida, glyukuron kislotasining faol shakli UDFGK bilan konyugatsiyalanish oqibatida bog‘langan bilirubinga aylanadi (11.2-rasm).



11.2-rasm. Jigarda bilirubinning konyugatsiyalanishi

Jigarda kuniga 300 mg atrofida bog‘langan bilirubin hosl bo‘ladi, ammo sog‘lom jigar bundan 10 barobar ortiq bog‘langan bilirubinni ekskretsiya qilish imkoniga egadir. Bilirubin-diglyukuronid (bog‘langan bilirubin) ichakka tushgach, bakteriya fermentlari ta’siri ostida urobilinogen va sterobilinogenga aylanadi, ular o‘z navbatida to‘g‘ri ichakda urobilin va sterobilinaga oksidlanadi, va axlat bilan, unga to‘q rang bergen holda ajraladi. Urobilinogen qisman ingichka ichakda so‘riladi, qon bilan qopqa vena orqali jigarga tushib, u yerda di- va tripirrollargacha parchalanadi. Siyidka urobilinning paydo bo‘lishi jigar zararlanishidan dalolat beradi. Sterobilinogen juda oz miqdorda gemorroidal venalar orqali so‘rilib, umumiyoq qon oqimiga tushadi va siyidik bilan ajraladi.

Qonda umumiyoq bilirubin konsentratsiyasining ortishi sariqlik sindromining rivojlanishiga olib keladi, chunki bilirubinda teri, shilliq pardalar va sklerani sariq rangga kiritish qobiliyatib bor. Rivojlanish mexanizmiga qarab sariqlikning 3 turini ajratishadi:

- jigar osti sariqligi (gemolitik);
- hujayraviy (gepatotsitlar zararlanishida kuzatiladi);
- jigar osti (mexanik, obturatsion — o‘t ajralishining buzilishida kuzatiladi) (11.1-jadval).

11.1-jadval

Sariqlik turlarining differensiatsiyasi asosidagi belgilar

Sariqlik turi	Jigar osti sariqligi	Hujayraviy	Jigar osti
Sababi	Eritrositlar gemolizi, samarasiz eritropoez	Gepatit, sirroz, amiodoz	Xolestaz: o‘t toshlari, o‘t yo‘llari stenozi, o‘t yo‘llari va/yoki oshqozon osti bezi karsinomasi, xolangit; yangi tug‘ilganlarda o‘t yo‘llari atreziyasi; yatrogen zararlanishlar (o‘t qopini olib tashlash va jigar operatsiyalarida umumiyoq o‘t yo‘lini bog‘lab qo‘yish yoki jigarichi o‘t yo‘llarining zararlanishi)

Qonda erkin bilirubin	100 mkmol/l gacha ortadi	Jigarda konyugatsiyaning pasayishi hisobiga ortgan	Juda oz darajada ortgan
Qonda bog'langan bilirubin	Normada	Gepatotsitlar membranasi o'tkazuvchanligi ortishi hisobiga, o't komponentlari qonga o'tib ketadi	300 mkmol/l gacha keskin ortgan
Qondagi belgilar	Qon urobilino-geni ortgan. Gemoglobin, gaptoglobin kamaygan. AST, gidroksibutirat-degidrogenaza faolligi o'rtacha ortgan.	ALT, AST, GGT faolliklari ortgan	Ishqoriy fosfataza ortgan, qonda bilirubinning maxsus fraksiyasi – albumin bilan kovalent bog'langan konyugatsiyalangan bilirubin paydo bo'ladi; u davomli giperbilirubinemiyada paydo bo'ladi
Siydikdagi belgilar	Urobilinogen ortadi	Urobilinogen ortadi	Siydikda urobilin va ster-kobilin yo'q
Siydik rangi	O'zgarmagan	To'q sariq	To'q jigarrang (pivo rangi).
Axlat rangi	To'q jigarrang	Jigarrang	Rangsiz («it axlati rangi»).
Teri rangi	Ko'kimtir-sariq	Sariq	Zafaron-sariq rang

Bulardan tashqari, yana yangi tug'ilganlarning fiziologik sariqligi va bilirubin metabolizmining irsiy buzilishlari mavjud.

Yangi tug'ilganlarning fiziologik sariqligi eritrotsitlarning zo'r berib parchalanishi hamda glyukuroniltransferaza sintezining pastligi oqibatida rivojlanadi. Fiziologik sariqlik o'z-o'zidan chaqaloq hayotining 10-kunida yo'qoladi. Bilirubin metabolizmining irsiy buzilishlariga quyidagi sindromlar kiradi.

Jilber sindromi — gepatotsitlar tomonidan qondan bilirubinni ushlab olish, uni konyugatsiyalash va ekskretsiyalashni pasayishi bilan xarakterlanadi. Klinik bu erkin bilirubin hisobiga o'tib ketadigan giperbilirubinemiya sifatida namoyon bo'ladi (sariqlik past, doimiy emas, och qolganda va yuqumli kasalliklarda kuchayadi). Jigar biopsiyasi bu kasallikda normada, bemorlarning hayot davomiyligi buzilmagan.

Krigler-Nayyar sindromi — glyukuroniltransferaza fermenti sintezining buzilishi bilan xarakterlanib, bu bilirubinning konyugatsiyasini pasayishiga olib keladi. Tug'ilgan vaqtadan boshlab, erkin bilirubinning keskin ortishi (340 mkmol/l gacha) bilan ifodalanadi. Ferment yetishmovchiligining darajasiga qarab (to'liq yoki qisman) klinik belgilarning og'irligi keng chegaralarda o'zgaradi. Glyukuroniltransferazaning to'liq yo'qligida (autosom-retsessiv tip) chaqaloq "yadro sariqligi" dan erta nobud bo'ladi. Bu konyugatsiyalananmagan bilirubin uchun gematoensefalik to'siqning o'tkazuvchanligi hamda uning MNT uchun yuqori zaharliligi oqibatida yuzaga keladi. Fermentning qisman yetishmovchiligidagi orqali bilirubin katabolizmini fototerapiya ta'sirida kuchaytirish mumkin.

Dabin-Djons sindromi — bilirubinni o'tga ekskretsiya qilinishining buzilishi bilan xarakterlanadi. Bu holat klinik jihatdan konyugatsiyalashgan bilirubin hisobiga o'tib ketuvchi giperbilirubinemiya va jigarda melaninning to'planishi bilan ifodalanadi. Bu bemorlarda hayot davomiyligi normal darajadadir.


Rotor sindromi ham Dabin-Djons sindromi kabi bilirubinni o'tga ekskretsiya qilinishining buzilishi bilan xarakterlanadi. Klinik jihatdan bu holat konyugatsiyalashgan bilirubin hisobiga o'tib ketuvchi giperbilirubinemiya bilan ifodalanadi, ammo Dabin-Djons sindromidan farqli, jigarda melaninning to'planishi kuzatilmaydi.

11.4. Jigarning zararsizlantiruvchi funksiyasi: endotoksin va ksenobiotiklar detoksikatsiyasi, kimyoviy kanserogenezi

Jigar organizmning o‘z vazifasini bajarib bo‘lgan endogen tabiatli biologik faol moddalar (steroid gormonlari, katekolaminlar, prostaglandinlar, bilirubin, ichakda oqsillarning chirish mahsulotlari) hamda ksenobiotiklardan halos etishni ta’minlovchi, eng muhim a’zo hisoblanadi. Ksenobiotiklar — organizmga oshqozon-ichak tizimi, teri, o‘pka orqali kiradigan, ammo plastik va energetik maqsadlarda qo’llanilmaydigan moddalardir. Ularga dori moddalari, konservantlar va toksinlar kiradi. Zararsizlantirish gepatotsitning silliq endoplazmatik retikulumida (EPR) kechadi. Sentrifugalashda EPR pufakchalar — mikrosomalar hosil qiladi, shuning uchun silliq EPRda kechadigan reaksiyalar, mikrosomal oksidlanish reaksiyalari deyiladi. Gepatotsitlarda substratlarni zararsizlantirilishi ikki bosqichda, ammo ba’zan bir bosqichda ham kechadi

Birinchi bosqich — mikrosomal oksidlanish bo'lib, bunda gidrofob moddalar gidroksillanish, oksidlanish, qaytarilish yo'llari bilan kimyoviy modifikatsiyaga uchrab, gidrofil moddalarga aylanadi. Ikkinchchi bosqich — glyukuron yoki sulfat kislotasi, glitsin, glutamin, atsetil qoldig'i bilan konyugatsiyalanish reaksiyalari hamda metillanish. Bu reaksiyalar maxsuloti, odatda, suvda yaxshi eruvchan bo'lib, organizmdan oson chiqib ketadi.

Mikrosomal oksidlanish. Mikrosomal oksidlanish sistemasi (MOS) komponentlari – sitoxrom P-450 (CYP), sitoxrom-P-450-reduktaza (flavoprotein, kofermenti FAD yoki FMN) va sitoxrom b5 dir. Mikrosomal oksidlanishning ma’nosi shundaki, bunda gidrofob substrat molekulasiga ($S-H_2$) kislorod atomi kiritiladi, bu substratni gidrofil moddaga ($S-OH$) aylantiradi va bu uni keyingi metabolizmini anchagina yengillashtiradi. Kislorodni faollashtirish uchun zarur bo‘lgan elektronlar donorom bo‘lib NADFN xizmat qiladi, u sitoxrom-P-450-reduktaza orqali oksidlanib, elektronlar sitoxrom b5 ga, so‘ng sitoxrom-P-450 ga tashlanadi. MOS zanjirining asosiy komponenti — sitoxrom P-450dir: u kislorodni bevosita oksidlaydi, substratni biriktiradi va unga kislorod atomini kiritadi (11.3-rasm).



11.3-rasm. Mikrosomal oksidlanish zanjiri komponentlarining bog'lanishi

Mikrosomal oksidlanishni katalizlaydigan fermentlar – monook-sigenazalar (substrat molekulasiga 1 atom kislorod kiritadi) va dioksigenazalar (substrat molekulasiga 2 atom kislorod kiritadi) hisoblanadi. Monooksigenaza reaksiyalarida “sitoxrom P-450–substrat–kislorod” kabi uchlamchi kompleks hosil bo‘lib, keyin kislorodning bir atomi substratga kiritiladi. Kislorodning ikkinchi atomi suv hosil bo‘lishi uchun sarflanadi. Bu reaksiyalarda elektronlar donori bo‘lib, NADFN hisoblanadi. Hujayradagi deyarli barcha NADFN mikrosomalarda oksidlanadi, uning tezligi esa elektronlarni NADFN-sitoxrom P-450-reduktazadan sitoxrom P-450 ga o‘tish tezligi bilan boshqariladi; kislorodning sitoxrom P-450 oksidlanishi jarayonni limitlovchi bosqichi hisoblanadi. Substrat molekulasiga kislorodning molekulasi to‘lig‘icha kiritiladigan dioksigenaza reaksiyalarida (lipidlarning peroksidlanish reaksiyalari — LPO), sitoxrom P-450 Fe^{2+} bog‘lashda uning apofermentidagi SH-guruhlarda LPOni initsiatsiyalanishi hamda sitoxrom P-450 to‘yinmagan yog‘ kislotalari gidroperoksidlarining parchalashi hisobiga, radikal hosil qiluvchi markazga aylanishi mumkin. Substrat turiga bog‘liq holda MOSda quyidagi reaksiyalar kechadi:

- gidroksillanish;
- epoksidlanish;
- N-oksidlanish;
- N-, S-, O-dealkillanish;
- nitrobirikmalarning qaytarilishi va b.

Mikrosomal oksidlanish reaksiyalari natijasida biogen aminlarni (adrenalin, triptamin va serotonin) gidroksillanishi, xolesterin va o't kislotalarining oksidlanishi yuzaga keladi, prostaglandinlar, steroid gormonlari sintezlanadi. Ko'plab aromatik uglevodorodlar ularga mos keluvchi karbon kislotalarini hosil qilgani holda oksidlanish yo'li bilan zararsizlantiriladi, nitrobenzol paraaminofenolga aylanadi.

Sitoxrom P-450 alohida ahamiyatga egadir. U juda keng substrat spetsifikligiga ega bo'lib, 7000 dan ortiq turli substratlarni birlashtirishi mumkin. Sitoxrom P-450 ning 70 dan ortiq izoshakllari mavjud bo'lib, ular 4 oilaga birlashtirilgan: CYP 1 – 4. Oilalar o'z navbatida ko'plab kichik oilalarga bo'lingan. Jigarda ko'proq CYP3A, CYP2E kichik oilalari vakillari uchraydi. Sitoxrom P-450 induksiyanishi yoki ingibirlanishi mumkin, ingibirlanganda u nofaol shakl — sitoxrom P-420 ga aylanadi. Sitoxrom P-450 ning ko'plab substratlari dori moddalari va ksenobiotiklar ekanligini hisobga olsak, ularning terapevtik yoki zaharlilik ta'sirining davomiyligi ularning jigardagi metabolizmi tezligi bilan belgilanadi. Sitoxrom P-450 ning ingibirlanishida dori moddalarining metabolizmi sekinlashib, ularning ta'siri va toksikligi ortadi. Homiladorlikda ham sitoxrom P-450 faolligi o'zgaradi, bu dori moddalari va toksinlar metabolizmiga ta'sir ko'rsatadi. Bir qator holatlarda, MOS da biotransformatsiyalangan modda yanada zaharliroq bo'lib qoladi va bu kimyoviy kanserogenezga olib keladi.

Konyugatsiya reaksiyalari. Konyugatsiya reaksiyalarda faol shakldagi turli moddalar: fosfoadenozilfosfatosulfat (FAFS) shakldagi sulfat kislota, UDFGK shakldagi glyukuron kislotasi, S-adenozylin metionin sifatida metionin hamda glitsin, glutamin i b. ishtirok etadi. Konyugatsiya reaksiyalarda ichakda oqsillarni chirish mahsulotlari – fenol (tirozindan hosil bo'ladi), indol, skatollar (triptofandan hosil

bo'ladi) zararsizlantiriladi. Indol, FAFS bilan konyugatsiyalanib, indoksilga aylanadi, keyin esa, hayvon indikaniga aylanib, siydk bilan chiqariladi. Siydkda indikan miqdori bo'yicha ichakda oqsillarning chirish tezligi hamda jigarning funksional holati haqida axborot olish mumkin. Avval jigarning funksional holatini baholash uchun Kvikk sinamasini qo'llanilar edi: bemorga benzoy kislotasi berilib, keyin siydkda gippur kislotasi aniqlanar edi, bu kislotaning miqdori jigarda konyugatsiya reaksiyalari intensivligini ko'rsatadi (benzoy kislotasi glitsin bilan konyugatsiyalanib, gippur kislotasini hosil qiladi). Glutation-S-transferazalar (GT) ksenobiotiklarni zararsizlantirishda muhim o'rinni egallaydi, ular sitotoksik organik peroksidlarni spirtlargacha qaytaradi; glutation epoksidlar, organik fosfatlar, tiotsionatlar, geterotsiklik birikmalarni zararsizlantirishda ishtirok etadi. Jigarda gormonlarning zararsizlantirishi alohida ahamiyat kasb etadi. Testosteron, aldosteron, estradiol kabi steroid gormonlarining inaktivatsiya mexanizmi, ularni gidroksillanishi va so'ng FAFS va UDFGK bilan konyugatsiyalanishini o'z ichiga oladi. Estradiolning gidroksillanish maxsulotlari turli xususiyatlarga ega: 16- va 4-gidroksiestradiol, ayniqsa juda ko'p miqdorda hosil bo'lganda, 2-gidroksiestradioldan farqli, kanserogenezni rivojlantirish imkoniyatiga egadir. Jigar sirrozida jinsiy gormonlar inaktivatsiyasi pasayib, ularning konsentratsiyasi qonda ortib ketadi. Bu o'z navbatida gonadotrop gormonlar sintezini pasaytirib, keyinchalik jinsiy bezlar atrofiyasiga olib keladi. Tiroksin transaminlanib, ketoxosilaga aylanish hamda fenol guruhi bilan FAFS yoki UDFGK ga konyugatsiyalanish yo'li bilan zararsizlantiriladi. Adrenalin va noradrenalin ketma-ket dezaminlanadi, metillanadi va FAFS yoki UDFGK bilan konyugatsiyalanadi.

Dorilarning zararsizlantirilishi. Dorilarning terapevtik ta'sirining davomiyligi ularning jigardagi metabolizmi tezligiga bog'liqidir. Gidrofil moddalar organizmdan o'zgarmagan holda chiqarilishi mumkin, ammo ko'p hollarda dori moddalari jigarda biotransformatsiyaga uchraydi. Biotransformatsiya natijasi turlicha bo'lishi mumkin: inaktivatsiya (nitritlar, fenobarbital va efedrin);

faollanish (normorfin, metildofa va butadion); organizm uchun zaharli bo'lgan metabolitlarning paydo bo'lishi (fenatsetin va sulfanilamidlar). Bularga misollar keltiramiz. Aspirin UDFGK yoki glitsin bilan konyugatsiyalanadi, yoki gentizin kislotasiga aylanadi. Fenobarbital gidroksillanadi, keyin UDFGK bilan konyugatsiyalanadi. Izoniazid atsetillanadi hamda atsetilizoniazid va izonikotin kislotasi shaklida chiqariladi. Morfin sitoxrom P-450 ta'siri ostida normorfinga (morfindan 6 marta zaharliroq) aylanadi, keyin u UDFGK bilan kon'yugatsiya reaksiyasi natijasida glyukuronid-normorfinni hosil qiladi. Yo'talga qarshi preparatlar qatoriga kiruvchi kodein, sitoxrom P-450 ta'siri ostida morfinga aylanadi va u yuqorida keltirilgan mexanizm bo'yicha zararsizlantiriladi. Fenatsetin sitoxrom P-450 1A2 ta'siri ostida atsetaminofenga (paracetamol) aylanadi va u keyin ferment turiga qarab 3 turli mahsulotgacha metabollanadi: UDFglyukuroniltransferaza ta'siri ostida — glyukuronid-atsetaminofen; sulfotransferaz ta'siri ostida — sulfataminofen; sitoxrom P-450 1A va P-450 3A ta'siri ostida — N-atsetilbenzoximonimin (gepatotoksik modda) hosil bo'ladi. Bundan tashqari, fenatsetin deatsilaza ta'siri natijasida parafenetidinga aylanadi, u metgemoglobin hosil qiruvchi hamda hepatotoksikdir. Kofein sitoxrom P-450 3A ni faollashtiradi, P-450 1A ni esa ingibirlaydi.

Etanol metabolizmi. Etanolning jigarda o'zgarishlari oraliq mahsulot sifatida zaharli atsetaldegidni hosil qilgani holda, 3 yo'l bilan kechadi:

1. Etanol NADga bog'liq alkogoldegidrogenaza (ADG) ta'siri ostida NADNni hosil qilgani holda, atsetaldegidga aylanadi. ADG — ruxga bog'liq ferment bo'lib, sitoplazma va mitoxondriyalarda joylashgan, induksiyalanmaydi, 2 izoshakli mavjud;

2. Etanol sitoxrom P-450 2e1 va NADFN ta'siri ostida atsetaldegidni hosil qiladi, bunda NADF paydo bo'ladi. Bu yo'l EPRda kechadi, ferment indutsiyalanadi va bu alkogolni suiiste'mol qilishda ahamiyatga egadir. Reaksiya kislородning faol shakllarini hosil bo'lishi bilan kechadi;

3. Etanol katalaza ta'siri ostida vodorod peroksi bilan atsetaldegid hosil qiladi. Bu yo'l mitoxondriyalarda kechadi.

Atsetaldegidning keyingi metabolizmi sirka kislotasi hosil bo'lguncha 2 yo'l bilan: FADga bog'liq aldegidoksidaza (vodorod peroksidini hosil bo'lishi bilan) va NADga bog'liq atsetaldegiddegidrogenaza (NADN hosil bo'lishi bilan) ta'siri ostida kechadi. Aldegidoksidaza va atsetaldegiddegidrogenaza hujayrada turlicha tarqalgan: sitozolda — 80 % aldegidoksidaza va 20 % atsetaldegiddegidrogenaza; mitoxondriyalarda bu foiz nisbatlari teskaridir.

Jigar detoksifikatsion funksiyasiga ta'sir qiluvchi omillar.

Ksenobiotiklarning zararsizlantirilishi intensivligi MOS fermentlari faolligi va MOS joylashgan membranalarning butunligiga bog'liq. MOS faolligiga jigarda glikogen, fosfolipidlari, oqsillar, askorbin kislotasi miqdori hamda selen, magniy, temir elementlari ta'sir ko'rsatadi. MOS faolligining pasayishi natijasida biotransformatsiyani pasayishi bolalarda, qariyalarda, ochlikda, MOS tizimi joylashgan silliq endoplazmatik retikulum membranalarining destruksiylarida, oksidlanuvchi stressda kuzatilishi mumkin. MOS fermentlari faolligini ortishi testosterone va kortizol ta'siri ostida kuzatiladi. MOS fermentlariga induksiyalovchi va ingibirlovchi ta'sir ko'rsatuvchi moddalar mavjud. MOS fermentlari faolligi va ular sintezining intensivligi induktor va ingibitorlar bilan boshqariladi. Ta'sir mexanizmiga ko'ra MOSning 2 tipdag'i induktordagi ajratiladi: fenobarbital tipi (MOS fermentlari sintezini oshiradi) va metilxolantren tipi (sitoxrom P-450 ning katalitik faolligini oshiradi). Fenobarbital va benzonaldan hepatotrop zaharlar bilan zaharlanganda ksenobiotiklar metabolizmini kuchaytirish uchun foydalanishadi. Fenobarbital kiritilgach, nitroglitserinning biotransformatsiyasi 2 marta ortadi, bu uning yonbosh ta'siri — bosh og'rig'ini yo'qolishiga olib keladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gemolitik kasallikni davolashda fenobarbitaldan foydalanishadi: u jigarda bilirubin konyugatsiyasini fenobarbitaldan foydalanishadi: u jigarda bilirubin konyugatsiyasini kuchaytirib beradi. MOS ingibitorlari hepatotrop zaharlar, kuchaytirib beradi. MOS ingibitorlari hepatotrop zaharlar, vodorod peroksi, alkogol, fosfororganik birikmalar, pestitsidlar, vodorod peroksi, alkogol, fosfororganik birikmalar, pestitsidlar, geksaxlorgeksidin va boshqalardir. Sitoxrom P-450 ingibitorlari bo'lib yana aminazin, allopurinol, tetram, oral kontrakteptivlar, sikloserin hisoblanadi.

Kimyoviy kanserogenez. Jigar MOSda ksenobiotiklar biotransformatsiyasida qator moddalardan yanada zaharliroq moddalar paydo bo‘lib, ular kanserogenlarga aylanadi. Kanserogen omil irsiy material strukturasida o‘zgarish hosil qilish yoki hosil qilmasligiga ko‘ra genotoksik va epigenetik kanserogenlarga bo‘linadi. Genotoksik kanserogenlar, o‘z navbatida, bevosita va bilvosita kanserogenlarga bo‘linadi, bilvosita kanserogenlar *prokanserogenlar* deyiladi. Ularga benzpiren, politsiklik aromatik uglevodorodlar, insektitsidlar, nitrozaminlar va boshqalar kiradi.

11.2-jadvaldan ko‘rinishicha, kimyoviy kanserogenlar DNKnini zararlash qobiliyatiga egadir. Kimyoviy kanserogenez rivojlanishining ikkinchi mexanizmi — bu onkogenlarni protoonkogenlarga transformatsiyasidir. Protoonkogen — bu normal gen bo‘lib, u normal proliferatsiyani boshqaruvchi oqsil haqidagi axborotni saqlaydi.

11.2-jadval

Kimyoviy kanserogenlar

Prokanserogen manbayi	Prokanserogen nomi	“Zararsizlan-tirishda” hosil bo‘ladigan kanserogen nomi	Kanserogen ta’siri ostida yuzaga keladigan patologik holat
Tamaki tutuni	Benzpiren	Oksibenzpiren	O’pka raki
Yonish mahsulotlari (toshko‘mir qurumi), tamaki tutuni, motor gazlari, kokskimyo ishlab chiqarishi mahsulotlari	Politsiklik aromatik uglevodorodlar: benzantratsen, metilxolantren, benzol	Epoksid-benzantratsen	DNK, RNK va oqsillarni alkillashi mumkin; teri rakinining rivojlanishiga olib kelishi mumkin
Anilin bo‘yoqlari ishlab chiqarish	Aromatik aminlar: naftilamin, metilaminobenzol va ularning hosi-lari	Naftilamin, metilaminobenzol va ularning hosi-lari	DNK ni zararlaydi, qovuq rakinining rivojlanishiga olib keladi

Defoliantlar ishlab chiqarish, sellyulozo-qog‘oz sanoati, yonayotgan axlat uyumlari, svnixlorlash	Dioksinlar: tetraxlor-benzodioksin	Tetraxlorbenzodioksin va uning hosilalari	DNKni zararlaydi, ichki a’zolar kanseromatozini chaqiradi
Insektitsidlar	Atsetilamino-flyuoren	Atsetilamino-flyuorensulfat	DNKni zararlaydi, jigar rakini chaqiradi
Don mahsulotlarining mog‘or zamburug‘lari	Mikotoksinlar: aflotoksin	Aflotoksin	DNKni zararlaydi, jigar rakini chaqiradi
Baliq, go‘sht mahsulotlari – kolbasalar kon-servantlari	Nitrozaminlar: dimetilnitroza-min, dietilnitrozamin	Dimetilnitrozamin, dietilnitrozamin	DNK molekulasida sitozinni uratsilga aylantirib, DNKni zararlaydi, kuchli oksidlovchilar hisoblana-di, jigar, buyraklar, o’pka, oshqozon, qizilo‘ngach raklarini chaqiradi

Onkogen — bu shunday genki, uning ekspressiyasi hujayralarning nazoratsiz proliferatsiyasiga olib keladi. Protoonkogen, uning operoni tarkibiga kiruvchi regulyator yoki struktur genlar o‘zgarganda, onkogenga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, jigarning zararsizlantiruvchi funksiyasi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, endogen va ekzogen substratlar biotransformatsiyasi mikrosomal oksidlanish sistemasining struktur-funksional holatiga hamda unga induktor va ingibitorlar ta’siriga bog‘liqdir. Jigar MOS ning faolligi dori moddalarining individual ta’siri, ularning terapevtik samaradorligini belgilab beradi. MOS ishining nosozliklarida toksemiya rivojlanadi va organizmda gomeostazning buzilishi kuzatiladi.

Gepatotoksiklik. Ba’zi dori moddalari jigarni zararlashi mumkin. Dozaga bog‘liq ravishda gepatotoksiklikka paratsetamol, saltsilatlar, tetratsiklinlar, azatioprin, metotreksatlar ega. Idiosinkrazik (oldindan

prognoz qilib bo'lmaydigan) gepatotoksiklik — izoniazid, galotan, metil-DOFA, rifampitsin, dantrolen, nitrofurantoinlarga xos. Metiltestosteron dozaga bog'liq xolestaz chaqiradi; idiosinkrazik xolestatik hepatitni — xlopromazin, tolbutamid, eritromitsinlar chaqiradi. Uglerod tetraxloridi, pestitsidlar, fosfororganik birikmalar hepatotrop zaharlaridir.

11.5. O't tarkibi va uning buzilishlari

O't — sariq-jigarrangli suyuq sekret bo'lib, jigar tomonidan 1 kg tana massasiga 10 ml miqdorda (taxminan 500 – 700 ml/sut) ishlab chiqariladi. Jigar o'ti o't qopchasiga o'tib, u yerda to'planadi, suv va elektrolitlarning so'riliши hisobiga 5 – 10 martagacha quyuqlashadi. O'tning funksiyalari: lipidlarni hazmlanishida ishtirok etish – yog'larning emulgatsiyasi, pankreatik lipazani faollashtirish, yog'lar gidrolizi komponentlarini mitsella hosil qilishida ishtirok etish. O'tning asosiy komponentlari – o't kislotalari, xolesterin, fosfolipidlar, bilirubin va tuzlardir. O't yana mutsin, fermentlar, elektrolitlar, dori moddalarining biodegradatsiyasi mahsulotlarini saqlaydi. O'tning asosiy komponenti — o't kislotalaridir. O't tarkibining buzilishi *disxoliya* deyiladi. Disxoliya o't kislotalari/xolesterin nisbatini o'zgarishida kuzatiladi. O't kislotalari miqdorining pasayishi hamda xolesterin konsentratsiyasining ortishida, o'tda cho'kma hosil bo'ladi va bu o't toshlarining hosil bo'lishiga olib keladi. Bu holat ayniqsa o'tning turib qolishi va infeksiya mavjud bo'lganda yaqqol namoyon bo'ladi.

12-bob.

KISLORODNING FAOL SHAKLLARI, OKSIDLOVCHI STRESS VA ANTIOKSIDANTLAR

12.1. Kislorodning faol shakllari

Organizmlar tomonidan hayot faoliyati jarayonida kislorodning qo'llanilishi 1,4 milliardga yaqin yillar oldin boshlangan. Qadimiy organizmlar anaerob bo'lgan, ammo quyosh energiyasi hisobiga fotosintez yuzaga keldi va yer yuzida kislorod paydo bo'ldi, natijada kislorod yordamida organik moddalardan «biologik energiya» — ATFni olish imkoniyati yuzaga keldi. Bu jarayon aerob (kislorod iste'mol qiluvchi) tirik hayot shakllarini, ya'ni yanada murakkab hayot shakllarining paydo bo'lishida boshlang'ich turtki bo'ldi. Shunday qilib, kislorod tirik materiya evolyutsiyasida nihoyatda muhim rol o'ynadi. Zamonaviy organizmlar ATF shaklidagi energiyani olish uchun kislorodni faol qo'llaydi, ular o'z navbatida uni hujayraning barcha ehtiyojlari uchun sarflaydi.

Shu bilan bir vaqtida tirik organizmlarga kislorodning "zaharliligi" ga moslashishga ham to'g'ri keldi. O'sha vaqtida yer sharida bo'lgan iqlimning o'ziga xosliklari, nihoyatda kuchli quyosh radiatsiyasi va elektron strukturasining noyobligi sababli kislorod organizm uchun "zarar keltiruvchi" bo'lib qoldi, chunki bu sharoitda kislorodning bosqichma-bosqich qaytarilishi natijasida oraliq mahsulotlar bo'lmish uning erkin radikallari — *kislorodning faol shakllari (KFSh)* hosil bo'la boshladи. Ular organik molekulalarga halokatli ta'sir ko'rsata boshladи, ya'ni hujayra membranlari lipidlarini, oqsillarni, DNKnini shikastlay boshladи. Shu bilan bir vaqtida molekulyar kislorod va uning to'liq tiklanish mahsuloti — suv hujayralar uchun hech qanday havf tug'dirmaydi.

KFSh ta'siri ostida organik molekulalarning oksidlanishi zanjir mehanizmi bo'yicha yuzaga keladi, bunda har bir reaksiyada 217

biomolekulalar shikastlanishini og'irlashtiruvchi va oksidlanish zanjirini tarmoqlantiruvchi yangi KFSh hosil bo'ladi. Organizmlarni yashab qolishi uchun KFShdan himoyalanishning nihoyatda kuchli himoya tizimi — antioksidant tizimini yaratish zarur bo'ldi. Shu tariqa organizmning antioksidant tizimining asosiy fermentlari bo'lmish — katalaza, superoksiddismutazalar va peroksidazalar paydo bo'ldi. Kisloroddan foydalanuvchi hayot shakllari paydo bo'lgan davr, ya'ni paleozoy erasidan boshlab omon qolgan ummon hayvonlari organizmi, antioksidantlarning nihoyatda katta miqdorini saqlaydi.

Hujayralardagi erkin radikal oksidlanish (ERO) va KFSh to'g'risida gapirganda ularning hayratlanarli tarqalganligini hamda organizm uchun ahamiyatini ta'kidlash zarurdir. Me'yorda KFSh hujayra membranalari fosfolipid tarkibini boshqarish, hujayralarga signallarni yetkazish, proliferatsiya yo'llarini faollashtirish va hujayralarni differensiatsiyasi uchun zarurdir. KFSh — hujayradagi kislorod konsentratsiyasini o'zgarish sensori, apoptozni, tomirlar tonusini, hujayra proliferatsiyasi va o'sishini boshqaruvchilaridir. KFSh ta'siri natijasida to'qimalarning hujayra elementlarini barcha tiplari o'rtasidagi integratsiyasi, ushbu hujayralarni stress-omillar ta'siriga sezuvchanligi amalga oshiriladi; KFSh signal molekulalari rolini bajaradi, apoptogen signallarni inititsiatsiyalaydi va hujayralarni dasturlashtirilgan o'limida ishtirot etadi. KFShni ortiqcha miqdori membranadestruktiv, sitopatik va sitostatik ta'sir ko'rsatadi.

Me'yorda organizmda doim KFSh va antioksidantlarning muvozanati mavjud bo'ladi. AOTning cheklovchi ta'siri hisobiga KFShning hosil bo'lishi, fiziologik funksiyalarni ushlab turish uchun zarur bo'lgan past darajada doimiy ushlab turiladi. ERO jadalligini turg'un darajadan siljishi hujayra membranalarini shikastlanishining universal mexanizmi bo'lib hisoblanadi: u membrana o'tkazuvchanligining oshishiga va hujayra gomeostazining buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib, KFShning hosil bo'lishi — organizmda kechuvchi doimiy jarayon bo'lib, endogen antioksidant tizimlarining faolligi hisobiga fiziologik muvozanatlashgan bo'ladi. Erkin radikal

mahsulotlarining haddan tashqari ortishi, proksidant ta'sir va/yoki antioksidant tizimning ishlamasligi natijasida oksidlanishli stress rivojlanadi va u oqsillar, lipidlar va DNKning shikastlanishi bilan kechadi. Bu jarayonlar hujayra va to'qimalarni erkin radikallarning nobud qiluvchi ta'siridan himoya qiluvchi AOT faolligini pasayishi fonida sezilarli kuchayadi. Keyinchalik esa bu insoniyatning eng asosiy kasalliklari: ateroskleroz, yurakning ishemik kasalligi, qandli diabet, hafaqon kasalligi, immuntanqisligi holatlari, havfli o'smalar va erta qarishning rivojlanishiga olib keladi.

Tirik tizimlarda erkin radikallarning hosil bo'lish mexanizmlari.

Organik molekulalarning tashqi elektron qobig'idagi elektronlar har bir orbitalda bir juft bo'lib joylashadi. Erkin radikallar esa tashqi elektron qobig'ida juftlashmagan (yakka) elektronlar mavjud. Demak, **erkin radikallar** — tashqi atom orbitallarida yakka elektron mavjud bo'lgan zarrachalar bo'lib, ular yuqori reaksiyon qobiliyati bilan farq qiladi. Radikallardagi juftlashmagan elektronlarni (*) bilan belgilash qabul qilingan. Erkin radikal doim boshqa molekulani oksidlab, o'zining xususiy tuzilmasini turg'unlashtirish uchun elektronlarni "o'g'irlash"ga intiladi. Erkin radikallarga kislorodning faol shakllari (KFSh, Reactive oxygen species – ROS) va azotning faol shakllari (AFA, Reactive nitrogen species – RNS) kiradi.

KFShga uning 6 hosilasi: atomar kislorod (O), ozon (O_3), singlet kislorod ($'O_2$), superoksid ($*OO^-$), gidroksil (NO^*) va gidroperoksid (perekis) radikallari kiradi.

Agar atomar kislorod va ozon hayot faoliyati mahsulotlariga taalluqli bo'lmasa, unda kislorodning to'rt boshqa faol shakli organizmning oksidlanish reaksiyalarining murakkab zanjirida uzluksiz hosil bo'lib turadi.

Tabiiy va yot kislorod radikallari farqlanadi. Yot radikallar ionlashtiruvchi radiatsiya, ultrabinafsa nurlantirish (UBN), shuningdek ksenobiotiklarni zararsizlantirish ta'siri oqibatida hosil bo'ladi. Tabiiy radikallar organizmda fermentativ yo'l bilan hosil bo'ladi, ular birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'linadi. Birlamchilar: superoksid-radikal, nitroksid va semixinonlardir. Ular hujayralarning

elektron tashuvchi tizimlari – mitoxondriya, mikrosomalarda hosil bo‘ladi. Ikkilamchi radikallar birlamchi radikallarni keyinchalik boshqa moddaga aylanishi, shuningdek o‘zgaruvchan valentlilikka ega metallar ishtirokida kechuvchi qator reaksiyalar natijasida yuzaga keladigan vodorod peroksididan, gipoxlorit va lipidlar gidroperoksidlaridan hosil bo‘ladi. Gidroksil-radikal va lipid radikallari bo‘lmish ikkilamchi radikallar, hujayra strukturalariga halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Bularдан tashqari, yana uchlamchi radikallar mavjud bo‘lib, ular antioksidantlarning radikallaridir (12.1-jadval).

Kislород va azotning fiziologik erkin radikallari hujayralarning elektron transport tizimlarida kechuvchi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar natijasida hosil bo‘ladi: mitoxondriyalarda (superoksid-radikal va vodorod peroksidi), mikrosomalarda (superoksid-radikal), peroksisomalarda (vodorod peroksidi), shuningdek fagotsillarda NADFN-oksidazalarning faollanishi, immun javobda T-limfotsitlarning faollanishi (azot oksidi, gipoxlorit) hamda araxidon kislotasi metabolizmida.

12.1-jadval

Erkin radikallarning tasnifi (Yu.A. Vladimirov bo‘yicha)

Tabiiy radikallar			Yot radikallar
Birlamchi	Ikkilamchi	Uchlamchi	
Superoksid (*OO ⁻)	Gidroksil (*OH)		Suv va biomolekulalar radikallari (radiatsiya ta’siri ostida hosil bo‘ladi)
Nitroksid (*NO)		Antioksidant radikallari	Xromofor molekulalari radikallari (UBN ta’siri ostida hosil bo‘ladi)
Semixinonlar: koenzim Q (HQ*), flavoseminonlar	Lipid radikallari: LO*, L*, LOO*		Zaharli moddalar radikallari (ksenobiotiklarni zararsizlantirishda hosil bo‘ladi)


Sitoxrom P-450 (CYP) ishtirokida moddalarning boshqa moddalarga aylanishi, elektronlarni kislordan NADFNga tashlanishida hosil bo‘ladigan KFSh (peroksidlar, gidroksil-radikal, superoksid-anion, uglerod oksidi) generatsiyasi bilan birga kechadi. Gemoksigeneza-1 — KFShdan sitoproteksiyanı ta’minlovchi ferment: u NADFN-sitoxrom P450-reduktaza fermenti bilan bog‘lanishda sitoxrom P450 bilan raqobatlashadi. Gemoksigeneza-1 bu fermentni bog‘lab olib, mikrosomal oksidlanish zanjirini bloklaydi, va shu yo‘l bilan sitoxrom P-450 bog‘liq ravishda KFSh generatsiyasini pasaytiradi. Sitoxrom P-450ning CYP3A4 va CYP3A7 izoshakl genlari ekspressiyasi, gipoksiya bilan induksiyalanuvchi alfa faktor (HIF-1 α) geni ekspressiyasiga bog‘liq. Gipoksiyada HIF-1-alfa miqdorining ortishi, sitoxrom P-450 izoshakllari sintezini pasaytiradi va bu sitoxrom P-450 ga bog‘liq KFSh generatsiyasining pasayishi bo‘yicha kompensator protektor mehanizmlarni ta’minlaydi.

Shunday qilib, hujayralar tomonidan molekulyar kislordan iste’mol qilinishi natijasida yuzaga keladigan reaksiyalarda, shubhasiz uning faol shakllari hosil bo‘ladi. Mitochondrial tizimlarda ham, mikrosomal tizimlarda ham kislordan qaytaruvchilar bilan o‘zaro ta’siri yuzaga keladi, natijada erkin radikallar hosil bo‘ladi. Fiziologik muvozanat endogen AOT va gemoksigeneza-1, tioresedoksin, sulforedoksin, ferritin N, glutamatsteinilligazaning katalitik subbirliklari, glutationsintetaza kabi ba’zi fermentlar genlarining transkriptiyasi orqali boshqariladi.

12.2. KFShning paydo bo‘lish va zararsizlantirish mexanizmlari, erkin-radikal oksidlanish reaksiyalarining zanjir mexanizmlari.

Superoksid-radikal va uning metabolizmi mahsulotlari:


Superoksid radikallar (O_2^- , yohud *OO⁻) molekulyar kislordan NADFN-oksidaza fermenti bilan qaytarilishida hosil bo‘ladi:



Bu reaksiya sxematik tarzda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:




Superoksidradikalning asosiy produtsenti bo'lib fagotsit hujayralari hisoblanadi: bular qondagi neytrofil va monotsitlar, to'qimalardagi makrofaglardir. Bu hujayralarning barchasi bakteriya hujayralarining yuzasiga tegib, zudlik bilan mikrobg'a qarshi vazifani bajaruvchi erkin radikallarni ajratishni boshlaydi. Mikroblarni nobud qilgan holda superoksid radikallar fagotsitlarning o'ziga ham, qonning boshqa hujayralariga ham zarar yetkazishi mumkin. Tabiiyki, mazkur barcha hujayralar superoksid-radikallaridan qutilishga harakat qiladi, buning uchun ular **superoksiddismutaza (SOD)** deb nomlanuvchi fermentlarni ajratib chiqaradi. Faol markazi va polipeptid zanjirining tuzilishi bo'yicha o'zaro farq qilgan holda barcha SODlar faqat bir reaksiyani — superoksid radikalining dismutaza reaksiyasini katalizlaydi:



Superoksid-radikal metabolizmining mahsulotlari vodorod peroksi (H_2O_2), gidroksil-radikal (HO^*), gipoxloritlar (ClO^-) hisoblanadi. Me'yorda fagotsitlar gipoxlorit sintezi uchun maxsus ferment — mieloperoksidazani (MP) ajratgan holda vodorod peroksidini qo'llaydi. Mieloperoksidaza quyidagi reaksiyani katalizlaydi:




Gipoxlorit bakteriya hujayralari devorini buzadi va shu yo'l bilan bakteriyalarni nobud qiladi. Xlorid-ionlar ishtirokida H_2O_2 mieloperoksidazalarni ta'siri ostida haddan tashqari kuchli oksidant — gipoxlorit kislotasi (HOCl) hosil bo'ladi. Shuningdek, vodorod peroksidini peroksisomal uratoksidaza, glikolatoksidaza, aminokislotalarning D-oksidadasi ham hosil qilishi mumkin. H_2O_2 hujayra membranasi orqali hujayra ichiga kirib, mitoxondriyalarda nafas zanjirini boshqaruvida ishtirok etadi. H_2O_2 kuchsiz oksidlovchi bo'lib hisoblanadi va, odatda, katalaza va glutationperoksidaza bilan oson zararsizlantiriladi:




Superoksid radikallari va H_2O_2 ning manbayi bo'lib, sitozolksantinoksidazasi, aldegidoksidaza, peroksisomalar L-gulonolaktoknoksidazasi, degidroorotatdegidrogenaza, mitoxondriyalar piridok-saminoksidazasi, diaminooksidaza, NADFH-sitoxrom-c-reduktaza, endoplazmatik retikulumning NADH-sitoxrom-c-reduktazasi bo'lishi mumkin. Superoksid radikallarni hosil qiluvchi eng ko'p o'rganilgan ferment bo'lib, faol markazida Mo^{5+} saqlagan ksantinoksidaza hisoblanadi. Sog'lom hujayralarda u asosan NADHga bog'liq ksantindegidrogenazalar ko'rinishida namoyon bo'lib, turli patologik holatlarda oksidant hosil qiluvchi shaklga aylanadi.

Biologik tuzilmalarning shikastlanishi jarayonlarida superoksid radikallarning ishtiroki, ya'ni lipidlarning peroksidli oksidlanishining initsiatsiyasi, DNK molekulاسining shikastlanishi, oqsillarning SH-guruhini oksidlanishi, fermentlarning inaktivatsiyasi, polisaxaridlar depolimerizatsiyasida hech qanday shubha uyg'otmaydi.

Biroq ko'p holatlarda bevosita shikastlantiruvchi ta'sir Gaber-Veys reaksiyasi jarayonida superoksid radikallari va vodorod peroksidining o'zaro aloqasi natijasida hosil bo'lувчи kuchli faollikka ega gidroksil radikallari va singlet kislorod orqali yuzaga keladi:




Gidroksil radikallarining H_2O_2 dan hosil bo'lishi shuningdek, valentligi o'zgaruvchan metall ionlari ishtirokidagi Fenton reaksiyalarida ham amalga oshadi:



Gidroksil radikallarining hosil bo'lishi atrofdagi hujayralar uchun achinarli oqibatlarga olib keladi, chunki HO^* organik molekulalar uchun yanada tajovuzkor va havfli dushman bo'lib hisoblanadi.

Gidroksil radikali kimyoviy jihatdan haddan tashqari faol va unga uchragan har qanday molekulani parchalaydi. U deyarli soniyalarda ($7 \cdot 10^{-10}$ soniya davomida) oqsillar, nuklein kislotalar, lipidlar bilan reaksiyaga kirishib, ularning hujayra tuzilmasini buzadi va yuqori zaharli birikmalar ko'rinishida bo'lgan erkin-radikal oksidlanish mahsulotlari – peroksidlar, aldegidlar, ketonlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. SH-guruqlar, gistogramli va oqsil aminokislotalarining boshqa qoldiqlariga ta'sir etib, HO* ularni denaturatsiyalaydi va fermentlarni inaktivatsiyalaydi. Nuklein kislotalarda HO* nukleotidlardan o'rtasidagi uglevodli ko'prikhalarini buzadi va shu yo'l bilan DNA va RNA zanjirini uzadi, natijada hujayralarning mutatsiyasi va nobud bo'lishi yuzaga keladi. Hujayra membranasining lipid qavatiga joylashib olib, gidroksil radikali lipidlarning zanjirli oksidlanish reaksiyasini ishga tushiradi, bu esa membranalarni shikastlanishiga, ularning funksiyasini buzilishiga va hujayralarning nobud bo'lishiga olib keladi. Gidroksil radikal bilan Fe²⁺ oksidlanishi ERO jarayonini jadallashtiradi, natijada metgemoglobin hosil bo'ladi. Shunday qilib, HO* — buzg'unchi radikal, radikal-qotil. Hozirgacha gidroksil radikalni maxsus zararsizlantirish xususiyatiga ega bo'lgan antioksidant tizim komponenti aniqlanmagan.

Gidroksil radikal nafaqat Gaber-Veys va Fenton reaksiyalarida hosil bo'ladi, balki temir ionlarining (Fe²⁺) gipoxlorit bilan o'zaro ta'sirida ham hosil bo'ladi. Bunda gidroksil radikali Fenton reaksiyasiga nisbatan yanada ham yuqori darajada ajralib chiqadi:



Umumlashtirib, gidroksil radikalining hosil bo'lish reaksiyasini ko'rsatamiz:

- 1) $\text{Fe}^{2+} + \text{HOOH} \longrightarrow \text{Fe}^{3+} + \cdot\text{OH} + \cdot\text{OH}$;
- 2) $\text{Fe}^{2+} + \text{ClO}^- \longrightarrow \text{Fe}^{3+} + \text{Cl}^- + \cdot\text{OH}$;
- 3) $\cdot\text{OO}^* + \text{H}_2\text{O}_2 \longrightarrow \cdot\text{O}_2 + \text{OH}^- + \cdot\text{OH}$.


Superoksid radikallarining generatsiyasi makrofaglarni antigen bilan muloqotida yallig'lanish o'choqlarida kuchayadi. Ortiqcha miqdorda bo'lgan holatda superoksid radikallari, asosan ikki reaksiya natijasida, ya'ni uch valentli ionlardan ikki valentli ionlarning hosil bo'lishi va azot oksidini bog'lab olishda kuchli nohush ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Azot oksidi (NO) erkin radikallarning bir tipi bo'lib, azotning faol shakllariga kiradi, u so'nggi vaqtida eng jadal sur'atlarda o'rganilayotgan radikallardan biridir. NO qon tomirlari devorining endotelial va silliq mushakli hujayralari, fagotsitlar, asab va boshqa ko'plab hujayralar tomonidan hosil bo'ladi. Reaksiya gem saqlovchi fermentlar — NO-sintazalar tomonidan katalizlanadi. NO-sintazaning 3 izoshakli mavjud:


- neyronli (nNOS) – sinaptogenez va remodelirlanishni boshqaradi, uning faolligi Ca²⁺ ionlariga bog'liq bo'ladi;
- endotelial (e-NOS) – tomirlar tonusi va vazodilatatsiyani boshqaradi, faolligi kalsiyga bog'liq;
- indutsibel (i-NOS) – makrofagax va astrotsitlarda mavjud bo'ladi, u Ca²⁺ ga bog'liq emas, sitokinlar tomonidan indutsirlanadi.

Azot oksidi nisbatan turg'undir (hayot davomiyligi bir necha soniyani tashkil etadi) va signallarni o'tkazishda ikkilamchi vositachi sifatida ishlab, hujayra membranalari orqali o'tish qobiliyatiga ega. Tabiiy erkin radikal (*NO) organizmda bir qator vazifalarni bajaradi. Birinchidan, CH-guruqlarni saqlagan birikmalar ishtirokida, NO dan tomirlar tonusi va arterial qon bosimini boshqarishda yetakchi rol o'ynaydigan, qon tomirlari devoridagi endoteliy tomonidan ajralib chiquvchi «bo'shashish omili»ning (EDRF — Endothelium derived relaxing factor) o'tmishdoshi hosil bo'ladi. «Bo'shashish omili»ning yetishmasligi hafaqon kasalligiga, ortiqcha bo'lishi esa — gipotoniyaga olib keladi. Ikkinchidan, NO* qon va to'qima makrofaglari tomonidan ajratiladi va zamburug'larga qarshi omil rolini o'ynaydi. NO* ning sitotoksik ta'siri uning superoksid bilan bo'ladigan reaksiyasiga bog'liq, deb taxmin qilinadi. Azot oksidi juda reaktiv birikma bo'lib, atrofidagi molekulalar bilan masalan, zardob

albuminlari va gemoglobinlar bilan juda oson komplekslar hosil qiladi. Kislorod ishtirokida NO ning o‘zi ham, uning komplekslari ham, nitrat va uning birikmalarini hosil qilish bilan asta-sekin oksidlanadi. NO ning yorug‘likka sezuvchan komplekslari to‘qimalarda mavjud bo‘lib, yoritilganda parchalanishi haqida ma’lumotlar bor. Bu ultrabinafsha nurlarning yaqin sohachalari bilan nurlantirilganda qon tomir devorlarini bo‘shash fenomeni – fotorelaksatsiyaga olib keladi. Superoksid radikallar miqdori oshganida NO ular bilan reaksiyaga kirishadi va to‘qimalarda yallig‘lanish xarakteridagi shikastlanishlarni keltirib chiqaruvchi, sitotoksik peroksinitritni hosil qiladi:



Mazkur reaksiyada hosil bo‘luvchi peroksinitrit, *ON ning hosil bo‘lishi bilan parchalanishi mumkin:



Peroksinitrit va gidroksil radikalining hosil bo‘lishi hujayralarni shikastlanishiga olib keladi. Agar « $^*NO +$ superoksid» tizimning shikastlantiruvchi ta’siri kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarga qaratilgan bo‘lsa, juda yaxshi. Agarda bu xususiy hujayra va to‘qimalarga qaratilgan bo‘lsa, yomondir. Shuning uchun qon oqimining NO^* ajraluvchi qismlarida (qon bosimining zaruriy sozlovchisi sifatida), superoksid radikallari bo‘lmashligi kerak. Buning uchun jumladan, mazkur joylarda superoksid radikallarini yo‘qotuvchi ferment – SOD sintezlanadi.

Gipoksiya va miyada N-metil-D-aspartat (NMDA)-retseptorlarining qo‘zg‘alishida nNOS ta’siri ostida NO^* ishlab chiqarilishi kuchayadi. Bunda NO -radikallari neyron DNKsiga shikastlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, uning superoksid radikal bilan o‘zar olib keladi. Tomirlarni toraytirish xususiyatiga ega bo‘lgan superoksid anion NO -radikalni bog‘lab oladi, reaksiya jarayonida hosil bo‘lgan

peroksinitrit esa vazospazm holatini chaqiradi. Ba’zi mualliflarning taxminiga ko‘ra, gipoksiyada yurak ritmi boshqaruvini baroreflektor sezuvchanligini yo‘qotilishi, peroksinitrit ta’siri ostida Nucleus ambiguous (noaniq yadroli) hujayralarini tanlab nobud bo‘lishi bilan bog‘liqdir, buning natijasida esa taxikardiya yuzaga keladi.


Temir va boshqa ko‘plab biologik ahamiyatli metallar NO-molekulalarining toq elektronlarini bog‘lab olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Metall saqlovchi oqsillarning NO bilan bog‘lanishi, gem va gem bo‘lmagan temirlar saqlagan fermentlarning ingibirlanishiga olib keladi. Bunda sitoxromoksidazalar, P-450 sitoxromi, oksidoreduktazalar, nitroreduktazlar, NOS va boshqalarning faolligini pasa-yishi tiklanuvchan yoki tiklanmaydigan bo‘lishi mumkin.

O’sma o’sishi suppressori bo‘lmish p-53 oqsilini to‘planishi bilan bog‘liq bo‘lgan NO ning hosil bo‘lishi apoptoz induksiyasiga olib keladi. Superoksid anioni ham apoptoz induksiyasini chaqirishiga qaramasdan, muvozanatlashgan proporsiyada ushbu ikki radikalning bir vaqtda mavjud bo‘lishi kesishgan himoya effektini yuzaga keltiradi va apoptoz sezilarli darajada to‘xtaydi.

Azot oksidi sitoxromoksidaza faol markazida mis ionlari hamda a, sitoxromi bilan kislородни bog‘lab olishda raqobatlashib, mitoxondriyalarda nafas olishni boshqaradi. Shunday qilib, NO mitoxondriyalarda nafas olishni ingibirlaydi va membrana potensialini yo‘qotib, ATP hosil bo‘lishini to‘xtatadi. Sitoxromoksidazaning raqobatchi ingibitori bo‘lib hisoblangan va kislород bilan raqobatlashuvchi NO, kislород bosimi qancha kam bo‘lsa, shuncha ko‘p zaharlilikni namoyish etadi, bu esa gipoksiyada kuzatiladi.


Semixinonlar. Koenzim Q (semiubixinon, *QH) radikallari ubixinonreduktaza va ubixinon-sitoxrom-s-reduktazalar ta’siri ostida bir elektronli oksidlanishda – ubixinol (QH_2) (gidroxinon), yoki bir elektronli qaytarilishda – ubixinon (Q) hosil qiladi. Me’yorda mazkur radikal mitoxondriyalarda elektronni tashish jarayonida oddiy ishtirokchidan ko‘p bo‘lmagan ahamiyatga ega, ammo aynan u havfliliği ancha yuqori bo‘lgan kislород radikallari – superoksid

radikali va gidroksil radikallari manbayi bo‘lishi mumkin. Muhim KFShlarining hosil bo‘lishi va o‘zaro ta’sirining umumiy sxemasi 12.1-rasmda ko‘rsatilgan.




12.1-rasm. KFShning hosil bo‘lishi va o‘zaro ta’sir mexanizmlari

Ikkilamchi radikallar. Ikkilamchi erkin radikallarni hosil bo‘lishini klassik yo‘li, biologik membranalar tarkibiga kiruvchi polito‘yinmagan yog‘ kislotalari (LH) va qon plazmasi lipoproteinlarining peroksidlanishi natijasida *lipid radikallarining* hosil bo‘lishi hisoblanadi. Shuningdek, gidroksil va superoksid radikallar ham ikkilamchi radikallar bo‘lishi mumkin. Lipid radikallari – yog‘ kislotasining lipid radikali (L^*), peroksid radikali (LO^*), lipoperoksid radikali (LOO^*) quyidagi reaksiyalar natijasida hosil bo‘ladi:



Bunda, LH — polito‘yinmagan yog‘ kislotasi.


Lipid radikali (L^*) muhitda erigan molekulyar kislород bilan reaksiyaga kirishadi, bunda lipoperoksid radikali (LOO^*) hosil bo‘ladi:




Ushbu radikal qo‘shni fosfolipid molekulalaridan birini lipid gidroperoksidi (LOOH) va yangi lipid radikali – L^* ning hosil bo‘lishigacha hujum qiladi:



Lipidlarning peroksidatsiyasini sezilarli tezlashishi ikki valentli temir ionlarining uncha katta bo‘lmagan miqdori ishtirokida kuzatiladi. Bunday holatlarda, Fe^{2+} ni lipidlar gidroperoksidi bilan o‘zaro ta’siri natijasida, zanjirning tarmoqlanishi yuzaga keladi:



Hosil bo‘lgan LO^* radikali lipidlarning oksidlanishini yangi zanjirini initsiirlaydi:



Lipidlarning erkin-radikal oksidlanish reaksiyasini zanjir mexanizmi bo‘yicha ketadi, ya’ni oksidlanish zanjiri miqdorining ortishi (tarmoqlanishi) hisobiga jarayonni ko‘chki sifatida kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Lipidlarning peroksidlanish reaksiyasini 4 bosqichi ajratiladi: zanjirning initsirlanishi, zanjirni davom etishi, tarmoqlanish va zanjirni uzilishi.


To‘yinmagan yog‘ kislotalarini erkin radikallarga nisbatan yuqori ta’sirchanlikda bo‘lishi ularning tarkibida ikkilamchi bog‘larning mavjudligi bilan bog‘liqdir. Yog‘ kislotalari molekulasidagi C-H nisbatan α -uglerod atomida eng kam miqdorda bo‘ladi. Shu asosda α -uglerod atomida eng kam miqdorda bo‘ladi. Shu asosda yug‘ kislotalari tarkibida ikkilamchi bog‘larni ortishi bilan yog‘ kislotalarining peroksidlanishining ortishi tushuntiriladi. Barcha polito‘yinmagan yog‘ kislotalarida (linol, linolen, araxidon, eykozo-

pentaen va boshqalar) mavjud bo‘lgan divinilmelan tuzilma vodorod atomini ajralish reaksiyasiga oson kirishadi, bu esa yetarli darajada turg‘un erkin radikallarning hosil bo‘lishiga, kislorod ishtirokida esa — radikal zanjirlarini initsirlanishiga, ya’ni autooksidlanishni odatiy reaksiyasini ketishiga olib keladi. Jarayonning birinchi bosqichida gidroksil radikal polito‘yinmagan yog‘ kislotalarining (LH)-CH=CH-guruhlari orasida joylashgan -CH- guruhlardan protonni siqib chiqaradi. Bunda polito‘yinmagan yog‘ kislotalarining molekulalari yog‘ kislotalarining alkil radikaliga (L*) aylanadi, molekulada ikkilamchi bog‘ni delokalizatsiyasi yuzaga keladi va ikkilamchi bog‘larni tutash tizimi paydo bo‘ladi.


Ikki ikkilamchi bog‘ni birga kelishi kuzatilgan molekulalar *dien konyugatlari* deb nomlanadi:



Dien konyugatlardan ularga keyinchalik gidroksil radikallarini ta’sir etishi natijasida membrana lipidlarining yog‘ kislotalari gidroperoksidi — ROOH (LOOH) hosil bo‘ladi, ular membranani gidrofob qavatida gidrofil “teshik”ning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Lipoperoksid radikallari disproporsiyalanish reaksiyasida o‘zaro bir biriga ta’sir etishi mumkin. Radikallarning LO₂* disproporsiyalanish reaksiyasi shunisi bilan qiziqliki, u o‘zidan yorug‘lik ajratishi — xemilyuminessensiya bilan birga kuzatiladi:



Zanjirning uzilishi, shuningdek, tizimda erkin radikallarni «tutib qoluvchilari» — lipidlarning erkin-radikal oksidlanishining ingibitorlari (InN) mavjudligida ham yuzaga keladi:




Radikallarni tutib qoluvchi molekulalar qatoriga E vitamini, ayollar jinsiy gormonlari, ubixinon va ko‘plab boshqa birikmalar

kiradi. Ushbu birikma radikallari (In* — ingibitor radikallari) yog‘ kislotalari molekulasidan vodorod atomini uzib olish uchun yetarli darajada faol emas va shu sababli oksidlanishning yangi zanjirlarini initsirlamaydi. Antioksidantlarning reaksiyada hosil bo‘lgan radikallari (In*), odatda, zaharli emas va tezda yo‘qoladi, masalan, bir biri bilan o‘zaro ta’sirlanishi natijasida:



Ayrim paytlarda antioksidant ta’sirga o‘zgaruvchan valentlikka ega metall ionlari, jumladan Fe²⁺ ionlari ham ega bo‘ladi. Ular shuningdek quyidagi reaksiyalardan birida erkin radikallarni ushlab qolish qobiliyatiga ega:



Peroksidlanish reaksiyalarining tezligi reaksiyaning asosiy ishtirokchilari – erkin radikallar, gidroperoksidlar, temir ionlari nisbati bilan belgilanadi. Yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo‘lgan aldegid guruhlari joylashgan qirralarda peroksid radikallari bo‘laklarga bo‘linib ketadi. Agarda uzilish ikki tomonlama sodir bo‘lgan bo‘lsa, bunday holatlarda malon dialdegidi (O=CH-CH₂-CH=O) hosil bo‘ladi.

Shunday ma’lumotlar borki, turli yog‘ kislotalarining peroksidlanish tezligi yog‘lar peroksidlanishi rivojlanishining alohida yo‘llarida turli nisbatlarda kechishi va turli mahsulotlarni hosil qilishi mumkin. Masalan, araxidon kislotalaning katta qismi malon dialdegidigacha oksidlanishi mumkin, linolen kislotalaning peroksidlanish mahsuloti bo‘lib, asosan, 4-gidroksi-2-nonenal hisoblanadi. Yog‘larning peroksidlanishining karbonil mahsulotlari ularning inaktivatsiyasini chaqirgan holda, nuklein kislotalari va boshqa oqsillar (shu jumladan, antioksidant tizim fermentlari) bilan adduktлarni (ikki

karbonil mahsulotlarini zararsizlantirilishi sitozolda amalga oshiriladi, konyugirlangan dienlar, trienlar va lipid radikallarining rekombinatsiya mahsulotlari, fikrimizcha qayta foydalanilmaydi. balki hujayralarda lipofussin granulalari ko'rnishida oksidlangan oqsillar bilan birgalikda to'planadi. Atsilgidroperoksidlar spetsifikligi past glutationperoksidazalar ishtirokida parchalanadi, MDA to'qimalarda spetsifikligi past aldegiddegidrogenazalar, shuningdek glyukozo-6-fosfatdegidrogenazalar va alkogoldegidrogenazalar ta'siri ostida CO₂ va atsetatgacha parchalanadi.

12.3. Antioksidantlar

Antioksidantlarning eng keng qo'llaniladigan tasnifida ularni birlamchi (oksidlanishning uziluvchi zanjiri) va ikkilamchi (yangi zanjirlar initsiatsiyasining oldini oluvchi) turlarga bo'linadi. Antioksidant ta'sir mexanizmi erkin radikallarni chetlashtirish, gidroperoksidlarni buzish, o'zgaruvchan valentlikka esa metall ionlarini bog'lab olishdan iborat. Qoidaga ko'ra, amalda bir necha ta'sir mexanizmlarining birga kelishi o'z o'rniiga ega bo'lib, antioksidant samarasi shular bilan bog'liqidir.

O'zaro sinonim bo'limgan antiradikal va antioksidant faoliyatlarni ajratish qabul qilingan. *Individual antioksidantning antiradikal faolligi* (antiperoksidal faollik) — har bir antioksidant uchun doimiy bo'lgan xususiyat bo'lib, uning radikallarida biror bir qo'shimcha reaksiya bo'lmasa, peroksil radikallari bilan kechadigan reaksiyaning tezlik konstantasi k7 bilan tavsiflanadi. Peroksil radikallari miqdori lipidlarning erkin-radikal reaksiyalari tezligini belgilaydi. Bundan tashqari, peroksil radikallari bilan antioksidant fermentlari reaksiyaga kirishmaydi, ularni faqat oksidlanishning erkin radikal jarayonlari ingibitorlari faolsizlantirishi mumkin.

Organizmning antioksidant tizimi (AOT) oksidlanishli shikastlanishlarni bartaraf etadi va ularni tarqalishini nazorat qiladi, u shikastlangan molekulalarning reparatsiyasi, chiqarib yuborish va ularning o'rmini boshqa molekulalar bilan almashtirish mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Antioksidant tizimi fermentativ (superoksiddismutaza, katalaza, glutationperoksidaza, glutation-S-transferaza, seruloplazmin) va nofermentativ (tioredoksinlar, ubixinon, α -tokoferol va boshqalar) komponentlari ko'rnishida namoyon bo'ladi. Tabiiy (biologik) va sun'iy antioksidantlar mavjud. Bioantioksidantlarga α -tokoferol (eng kuchli antioksidant), ubixinon, bioflavonoidlar, steroid gormonlar, vitaminlar: A, K; β -karotin, askorbin kislotosi, oltingugurt saqlovchi birikmalar — sistein, glutation; tiroksin, shuningdek temirni biriktirib oluvchi oqsillar: seruloplazmin, gaptoglobin, gemopeksinlar kiradi. Sun'iy guruh antioksidantlariga dibunol, fenozanlar, oksipiridinlar kiradi.

Kimyoviy xususiyatiga bog'liq holda suvda eruvchi (gidrofil) va yog'da eruvchi (gidrofob) antioksidantlar farqlanadi. Yog'da eruvchi antioksidantlar (α -tokoferol, karotinoidlar) lipid qavatiga tushirilgan oqsillar va fosfolipidlar kabi biomembranalarning asosiy tuzilmaviy komponentlarini himoya qilishda yetakchi rol o'ynaydi. Suvda eruvchi antioksidantlar (tiol birikmalari, askorbin kislota), o'z navbatida suvli muhitda — hujayra sitoplazmasi yoki qon plazmasida u yerga tushgan erkin radikallarni faolsizlantirib, himoya ta'sirini namoyish etadi. Antioksidant xususiyatiga ega bo'lgan mikroelementlar qatoriga selen, rux, mis, magniy va kobalt kiradi. AOTning turli komponentlarini o'z vazifasini bajarishi chambarchas o'zaro aloqani tabab etadi. Antioksidant tizimning barcha komponentlarining summar ta'siri organizmnning summar antioksidlovchi faolligi degan nomni oldi.

Oksidlashga qarshi summar faollik qon plazmasi va organizmning alohida to'qimalariga xosdir. Uning namoyon bo'lish darajasiga bog'liq holda insonlardagi barcha a'zolarni 3 guruhga bo'lish mumkin. I guruh — fosfolipidlarning yuqori miqdori va antioksidantlarning yuqori konsentratsiyasini saqlagan to'qimalar. Bu guruhga asab to'qimalari: bosh miya po'stlog'i, miyacha, epifiz, gipofiz, ko'ruv do'mboqchasi, orqa miya, shuningdek o'pka kiradi. II guruh — fosfolipidlarning o'rtacha miqdorini va antioksidantlarning o'rtacha konsentratsiyasini saqlagan to'qimalar. Bu guruhga jigar, taloq,

buyraklar, me'da, qalqonsimon bez va prostata kiradi. III guruh — past antioksidant faollikka ega bo'lgan va past darajada fosfolipidlar saqlagan to'qimalar: teri osti yog' kletchatkasi, mushaklar, ayrisimon bez, me'da osti bezi kiradi.


Antioksidant himoya fermentlari. Superoksiddismutaza. SOD ikki superoksid radikallarni bir-biri bilan ta'sirlantirib, dismutatsiya reaksiyasini katalizlaydi va zaharli hisoblanadigan OO*ni kamroq zaharli vodorodperoksidiga aylantiradi. SOD faolligini 80 i% dan ortig'i sitozolda, qolgan 20 % esa organellalarda, asosan mitoxondriyalarda kuzatiladi. SODning faol markazi mis, rux va marginets saqlaydi, shu bilan bog'liq holda SODning 3 izoshakli ajratiladi. Fermentning rux-mis saqlovchi shakli ikki bir xil subbirlikdan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida sulfgidril ko'prikchali polipeptid zanjiri, bir sulfgidril guruhi va atsetillangan yakuniy aminokislota bo'ladi. Marginets saqlovchi SOD to'rt subbirlikdan tashkil topgan. Taxminlarga ko'ra, rux atomlari oqsil molekulasining stabilizatsiyasi uchun xizmat qiladi, mis atomlari esa navbat bilan bir superoksid radikali yordamida qaytarilib, bevosita katalizda ishtirok etadi. Rux, mis va marginetsga bog'liq bo'lgan SODning eng yuqori faolligi jigarda aniqlanadi. SOD faolligining keskin kamayishi kalamushlar jigarida gipoksiyaning rivojlanishi jarayonida qayd etiladi. Faollikning pasayishi substratning (superoksid-anion) ortiqchaligi oqibatida yuzaga keladigan ingibirlanish natijasi sifatida tushuntirilishi mumkin.

Superoksiddismutaza va boshqa bir qator reaksiyalar natijasida hosil bo'layotgan H_2O_2 konsentratsiyasi hujayralarda ortar ekan, u *katalaza* tomonidan zararsizlantirilishi zarur, chunki vodorod peroksidining oksidlovchilik xususiyati superoksid-anionlarnikidan kam emasdir, shuning uchun ham u hujayraga havf tug'diradi. Katalaza asosan peroksisomalar, shuningdek sitozol va mitoxondriyalarda saqlanadi. Fermentning o'ziga xosligi shundaki, u ham katalaza, ham peroksidaza faoligiga ega, hujayradagi bir qism H_2O_2 , glutationperoksidaza tomonidan parchalanadi. Katalaza huddi SOD kabi juda faol fermentlar qatoriga kiradi. U deyarli hech qanday aktivlanish energiyasini talab etmaydi va u tomonidan katalizlanadigan reaksiyalar tezligi N_2O_2 ning

diffuziyasi orqali belgilanadi. Katalazaning bir molekulasi 1 daqiqada H_2O_2 ning 44 000 molekulasini parchalash qobiliyatiga ega. Bir juft superoksiddismutaza va katalaza — bu juda kuchli antioksidlovchi tandem bo'lib, u erkin radikallar reaksiyasining ketish imkoniyatini nazariy jihatdan rad etadi.


Hujayra ichida kislороднинг орлиқ махсулотлар дарасини бoshqaruvida muhim rolni *glutation tizimi*: qaytarilgan glutation (G-SH), glutationperoksidaza (GP) va glutationreduktazalar (GR) o'ynaydi. Mazkur mustahкам тизим bevosita kislороднинг faol shakllarini zararsizlantiradi, yohud huddi organizmning ikkinchi himoya tizimi singari (mikrosomal fermentlar va SOD), birinchi tizim ishini to'g'rileydi va tugallaydi yoki uning xatolarini to'g'rileydi. Tiklangan glutation (G-SH) γ -glutamilsisteinilglitsin tripeptidi bo'lib hisoblanadi. U o'z tarkibida vodorod atomini parchalash qobiliyatiga ega bo'lgan faol SH-guruhi saqlaydi. G-SHning samarasi askorbat, tokoferol hamda KFShga nishon bo'lgan ba'zi hujayra oqsillarini qaytarishi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Glutationning SH-guruhlari oqsil molekulasiagi SH-guruhgaga nisbatan juda ham oson oksidlanadi va shu tariqa oqsillarni oksidlanish modifikatsiyasidan himoya qiladi. Shuningdek, glutation erkin radikallar bilan yuqori tezlikda reaksiyaga kirishadi va bunda kislород ishtirokida oksidlangan shaklga o'tadi.

Hujayralardagi kislороднинг konsentratsiyasi G-SH miqdori bilan monand ekan, peroksiradikallar doimo hosil bo'lib turadi. Bunday holatlarda G-SHning vazifasi, glutationperoksidaza bilan katalizlanadigan reaksiyalar natijasida hosil bo'ladigan peroksid birikmalarini inaktivlash hisoblanadi:



Glutationperoksidaza vodorod peroksi, to'yinmagan yog' kislоторларининг гидрооксиди, холестерин, кортикостероид гормонлари, пероксидланган ДНК, простагландинлар biosintezining орлиқ махсулотларини тиклаш qobiliyatiga ega. To'qimalarda GPning

biosintezi uning faol markaziga kiruvchi selenning mavjudligiga bog'liq. GPning uncha katta bo'lmanan faolligi jigarda aniqlangan. Bunda faollikning 70 %i fermentning sitozol fraksiyasiga, 28 %i — mitoxondriyaga, faqat—2% mikrosomal valizosomal faolikkato'g'ri keladi. Fermentning antioksidlovchi ta'sir mexanizmi asosida uning glutationga bo'lgan absolyut spetsifikligi va peroksidli substratlarga nisbatan spetsifiklikning yo'qligi yotadi. Qaytarilgan glutationni ba'zi ekzo- va endogen moddalar, jumladan membrana fosfolipidlarining to'yinmagan yog' kislotalari gidroperoksidlariga birikishi, glutation-S-transferaza tomonidan katalizlanishining natijasida ularning detoksikatsiyasi va keyinchalik organizmdan chiqarib yuborilishiga olib keladi. G-SHning oksidlanishida hosil bo'lgan glutationdisulfid hujayralarda qaytarilgan glutationga ($1\cdot10^{-4}$ - $50\cdot10^{-4}$ M) nisbatan juda kam ($6\cdot10^{-6}$ - $200\cdot10^{-6}$ M) konsentratsiyalarda mavjud bo'ladi, biroq uning konsentratsiyasini o'zgarishi ba'zi fiziologik jarayonlarni boshqarishi uchun katta to'siq bo'lishi mumkin. Shuning uchun glutationning glutationreduktaza tomonidan katalizlanadigan reaksiyasi natijasida uning uzlusiz qaytarilishi yuzaga keladi:




Glutationreduktaza (GR) molekulyar og'irligi 102000–250000 bo'lgan flavoproteid bo'lib hisoblanadi (qaysi a'zodan ajratib olinganligiga bog'liq holda). Ferment molekulasi har birida bittadan FAD saqlagan, molekulyar og'irligi 44000 va 60000 bo'lgan 2 subbirlikdan tashkil topgan. Enzimning faolligi organizmga oziq-ovqat mahsulotlari bilan riboflavin yetarli darajada tushmaganda pasayadi. GR glutationdisulfid muvozanatini ushlab turuvchi fermentlar zanjirining limitlovchi bo'g'ini bo'lmanligiga qaramasdan, uning *in vivo* tormozlanishi peroksidli birikmalarni inaktivlanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qaytarilgan glutation jigarda kechuvchi detoksikatsion mexanizmlarda muhim rol o'ynaydi, ularning eritrotsitlardagi miqdorining o'zgarishi patologik jarayonlar faolligini baholashda yuqori informativlikka ega bo'lib, farmakoterapiya samaradorligining mezoni bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Glutationdisulfidning qaytarilish reaksiyasining samaradorligi hosil bo'layotgan NADFning qaytarilish tezligiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. NADFning qaytarilishi uglevdolarning almashinuv yo'lidi pentozofosfat yo'li fermentlari tomonidan katalizlanuvchi reaksiyalar natijasida amalga oshadi. Pentozofosfat yo'lining NADFNning hosil bo'lishiga javobgar oksidlanishli reaksiyalarining tezligi glyukozo-6-fosfatdehidrogenaza (G-6-FDG) faolligi bilan limitlanadi, pentozofosfat sikli reaksiyalari esa umuman olganda glutationdisulfid muvozanatni ushlab turuvchi jarayonlar zanjirida limitlovchi bo'g'in bo'lib hisoblanadi. EROning jadallahishi hujayralarda nafaqat AOT fermentlarining faollahishiga, balki pentozofosfat yo'li fermentlarining ham faollahishiga olib keladi. AOTning turli komponentlarining normal funksiyasi hujayra metabolizmining boshqa tizimlari bilan chambarchas o'zaro bog'liqlikni talab etadi. Lipidlarning reparatsiya tizimini ishlashi uchun hujayrada doimiy ravishda koferment A bilan bog'langan yog' kislotalarining zaxirasi mavjud bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, tokoferollar regeneratsiyasining mikrosomal tizimlari ham muhim rol o'ynaydi.

Bioantioksidantlar. α -Tokoferol (vitamin E) — hujayra membranasida joylashgan o'ta muhim yog'da eruvchi antioksidantdir. α -tokoferol o'zaro tutash bo'lgan qo'sh bog'li fenol halqasini saqlaydi, shuning uchun u erkin radikallarga elektronlarini oson berib, ularni turg'un mahsulotlarga tiklaydi. Bunda hosil bo'lgan fenoksil-radikal o'z holicha o'ta turg'un bo'lib, zanjirni davom etish reaksiyalarida ishtirok etmaydi.

Boshqa antioksidantlar, oldida, E vitaminining afzalligi shundaki, u o'ta yuqori darajadagi antioksidant ta'sirga egadir. α -Tokoferolning ta'sir samaradorligi uning ikki xususiyati asosida yuzaga keladi. Birinchidan uning erkin radikallar bilan bevosita o'zaro ta'sirlashish qobiliyati hisobiga antiradikal faollik yuqoridir. Ikkinchidan ushbu vitamin membrana lipidlaridagi polito'yinmagan yog' kislotalari bilan mustahkam kompleks hosil qilib, membranadagi lipid biqatlamini turg'unlashtiradi. α -Tokoferolning erkin radikallar bilan o'zaro ta'siri tenglamasi bilan amalga oshiriladi,



bu yerda vitamin E (In) vodorodning donori sifatida ishtirok etadi. Ushbu reaksiyaning tezlik konstantasi $10^6 \text{ l/mol}\cdot\text{s}$ tartibiga ega bo'lib, u boshqa antioksidantlarga nisbatan 1–2 tartib yuqorida turadi. Bu tokoferollarga yog'larning peroksidlanish jarayonlarini boshqarish imkonini beradi, chunki ularning hatto juda oz miqdori ham, peroksid radikallari bilan bog'lanish darajasining yuqoriligi natijasida, oksidlanish tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

α -Tokoferol singlet kislород билан 2 yo'l orqali ta'sirlashadi: fizik (so'ndirish) va kimyoviy – o'ta noturg'un gidroperoksidanionning hosil bo'lishi. Singlet kislородning α -tokoferol tomonidan so'ndirilishi dominant jarayon bo'lib hisoblanadi. Superoksid-radikal bilan o'zaro ta'sir xromanoksil radikallarning hosil bo'lishiga olib keladi. Kislородning faol shakllari bilan α -tokoferolning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan xinon strukturali mahsulotlar elektron-transport zanjiri (ETZ) komponentlaridagi ortiqcha elektronlarni biriktirib olishi mumkin. Bu holatda tokoferolning ingibirlovchi ta'siri uning kislородning faol shakllari generatorlari — ETZga raqobati natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Maksimal antiradikal faoliyka ega bo'lgan tokoferollar ko'pincha, hosil bo'layotgan xromanoksil radikallarining yuqori reaksiyon qobiliyatni natijasida, past antioksidantlik xususiyatiga ega bo'ladi. Biroq tizimda xromanoksil radikallarini reaksiya muhitidan chiqarib yuborish qobiliyatiga ega bo'lgan moddalar mavjud bo'lsa yoki tokoferollarning oksidlangan shakllari tiklansa, antioksidant faollikning ortishi kuzatiladi. Masalan, askorbin yoki limon kislota ishtirokida xromanoksil radikallar boshlang'ich holatgacha tiklanadi, bu ularning turg'un darajasini ushlab turadi, oqsillarga shikastlantiruvchi ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan zaharli tokoferilxinonning hosil bo'lishining oldini oladi. Keyinchalik oksidlangan askorbin yoki limon kislotosi oksidlangan glutation ta'siri ostida qaytariladi, ammo qaytarilgan NADFN ishtirokida glutationreduktazalar ta'siri ostida zudlik bilan regeneratsiyaga uchraydi. Regeneratsiya

sikllarining bunday tizimlari tokoferil radikalining nojo'ya reaksiyalarini istisno qilgani holda, α -tokoferolning nafaqat yuqori antiradikal, balki antioksidant faolligini ham ta'minlaydi. Tokoferil-radikal va tokoferilxinonlarning tokoferol hamda tokotrienollarga regeneratsiyasi shuningdek bioflavonoidlar, glutation, qaytarilgan lipoat kislotosi, ubixinon, letsitin va boshqa fosfolipidlar, karnozin, anserin, β -karotin, K vitaminlari ishtirokida kechadi. Ko'rsatilgan qaytaruvchilar bilan E vitaminining qo'llanilishi yaqqol namoyon bo'lgan ta'sir sinergizmiga egadir.

E vitaminining ta'siri ostida membrana bilipid qavatining turg'unligi, uning fitil yon zanjiri bilan yog' kislotalari o'rtasidagi spetsifik fizik-kimyoviy o'zaro ta'sir hisobiga erishiladi. Bunday o'zaro ta'sir natijasida membranalar lipid matriksining suyuq kristall strukturasi tartiblashishi va uglevodorod zanjirlarini yanada zichroq joylashishi yuzaga keladi, bu esa membranalarning hidrofob qismidagi mikroqovushqoqligini o'zgarishiga olib keladi. E vitamini yetishmaslik holatlarida membranalarning mikroqovushqoqligi pasayadi.

α -Tokoferol kiritilganda ma'lum substratlar uchun hujayra membranasining o'tkazuvchanligida o'zgarishlar yuzaga keladi, buning natijasida hujayraning oksidlanish-qaytarilish imkoniyatlari ham o'zgaradi. Demak, E vitamini ta'siri ostida NADFN miqdori ortadi va NADF/NADFN va NAD⁺/NADN nisbati kamayadi. Bu NAD⁺/NADN nisbatini boshqaruvchi glutamatdehidrogenazalar, ALT, AST, shuningdek, NADFN sintezini katalizlovchi NAD-kinazalarning faollahishini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ye vitamini, asosiy vazifasi hujayralarni N⁺ i ye' lardan «ozod qilish» bo'lgan, ubixinonga bog'liq fermentlar sintezini stimullaydi. α -Tokoferolning yetishmasligida N⁺ i ye' larning hosil bo'lishini kuchayishi fonida glikoliz fermentlari faolligini ortishi bilan kuzatiladi, bu morfologik jihatdan sarkoplazmatik retikulumning qisqarishi fonida mitoxondriyalarning giperstrofiyasi bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Bulardan tashqari, bu holatda hujayra membranalarining mikroqovushqoqligini kamayishi va yog'larning peroksidlanishining faollahishi kuzatilib, bu metabolik jarayonlar dezintegratsiyasiga

olib keladi. ye vitaminining membranotrop ta'siri nafaqat membrana fosfolipidlarining zaruriy zichligini saqlaydi, kislorodning atsil zanjirlarga kirib borishini chegaralaydi, peroksid radikallarining hosil bo'lishiga qarshilik qiladi, balki biomembranalarda antioksidant vazifani bajarish uchun sharoitlarni ham ta'minlab beradi. ye vitaminini antioksidant sifatida boshqa komponentlar bilan yanada samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, barcha biologik membranalarda joylashgan α -tokoferol o'zining lipofilligi sababli, lipidlarning antioksidlovchi faolligiga ham, ularning strukturaviy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. α -Tokoferolning gomeostazni ushlab turuvchi mexanizm sifatida qabul qilingan apoptoz jarayonlariga ingibirlovchi ta'siri qayd etilgan. α -Tokoferolning hujayra immunitetini amalga oshirishdag'i, kanserogenez jarayonlaridagi ishtiroki o'rganilmoqda. Uning noantioksidant xususiyatlari to'g'risidagi masalalar yanada ko'proq muhokama qilinmoqda: α -tokoferol va uning tokoferol-saqlovchi oqsillar bilan kompleksining huddi steroid gormonlari ta'siri kabi izolyatsiyalangan yadro va yadro ichi strukturalarida RNK sintezida ishtiroki ko'rsatilgan. α -Tokoferollarning araxidon kislotlari almashinushi, prostaglandin va leykotrienlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan fermentlar faolligiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati aniqlangan. E va C vitaminlarining birga kelishi askorbin kislota uchun — biomembranaga yaqin bo'lgan suvli muhitda, tokoferol uchun esa — membrana biqavatida hujayralarni additiv mexanizm bo'yicha himoyasini amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu kompleksni allo- va autoantigen tolerantlikka bo'lgan ijobiylar ta'siri ko'rsatilgan. Shuningdek, "vitamin E – vitamin C – selen", "vitamin E – vitamin A – selen" kabi uchlamchi va "ubixinon – vitamin E – vitamin A – bioflavanoidlar" kabi yanada murakkab tizimlarda sinergizm kuzatiladi.

Bioflavanoidlar — turli o'simliklarning suvli ekstraktlarida saqlanuvchi, polifenollarning katta guruhidir. Ba'zi bioflavanoidlar gidroksil-radikallar qopqoni sifatida ta'sir ko'rsatadi (katexin, epikatexin, rutin). Boshqalari (kversetin) gidroksil miqdorini

kamaytirmaydi, ammo superoksidanion-radikal (SOD-simon faollik) mahsulotini ingibirlaydi. Uchinchilari (morin) gidroksilga ham, superoksidanion-radikalga ham ta'sir etmaydi, biroq, shunga qaramasdan yuqori antioksidant faollikni namoyon etadi.

Karotinoidlar — qizil va zarg'aldoq rangli o'simlik pigmentlari. Yog'da eruvchi antioksidantlarga kiradi. Ular ichida hammaga ma'lum bo'lgani β -karotin bo'lib, u A vitaminining o'tmishdoshi bo'lib hisoblanadi. Barcha karotinoidlar u yoki bu darajada singlet kislorod uchun qopqon bo'lib hisoblanadi. Karotinoidlar qizil va zarg'aldoq rangli ho'l mevalar tarkibida, sabzavotlarda, shuningdek ularning yog'li ekstraktlari va ba'zi moylar tarkibida saqlanadi. Karotinoidlarga eng boy mahsulotlar – namatak va chakanda moylari hisoblanadi.

Ubixinon (koenzim Q10) — fenol, kimyoiy strukturasiga ko'ra tokoferollarga yaqin. Membranalarda ubixinonning yuqori konsentratsiyalarda ishtirok etishi uning antiradikal va antioksidant ta'sirini ta'minlaydi, chunki ubixinon radikallar bilan to'g'ridan to'g'ri reaksiyaga kirishadi va tokoferolning qayta tiklanishida ishtirok etadi. Ubixinon E vitaminiga nisbatan besh marta yuqori bo'lgan antioksidant faoliyka egadir. Mitokondriyalarda ubixinonning yuqori miqdorda saqlanishi, ularni nafas zanjirida hosil bo'luvchi KFSHdan himoyasini ta'minlaydi. Ko'rsatilganki, koenzim Q10 xususiy mutagen ta'sirga ega emas, sitogenetik ta'sirlari erkin radikal oksidlanish jarayonlariga bog'liq bo'lgan bir qator mutagen-ksenobiotiklar ta'sirini potensirlamaydi. Koenzim Q10ning antimutagen faolligi keng ko'lamdag'i konsentratsiyalarda namoyon bo'ladi, mazkur antioksidant uchun himoya ta'sir inversiyasi imkoniyatlari mavjud emas, bu esa boshqa antioksidantlarga nisbatan uning ustunligini ko'rsatadi.

Porfirinlar — bilirubinning antioksidantlik xususiyati uning kompleks hosil qilishi bilan belgilanadi. Hosil bo'lgan kompleks o'zgaruvchan valentlikdagi metall kationlari bog'lab olish hamda protonlar donorligi hisobiga metallarga bog'liq erkin radikal oksidlanish reaksiyalarini ingibirlaydi.

Seruloplazmin — qon plazmasi oqsili bo'lib (α -globulin fraksiyaning glikoproteini), organizmda bir qator muhim biologik vazifalarni bajaradi: hujayralar membranasi turg'unligini oshiradi, immunologik reaksiyalar, ion almashinuvda ishtirok etadi, antioksidant ta'sir ko'rsatadi, gemopoezni stimullaydi.

Antioksidant ta'sirga ega **mikroelementlar** – selen, rux, mis, magniy va kobalt kabi vakillar bilan ifodalanadi. Selen antioksidant tizimda nihoyatda katta ahamiyatga ega, chunki u glutationperoksidazalarning faol markaziga kiradi va glutationning biosintezida ishtirok etadi. Selenoaminokislotlar – selenmetionin, selensistein radioprotektor ta'sirga ega bo'lib, u ionlashtiruvchi radiatsiya ta'siri ostida yuzaga keluvchi hamda fermentlar va aminokislotalarning faolligi va xususiyatlarini buzuvchi, erkin radikallar sonini kamaytiradi. Nurlanishdan oldin organizmga kiritilgan selen boshqarilmaydigan oksidlanish reaksiyalarini zanjirini uzishi hisobiga lizosomalarning buzilishi va ulardan proteolitik fermentlarning oqib chiqishini oldini oladi. Organizmdagi selennenning eng asosiy biokimyoviy vazifalari orasida quyidagilar ajratiladi:

1) α -ketoglutar kislota oksidazalari tizimi faoliyatini amalga cshirishda ishtirok etish;

2) nospetsifik fosfatazalar va ATP-azalar faoligiga ta'sir etish yo'li bilan fosforillanish jarayonlari bilan aloqasi;

3) antioksidant faollik.

Cksidlanuvchi stress muammolarini chuqr tushinish antioksidant chor vositalarini keng ko'lamma ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Sun'iy antioksidantlar. **Ionol** (2,6-ditretbutil-4-metilfenol, butilgidroksitolol, cibunol) yog'da eruvchi, himoyalangan fenol bo'lib hisoblanadi. Uning oksidlangan shakli ikki yonbosh uchbutil guruhi bilan turg'unlashgan radikal bo'lib hisoblanadi va shuning uchun tokoferollarga nisbatan turg'unroqdir. Ionol a'zolarning o'tkir ishemik shikastlanishlarini oldini olish uchun va ishemiyadan keyingi buzilishlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Uteri va shilliq qavatlarni nur va trofik shikastlanishlarining davolashda yuqori samarali,

dermatoz bilan og'rigan bemorlarni davolashda muvaffaqiyatli qo'llaniladi, me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralarining tez bitishiga yordam beradi. 20–50 mg/kg dozada uning antiishemik, antigipoksik hamda angioprotektor ta'siri yaqqol namoyon bo'lishi ko'rsatilgan.

Probukol. Ushbu ekranlashtirilgan fenolning ta'sir mexanizmi zichligi past lipoproteinlarni peroksidlanishning tormozlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu ushbu lipoproteinlarning aterogenligini sezilarli darajada pasaytiradi. Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda probukolning antiaterogenlik ta'siri ko'rsatilgan.

Olifen. Mazkur preparat fenolli so'nggi avlod antioksidanti bo'lib hisoblanadi. Uning molekulasida ko'plab sondagi KFSHni bog'lab olish imkonini beruvchi, 10 dan ortiq fenolli gidroksil guruuhlar mavjud. Preparat yaqqol namoyon bo'lgan membranoprotektor ta'siri hisobiga, organizmda almashinuv jarayonlari va mikrotsirkulyasiyani, jumladan miya to'qimalarda faollashtirgan holda, uzoq davom etadigan antioksidant ta'sirga ega.

Fenozanlar (4-gidroksi-3,5-ditretbutilfenilpropion kislotanining K⁺ yoki Li⁺li tuzlari) Rossiya Fanlar akademiyasi Kimyoviy fizika institutida sintezlangan bo'lib, ionolning suvda eruvchi holsilasi bo'lib hisoblanadi. Kaliyli fenozan — fazoviy ekranlashtirilgan fenol bo'lib, membranalar strukturasi va funksiyasiga ta'sir etuvchi kuchli antioksidant.

12.4. Biomolekulalar peroksidatsiya mahsulotlarining zaharli ta'siri

Kislород ва azotning faol shakllarining ortiqcha generatsiyasi oksidlanuvchi stressni (OS) — ya'ni biomolekulalarni (oqsillar, lipidlar, nuklein kislotalar, uglevodlarni) oksidlanishli shikastlanishini chaqiradi. Oksidlanuvchi stress doim hujayralarda, hujayralararo bo'shliqda va qonda zaharli moddalar — biomolekulalarning oksidlanishli degradatsiya mahsulotlari miqdorining ortishi hisobiga zaharlanishning rivojlanishi bilan birga kuzatiladi. OSda quyidagi zaharlanishning rivojlanishi bilan birga kuzatiladi. OSda quyidagi zaharli moddalarning to'planishi yuzaga keladi: lipidlarning

atsilgidropoperoksidi (birlamchi mahsulotlar), oksidlangan fosfolipidlar, malon dialdegidi, 4-gidroksi-2-nonenal (omega-6 yog‘ kislotaning oksidlanish mahsulotlari), 4-gidroksi-2-geksenal (omega-3 yog‘ kislotaning oksidlanish mahsulotlari), akrolein, fosfatidilxolin aldegidi (1-palmitoil-2-(9-oksononanoil)-fosfatidilxolin), fosfolipidlar gidropoperoksidlari, trien konyugatlar, shiff asoslari. Ularning barchasi yuqori tezlikda membranalar orqali o‘tish va shikastlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega. Trien konyugatlar, shiff asoslari va lipid radikallarining rekombinatsiya mahsulotlari hujayralarda lipofussin pigmenti ko‘rinishida to‘planish qobiliyatiga ega.

1-palmitoil-2-(9-oksononanoil)-fosfatidilxolining hosil bo‘lishi metgemoglobin, sitoxrom s kabi gemoproteinlar ishtirokida lipooksigenazalar ta’siri ostida yuzaga keladi. Bunda gemoproteinlar fosfatidilxolining nonenal va aldegidlarining hosil bo‘lishida ham, parchalanishida ham ishtirok etadi.

Hozirgi vaqtida KFSH ta’siri ostida oqsillarning shikastlanishida bir qator oksidlanish mahsulotlari — uzoq yashovchi oqsil radikallarining (UYaOR) hosil bo‘lishi to‘g‘risida guvohlik beruvchi ma‘lumotlar olingan: ularning yarim yashash davri 20 soatdan ortiqni tashkil etib, ular *in vitro* sharoitida suvli muhitda KFSHni uzoq vaqt davomida generatsiyalay oladi. UYaORning mavjud bo‘lishi oksidlanuvchi stressini uzoq vaqt davom etishiga hamda *in vivo* sharoitida sichqon va kalamushlar iligining polixromatosif eritrotsitlarida mikroyadrolarni hosil qilgan holda DNKnинг shikastlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, KFSH uglevodlarni, xususan glyukozadan aldegidlarni, ya’ni tuzilishiga ko‘ra malon dialdegidi va 4-gidroksi-2-alkenalga o‘xshash bo‘lgan glioksal, metilglioksal, glyukozonlarni hosil qilgan holda, modifikatsiyalash qobiliyatiga ega. Glyukozaning avto-oksidlanishida superoksid-radikalning hosil bo‘lishi aniqlangan.

Yog‘ kislotalari lipoperoksidatsiyasining klassik mahsuloti bo‘lib, MDA hisoblanadi. MDAning zaharliligi uning quyidagi xususiyatlari bilan bog‘liqidir. MDA nuklein kislota molekulalari — purin asoslari bilan o‘zaro ta’sirlanib, turli adduktлари, xususan pirimidino-1,2- α -purin-10(3N) — deoksiribozalar (M1G) hosil bo‘lishini indutsirlaydi.

Mazkur havfli metabolit mikroblar va tirik hujayralarda kodonlar ramkasini siljishi bilan mutatsiyalar chaqirish qobiliyatiga ega. MDA M1G, M1A, M1S adduktlarining hosil qilish bilan DNK tarkibidagi G, A, S asoslар bilan reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega, bunda 10^6 nukleozidga 1,2 addukt, ya’ni 1 hujayrraga 6000 addukt to‘g‘ri keladi. DNK tarkibida lipoperoksidatsiya natijasida to‘planadigan, akrolein va krotondialdegidning DNK bilan reaksiyasi natijasida hosil bo‘luvchi gidroksipropan-deoksiguanozinni aniqlash mumkin. MDAni DNK bilan oqsilni (DNK va gistonlar o‘rtasida) o‘zaro bog‘lab qo‘yish va “DNK-oqsil” birlashmalarining hosil bo‘lishini initsirlash qobiliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, bunda MDA dastlab oqsil bilan bog‘lanadi. MDA *in vitro* sharoitida ϵ -N-2-propenal-lizinni hosil qilish bilan birlamchi aminlar hosil qiladi va lizin-lizin ko‘prikchalarining to‘planishiga olib kelishi mumkin. Ushbu reaksiya oksidlangan lipoproteinlarning apo-B-fraksiyalarida kuzatiladi va ularning aterogenligida ahamiyatga ega bo‘ladi.

MDA molekulaichi choklarini hosil qilib, kollagen bilan o‘zaro ta’sirlashadi, bu esa tomir devori kollagenining strukturasini buzadi.

Gidroksinonenalning zaharliligi shundan iboratki, u sisteining sulfgidril guruhi, gistiдинning imidazol halqasi, lizinning ϵ -amino-guruhi bilan o‘zaro ta’sirlashib, funksiyasida buzilishlar bo‘lgan kovalent modifikatsiyalangan oqsillarni hosil qiladi. Gidroksinonenal birlamchi aminlar va sulfgidril guruhrilar bilan o‘zaro ta’sirlanib, oq-sillarni, jumladan integral membrana oqsillarini kovalent modifikatsiyalaydi. Mitochondriyalarni 4-gidroksi-2-nonenal bilan inkubatsiyasi nafas zanjirining 3-kompleksida nafas jadallagini tezda pasayishiga olib keladi.

Vodorod peroksidning zaharliligi shundan iboratki, u oksidlovchi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, u ham yadro, ham mitochondrial genlarining, jumladan mitochondrialar biogenezini, mitochondrial genomning transkripsiya va replikatsiyasining faollashtirilishiga jalb qilingan. Bir qator fermentativ komplekslarni kodlovchi mitochondrial qilingan. Yadro DNKsi tarkibiga mitochondriya DNKsi fragmentlarini kiritilishi — onkogenez mexanizmlarining biri bo‘lishi mumkin.

12. 5. Kasalliklar patogenezida oksidlanuvchi stress

Patogenetik ahamiyatli bo'lgan oksidlanuvchi stress bir qator kasalliklarda aniqlangan. Ular orasida yurak-qon tomir tizimi kasalliklari (ateroskleroz, ishemiya/reperfuziya; restenoz va gipertenziya); havfli o'smalar va yallig'lanish kasalliklari (o'tkir nafas yetishmovchiligi sindromi, astma; ichak, ko'z va terining yallig'lanish kasalliklari, artritlar); metabolik kasalliklar (qandli diabet); markaziy asab tizim patologiyalari (yonbosh amiotrofik skleroz, Alsgeymeyr kasalligi, Parkinsonizm, insult, miyaning surunkali ishemiyasi); glomerulonefrit, endotoksikozlar, immun tizimining buzilishlari, katarakta, ko'z to'r pardasining degenerativ shikastlanishi, havfli o'smalar, qarishni chaqirishi mumkin.

Oksidlanuvchi stress mikrobl shikastlanish, yallig'lanish, gipoksiya, shuningdek bir qator keyinga surib bo'lmaydigan holatlar: sepsis, o'tkir respirator distress sindrom, DVS, poliorgan yetishmovchilik sindromi patogenezining asosini tashkil etadi.

Organizmdagi oksidlanuvchi stressning jadalligi quyidagi mezonlar bo'yicha baholanishi mumkin:

- 1) DNKnинг oksidlanish darajasi (8-gidroksi-2-dezoksiguanozin);
- 2) Antioksidant fermentlar — superoksiddismutaza, katalaza, glutationperoksidazalar faollik darajasi.
- 3) Past molekulyar antioksidantlar — siyidik kislota, glutation, flavonoidlar, katexinlar, C, E vitaminlari, β -karotin.
- 4) Tiobarbitur kislotosi bilan ta'sirlanuvchi mahsulotlar miqdori bo'yicha, uning klassik vakili bo'lib MDA hisoblanadi;
- 5) Oqsillardagi modifikatsiyalangan tirozin qoldiqlarining miqdori bo'yicha.


Oksidlanuvchi stress biomarkerlarining aniqlanishi OS og'irligini tashxislash va patogenezida OS ahamiyatli bo'lgan kasalliklarni davolash samaradorligini monitoringida zarurdir.

13-bob.

MUSHAKLAR BIOKIMYOSI

13.1. Mushaklarning kimyoviy tarkibi

Muskullar yoki mushaklar — tayanch-harakat sistemasining suyaklar bilan birligida qismi bo'lib, ular qisqarish qobiliyatiga egadir. Ular turli harakatlar — tana harakati, tananing ma'lum holatini saqlash, ovoz boylamlarining qisqarishi, nafas olish va boshqalar uchun mo'ljallangan. Muskullar egiluvchan, elastik mushak to'qimasidan iborat bo'lib, ular o'z navbatida miotsitlar (mushak hujayralari)dan tashkil topgan. Muskullar nerv impulsleri ta'sirida qisqarishi mumkin (13.1-rasm).



13.1-rasm. Mushak tolasining harakatlantiruvchi neyron bilan bog'lanishi

Mushaklar uchun charchoq xos bo'lib, bu tinmay ishlaydi yoki ularning zo'riqishlarida kuzatiladi.

Muskullar tana qismlariga fazodagi holatini o'zgartirishga imkon beradi. Insonlar har qanday harakat — ko'z qovoqlari harakati yoki tabassum kabi eng oddiy harakatlardan, to zargar yoki sportchilarda kuzatiladigan nozik va baquvvat harakatlarni, mushak to'qimalarining qisqarishi orqali amalga oshira oladilar. Faqat tananing harakatlanishi emas, balki barcha fiziologik jarayonlarning ishlashi ham mushaklarning yaxshi ishlashiga bog'liq. Barcha

mushak to‘qimalarining ishi bosh va orqa miya bilan bog‘lanishini ta‘minlaydigan va kimyoviy energiyaning mexanik energiyaga aylanishini tartibga soluvchi asab tizimi tomonidan nazorat qilinadi.

Mushaklarning kimyoviy tarkibi odam yoinki hayvonturiga, yoshga, tana tuzilishi tipiga, funksional holati va boshqa bir qator omillarga bog‘liq. Inson va hayvonlarning ko‘ndalang targ‘il mushaklarini tashkil etuvchi asosiy moddalar 13.1-jadvalda keltirilgan.

13.1-jadval

Ko‘ndalang targ‘il mushaklarning tarkibi

Moddalar	Ho‘l massaga nisbatan %
Suv	72 – 80
Qattiq moddalar	20 – 28
<i>Shu jumladan:</i>	
Oqsillar	16,5 – 20,9
Glikogen	0,3 – 3,0
Fosfatidlar	0,4 – 1,0
Xolesterin	0,06 – 0,2
Kreatin + kreatinfosfat	0,2 – 0,55
Kreatinin	0,003 – 0,005
ATF	0,25 – 0,4
Karnozin	0,2 – 0,3
Karnitin	0,02 – 0,05
Anzerin	0,09 – 0,15
Erkin aminokislotalar	0,1 – 0,7
Sut kislotasi	0,01 – 0,02
Kul	1,0 – 1,5

Mushak massasining taxminan 75 foizini suv tashkil etadi. Quruq moddalarning asosiy miqdori oqsillarga to‘g‘ri keladi. Mushak oqsillari, odatda, suvda yoki tuzli muhitda eruvchanligiga qarab ajratiladi. Mushak oqsillarining 3 asosiy guruhi mavjud: sarkoplazmik (umumiy oqsil miqdorining 35 %), miofibrilla (45 %) va stroma


oqsillari (20 %). Miofibrillyar oqsillarga (qisqaruvchi) – miozin, aktin va ularning kompleksi – aktomiozin, tropomiozin va kichik oqsillar (α - va β - aktininlar, troponin va b.) kiradi. Sarkoplazmik oqsillarga X globulinlar, miogenlar, nafas olish pigmentlari, jumladan mioglobin, nukleoproteinlar va mushaklardagi metabolik jarayonlarda ishtirok etadigan fermentlar kiradi.

Boshqa birikmalardan muhimlari – moddalar almashinuvida ishtirok etadigan va mushaklarning qisqarish funksiyasini amalga oshirishda qatnashuvchi ATF, fosfokreatin, karnozin, anzerin va b.; hujayra mikrostrukturasining shakllanishida va metabolik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydigan fosfolipidlar; azotsiz moddalar: glikogen va uning parchalanish mahsulotlari (glyukoza, sut kislotasi va b.), neytral yog‘lar, xolesterin va b.; mineral moddalar – K^+ , Na^+ , Ca^{2+} , Mg^{2+} tuzlardir. Silliq mushaklar ko‘ndalang targ‘il mushaklardan kimyoviy tarkibiga ko‘ra sezilarli darajada farq qiladi (qisqaruvchi oqsil – aktomiozin, makroergik birikmalar, dipeptidlari va b. miqdorining kamligi bilan). Mushaklar paydan tashkil topgan bosh, mushak tolalaridan tashkil topgan tana va pay deb ataluvchi dum qismlaridan iborat. Odatda, mushak ikki yoki undan ortiq suyaklarga birikadi, bu esa ushbu bo‘g‘indagi har xil qisqarishlarni ta‘minlab beradi.

13.2. Mushaklarning tuzilishi

Mushak tolesi – mushaklarning struktur birligi hisoblanadi. Mushak tolasining uch turi ma’lum: tez qisqaruvchiruvchi oq, oraliq va sekin qisqaruvchi tolalar. Biokimyoviy jihatdan ular qisqarishning energiya ta‘minoti mexanizmlariga ko‘ra farqlanadi. Ular turli xil motoneyronlar tomonidan innervatsiyalanadi va bu ularni talabga qarab turli vaqtarda ishlashiga imkon beradi. Turli mushaklar har xil tolalar kombinatsiyalariga ega.

Har bir mushak biriktiruvchi qatlamlar va bir xil qobiq bilan birlashtirilgan bir necha ming mushak tolasidan iborat. Mushak ko‘p komponentli kompleksdir. Mushak tuzilishini tushunish uchun uning tarkibiy qismining tashkillanishi va tuzilishining barcha darajalarini o‘rganish kerak (13.2-rasm).




13.2-rasm. **Mushakning tashkillanish darajalari**

13.3. **Mushak tolasining tuzilishi**

Mushak tolalari diametri 1 mkm bo‘lgan ko‘ndalang joylashgan miofibrillalardan tashkil topgan bo‘lib, unda och va to‘q disklar ko‘rinadi. To‘q disklar ikkilanma nur sindirish xususiyatiga ega va A-disklar (anizotropik) deb ataladi; ikkilanma nur sindirish xususiyati bo‘lmasi och disklar – I-disklar (izotropik) deb ataladi (13.3-rasm).


I-disk o‘rtasida, tolani butunigacha teshib o‘tgan va go‘yoki miofibrillalarni bir bog‘lamda ushlab turuvchi va bir vaqtning o‘zida ko‘plab miofibrillalarning A- va I-disklarini tartibga solib turuvchi zikh Z-liniyasi mavjud. Bitta Z-liniyadan ikkinchi Z-liniyagacha bo‘lgan miofibrillalarning to‘plami *sarkomer* deb ataladi. A-disklar o‘rtasida yorqin oraliq – H-zona bo‘lib, uni to‘qroq M-zona kesib o‘tadi. Bir miofibrillada 1000–1200 sarkomer mavjud bo‘lishi mumkin. Har bir sarkomer quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) 90° burchak ostida ko‘ndalang yo‘nalgan, hujayraning tashqi yuzasi bilan bog‘langan transvers naychalar tarmog‘i; 2) hujayra hajmining 8–10 %ini tashkil etuvchi sarkoplazmatik retikulum; 3) bir nechta mitoxondriyalar.



13.3-rasm. **Har xil tashkillanish bosqichidagi mushak strukturasining tuzilishi**


Miofibrillyar strukturalar diametri 14 nm bo‘lgan qalin ular orasida diametri 7–8 nm bo‘lgan ingichka filamentlardan tashkil topgan agregatlardir. Ingichka filamentlar o‘z uchlari bilan qalin filamentlar oralig‘iga kirib turadi. I-disklar faqat ingichka filamentlardan iborat, A-disklar esa ikki turdag‘i filamentlardan iborat. N-zona faqat qalin filamentlarni o‘z ichiga oladi, Z-liniyasi ingichka filamentlarni bir-biriga bog‘laydi. Qalin va ingichka filamentlar orasida qalinligi 3 nm bo‘lgan ko‘ndalang ko‘prik (bitishma)lar mavjud; bu ko‘priklar o‘rtasidagi masofa 40 nm ni tashkil qiladi. Qalin filamentlar miozinning umumiy tuzilishi 13.4-rasmida oqsilidan iborat. Miozinning tayyoqcha shaklidagi molekulasi ikki bir xil ko‘rsatilgan.

og‘ir (har biri 200 kDa) va to‘rt yengil zanjirlardan (har biri 20 kDa) iborat bo‘lib, uning umumiy massasi 500 kDa. Miozinlar ikki boshcha hosil qilib, juda uzun o‘zakka birikkan globulinlardan tashkil topgan. O‘zak ikki zanjirli α -spirallashgan superspiral holatidadir.



13.4-rasm. Miozin molekulasingin sxematik ko‘rinishi

Miozin molekulalari taxminan 400 tayoqchasimon molekulalardan tashkil topgan filamentlarni hosil qilib bog‘lanadi, bunda miozin molekulalarining boshchalari bir biridan 14,3 nm masofada joylashadi; bu joylashuv spiral bo‘ylab kechadi (13.5-rasm). Miozin iplari bir biri bilan “dumi dumiga” bog‘langan shaklda birikadi.



13.5-rasm. Qalin filament hosil bo‘lishida miofilamentlarning joylashuvi

Miozin 3 biologik muhim vazifani bajaradi:

1. Ion kuchi va pH ning fiziologik qiymatlarida miozin molekulalari o‘z-o‘zidan tola hosil qildi;

2. Miozin katalitik faollikka ega, ya’ni ferment hisoblanadi. 1939-yilda V.A. Engelgardt va M.N. Lyubimova miozinning ATF gidrolizini katalizlashga qodir ekanligini aniqladilar. Bu reaksiya mushaklarning qisqarishi uchun zarur bo‘lgan erkin energiyaning bevosita manbayi hisoblanadi.

3. Miozin ingichka miofibrillalarning asosiy oqsil bo‘lmish aktinning polimerlangan shaklini bog‘laydi. Aynan ushbu ta’sir mushaklarning qisqarishida muhim rol o‘ynaydi.


Ingichka filamentlar aktin, tropomiozin va troponindan iborat. Ingichka filamentlarning asosiy komponenti 42 kDa molekulyar massali aktin bo‘lib, u suvda eruvchan globulyar oqsildir; aktinning bu shakli G-aktin deb ataladi. Mushak tolasida aktin G-aktinlarning o‘zaro bog‘lanishi natijasida hosil bo‘ladigan polimer shakli – F-aktin shaklida bo‘ladi.

Mushakning ingichka filamentlari ikki ipli aktin strukturalaridan shakllangan, bir-biri bilan kovalent bo‘lmagan bog‘lar orqali bog‘langan.

Tropomiozin bir-biri atrofida spiral holda buralgan ikki polipeptid zanjirlaridan tashkil topgan, 70 kDa molekulyar og‘irlikdagi tayoqcha shaklidagi molekuladir. Bu nisbatan qattiq molekula F-aktin molekulalarining spiral shaklda joylashishida hosil bo‘ladigan chuqurchada joylashgan, uning uzunligi G-aktinning 7 monomeriga to‘g‘ri keladi.

Ingichka filamentlarning uchinchi komponenti – **troponin** (Tn). Uning molekulyar massasi 76 kDa. Tropomiozin bog‘lovchi (Tn-T), ingibitor (Tn-I) va kalsiyni bog‘lovchi (Tn-S) funksiyalariga muvofiq nom olgan uch xil subbirlikdan tashkil topgan sferik molekuladir. Ingichka filamentlarning har bir komponenti ikkinchisi bilan nokovalent bog‘ orqali bog‘lanadi. Barcha ko‘rib o‘tilgan komponentlar birgalikda ingichka filamentda to‘plangan mushakda, tropomiozin miozin boshchasingin F-aktin monomeriga bog‘lanishini bloklaydi (13.6-rasm). Kalsiy, Tn-C bilan bog‘lanib, uning konformatsiyasini sezilarli darajada o‘zgartiradi, troponin subbirliklari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir darajasini oshiradi va ayni paytda TN-I va F-aktin o‘rtasidagi

aloqani zaifashtiradi. Bu tropomiozin molekulasining ingichka filament nayi bo'ylab harakatlanishiga olib keladi. Ushbu harakat natijasida aktin yuzasida miozin markazining ochilishi kuzatiladi. Aktin tropomiozin-troponin kompleksi Ca^{2+} , Mg^{2+} -ATFaza sifatida tavsiflanadi.



13.6-rasm. Mushakning ingichka filamentida tropomiozin, troponin va aktinning o'zaro joylashuvi

Mushak tolesi elektroqo'zg'aluvchan membrana – sarkolemma bilan o'ralgan hujayralardan iborat bo'lib, u har qanday membrana kabi, lipoprotein tabiatlidir (bimolekulyar qatlarning qalnligi 10 nm). Sarkolemma mushak tolasining ichki tarkibini hujayralararo suyuqlikdan ajratib turadi. Boshqa membranalar singari, sarkolemma turli moddalar uchun selektiv o'tkazuvchanlikka ega. Yuqori molekulyar moddalar (oqsillar, polisaxaridlar va b.) bu oraliqdan o'tmaydi, lekin glyukoza, sut va pirouzum kislotalari, keton tanachalari, aminokislota va peptidlar o'ta oladi.

Sarkolemma orqali o'tish faol vositachilar yordamida amalga oshiriladi, bu esa hujayra ichidagi ba'zi moddalarni tashqaridan ko'ra ko'proq konsentratsiyada toplash imkonini beradi. Sarkolemmanning tanlab o'tkazuvchanligi mushak tosidagi qo'zg'alishning paydo bo'lishida katta rol o'ynaydi. Sarkolemma mushak tolesi ichida to'plangan K^+ uchun o'tkazuvchandir. Shu bilan birga, u hujayradan Na^+ ni chiqarib tashlaydigan "ion nasosi"ni o'z ichiga oladi. Hujayralararo suyuqlikdagi Na^+ kationlarining konsentratsiyasi, hujayra ichidagi K^+ kationlarining konsentratsiyasidan yuqori; bundan tashqari, ichki zonalarda tolalar ko'p miqdorda organik anionlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi sarkolemmanning tashqi yuzasida

ortiqcha musbat va ichida manfiy zaryadlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Zaryadlarning farqi mushak tolasining tinch holatida 90–100 mV ga teng membrana potensialining paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa qo'zg'alishning paydo bo'lishi va amalga oshirilishi uchun zarur shartdir.

Hujayra ichidagi suyuqlik **sarkoplazma** deb ataladi. Sarkoplazmada organik moddalar, mineral tuzlar va subhujayraviy strukturalar – yadrolar, mitoxondriyalar va ribosomalar joylashgan bo'lib, ularning funksiyasi ma'lum mushak oqsillarining sinteziga ta'sir qilish, oraliq mushak tolasidagi metabolizmni tartibga solishdan iborat.

Sarkoplazma ichida sarkoplazmatik retikulum deb ataladigan uzun bo'ylama va ko'ndalang naychalar, membranalar, pufakchalar tizimi mavjud, membranalarining qalnligi 6 nm atrofida. Sarkoplazmatik retikulum sarkoplazmani turli xil biokimyoiy jarayonlar sodir bo'ladigan alohida qismalarga ajratadi. Pufakchalar va naychalar har bir miofibrillani o'rab oladi. Tashqi hujayra membranasi bilan bog'liq naylar orqali hujayra organellalari va hujayralararo suyuqlik o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri moddalar almashinuvni bo'lishi mumkin. Naychalar tashqi tolali membranadan ichki zonalarga qo'zg'alish to'linining tarqalishiga xizmat qilishi mumkin. Miofibrillalarga birikkan pufakcha membranalar kalsiy kationlarini bog'laydigan oqsillarni o'z ichiga oladi.


Sarkoplazmatik retikulumning ahamiyati juda katta. Bu uning kalsiy kationlarining chiqarilishini tartibga solib, mushak tolasining qisqarishi va bo'shashini ta'minlashi bilan bog'liq (13.7-rasm).

Bundan tashqari, sarkoplazmatik retikulumning bir qismiga ribosomalar birikkan bo'lib, ularning vazifasi oqsil sintezidir. Ribosomalar bo'lmagan retikulumning boshqa qismida mushak tolesi uchun muhim bo'lgan lipidlar va glikogen kabi bir qator moddalar sintezlanadi.

Mushak tolasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – mitoxondriyalardir. Mushak tosida mitoxondriyalar juda ko'p bo'lib, ular retikulum membranalariga deyarli yopishgan holda miofibrillalar bo'ylab ketma-ket joylashgan.

Har bir hujayra singari, mushak tolasining yadrosi bo'lib, u sarkolemma ostida joylashgan. Yadro sarkoplazmadan ikki mem-

brana orqali ajralib turadi, ulardan birini (ichki) yadro deb atash mumkin, ikkinchisi esa (tashqi) retikulum membranasiga o'tadigan yadro qobig'idir. Ushbu ikki membrananing orasidagi bo'shliq sarkoplazmatik retikulum kanallari bilan bog'lanadi. Yadro ichida yadrocha va xromatin joylashgan. Xromatin tarkibiga DNK, oqsillar va kichik molekulyar RNK kiradi. DNK mushak tolalarida sintez qilinadigan barcha oqsillar strukturalari haqidagi ma'lumotni saqlaydi.



13.7-rasm. Mushakning sarkoplazmatik retikulumi va uning funksiyasi

Mushak tolalarida lizosomalar mavjud bo'lib, u yerda oqsillar, lipidlar va polisaxaridlarni parchalovchi gidrolitik fermentlar joylashgan. Mushak kuchli zo'riqish bilan ishlaganda lizosoma membranalarining buzilishi (yoki ularning o'tkazuvchanligini oshishi) va biopolimerlarni parchalaydigan fermentlarni sarkoplazmaga chiqishi kuzatiladi, ammo bu hodisa disfunksiya emas.

13.4. Mushaklarning qisqarish mexanizmi

Hozirda mushak qisqarishining biokimyoviy siklini 5 bosqichdan iborat deb hisoblash qabul qilingan (13.8-rasm):


1) Miozin "boshchasi" ATFni ADF va N_3RO_4 gacha gidrolizlashi mumkin, ammo gidroliz mahsulotlarini chiqarib yubora olmaydi. Shuning uchun bu jarayon katalitikdan ko'ra ko'proq stexiometrik xarakterdadir (13.8-a rasm).

2) ADF va N_3RO_4 saqlovchi miozin "boshchasi" erkin aylana oladi va (kerakli holatga yetguncha) F-aktin bilan bog'lanib, fibrilla o'qlari yordamida 90 gradusli burchakni hosil qiladi (13.8-b rasm).

3) ushbu ta'sir ADF va H_3PO_4 ning aktin-miozin kompleksidan chiqarilishini ta'minlaydi. Aktomiozin bog' minimal energiyaga 45° burchak ostida ega bo'lganligi uchun, fibrilla o'qi miozinni 90° dan 45° ga o'zgartiradi, bunda sarkomer markazi yo'nalishi bo'yicha ($10\text{--}15$ nm) aktinining harakati kuzatiladi (13.8-d rasm);


4) yangi ATF molekulasi "miozin – F-aktin" kompleksi bilan bog'lanadi (13.8-e rasm);

5) "miozin - ATF" kompleksining aktinga moyilligi kam bo'lganligi sababli, miozin "boshchasi"ning F-aktindan uzoqlashishi kuzatiladi. Oxirgi bosqich aslida bo'shashish bo'lib, bu ATFning "aktin-miozin" kompleksining bog'lanishi bilan bog'liqdir (13.8d-rasm). Keyin sikl qaytallanadi.



13.8-rasm. Mushak qisqarishining biokimyoviy sikli

Turli mushaklarning qisqarish mexanizmi umumiy mexanizm bo'yicha kechadi. Turli a'zolardagi mushak tolalarning qisqarish va bo'shashishining boshqarilish mexanizmi ham turli xil, ammo asosiy regulator Ca^{2+} ionlari hisoblanadi (13.9-rasm). Miofibrillalar muhitda Ca^{2+} ionlari aniq bir konsentratsiya mavjudligidagina ATP bilan bog'lanish va qisqarish xususiyatiga ega.



13.9-rasm. Qisqarishning kalsiy ionlari bilan boshqarilishi

Eng yuqori qisqarish xususiyati Ca^{2+} ionlari konsentratsiyasi 10^{-6} - 10^{-5} M ga yaqin holatlarida kuzatiladi. Ca^{2+} konsentratsiyasi 10^{-7} M yoki undan ham pastlab ketgan hollarda mushak tolalari ATF mavjudligida ham qisqarish xususiyatlarini yo'qotadi.

Zamonaviytushunchalarga ko'ra, tinch holatdagimushaklarda (miofibrillalar va fibrillalararo muhitda) Ca^{2+} ionlarining konsentratsiyasi, ularni sarkoplazmatik strukturalar (naychalar va pufakchalar) bilan hamda kalsekvestrin deb ataluvchi Ca^{2+} bog'lovchi oqsil yordamida T-sistemalar tomonidan bog'lanishi natijasida bo'sag'a darajasidan kam holatda ushlab turiladi. Ca^{2+} ionlarining sarkoplazmatik to'rning oddiy adsorbsiya emas. Bu aktiv fiziologik jarayon bo'lib, u Ca^{2+} ga bog'liq ATPaza ta'sirida ATF parchalanishida ajralib chiqadigan energiya yordamida bajariladi.

Ca^{2+} ionlarining fibrillalararo muhitdan fibrilla ichiga so'rilib shu ionlar bilan stimullanadi. Bu natriy nasosining analogi sifatida "kalsiy pompa"si degan nomni olgan.

ATFning yuqori konsentratsiyasida ham mushakning bo'shashgan holatda bo'lisi kalsiy pompasining ishi natijasi sifatida tushuntiriladi.

Mushak tolasining nerv tomonidan qo'zg'alishi natijasida tez qisqarishi, tezda membrana o'tkazuvchanligining o'zgarishi sisterna, sarkoplazmatik to'r naychalaridan va T-sistemadan Ca^{2+} ionlarining sarkoplazmaga chiqishi bilan tushuntiriladi.

Aktomiozin kompleksining Ca^{2+} ionlariga "sezgirligi" (ya'ni aktomiozinning ATFni parchalash qobiliyatining yo'qolishi va Ca^{2+} ionlari konsentratsiyasi 10^{-7} M gacha pasayganda ATF ishtirokida qisqarishi) kontraktil sistemada (F-aktin filamentlarida) tropomiozin bilan bog'langan troponin oqsilining mavjudligi bilan bog'liq. Troponin molekulasida konformatsion o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa aftidan butun troponin-tropomiozin tayoqchasingin siljishiga hamda qisqaruvchi kompleks va Mg^{2+} -ATFazani hosil qilgan holda, miozin bilan o'zaro ta'sirlasha oladigan aktinining bloklangan faol markazlarining ochilishiga olib keladi. E. Xaksli bo'yicha, miozin bo'ylab aktin filamentlarini harakat qilishida, tolalar orasida vaqtincha hosil bo'ladigan ko'ndalang ko'prikhalar muhim rol o'ynaydi, bu ko'prikhalar miozin molekulalarining "boshchalari"dir. Demak, aktin filamentlariga ayni vaqtida birikkan ko'prikhalar soni qancha ko'p bo'lsa, mushak qisqarishining kuchi shunchalik katta bo'ladi. Nihoyat qo'zg'alish to'xtasa, sarkoplazmadagi Ca^{2+} ionlari miqdori kamayadi (kalsiy nasosi hisobiga), so'ng birikish-ajralish sikllari ham to'xtaydi, ya'ni miozin filamentlarining "boshchalari"ning aktin filamentlariga birikishi to'xtaydi. ATF ishtirokida mushak bo'shashadi va uning uzunligi asliga qaytadi. Agar ATFning hosil bo'lisi to'xtasa (anoksiya, nafas olish zanjiri zaharlari bilan zaharlanish yoki o'lim), u holda mushak qotib qoladi. Qalin (miozin) filamentlarning deyarli barcha ko'ndalang ko'priklari ingichka aktin filamentlariga birikadi, buning oqibatida mushakning to'liq harakatsizligi kelib chiqadi.

Qisqarishning turlari. Mushaklarning qisqarishi sodir bo'ladigan sharoitga qarab ikki xil — **izotonik** va **izometrik** bo'ladi. Izotonik qisqarish — muskul tolalari qisqargan, lekin tarangligi asl holida qolgan qisqarishidir. Bunga misol qilib, biror bir yuklamasiz qisqarishni olish mumkin. Izometrik qisqarish deb, muskul qisqargach, uning uzunligi boshqa kamaymaydigan qisqarish turiga aytildi (mushak uchlari

qo‘zg‘almas birikkan). Bunday holda, mushak tolalarining uzunligi o‘zgarishsiz qoladi, ammo ularning tarangligi ortadi (o‘ta og‘ir yukni ko‘tarish). Tanadagi tabiiy mushak qisqarishlari hech qachon sof izotonik yoki sof izometrik bo‘lmaydi.

Yakka qisqarish. Mushakning yoki uni innervatsiya qiluvchi nervi yakka stimul bilan qo‘zg‘alishi, mushakning yakka qisqarishiga sabab bo‘ladi. Unda ikki asosiy faza mavjud: qisqarish fazasi va relaksatsiya fazasi. Mushak tolasining qisqarishi harakat potensialining (XP) ko‘tariluvchi bo‘g‘imida boshlanadi. Muskul tolasining har bir nuqtasida qisqarish davomiyligi XP davomiyligidan o‘nlab marta uzun. Shuning uchun XP butun tola bo‘ylab o‘tib tugagan, qisqarish to‘lqini butun tolani qoplagan va u qisqarishda qolayotgan payt keladi. Bu muskul tolasining maksimal qisqarish yoki taranglashish momentiga mos keladi.

Har bir alohida mushak tolasining yakka qisqarishi “bor yoki yo‘q” qonuniga bo‘ysunadi. Bu bo‘sag‘a osti va bo‘sag‘a usti qo‘zg‘alishi davridagi qisqarish maksimal amplitudaga egaligini anglatadi. Butun mushakning yakka qisqarishi kattaligi ta’sirlanish kuchiga bog‘liq. Bo‘sag‘a darajasidagi qo‘zg‘alishida uning qisqarishi juda ham oz bo‘lib, ta’sir kuchi ortishi bilan u ma’lum qiymatgacha ortadi, shundan so‘ng u o‘zgarishsiz qoladi (maksimal qisqarish). Buning sababi shundaki, turli mushak tolalarining qo‘zg‘aluvchanligi bir xil emas va shuning uchun ularning faqat bir qismi kuchsiz qo‘zg‘atuvchi ta’siri ostida qo‘zg‘aladi. Maksimal qisqarishda ularning hammasi qo‘zg‘aladi. Muskul qisqarish to‘lqinining tezligi XP tarqalish tezligiga to‘g‘ri keladi. Yelkaning bitseps mushagida bu 3,5–5,0 m/sek ga teng.

13.5. Silliq mushaklar.

Tanadagi silliq mushaklar ichki a'zolar, qon tomirlari, terida joylashgan. Silliq mushaklar nisbatan sekin harakatlarni amalga oshirish va uzoq tonik qisqarishga qodirdir. Kovak a'zolar (oshqozon,

ichak, ovqat hazm qilish bezlari kanalchalari, siydiq yo'llari, qovuq, o't pufagi va b.) devorlari silliq mushaklarining nisbatan sekin, ritmik qisqarishi ular ichidagi tarkibning harakatini ta'minlaydi. Silliq mushaklarning uzoq vaqt tonik qisqarishlari ayniqsa kovak a'zolar sfinkterlarida yaqqol namoyon bo'ladi; ularning qisqarishi tarkibidagi moddalarning chiqishiga to'sqinlik qiladi. Qon tomirlari, jumladan arteriya va arteriolalar devorlarining silliq mushaklari doimiy tonik qisqarish holatida bo'ladi. Arteriya devorlarining mushak qavati tonusi ularning hajmini belgilaydi va shu tariqa qon bosimi va a'zolarning qon bilan ta'minlanish darajasini tartibga soladi. Silliq mushaklarning tonusi va harakat funksiyasi avtonom nervlar, gumoral ta'sirlar orqali kelayotgan impulslar bilan tartibga solinadi.

Silliq mushakning fiziologik xususiyatlari. Silliq mushakning muhim xossasi uning yuqori darajadagi plastikligi, ya’ni cho’zilish natijasida yuzaga kelgan uzunlikni mushakning kuchlanganligini o’zgartirmagan holda saqlab qolishdir. Skelet mushaklari, aksincha, yukni olib tashlagandan so‘ng darhol qisqaradi. Silliq mushak esa biror bir qo‘zg‘atuvchi ta’sirida faol qisqarish sodir bo‘limguncha, cho’zilgan holatda qoladi. Plastiklik xususiyati kovak a’zolarning normal faoliyati uchun katta ahamiyatga ega, shu tufayli kovak a’zo ichidagi bosim, uning to‘lishining turli darajalarida nisbatan kam o‘zgaradi. Silliq mushaklarning har xil turlari bor. Ko‘p kovak a’zolarning devorlarida muskul tolalari 50–200 mkm uzunlikda va diametri 4–8 mkm bo‘lib, ular bir-biri bilan juda yaqin tutashadi va shuning uchun mikroskop orqali qaralganda, ular morfologik jihatdan birday tuyuladi. Elektron mikroskopik tekshirishlar shuni ko‘rsatadi, ular bir-biridan hujayralararo tirqishlar bilan ajralib turadi, ularning kengligi 600–1500 angstromga teng bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, silliq mushak bir butun sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu XP va sekin depolyarizatsiya to‘lqinlarining bir toladan ikkinchisiga erkin tarqalishida ifodalanadi. Ayrim silliq mushaklar, masalan, ko‘zning kiprik mushagi yoki qorachiq mushaklarida tolalar alohida joylashadi va har biri o‘zining innervatsiyasiga ega. Ko‘pchilik silliq mushaklarda harakat nerv tolalari faqat oz sonli tolalarda

joylashadi. Avtomatizmga ega bo'lgan silliq mushak tolalarining tinchlik potensiali doimiy kichik tebranishlardan iboratdir. Uning hujayra ichidagi kattaligi 30–70 mv. Avtomatizmga ega bo'limgan silliq mushak tolalarining tinchlik potensiali barqaror va 60–70 mv ga teng. Ikki holatda ham uning qiymati skelet mushaklarining tinchlik potensialidan pastroqdir. Buning sababi, tinchlik davrda silliq muskul tolalarining membranasi natriy ionlariga nisbatan yuqori o'tkazuvchanligi bilan xarakterlanishidadir. Silliq muskullarda harakat potensiallari ham skeletga muskullariga nisbatan birmuncha past bo'ladi. Ularning harakat potensiallaridan ortiqligi ko'pi bilan 10–20 mv ni tashkil qiladi.

Silliq muskullarda XPning paydo bo'lishining ion mexanizmi skelet muskullaridagidan birmuncha farq qiladi. Qator silliq mushaklarning harakat potensiali asosida yotuvchi, membrananing regenerativ depolyarizatsiyasi, Na^+ ionlariga emas, balki Ca^{2+} ionlariga nisbatan o'tkazuvchanlikning ortishi bilan bog'liq.

Ko'pgina silliq mushaklar spontan va avtomatik faoliyat bilan ajralib turadi. U membrana tinchlik potensialining sekin pasayishi bilan xarakterlanib, ma'lum darajaga erishilganda XP ning paydo bo'lishi bilan kechadi.

Silliq muskulda qo'zg'alishning o'tkazilishi. Nerv va skelet muskul tolalarida qo'zg'alish, hujayra membranasining depolyarizatsiyalangan va unga tutash tinchlik holatida bo'lgan qismlari orasida kelib chiqadigan, mahalliy elektr toklari orqali tarqaladi. Aynan shu mexanizm silliq mushaklar uchun ham xosdir. Biroq skelet mushaklaridan farqli, silliq mushaklarda bir tolada yuzaga kelgan XP, qo'shni tolalarga ham tarqalishi mumkin. Bu silliq mushak hujayralari membranalarida qo'shni hujayralar bilan bir tolada paydo bo'lgan impuls qo'shni tolaga osongina o'tib, ular membranasining depolyarizatsiyasiga olib kelishi natijasidir. Bu orasidagi farq shundaki, yurakda bir hujayraning qo'zg'alishi barcha yurak mushagiga uzatilsa, silliq mushaklarda XP uni chaqirgan

qo'zg'atuvchining kuchiga bog'liq bo'lib, ma'lum bir oraliqqacha uzatiladi. Silliq mushaklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, butun tolalar bo'ylab tarqaladigan XP, qo'zg'atuvchi ma'lum bir miqdordagi mushak hujayralarini qo'zg'atgandagina yuzaga keladi. Bu "kritik zona"ni tashkil qilgan qismning diametri 100 mkm atrofida bo'lib, 20–30 parallel yotgan hujayralarga to'g'ri keladi. Turli silliq muskullarda qo'zg'alish tezligi 2 dan 15 sm/sek gacha bo'ladi.

Skelet mushaklarda bo'lgani kabi, silliq mushaklarning harakat potensiallari ham qisqarish jarayonining boshlanishi uchun boshlang'ich qiyomatga ega. Buyerda qo'zg'alish va qisqarish orasidagi bog'lanish Ca^{2+} bilan ham amalga oshiriladi. Biroq silliq mushak tolalarida sarkoplazmatik retikulum kam rivojlangan, shuning uchun XP generatsiyasida mushak tolasiga kiradigan Ca^{2+} ionlari qisqarish mexanizmida yetakchi rolni o'ynaydi.

Katta kuchdagi bir qo'zg'alish hisobiga silliq mushak qisqarishi mumkin. Uning qisqarishining yashirin davri skelet mushaklariga nisbatan ancha uzoq bo'lib, 0,25–1 soniyaga yetadi. Qisqarish muddati ham katta – 1 daqiqa gacha. Qisqarishdan keyingi relaksatsiya ayniqsa sekin kechadi. Qisqarish to'lqini silliq mushaklar orqali qo'zg'alish to'lqini bilan bir xil tezlikda tarqaladi (2–15 sm/s). Lekin qisqarish faoliyatining bu sustligi silliq mushakning katta qisqarish kuchi bilan uyg'unlashadi. Masalan, qushlarning oshqozon mushaklari ko'ndalang kesimining 1 mm² 2 kg yukni ko'tarishga qodir.

Qisqarish sustligi tufayli (daqiqasiga 10–12 marta) silliq mushak, hatto onda-sonda uchrovchi ritmik stimullar bilan ham, skelet mushaklarining qoqsholiga o'xshash uzoq muddatli doimiy qisqarish holatiga osonlik bilan o'tadi. Biroq bunday qisqarishda energiya sarflari juda oz bo'ladi.

Silliq mushaklarni avtomatizm qobiliyati ularning tolalariga xos bo'lib, silliq mushakli a'zolar devorlarida joylashgan nerv elementlari bilan tartibga solinadi. Barcha tashqi ta'sirlarga javoban silliq muskul spontan ritm chastotasining o'zgarishi bilan javob beradi, natijada muskullarning qisqarishi va bo'shashishi kuchayadi. Ichak silliq mushaklarining qo'zg'alishi stimulyatsiya chastotasi hamda shaxsiy

spontan ritm chastotasi orasidagi nisbatga bog'liq; tonus pastligida – yakka spontan XP – qo'yilgan qo'zg'atuvchi tonusni oshiradi, yuqori tonusda esa qo'zg'atuvchi ta'sirida, har bir impuls o'zidan oldin kelgan impulsni refrakter fazasiga tushib qolishi oqibatida, bo'shashish kuzatiladi.

Silliq mushakning qo'zg'alishi. Silliq mushaklarning muhim, fiziologik adekat qo'zg'alishlaridan biri ularning tez va kuchli cho'zilishidir. Bu mushak tolesi membranasining depolyarizatsiyasi va tarqaluvchi XPning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada, mushak qisqaradi. Silliq muskullarning xarakterli xususiyati ularning ma'lum kimyoviy stimullarga, xususan, atsetilxolin, norepinefrin, adrenalin, gistamin, serotonin va prostaglandinlarga yuqori sezuvchanligidir. Turli mushaklarda va ularning turli holatlarida bir xil kimyoviy agentning ta'siri turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, atsetilxolin ko'pchilik a'zolarning silliq mushaklarini qo'zg'atadi, lekin tomir mushaklarini tormozlaydi. Adrenalin homilasi bo'lman bachadonni bo'shashtiradi, lekin homilasi bor bachadonni qisqartiradi. Bu farqlar, ko'rsatilgan moddalarni membrananing turli kimyoviy retseptorlari (xolinoretseptorlar, α - va β - adrenoretseptorlar) bilan ta'siri oqibati bo'lib, buning natijasida silliq mushaklarning ion o'tkazuvchanligi hamda membrana potensialining turlicha o'zgarishi kuzatiladi. Qo'zg'atuvchi membrananing depolyarizatsiyasiga sabab bo'lgan hollarda qo'zg'alish yuzaga keladi va, aksincha, kimyoviy agent ta'sirida membrananing giperpolyarizatsiyalanishi silliq muskulning faoliyatini susaytirish va bo'shashishiga olib keladi.

Azot oksidi va uning mushaklar uchun ahamiyati. Azot oksidi ishlab chiqarishini kuchaytiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari mavjud. So'nggi yillarda bunday mahsulotlar oziq-ovqat qo'shimchalari sanoatida juda mashxur. Azot oksidi ishlab chiqarishni ko'paytiradigan organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Texas universiteti olimlari aminokislotalar so'riliшининг kinetikаси tezligини cheklovchi bosqich hujayra membranasi orqali o'tishi va haqida ma'lumotlarni to'plashdi va mushak to'qimasida aminokislotalar

qon hamda hujayralararo suyuqlik orqali tashilishi emas, degan xulosaga kelishdi. Bundan kelib chiqadiki, qondagi aminokislotalar konsentratsiyasi ortishi bilan birga, skelet muskullarida qon oqimining ortishi muskul hujayralari tomonidan aminokislotalarning yanada faol so'riliшини ta'minlashi mumkin. Azot oksidi qon tomirlar endoteliysida L-arginindan azot oksid sintazasi yordamida sintezlanadi. Bu ferment L-arginining azot oksidi va sitrullinga aylantirish reaksiyasini katalizlaydi. Sitrullin aspartat bilan transaminlanib, argininga qayta aylanishi mumkin. Azot oksidi kuchli vazodilatator, ya'ni uning harakati qon tomirlarining silliq mushak hujayralarini bo'shashtirishga qaratilgan bo'lib, bu tomir diametrining ortishiga olib keladi va qon oqimining ko'payishiga olib keladi.

Qon tomirlarining silliq mushak hujayralarining bo'shashishi mushaklar tomonidan foydalaniladigan oziq moddalari, shu jumladan aminokislotalarni ham mushaklarga o'tishiga imkon beradi. O'zikuchli vazodilatator bo'lishi bilan bir qatorda, azot oksidi siklik guanozin monofosfat kabi yana bir faol vazodilatatori ishlab chiqarishni ham stimullaydi. Jismoniy mashg'ulotlar azot oksidi ishlab chiqarishini oshiradi va tananing tegishli sohasiga qon kelishini oshiradi. Biroq, bu jarayonning ahamiyati faqat hozirda o'rganila boshlandi. Ba'zi tadqiqotchilar mashqdan keyin skelet mushaklariga qon oqimining ko'payishi oqsil sintezini ta'minlovchi mexanizmlardan biri bo'lishi mumkin, deb hisoblashadi. Qon oqimining ortishi faqat harakatlanayotgan muskullarda kuzatiladi va aynan shu muskullarda oqsil sintezi kuchayadi. Masalan, kvadritseps bilan ishlaganda qon oqimining tezligining ortishi faqat shu mushakda ortib, son bitsepslarida o'zgarmay qoladi. Shuning uchun oqsil sintezining ortishi ham aynan kvadritseps mushaklarida kuzatiladi. Agar azot oksidining vazodilatatsiya ta'siri jismoniy mashqlardan so'ng oqsil sintezi tezligini oshirishning muhim mexanizmi bo'lsa, unda mashq qildirilayotgan mushaklarda azot oksidining hosil bo'lish tezligini ortishi mushakning tiklanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qisqaruvchi va harakat oqsillari hujayra yoki organizmning qisqarish, shaklini o'zgartirish va harakatlanish kabi harakat

funksiyasi ni ta'minlaydigan oqsillardir. Bunday funksiyali oqsillarga yuqorida tanishib o'tgan – aktin va miozin oqsillari kiradi. Shunday xususiyatga ega boshqa oqsil – tubulin oqsili bo'lib, mikrotubulalar, kiprikchalar va hivchincharlar shu oqsildan tuzilgandir. Hayvonlar nerv tizimining uzun hujayralari ham mikrotubulalarni saqlaydi.

13.6. Mushak ishi uchun energiya manbalari

Boshqa to'qimalar kabi tinch holatdagi mushak, tarkibining barqarorligi va metabolik jarayonlarning uzlusiz oqimini saqlab qolish uchun ATFnинг uzlusiz yetkazib berilishini talab qiladi. Shu bilan birga, mushak boshqa to'qimalardan juda katta farq qiladi, chunki uning ATF shaklida energiyaga bo'lgan talabi mushak qisqarishida deyarli 200 marta ortishi mumkin.


Mushakdagi ATF miqdori nisbatan doimiy: mushak massasining 0,25 % i atrofidadir. ATF yuqori konsentratsiyasi miozin ATF-azasi faolligini cheklab, aktin va miozin o'rtasida bog'lanishlarni shakllanishiga, demak, mushakning qisqarishiga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga ATF konsentratsiyasi 0,1 % dan past bo'lishi mumkin emas, chunki bunda sarkoplazmatik retikulum pufakchalarida kalsiy nasoslari ishlamay qilmay qoladi, va mushak ATF zaxiralari to'liq tamom qilguncha va rigor holat rivojlanishiga qadar, ya'ni turg'un o'tmaydigan qisqarishgacha qisqaradi. Mushakdagi ATF zaxiralari 3–4 yakka qisqarishlar uchun yetarli. Shuning uchun ATFn ni doimiy va juda intensiv to'ldirish — uning resintezi zarurdir.

Mushak faoliyatida ATF resintezi anaerob sharoitda sodir bo'ladigan reaksiyalar jarayonida ham, kislородiste'moli bilan bog'liq hujayralardagi oksidativ o'zgarishlar tufayli ham amalga oshirilishi mumkin. Skelet muskullarida ATF resintezing uch anaerob va bir aerob bo'lgan turlari aniqlangan.

Mushakdagi ATF resintezing barcha jarayonlarini va ularning ketma-ketligini ko'rib chiqamiz.

Kreatinkinaza reaksiyasi. Birinchi va eng tez ATF resintezi jarayoni – kreatinkinaza reaksiyasidir. Kreatinfosfat(KF) – makroergik

modda bo'lib, ishchi mushakdagi ATF zaxiralari tugagach, fosfat guruhini ADF ga beradi:



Bu jarayonni kreatinkinaza fermenti katalizlaydi, u fosfotransferazalarga kiradi (ferment nomi ushu jarayonni anglatadi).

ATF va kreatin mushak tolasining kontraktif elementlariga yaqin. ATF darajasi pasaya boshlagach, ATF resintezini ta'minlovchi kreatinkinaza reaksiyasi darhol boshlanadi. Ishchi mushakda parchalanish tezligi (PT) bajarilayotgan ishning intensivligi va mushak tarangligining kattaligiga to'g'ri proporsionaldir.

Ish boshlanganidan keyingi birinchi sekundlarda, hali KF konsentratsiyasi yuqori bo'lganda, kreatinkinaza faolligi ham yuqori bo'ladi. ATF parchalanishida hosil bo'lgan ADFning deyarli butun miqdori bu jarayonda ishtirok etib, mushakdagi boshqa ATF resintezi jarayonlarini to'sib qo'yadi. Mushaklarda KFning zaxiralari taxminan 1/3 qismga kamayganda, kreatinkinaza reaksiyasining tezligi pasayadi; bu ATF resintezing boshqa jarayonlarining boshlanishiga sabab bo'ladi. Kreatinkinaza reaksiyasi qaytar bo'ladi. Mushak ishi davomida ATF zaxiralari to'ldiradigan to'g'ri reaksiya, tinchlik davrida esa – mushakdagi KF konsentratsiyasini tiklaydigan teskarri reaksiya ustunlik qiladi. Biroq, kreatinfosfatning resintezi aerob sharoitlarda kechadigan uzoq muddatli mushak ishida ham qisman amalga oshishi mumkin.

Kreatinkinaza reaksiyasi maksimal zo'riqish bilan kechadigan qisqa muddatli mashqlar – qisqa masofaga yugurish, sakrash, uloqtirish, og'ir atletika mashqlarini energiya bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Glikoliz. ATF resintezing keyingi yo'li glikolizdir. Glikoliz reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar sarkoplazmatik retikulum membranalarida va mushak hujayralari sarkoplazmasida joylashgan. Glikogenfosforilaza va geksokinaza – glikogenoliz va glikolizning birinchi reaksiyasi fermentlari – sarkoplazmada ADF va fosfat kislotaning miqdori oshganda faollashadi.

Glikolizning energetik qiymati kichik va glikogenning fosforoliz yoli bilan olingen 1 mol glyukoza-1-fosfatdan faqat 2 mol ATP hosil boladi. Bundan tashqari, bu jarayonda barcha erkin energiyaning qariyb yarmi issiqlikka aylanadi va undan muskullar ishi paytida foydalanish mumkin emas; mushaklar harorati esa 41–42°C gacha ko‘tariladi.

Glikolizning oxirgi mahsuloti sut kislotasidir. U muskullarda to‘planib, hujayra ichidagi muhitda vodorod ionlari konsentratsiyasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ya’ni muhitning pH kislotali tarafga silishi kuzatiladi. Oz kislotali muhitda, bir tomonidan, mitoxondriallarda nafas zanjiri fermentlarining faollanishi, ikkinchi tomonidan esa, mushaklarning qisqarishini boshqaruvchi (miofibrillalar ATFaazalari) va anaerob sharoitda ATF resintezi tezligini tartibga soluvchi fermentlarning ingibirlanishiga olib keladi. Ammo, aerob sharoitda ATF resintezi jarayonini ko‘rib chiqishdan oldin, glikoliz 30 dan 150 s gacha bo‘lgan mashqlarni energiya bilan ta’minalashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlash zarur. Bularga o‘rta distansiyalarga yugurish, 100 va 200 m ga suzish, trekda velosiped poygalari va boshqalar kiradi. Mashq davomida va masofa finishidagi vaqt bo‘yicha cho‘zilgan tezlanishlar glikoliz hisobiga amalga oshiriladi.

Aerob sharoitda ATF resintezi. ATF resintezining aerob jarayoni glyukozaning karbonat angidridi va suvgaga oksidlashi davrida sodir bo‘ladi. Glikolizning energetik qiymatini va glyukozaning aerob sharoitda to‘liq parchalanishini taqqoslab, ikkinchi jarayon eng mahsulor ekanligini aytib o‘tish mumkin. Aerob jarayonda energiya hosil bo‘lishining umumiy miqdori glikolizga nisbatan 19 marta ko‘pdir.

Mitoxondriyalarda oksidlanishli fosforolanishda hosil bo‘lgan ATF mushak hujayralari sarkoplazmatik retikulumida joylashgan ATFaazalar ta’siriga uchramaydi, chunki mitoxondriyaning ichki membranasi zaryadga ega bo‘lgan nukleotidlarni o’tkazmaydi. Shuning uchun ATFning mitoxondriyalar matritsasidan sarkoplazmaga faol tashilish tizimi mavjud.

Avval translokaza ATFni matriksdan ichki membrana orqali membranalararo bo‘shliqqa o‘tishini ta’minalaydi, u yerda ATF sarkoplazmadan kirgan kreatin bilan reaksiyaga kirishadi.

Bu reaksiyani mitoxondriya tashqi membranasida joylashgan mitoxondrial kreatinkinaza katalizlaydi. Hosil bo‘lgan kreatinfosfat qaytadan sarkoplazmaga o‘tadi, u yerda ATFdan olgan fosfat kislota qoldig‘ini sarkoplazmatik ADFga beradi.

Oksidlanish bilan boruvchi fosforolanish vaqtida ATF hosil bo‘lish samaradorligi mushakning kislorod bilan ta’minalishiga bog‘liq. Ishchi mushakda kislorod zaxirasi katta emas: sarkoplazmada oz miqdorda kislorod eriydi, kislorodning bir qismi mushak mioglobini bilan bog‘liq holda bo‘ladi. Aerob ATF resintezi uchun mushak tomonidan zarur bo‘lgan kislorodning asosiy miqdori, o‘pka orqali nafas olish va qon aylanish tizimi orqali yetkaziladi. Oksidlanish bilan boruvchi fosforolanish jarayonida 1 mol ATF hosil bo‘lishi uchun 3,45 l kislorod talab qilinadi; bu miqdordagi kislorod mushakning tinchlik davrida 10–15 daqiqa davomida, uning intensiv faoliyatida esa – 1 daqiqa davomida sarflanadi.

Miokinaza reaksiyasi mushaka sarkoplazmasida ADF konsentratsiyasining sezilarli darajada ortganda, boshqa resintez yo‘llari imkoniyatlari deyarli tugaganda yoki shunga yaqin bo‘lganda sodir bo‘ladi. Bu reaksiyaning mohiyati ikki ADF molekulasingin o‘zarotasi natijasida 1 ATF molekulasingin hosil bo‘lishidadir:

ADF + ADF

ATF + AMF

Miokinaza reaksiyasini boshlash shartlari mushaklarning kuchli charchashi hisoblanadi. Shuning uchun miokinaza reaksiyasini “favqulodda” mexanizm deb hisoblash kerak.

Miokinaza reaksiyasi samarasiz, chunki ikki ADF molekulasidan ATF ning faqat bir molekulasi hosil bo‘ladi. Miokinaza reaksiyasi natijasida hosil bo‘lgan AMF, dezaminlanish yo‘li bilan energiya almashinuvining ishtirokchisi bo‘Imagan, inozin monofosfatga aylanishi mumkin. Biroq sarkoplazmada AMF konsentratsiyasining ortishi bir qator glikoliz fermentlariga aktivlovchi ta’sir ko‘rsatadi, bu esa anaerob ATF resintezi tezligining ortishiga olib keladi. Bu holda miokinaza reaksiyasi metabolik kuchaytirgichning bir turi rolini o‘ynab, miofibrillalarning ATFazasidan hujayraning ATF-sintezlovchi sistemalariga signal uzatilishiga yordam beradi.


13.7. Yurak va silliq mushaklarning kimyoviy tarkibining o'ziga xosliklari

Yurak mushagi qator kimyoviy birikmalarining miqdori bo'yicha skelet mushaklari va silliq mushaklar orasida oraliq holatni egallaydi. Masalan, quyonning skelet mushaklaridagi oqsil azotining umumiyligi miqdori 30–31 mg/g bo'lgan holda, silliq mushaklarda (miometriy) – 20,3 mg/g gacha bo'ladi. Yurak mushagi va, ayniqsa, silliq mushak, skelet mushagiga qaraganda, ancha kam miofibrillyar oqsillarga ega. Me'daning silliq muskul to'qimasida miofibrillyar oqsillarning umumiyligi miqdori skelet muskullariga nisbatan 2 marta kam bo'ladi. Silliq muskullar va miokardda stroma oqsillarining konsentratsiyasi skelet mushagiga nisbatan yuqori bo'ladi. Yurak va silliq mushaklarning miozin, tropomiozin va troponinlari o'z fizik va kimyoviy xususiyatlari bilan, skelet mushagini aynan shu oqsillaridan sezilarli farq qiladi. Sarkoplazmatik oqsil fraksiyalarida ham muayyan farqlar qayd etilgan. Silliq mushak va miokard sarkoplazmatik mioalbuminni skelet mushaklariga nisbatan ko'proq saqlaydi. 1 g to'qimaga nisbatan yurak mushagida ATF miqdori (2,60 mmol) skelet mushagiga nisbatan kam (4,43 mmol) va silliq mushakka nisbatan yuqori (1,38 mmol) bo'ladi. Glikogen miqdori jihatidan yurak muskuli, skelet va silliq muskullar orasida oraliq holatni egallaydi. Mashxur biokimyogar S.E. Severin tadqiqotiga ko'ra, yurakda ham, silliq mushaklarda ham anserin va karnozinning miqdori juda ham kichikdir (1 kg xom massaga 0,1 g dan ko'p emas).

Mushaklarning tabiatini va fosfoglitriderlarning tarkibi o'rtaida muayyan munosabatlar mavjud. Miokard boshqa muskul to'qimalariga nisbatan fosfoglitriderlarga boy bo'lib, oksidlanish vaqtida, aftidan, uning qisqarishi uchun zarur bo'lgan energiyaning muhim qismi ishlab chiqariladi.

Mushaklarda ammiakning hosil bo'lishi. Mushak va ichaklardan ortiqcha ammiak asosan alanin shaklida chiqariladi. Bu mexanizm zarurdir, chunki mushaklarda glutamatdegidrogenaza faolligi past

va shuning uchun aminokislotalarning bilvosita dezaminlanishi samarador emas. Shunga ko'ra mushaklarda azotni chiqarib yuborishning yana bir usuli mavjud. Mushaklarda alanining hosil bo'lishi quyidagicha kechadi:



Transaminlanish reaksiyalari orqali turli aminokislotalarning aminoguruhlari piruvatga o'tkaziladi, uning asosiy manbayi esa glyukozaning oksidlanish jarayoni hisoblanadi.

Mushaklar katta massasi, jismoniy ish vaqtida glyukozaning ko'p iste'mol qilishi, shuningdek, ularga zarur bo'lgan energiyaning bir qismini aminokislotalarning parchalanishi tufayli olganligi uchun alaninni ko'p ajratadi. Hosil bo'lgan alanin jigarga qon orqali boradi, u yerda bilvosita dezaminlanishga uchraydi. Ajralib chiqqan ammiak siyidikchil sintezida ishtirok etadi, piruvat esa glyukoneogenezi jarayoniga kiritiladi. Jigardan glyukoza to'qimalarga boradi va u yerda glikoliz jarayonida yana piruvatgacha oksidlanadi. Muskulda alanining hosil bo'lishi, uning jigarga o'tishi va jigarda sintezlangan glyukozaning muskullarda oksidlanishi "glyukoza-alanin" sikli bo'lib, u "glyukoza-laktat" siklining ishi bilan bog'liq.

13.8. Patologiyada muskullardagi biokimyoviy o'zgarishlar

Ko'pchilik mushak kasalliklari (progressiv mushak distrofiyasi, ularning denervatsiyasi natijasida mushak atrofiyasi, tenotomiya – paylarni to'liq yoki qisman kesilishi, polimiozit, avitaminozning ba'zi turlari va b.) uchun miofibrillyar oqsillar miqdorining keskin


pasayishi, stroma oqsillari va ayrim sarkoplazmatik oqsillar, shu jumladan mioalbumin konsentratsiyasining esa oshishi xosdir. Mushak zararlanishlarida mushak oqsillarining fraksion tarkibi o'zgarishi bilan birga, ATF va kreatinfosfat miqdorining pasayishi kuzatiladi. Masalan, denervatsiyadan 12 kun o'tgach, quyonning denervatsiyalangan boldir mushagidagi ATF miqdori 2 martadan ortiq qisqaradi. Kontraktil oqsillar (miozin) ATFafasasi faolligining pasayishi, imidazol tarkibli dipeptidlarn sonining kamayishi ham kuzatiladi.

Progressiv mushak distrofiyasi va mushak to'qimalarining parchalanishi bilan bog'liq boshqa kasalliklarda, ko'pincha mushaklar fosfolipid tarkibida o'zgarishlar bo'ladi: sezilarli darajada fosfatidilxolin va fosfatidiletanolamin miqdori kamayadi, aksincha sfingomielin va lizofosfatidilxolin konsentratsiyasi ortadi. Hozirgacha patologiyada mushak to'qimasining fosfolipid tarkibidagi o'zgarishlarning haqiqiy mexanizmlari aniqlanmagan va bu o'zgarishlarning mushak distrofiyasi patogenezidagi o'rni ham noma'lum.

Mushak to'qimasi patologiyalarining ko'p shakllarida kreatin metabolizmining buzilishi va siydik bilan ko'p chiqarilishi xarakterlidir (kreatinuriya). Tekshiruvlarning ko'pligi va olingan ma'lumotlarning ko'pligiga qaramasdan mushak kasalliklarida kreatinuriya sabablari oxirigacha aniq o'rganilmagan savol bo'lib qolmoqda.

Miopatiya bilan og'igan bemorlarda kreatinuriya kreatinni fiksatsiya qilish (ushlab turish) va uning fosforlanish jarayonlarining skelet mushaklarida buzilishlarining natijasidir. Agar kreatinfosfat sintezi jarayoni buzilsa, kreatinin hosil bo'lmaydi; siydikda uning miqdori kamayadi. Kreatinuriya va kreatinin sintezining buzilishi natijasida siydikning kreatin indeksi (kreatin/kreatinin) keskin ortadi. Ushbu mexanizm 13.10-rasmida ko'rsatilgan. Muskul to'qimasining patologiyasida muskullardagi fermentlar faoliyatining o'zgarishida kuzatilishi mumkin: sarkoplazmada joylashgan fermentlarning faoliyi pasayadi; mitoxondriya bilan bog'liq fermentlarning faolligi biroz o'zgaradi; lizosomal fermentlarning faolligi sezilarli darajada oshadi.

Nihoyat, mushak tizimining ko'plab kasalliklarida sAMF tizimida o'zgarishlar mavjudligi ko'rsatiladi: mushak to'qimasida sAMF miqdori kamayadi, fosfodiesterazaning faolligi oshadi va adenilat siklazaning adrenalin va natriy ftorid ta'sirida faollanishi buziladi.



13.10-rasm. Progressiv mushak distrofiyasida kreatinuriyaning kelib chiqish sxemasi (D.L. Ferdman bo'yicha)


Yurak ishemik kasalligida yurak mushaklari metabolizmining buzilishi. Miokard ishemiyasida oksidlanish bilan boruvchi fosforillanish kamayadi va anaerob metabolizm oshadi. Ishemiyaning boshlang'ich bosqichida yurak mushagidagi glikogen va glyukoza hisobiga glikogenoliz va glikolizning ilk ortishi hujayra ichida katekolamin va sAMF miqdorining ortishi hisobiga boradi, bu o'z navbatida fosforilazaning faol shaklining hosil bo'lishiga olib keladi (fosforilaza A) va glikolizning kalit fermenti – fosfofruktokinaza faollahshadi. Biroq, hatto eng rivojlangan anaerob metabolizm ham allaqachon shikastlangan gipoksik miokardni uzoq vaqt himoya qila olmaydi. Tez orada glikogen zaxiralari kamayadi; glikoliz, fosfofruktokinazani ingibirlovchi hujayra ichidagi atsidoz tufayli, sekinlashadi.

Mitoxondriyalarda oksidlanish bilan boruvchi fosforlanishning buzilishi natijasida hujayradagi ATF va kreatinfosfat miqdori keskin kamayadi. Bu holatning dastlabki ko'rinishlaridan biri membrana o'tkazuvchanligining buzilishidir. Membranalar butunligining buzilishi hujayradan ionlar, shu jumladan K^+ ionlari hamda fermentlarning chiqarilishini ta'minlaydi. Energiya resurslarining yetishmasligi va ion

tarkibining buzilishi, hujayra ichidagi kalsiy darajasini nazorat qilishni ta'minlaydigan turli membranali "rezervuarlar"da sezilarli o'zgarishlar, mushak hujayralarining funksional faolligini susaytiradi va ularning asta-sekin o'limiga olib keladi. Huddi shu davrda miokard oqsillari tarkibidagi o'zgarishlar aniqlanadi (miofibrillyar oqsillar tarkibining keskin kamayishi va stroma oqsillarining to'planishi). Miokard infarktida uglevod, oqsil va lipidlar almashinuvining buzilishi (erkin yog' kislotalari oksidlanmaydi va asosan triglitseridlar tarkibiga kiradi) yurak mushagining yog' infiltratsiyasida o'z aksini topadi.


Ishemiya holatidagi miokard shikastlanishining kattaligi, yurak mushagidagi fermentlar faolligining pasayishi va qon zardobidagi tegishli fermentlar faolligining oshishi (masalan, kreatinkinazalar) bir-biri bilan yuqori darajada bog'langan. Shuni e'tirof etish kerakki, miokard infarktini tashxislashda kreatinkinaza, AsAT va LDG ning zardobdagi faolligini aniqlash eng sezgir testlar hisoblanadi. Bu fermentlar, ayniqsa kreatinkinaza faolligining oshishi doimiy va eng yuqori bo'ladi. Kreatinkinazaning izoferment spektrlarini (MV izoenzim faolligining oshishi) va LDG ni o'rganish ham muhimdir (LDG₁ va LDG₂ izofermentlar faolligining oshishi). So'nggi yillarda miokardga xos oqsillarni (mioglobin, troponin T va boshqalarni) aniqlash qon zardobida miokard zararlanishi uchun juda sezgir erta sinov bo'la boshladi.

Kreatinfosfat. Kreatin – skelet mushaklari, miokard, nerv to'qimasining moddasi. Kreatinfosfat shaklida kreatin makroergik bog'larining "deposi" bo'lib, hujayra faoliyati davomida ATPning tez resintezi uchun ishlataladi (13.11-rasm). Mushak to'qimasida kreatinin roli ayniqsa katta. Kreatinfosfat mushak ishining ilk soniyalarida (510 sek), ya'ni boshqa energiya manbalari (anaerob glikoliz, glyukozaning aerob oksidlanishi, yog' kislotalarning β -oksidlanishi) hali faollanmaganda hamda mushakning qon bilan ta'minlanishi ortmaga, ATPning tez resintezini ta'minlab beradi. Nerv to'qimasini hujayralarda kreatinfosfat kislorod yo'qligida hujayra hayotini saqlaydi.





13.11-rasm. ATF resintezi uchun kreatinfosfatdan foydalanish

Muskul ishi davomida sarkoplazmatik retikulumdan chiqadigan Ca^{2+} ionlari kreatinkinazaning aktivatorlaridir. Reaksiya shunisi bilan qiziqarlik, uning misolida musbat teskari aloqani, ya'ni fermentning reaksiya mahsuloti – kreatin tomonidan faollanishini kuzatish mumkin. Bu mushak ishi jarayonida reaksiya tezligining pasayishidan saqlanib qolish imkonini beradi, bu pasayish ta'sir etuvchi massalar qonuniga muvofiq ishchi mushaklardagi kreatinfosfat konsentratsiyasining pasayishi tufayli sodir bo'lishi kerak edi. Kreatinfosfatning 3 %iga yaqini fermentativ bo'limgan defosforillanish reaksiyasida doimiy ravishda kreatining aylanadi (13.12-rasm). Sog'lom odam tomonidan sutkasiga chiqariladigan kreatinin miqdori deyarli o'zgarmas bo'lib, faqat mushak massasining miqdoriga bog'liqdir. Qondagi kreatinkinaza faolligi darajasi va qon hamda siydkdag'i kreatinin konsentratsiyasi qimmatli diagnostik ko'rsatkichlardir.




13.12-rasm. Kreatinfosfatdan kreatininning hosil bo'lishi

Kreatin sintezi ikki transferaza reaksiyasida buyrak va jigarda ketma-ket sodir bo'ladi (13.13-rasm).



13.13-rasm. Buyrak va jigarda kreatinning sintez reaksiyalari

Sintez oxirida kreatin qon oqimi bilan mushaklar yoki miyaga yetkaziladi. Bu yerda ATP energiyasi yetarli bo'lganda (tinchlik holatida) kreatin fosfat hosil qilish uchun fosforlanadi (13.14-rasm).




13.14-rasm. Mushak va miyada kreatinfosfat sintezi

Agar kreatinning sintezi mushak to'qimasida uning fiksatsiya qilish imkoniyatidan oldinda bo'lsa, kreatinuriya — siydikda kreatinining paydo bo'lishi rivojlanadi. Fiziologik kreatinuriya bola hayotining birinchi yillarida kuzatiladi. Ba'zan fiziologik kreatinuriyaga qarilar kreatinuriyasi kiritiladi, u mushaklar atrofiyasi va jigarda hosil bo'layotgan kreatin to'liq foydalanilmasligi oqibatida bo'ladi. Mushak tizimi kasalliklarida (miopatiya yoki progressiv mushak distrofiyasi) siydikda kreatinning eng yuqori konsentratsiyasi — patologik kreatinuriya kuzatiladi.

14-bob.

BIRIKTIRUVCHI TO‘QIMA BIOKIMYOSI

Biriktiruvchi to‘qima organizmning butun tanasi bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, u tog‘ay, pay, boylam va suyak matriksida bo‘ladi. Bu to‘qima buyrak jomi, siyidik kanallari sohasida joylashadi, tomirlarni fiksasiya qiladi; jigar va mushak kabi parenximatoz a’zolarda hujayralararo bog‘lovchi moddaning asosini tashkil etadi. Tana vaznining taxminan 50 %ini tashkil etadi. Biriktiruvchi to‘qimaning mexanik va ushlab turuvchi vazifasi hujayra tashqarisidagi erimaydigan tolalar hisobiga amalga oshiriladi. Ular matriksga botib turuvchi yuqori polimer birikmalardan tashkil topgan bo‘lib, asosiy modda deb yuritiladi. Erimaydigan tolalar va eruvchan matriksning sinteziga javobgar hujayralar – xondrotsit va fibroblastlardan tashqari biriktiruvchi to‘qima hujayralariga makrofaglar, semiz hujayralar va kam miqdorda differensiatsiyalanmagan hujayralar ham kiradi (14.1-rasm).




14.1-rasm. Biriktiruvchi to‘qima tuzilishi (A.I. Slutskiy sxemasi bo‘yicha): I – semiz hujayra; II – retikulin tolalari; III – elastik tolalar; IV – kollagen tolalari; V – fibroblast.

Biriktiruvchi to‘qimaning barcha turlari, ularning morfologik farqlariga qaramasdan, umumiy yagona prinsip asosida tuzilgan bo‘lib, asosan, quyidagilardan iborat:

- a) boshqa to‘qimalar kabi bu to‘qima ham hujayralarni saqlaydi, lekin hujayralararo modda, hujayra elementlariga nisbatan katta qismni egallaydi;
- b) biriktiruvchi to‘qima uchun o‘ziga xos ipsimon (fibrillyar) strukturalarning mavjudligi xarakterlidir – kollagen, elastin va retikulin tolalari hujayralararo substansiya o‘ramida joylashgan;
- c) biriktiruvchi to‘qimaning hujayralararo moddasi juda murakkab kimyoviy tarkibga ega.

14.1. Kollagen

Biriktiruvchi to‘qimaning erimaydigan tolalari odam organizmida eng ko‘p tarqalgan oqsil – kollagendan tarkib topgan. U oqsillar umumiy miqdorining 25–33 %ini, tana og‘irligining taxminan 6 %ini tashkil etadi. Uning tarkibidagi barcha aminokislota qoldiqlarining $\frac{1}{3}$ qismini glitsin, $\frac{1}{3}$ qismini prolin va 4-gidroksiprolin, taxminan 1 %ni gidrosilizin tashkil etadi; kollagenning ba’zi molekulyar shakllari, juda kam miqdorda bo‘lsa ham, 3-gidroksiprolinni saqlaydi (14.2-rasm).




14.2.-rasm. Kollagen tarkibiga kiruvchi aminokislotalar: a – glitsin; b – prolin; c – hidroksiprolin; d – hidrosilizin; e – hidroksiprolin; f – 3-hidroksiprolin.

Biriktiruvchi to‘qimani elektron mikroskop yordamida o‘rganish unda fibrillalardan tuzilgan kollagen tolalarining mavjudligini ko‘rsatdi (14.3-rasm). Fibrillalar diametri 5 dan 200 nm gacha bo‘lgan


silindr shakliga ega. Kollagen fibrillalari tropokollagen birliklaridan tashkil topgan.

Turli to'qimalardan ajratilgan tropokollagenlar tarkibi bilan farq qilsa-da, lekin ularning hammasida glitsin ko'p va 5-oksilizin, 3-oksi, α -oksiprolin saqlaydi.




14.3-rasm. Kollagen tuzilishining turli darajalari (Kon bo'yicha): 1 – birlamchi struktura; 2 – tropokollagen molekulasi; 3 – kollagen tolasi.

Tropokollagen molekulasi 1,5 nm kenglik va 300 nm uzunlikka ega, molekulyar og‘irligi 300000. U uchta subbirlikdan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri taxminan 1000 aminokislota saqllovchi polipeptid zanjirdir (14.4-rasm).



14.4-rasm. Spiralsimon kollagen tripleti

Uchta spiral zanjir lizin va gidroksilizin qoldiqlari o'rtasidagi ko'p ko'ndalang bog'lar yordamida stabillangan (14.5-rasm).




14.5-rasm. Kollagenda lizin qoldiqlarining dezaminlanishi
ya molekulyararo bog'lanishning hosil bo'lishi

Hozirgi kunda, ma'lum to'qimalarga xos bo'lgan kollagenlarning 28 turi topilgan, ular tropokollagenlarning aminokislota tarkibi bilan farqlanadi. Tropokollagenlar aminokislota tarkibi ko'ra uch xil - α_1 , α_2 va α_3 zanjirlardan tashkil topgan. Barcha turdag'i kollagenlar shu uch turdag'i tropokollagen zanjirlarining turli miqdor va shakldagi kombinatsiyalaridan tashkil topgan. I tur kollagen asosan teri, suyak, boylamlarda, II tur – tog‘aylarda, III tur – embrion terisi, qon-tomir devorlarida, IV tur – biriktiruvchi membranalarda uchraydi.

Kollagen fibrillalari oxiri oxiriga va yon tomoni yon tomonga bog'langan tropokollagen molekulalaridan hosil bo'lgan. Kollagen yugori molekulalari o'tmishdosh prokollagen holatida sintezlanadi.

Kollagen — hujayradan tashqari oqsil, lekin u hujayradan o'tmishdosh molekula sifatida sintezlanadi, yetilgan kollagen fibrillalarini hosil qilishdan oldin posttranslyatsion modifikatsiyaga uchraydi. Kollagenning o'tmishdoshi (avval preprokollagen, so'ngra prokollagen) endoplazmatik retikulum va Goldji kompleksidan o'tish va hujayra tashqarisida paydo bo'lish davrida protsessingga uchraydi. Hujayradan tashqaridagi amino- va karboksiproteaza prokollagenni, tegishli ravishda N-uchdag'i va C-uchdag'i propeptidlarni uzib tashlaydi. Yangi hosil bo'lgan kollagen molkulalari spontan ravishda kollagen fibrillalariga to'planadi (14.6-rasm).




14.6-rasm. Kollagen sintezi

Zanjirlar va fibrillalar spiral molekulalarining Schiff asoslari va aldol kondensatsiya orqali qarama-qarshi bog'lanishdan hosil bo'lgan fibrillalar yetilgan kollagen fibrillalari kuchiga ega bo'ladi.

Prokollagen va tropokollagen zanjirlari qator posttranslyatsion modifikatsiyalarga uchraydi, ular kollagening spetsifik strukturasini shakllantirish uchun muhimdir. Oksiprolin va oksilizin prokollagen molekulasiida biosintez davrida bo'lmaydi. Ular prolin va lizinni gidroksillanishi natijasida, kollagen mRNKsi translyatsiyasi davrida ribosomalarda polipeptid ajralguncha paydo bo'ladi va uch spiralli struktura hosil bo'lgandan keyin bu jarayon tugaydi.

Peptid zanjirdagi prolin va lizin qoldiqlari



14.7-rasm. Prolin va lizinning gidroksillanishi


Gidroksillanish reaksiyalari prolingidrosilaza, lizingidrosilaza ta'sirida boradi, ular mikrosoma membranalari bilan bog'langan bo'lib, Fe^{+2} , askorbat kislota, α -ketoglutarat, O₂ ishtirokidagi reaksiyada boradi (14.7-rasm).

Askorbat kislota etishmovchiligi asosan mezenximal hujayralar funksiyasining buzilishi bilan bog'liqidir. Bunda kollagen va xondroitinsulfat sintezi buziladi. Hosil bo'lgan kollagenda oksiprolin kam bo'ladi. Og'ir kechuvchi singada biriktiruvchi to'qima asosiy muddasining hosil bo'lishi buziladi, bu to'qima asosiy strukturalarining depolimerlanishi va erishi vujudga keladi, natijada eski yaralar ochilishi mumkin.

Kollagening yarim yashash davri bir necha hafta yoki oylardir.

14.2. Elastin

Elastin biriktiruvchi to'qimaning ikkinchi asosiy oqsili. Kollagenden farqli ravishda qaynatganda jelatina hosil qilmaydi. Uning aminokislota tarkibi kollagenden farqlanadi. Elastin tolalari katta bo'limgan, deyarli sferik molekulalarining qattiq ko'ndalang bog'lar bilan bog'lanishi natijasida yuzaga kelgan. Lizin ishtirokidagi ko'ndalang bog'larning 2 turi aniqlangan. To'rt lizin qoldiqlaridan desmozin va izodesmozin deb atalmish birikmalar hosil bo'ladi.




Ular, odatda, 2 peptid zanjir o'rtasida hosil bo'ladi, lekin 3 yoki 4 peptid zanjirlardagi lizin qoldiglaridan ham hosil bo'lishi mumkin. Avval 3 lizin qoldig'i ε-aldegidgacha oksidlanadi, keyin esa to'rtinchilizin qoldig'i bilan kondensatsiyalanadi. Natijada desmozin yoki izodesmozin hosil bo'ladi. Desmozin va izodesmozin ko'ndalang bog'lar hosil qilishda qatnashadi. Ko'ndalang bog'lar hosil qilishda lizinnorleytsin ham qatnashadi.

Nativ elastin iplari tripsin yoki ximotripsin ta'sirida hazmlanmaydi, lekin pepsin ta'sirida pH 2 da sekin gidrolizlanadi. Oshqozon osti bezida proelastaza ishlab chiqariladi. U tripsin ta'sirida elastazaga aylanadi va alifatik aminokislotalarning karboksil guruhlari hisobiga hosil bo'lgan peptid bog'larni gidrolizlaydi. Elastin kollagen, proteoglikan va qator gliko- va mukoproteinlar bilan birga fibroblastlar biosintetik faoliyatining mahsuloti hisoblanadi. Hujayra biosintezining bevosita mahsuloti bo'lib elastin emas, balki uning o'tmishdoshi – tropoelastin hisoblanadi (kollagenda – prokollagen). Tropoelastin ko'ndalang bog'lar saqlamaydi, eruvchan. Keyinchalik tropoelastin yetilgan elasting aylanadi, erimaydi, ko'p miqdorda ko'ndalang bog'lar saqlaydi.

Elastin, kollagendan farqli, yuqori cho'ziluvchanlik xususiyatiga ega (14.8-rasm). Shuning uchun u cho'ziluvchi va qisqaruvchi to'qimalarda, qon tomirlari, boylamlar, o'pkada va ko'p miqdorda uchraydi. Masalan, aortda elastin to'qima umumiy massasining 30–60 %ini, boylamda esa — 70–80 %ni tashkil etadi.

Elastinning yarim yashash davri 75 yilni tashkil etadi.




14.8-rasm. Elastinning cho'zilishi va qisqarishi
284

14.3. Proteoglikanlar

Biriktiruvchi to'qimaning hujayradan tashqari moddasini proteoglikanlar hosil qiladi va ular to'qima quruq massasining 30 %ini tashkil etadi. Bular yuqori molekulyar og'irlikka ega bo'lgan polianion moddalar bo'lib, katta miqdorda turli geteropolisaxarid yon zanjirlarini tutadi va ular polipeptid zanjiri bilan kovalent bog'langan. Oddiy glikoproteinlardan farqli ravishda proteoglikanlar 95 %gacha uglevodlarni saqlaydi. O'z xususiyatlari bo'yicha oqsillardan ko'ra polisaxaridlarga ko'proq o'xshaydi. Proteoglikanlarning polisaxarid guruhlarini proteolitik ferment ta'sir ettirib, ajratib olish mumkin. Bu guruhlarini avval mukopolisaxaridlar deb atashar edi. Bugungi kunda ularni glikozaminoglikanlar deyiladi, chunki ularning hammasi glyukozamin yoki galaktozamini saqlaydi. Glikozaminoglikanlarning 6 asosiy sinfi tafovut etiladi:



- gialuronat kislota;
- xondroitin-4-sulfat;
- xondroitin-6-sulfat;
- dermatansulfat;
- keratansulfat I va II;
- geparan sulfat va heparin.

Gialuronat kislota. Bu glikozaminoglikanning qaytariluvchi disaxarid birligi quyidagi strukturaga ega:




Molekulyar og'irligi 10^5 dan 10^7 gacha. Ko'philik to'qimalarda kam miqdorda uchraydi, lekin proteoglikan agregatlarini hosil qilishda muhim struktur vazifani bajaradi.

Xondroitinsulfatlar keng tarqalgan glikozaminlar – xondroitin-4-sulfat va xondroitin-6-sulfat N-asetilgalaktozaminning 4- yoki 6-gidroksil guruhida sulfat efirining joylashishi bilan farqlanadi:



Molekulyar og'irligi 10^4 – 10^6 D, ko'pchilik preparatlari polidispers hisoblanadi. Turli to'qimalardan ajratilgan preparatlarning sulfatlanish darajasi turlichadir. To'qimalarda xondroitin-4-sulfat yoki xondroitin-6-sulfat, yoki ularning aralashmasi bo'ladi. Qaytariluvchi disaxarid birliklardan tuzilgan zanjir polipeptid zanjiridagi serin bilan kovalent bog'langan. Bunda qo'shimcha fragment bo'lib trisaxarid – galaktozil-galaktozil-ksiloza hisoblanadi.


Dermatansulfatlar. Xondroitinsulfatlardan farqli ravishda, bularning molekulasida L-iduron kislotasi bo'ladi va quyidagi qaytariluvchi disaxarid birliklaridan iborat:



L-iduron kislotasi qoldig'i N-asetilgalaktozamin-4sulfat qoldig'i
286

Qaytariluvchi birlikda ko'p bo'lmagan miqdorda iduron kislotasi o'rniga glyukuron kislotasi ham topilgan. Bu glikozaminlar, polipeptid zanjir bilan xondroitinsulfatlardagi kabi bog'langan.


Keratansulfatlar. Keratansulfat I va II quyidagi qaytariluvchi disaxarid birlikka ega:



D-galaktoza qoldig'i N-asetilglyukozamin-qoldig'i 6-sulfat

Lekin ular bir-biridan uglevdolarning umumiyligi miqdori bilan farqlanadi va turli to'qimalarda uchraydi. Ko'z shox pardasidan ajratilgan keratansulfat I fukoza, sial kislotasi va mannozani ham saqlaydi. Uning qaytariladigan oligosaxarid birliklaridan tuzilgan zanjiri polipepid zanjiri, bilan qon zardobidagi glikoproteidlarga o'xshab, Nasetilglyukozaminil-asparaginil bog'i yordamida bog'langan. Tog'ay va suyaklardan ajratilgan keratansulfat II disaxarid birlikka kiruvchi uglevdolardan tashqari N-asetilglyukozamin, fruktoza, sial kislotasi va mannozani saqlaydi. Keratansulfat II aminosaxarid zanjiri oqsil bilan serin yoki treonin orasida N-asetilgalaktozamin bilan O-glikozid bog'hosil qilish orqali bog'langan.


Geparin va geparansulfat. Geparin ko'pchilik hujayralarni yuzasida bo'ladi. U shuningdek semiz hujayralarni hujayra ichi komponenti hamdir. Uni qaytariluvchi disaxarid birligi quyidagi strukturaga ega:



Ba'zi glyukozamin qoldiqlari N-sulfat guruh o'rniغا N-asetil guruhini saqlaydi. Geparansulfat o'xshash disaxarid birliklaridan iborat, lekin ko'proq N-asetil, kamroq N-sulfat guruhlarini saqlaydi va O-sulfatlanish darajasini pastligi bilan xarakterlanadi. Dermatansulfat kabi, D-glyukuron kislota o'rniغا oz miqdorda, iduron kislotasi saqlashi mumkin. Geparin muhim antikoagulyantdir.


14.4. Proteoglikanlar biosintezi

Proteoglikanlarning oligosaxarid fragmentlari glikoziltransferazalarning ketma-ket ta'siri natijasida sintezlanadi. Bu fermentlar nukleotid-uglevoddan monosaxaridlarning tegishli akseptorga o'tkazish reaksiyasini katalizlaydi, bu akseptor boshqa uglevod yoki polipeptiddagi aminokislota qoldig'i bo'lishi mumkin. Oligosaxarid qism bosqichma-bosqich, har gal 1 qoldiqqa uzayadi (14.9-rasm).



Xondroitinsulfat biosintezida 6 xil glikoziltransferaza va 1 sulfotransferaza qatnashadi. Glikozillash sekretor hujayralarning Goldji apparatida vujudga keladi. Ribosomadan ajralgan proteoglikanning polipeptid zanjiri endoplazmatik retikulum kanallari bo'yicha Goldji apparatiga o'tadi, u yerda membranalar bilan bog'langan transferazalar ketma-ket oligosaxarid guruhlarning sintezini boshlaydi. Sintezlangan molekulalar Goldji apparatidan hujayra plazmatik membranasi sohasiga o'tadi va hujayradan chiqariladi.

To'qimadan ajratilgan proteoglikanlar *proteoglikan agregatlari* deb ataladi. Ularning asosiy qismini proteoglikan subbirliklari tashkil etadi. Gialuron kislota va bog'lovchi oqsil proteoglikan umumiy masasining 1 %ini tashkil etadi. Polipeptid zanjir proteoglikan subbirlikning asosi hisoblanadi. Proteoglikan agregatlari tuzilishi bo'yicha tor shisha idishlari yuvadigan cho'tkaga o'xshaydi (14.10-rasm).



14.10-rasm. Gialuron kislotasi bilan bog'langan agrekan:
1 – xondroitinsulfat zanjirlari; 2 – keratansulfat zanjirlari; 3 – peptid zanjir; GK – gialuron kislotasi.

Proteoglikan subbirliklari elektrostatik bog'lanishlar hisobiga kollagen bilan bog'lanadi.

14.5. Proteoglikanlar funksiyasi

Turli proteoglikanlar polivalent anionlar bo'lib, o'ziga kationlarni tortadi va bog'lab oladi. K^+ va Na^+ ionlari ham mustahkam bog'langanligi uchun ularning ion xususiyatlari namoyon bo'lmaydi. Barcha proteoglikanlar agregatsiyaga moyil, bu jarayon polivalent katoinlar, masalan Ca^{+2} ta'sirida kuchayadi. Uzun zanjirlar, ayniqsa, gialuron kislota zanjirlari, betartib o'ralib, katta masofani egallaydi va ular asosan suv bilan to'lgan. Bu joyga past molekulalar yoki ionlar kirishi mumkin, lekin katta molekulalar (masalan, albumin) kira olmaydi.


Gialuron kislota eritmalari yuqori yopishqoqlik xususiyatiga ega bo'lib, bo'g'imlarda moylovchi modda vazifasini bajaradi. Revmatik kasalliklarda bo'g'im suyuqligi yopishqoqligining o'zgarishi proteoglikanlar strukturasida o'zgarish natijasidir. Proteoglikanlar tashqi bosim ta'sirida suvning harakatlanishiga qarshilik ko'rsatadi va to'qimalarga elastiklik, siqilishga nisbatan chidamlilik beradi. Ular molekulyar elaklar sifatida ishlaydi: yirik ionlarning harakatlanishini chegaralaydi, proteoglikan domenlari orasiga albumin va immunoglobulin hajmiga ega bo'lган molekulalarning kirishiga qarshilik ko'rsatadi.

Gialuron kislota morfogenezda ishtirok etib, embriogenezda menzimal hujayralarning agregatsiyasini boshqaradi. Yoshga bog'liq holda hujayralarda proteoglikanlar tarkibi o'zgaradi. To'qimalarda keratansulfatlar konsentratsiyasi hayot davomida ortadi, lekin tog'ay va umurtqalararo disklarda xondroitin sulfat, shuningdek terida gialuron kislotasi miqdori kamayadi. Turli yoshlarda organizmga o'sish gormoni kiritilsa, proteoglikanlar sintezi va ularning tarkibi yosh organizmnikidek bo'ladi. O'sish gormonining ta'siri somatomedin orqali amalga oshiriladi va bunda tog'ay hujayralarning proliferasiyasi tezlashadi va proteoglikanlarga sulfatlarning kiritilishi stimullanadi. Testosteron ta'sirida qator to'qimalarda (yurak klapani, teri) gialuron kislotasi sintezi tezlashadi. Revmatizm yoki artrit bilan jarohatlangan bo'g'im sinovial suyuqligida gialuron kislotaning miqdori me'yordan ko'p, lekin u depolimerlangan holda. Bir qator adrenokortikosteroidlar kiritilganda gialuron kislotasi repolimerlanadi va uning *de novo* sintezi keskin

pasayadi. Qandli diabetda infeksiyalarga moyillik, yaralar bitishining pasayishi, tomirlar degeneratsiyasining tezlashishi organizmning mukopolisaxaridlarni sintezlash qobiliyatining pasayishi bilan bog'liqdir.

14.6. Fibronektin


Fibronektin ko'pgina hujayralarda sintezlanadi va hujayraaro bo'shliqqa chiqariladi. Fibronektin dimer bo'lib, bir xil yoki bir-biridan bir oz farq qiladigan, taxminan 250 kDa molekulyar og'irligiga ega, S-uchi sohasida ikki antiparallel disulfid bog'lari bilan bog'langan subbirliklardan tashkil topgan. Peptid zanjir bir necha globulyar domenlarni hosil qiladi. Molekulalar cho'ziq shaklga ega. Fibronektin molekulasi boshqa fibronektin molekulalari, kollagen, sulfirlangan glyukozaminoglikan, integrinlar bilan spetsifik bog'lanish markazlariga ega (14.11-rasm).




14.11-rasm. Fibronektin (a) va laminin-nidogen kompleksining (b) tuzilishi: dumaloq va ovallar – globulyar domenlar; GA – laminin zanjiri C-uchlari globulyar domenlari.

Fibronektinni talaygina hujayralar sintezlab, hujayralararo bo'shliqqa chiqarib turadi. Hujayralarning yuzalarida, basal membranalarda, biriktiruvchi to'qima hujayralararo moddasining bag'rida, shuningdek qon plazmasida fibronektin bor.

Fibronektin hujayralar plazmatik membranasi sialoglikolipidlari (gangliozidlar) yoki sialoglikoproteinlarning uglevodli guruhlariga, shuningdek, kollagen, gialuronat kislota va sulfirlangan glikozaminoglikanlarga birikadi. Mana shu birikmalardan har biri uchun fibronektin molekulasida maxsus biriktirish markazi bor. Shu tariqa polivalent bo‘lgani uchun fibronektin hujayralararo modda tuzilishida integratsiyalovchi rol o‘ynay oladi. Bundan tashqari, fibronektin molekulasida bir oqsil molekulasining glutamin qoldig‘i bilan ikkinchi oqsil molekulasining lizin qoldig‘i o‘rtasidagi reaksiyani katalizlab, ularni bir-biri bilan choclab qo‘yadigan ferment – transglutaminazani biriktirib olish markazi bor:



Transglutaminaza fibronektingga birikib olganidan keyin fibronektin molekulalarini bir-biriga, kollagen va boshqa oqsillarga ko‘ndalang choclar bilan choclab qo‘yadi (14.12-rasm). O‘z-o‘zidan yig‘ilish vujudga kelish yo‘li bilan paydo bo‘ladigan strukturalar shu usulda mustahkam kovalent bog‘lar bilan o‘rnashib qoladi.



14.12-rasm. Hujayralararo modda molekulalari bilan tashqi yuzasining o‘zaro ta’siri

14.7. Biriktiruvchi to‘qimaning qarilik va kollagenozlarda o‘zgarishi

Qarilikda biriktiruvchi to‘qimada suv va asosiy moddaning tolaga nisbati kamayadi. Bu koefitsiyentning pasayishi kollagen miqdorining ortishi va glikoproteinlar konsentratsiyasining pasayishi hisobiga bo‘ladi. Birinchi navbatda gialuron kislota miqdori kamayadi. Kollagenning fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘zgaradi (kollagenning eruvchi fraksiyalari pasayadi, molekulalar ichidagi ko‘ndalang bog‘lari soni va mustahkamligi ortadi, elastikligi va bo‘kish xususiyati pasayadi, kollagenazaga rezistentligi rivojlanadi va h.k.). Kollagen tolalarining struktur stabilligi, ya’ni biriktiruvchi to‘qima fibrillalarining yetilish jarayoni kuchayadi. Qarilikda metabolik jarayonlarning o‘zgarishi natijasida kollagenning molekulyar strukturası o‘zgaradi.

Biriktiruvchi to‘qimaning ko‘p o‘zgarishlari orasida kollagenozlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ular uchun biriktiruvchi to‘qima struktur tarkibiy qismlarining o‘zgarishi o‘ziga xos bo‘lib hisoblanadi (tola, hujayra, hujayralararo matriks). Kollagenozlarga revmatizm, revmatoid artrit, sistemali qizil bo‘richa, sistemali sklerodermiya, dermatomiozit va tugunchali periartrit kiradi. Kollagenozlarning rivojlanishi to‘g‘risidagi ko‘plab nazariyalar orasida, infeksiyon-allergik nazariya yetakchi bo‘lib hisoblanadi. Revmatoid artritli bemorlarda yallig‘lanish jarayoni faolligini aniqlash uchun qon zardobida glikoproteinlar miqdorini aniqlashdan keng foydalilanadi.

Revmatik artrit biriktiruvchi to‘qimaning sistemali kasalligi bo‘lib, kollagen va proteoglykanlar almashinuvining o‘zgarishi bilan kechadi. Shuning uchun, glikozaminlar miqdorini qon zardobida aniqlash muhim diagnostik ahamiyatga egadir. Bu maqsadda qon zardobida DNK va RNK miqdori ham aniqlanadi. Kollagenozlarda interfibrillyar modda – proteoglykan va kollagen bo‘lmagan oqsillarning metabolizmi keskin o‘zgaradi. Geksozamin va gialuron kislotalari miqdori ortadi, kollagen bo‘lmagan oqsillar to‘planadi. Kollagen tolalari parchalanishining kuchayishi kuzatiladi. Faol revmatik jarayonda

kollagen fibrillalari destruksiyasining ortishi kollagen va oksiprolin saqlovchi yirik peptidlarning qon zardobida paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada kollagenozlarda erkin oksiprolin va kichik peptidlar bilan bog'langan peptidlarning ekskresiyasi kuzatiladi (oksiprolinning siydiq bilan me'yorda ajralishi 15 mg/sut). Uning miqdorining ortishi revmatik jarayon faolligiga to'g'ri proporsional va uning mezoni bo'lishi mumkin. Oksiprolinning kollagenozlardagi ekskresiyasi glyukokortikosteroid preparatlari bilan me'yorlanadi.

Kollagen gidroksillanishining buzilishi singa kasalligida biokimyoiy yetishmovchiliklaridagi nuqsonlardan biridir. Askorbat kislota bo'limganda yoki yetishmaganda sintezlangan kollagen gidroksillanmagan bo'ladi, natijada, u past erish temperaturasiga ega. Bunday kollagen normal strukturali tolani hosil qila olmaydi. Bu esa terining jarohatlanishi va tomirlarning yorilishiga olib keladi, bu singada yaqqol rivojlangan.

15-bob. NERV TIZIMI BIOKIMYOSI

Nerv tizimi nerv to'qimasining boshqa tuzilmalari va alohida neyronlarning morfofunksional majmui bo'lib, barcha a'zo va organizm tizimlarining tashqi muhit bilan doimiy o'zaro ta'sirini birlashtiradi. U tashqi va ichki ta'sirotlarni qabul qiladi, kelayotgan axborotni tahlil qiladi va qayta ishlaydi, o'tgan faollik izlarini (xotira mexanizmlari) saqlaydi va shunga muvofiq organizm funksiyalarini tartibga soladi va muvofiqlashtiradi. Yuqorida aytib o'tilganlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, nerv tizimi butun organizmnинг kommunikativ, integrativ va adaptiv funksiyalarini bajaradi.

Kommunikativ funksiya organizmda struktur-funksional o'zaro bog'liqlikni, integrativ funksiya – a'zo va to'qimalar o'rtaсидаги o'zaro bog'liqlikni, adaptiv funksiya esa – organizmning tashqi qo'zg'atuvchilarga mos ravishda javobini ta'minlashdan iborat.

Nerv to'qimasi har qanday hujayraga xos bo'lgan umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'ziga xos xususiyatlar nerv to'qimasining kimyoviy tarkibi va metabolizmida namoyon bo'ladi.


Nerv to'qimasi uch hujayraviy elementlardan iborat: neyronlar (nerv hujayralarining o'zi); neyrogliyalar – bosh va orqa miya nerv hujayralarini o'rab turuvchi hujayralar; o'z ichiga mikrogliya – glial makrofaglarni (Ortega hujayralari) olgan mezenximal elementlar.

Bosh miyaning asosiy massasi nerv hujayralari va neyrogliyadan tuzilgan. Kul rang modda ko'proq neyronlardan (bosh miya muddasining 60–65 %) tashkil topgan bo'lsa, MNTning oq muddasi va periferik nervlar esa – ko'proq neyrogliya elementlari va ularning hosilasi – mielindan tashkil topgan.

15.1. Neyronning tuzilishi

Inson bosh miyasida chamasi 10^{11} ta neyronlar bor. Neyron dendritlar (ko'p sonli shoxlangan kalta o'simtalar) va aksondan (bitta uzun o'simta) iborat tanaga ega (15.1-rasm). Dendritlar va aksonlar

har bir neyronni boshqa neyronlar bilan bog'laydi, shuningdek, aksонlar neyronlarni boshqa effektor hujayralar bilan ham bog'laydi. Miyadagi neyronal aloqalar soni, ya'ni sinapslar chamasiga 10^{13} – 10^{14} ga yetadi. Nerv impulsi dendritlar va aksонlar orqali o'tadi.




15.1-rasm. Neyronning tuzilishi (Shmidt sxemasi): 1 – dendritlar; 2 – neyron tanasi; 3 – aksон; 4 – mielin qobiq; 5 – tugun bo'g'izlari; 6 – tugallannmalar.

15.2.-rasmda neyronning ultratuzilishi sxematik tarzda keltirilgan. Neyron tanasi plazmatik membrana – plazmalemma bilan o'rabi olinigan. Neyron sitoplazmasining asosiy ultratuzilishi – membranalar bilan cheklangan pufakchalar, naychalar va zichlashgan xaltacha yoki sisternalardan iborat endoplazmatik to'rdir. Ribosomalar endoplazmatik to'r membranasi yuzasida joylashgan va sitoplazmada erkin holdagi granulalar ko'rinishida bo'ladi. Rasm ostidagi matnda ular **polisomalar** deb belgilangan.

Nissl substansiyasi deb ataluvchi, RNK va oqsillardan tashkil topgan bazofil modda nerv hujayrasi uchun xos bo'lgan tuzilmadir. Neyron sitoplazmasida ingichka tolalar tarmog'i – birgalikda esa qalin to'mi hosil qiluvchi neyrofibrillalar aniqlanadi. Neyrofibrillalar – bu oqsil molekulalarining muntazam to'g'ri chiziqli oriyentatsiyalanishining struktur ifodasıdir.

Plastinasimon majmua (Goldji apparati) neyron sitoplazmasining muhim komponentidir: u yerda hujayraning lipid komponentlari to'plangan. Neyron mitoxondriyalarida boshqa hujayra mitoxondriyalariga qaraganda yog' kislotalari va aminokislotalarni oksidlash jarayonida ishtirok etuvchi fermentlar kamroq bo'ladi.




15.2-rasm. Elektron mikroskopiyasi ma'lumotlarga bo'yicha nerv hujayrasining ultrastrukturasining sxematik tasviri: VV – yadro membranalarining bo'rtmalari; VN – Nissl moddasi; G – plastinasimon majmua (Goldji apparati); GG – glikogen granulalari; KG – plastinasimon majmua quvurchalari; KM – mitoxondriyalar kristalari; L – lizosomalar; LG – lipid granulalari; M – mitoxondriyalar; MM – mitoxondriyalar membranasi; ME – endoplazmatik to'r membranalar; N – neyrofibrillalar; P – polisomalar; PM – plazmatik membrana; PR – presinaptik membrana; PS – postsinaptik membrana; PYa – yadro membranasi teshikchalar; R – ribosomalar; RNP – ribonukleoprotein granulalar; S – sinaps; SP – sinaptik pufakchalar; SE – endoplazmatik to'r sisternalari; ER – endoplazmatik retikulum; Ya – yadro; YaM – yadro membranasi.

Neyron yadrosining kattaligi 3 dan to 18 mkm gacha o'zgarib turadi, kattaroq neyronlarda tanasining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil qiladi.

15.2. Nerv tolasining tuzilishi

Dendritlar va aksonlar neyron tanasi plazmatik membranasining davomi bo'lgan naychalaridan iboratdir. Tola bo'shlig'i tarkibida sitoplazma (aksoplazma) bor bo'lib, tubulin oqsilidan hosil bo'lgan mikronaychalar uning asosiy organellalaridir. Shuningdek, aksoplazma tarkibida aktindan hosil bo'lgan neyrofilamentlar (diametri 10 nm) va mikrofilamentlar (diametri 5 nm) bor. Bu tuzilmalarning roli aksoplazmatik oqim hosil qilish, ya'ni aksoplazmani neyron tanasidan sinapslar tomon harakatidan iborat. Aynan shu oqim bilan turli xil metabolitlar, oqsillar va hattoki subhujayraviy tuzilmalar – mitokondriyalar, lizosomalar va endoplazmatik retikulum sinaptik tugallannmalarga ko'chib o'tadi. Sinapslardan neyron tanasiga qaytuvchi oqim esa kuchsizroq. Nerv tolalari mielin qobig'i bilan o'rabi olingan. Periferik nerv tanalarining mielin qobig'i lemmotsitlardan, miyada esa gliya hujayralari (oligodendroglial hujayralar)dan iborat.

Aslini olganda mielin – bu nerv o'simtalari atrofidagi neyrogliya hujayralarining bir necha bor qatlanadigan membranalaridan hosil bo'lgan tizimdir.



15.3-rasm. Mielin qobig'ining molekulyar tuzilishi (X.Xiddenga ko'ra). 1 – akson; 2 – mielin; 3 – tola o'qi; 4 – oqsil (tashqi qatlam); 5 – lipidlar; 6 – oqsil (ichki qatlam); 7 – xolesterin; 8 – serebrozid; 9 – sfingomielin; 10 – fosfatidilserin.

Mielin moddasi murakkab oqsil-lipid majmuasidan iborat. Bunda lipidlarga bu majmuaning 80 %i to'g'ri keladi; barcha lipidlarning 90 %i xolesterin, fosfolipid va serebrozidlardan iborat. 15.3-rasmda mielin qobig'ining molekulyar tuzilishi keltirilgan.

15.3. Miyaning kimyoviy tarkibi

Bosh miyaning kul rang moddasi neyron tanalarida, oq moddasi esa – aksonlarda o'z aksini topgan. Shu sababdan, miyaning ikki bo'limi kimyoviy tarkibiga ko'ra ancha farq qiladi. Tafovutlar, avvalambor, miqdoriy xususiyatga ega. Bosh miyaning oq moddasiga qaraganda kul rang modda tarkibida suv ancha ko'p bo'ladi (15.1-jadval).

15.1-jadval

Odam bosh miyasi oq va kul rang moddasining kimyoviy tarkibi (ho'l to'qima massasiga nisbatan foizlarda)

Tarkibiy qismlar	Kul rang modda	Oq modda
Suv	84	70
Quruq qoldiq	16	30
Oqsil	8	9
Lipidlar	5	17
Mineral moddalar	1	2

Miya to'qimasining asosiy moddalari – bu oqsillar va lipidlardir. Kul rang moddada oqsillar barcha quruq moddalarning yarmini tashkil qilsa, oq moddada – uchdan bir qismini tashkil qiladi. Biroq, miyaning nam massasiga hisoblaganda oqsillar miqdori taxminan teng, bu esa shu bo'limlardagi aynan suv miqdorining farq qilishi bilan shartlangan. Oq moddadagi lipidlar hissasiga quruq moddalarning yarmidan ko'pi to'g'ri kelsa, kul rang moddada esa – faqatgina 30 %i to'g'ri keladi.

Oqsillar. Oqsillar bosh miya massasining taxminan 40 %ini tashkil qiladi. A.Ya. Danilevskiy ilk bor miya to'qimasi oqsillarini ikki fraksiyaga ajratgan: 1) suvda va tuz eritmasida eriydigan oqsillar;

2) erimaydigan oqsillar. A.V. Palladin hamkorlari bilan nerv to'qimasini oqsillarini 4 fraksiyaga ajratishgan: 1) suv bilan ajraladigan; 2) 4,5 %li KCl eritmasi bilan ajraladigan; 3) 0,1 %li NaOH eritmasi bilan ajraladigan; 4) erimaydigan qoldiq. Kul rang modda oqiga qaraganda suvda eriydigan oqsillarga boyroq (30 va 19%ga to'g'ri keladi). Oq modda esa aksincha, kul rang moddaga (5%) qaraganda tarkibida ancha ko'proq erimaydigan oqsil qoldiqlar bor (22%). Hozirgi vaqtida, oqsillarni ajratib olishning turli xil zamonaviy uslublari miya to'qimasidan 100 ga yaqin turli xil eriydigan oqsil fraksiyalarni ajratib olish imkonini berdi.

Nerv to'qimasini tarkibida oddiy va murakkab oqsillar bo'ladi.

Miyaning oddiy oqsillariga neyroalbuminlar, neyroglobulinlar, kation oqsillar (gistonlar va b.) va tayanch oqsillar – neyroskleroproteinlar kiradi.

Bosh miyadagi neyroglobulinlar boshqa barcha eriydigan oqsillarga nisbatan o'rtacha 5 %ni tashkil qiladi. Neyroalbuminlar nerv to'qimasini fosfoproteinlarining asosiy oqsil komponentlaridir, ularning ulushiga eriydigan oqsillarning asosiy qismi (89–90%) to'g'ri keladi. Ular erkin holatda juda kam uchraydi; ular asosan lipidlar, nuklein kislotalar, uglevodlar (karbonsuvarlar) va boshqa oqsil bo'limgan komponentlar bilan o'zaro bog'langan.

Gistonlar nerv to'qimasini kation oqsillarining eng muhim vakillaridir, ular tarkibidagi lizin, arginin va glitsin miqdoriga qarab 5 fraksiyaga ajratiladi.

Neyroskleroproteinlar struktur-tayanch oqsillaridir. Ularning asosiy vakillari – neyrokollagenlar, neyroelastinlar, neyrostrominlar va boshqalardir. Ular asosan bosh miyaning oq moddasi va periferik nerv tizimida uchraydi va oddiy oqsillarning umumiy miqdoridan taxminan 8–10 %ini tashkil qiladi.

Nerv to'qimasining murakkab oqsillari – nukleoproteinlar, lipoproteinlar, fosfoproteinlar, glikoproteinlar va proteolipidlardir.

Nukleoproteinlar yo dezoksiribonukleoproteinlarga yoki ribonukleoproteinlarga mansub. Bu oqsillarning bir qismi miya to'qimasidan suv yordamida ajraladi, boshqa qismi – tuz eritmalar yordamida, uchinchi qismi esa – 0,1 % li ishqor eritmasi yordamida ajraladi.

Lipoproteinlar miya to'qimasining suvda eruvchi oqsillarining ko'p qismini tashkil qiladi. Fosfoglitseridlar va xolesterin – ularning lipid komponentidir. Proteolipidlari – oqsil-lipid birikmalari bo'lib, ular miya to'qimasidan organik eritmalar yordamida ekstraksiyalanadi. Lipoproteinlardan farqli ravishda ular suvda erimaydi, biroq xloroform-metanol aralashmasida eriydi. Lipidlardan ozod bo'lgan oqsillar suv va tarkibida gidrofob aminokislotalarning ko'pligi tufayli xloroform-metanol aralashmasida eriydi. Proteolipidlarning eng ko'p miqdori mielinda to'plangan bo'lib, kam miqdorlarda ular sinaptik membranalari va pufakchalar tarkibiga kiradi.

Fosfoproteinlar boshqa a'zo va to'qimalarga qaraganda miya tarkibida ko'proq miqdorda bo'ladi (barcha murakkab oqsillarning umumiy miqdoridan 2 %ni tashkil qiladi). Ular nerv to'qimasining turli xil morfologik strukturalari membranalarda aniqlangan.

Glikoproteinlar oqsillarning o'ta darajada geterogen guruhini o'zida ifoda etadi. Oqsil va uglevodlar miqdoriga ko'ra ular 2 guruhga ajratiladi:

- 5 dan 40 % gacha uglevod va ularning hosilalarini o'z ichiga olgan glikoproteinlar; oqsil qismi asosan albumin va globulindan tashkil topgan;

- 40 dan 85 % gacha uglevodlarni o'z ichiga olgan glikoproteinlar, ularda tez-tez lipid komponentlari ham aniqlanadi; tarkibiga ko'ra ular glikolipoproteinlarga mansub.

Shuningdek, miya to'qimasida yanada murakkab supermolekulyar strukturalar: liponukleoproteinlar, lipoglikoproteinlar va, ehtimol, lipoglikonukleoproteinlar majmualari ham bor. Nerv to'qimasida bir qator o'ziga xos oqsillar, masalan, S-100 va 14-3-2 oqsillari aniqlangan.

S-100 oqsili (Mur oqsili, nordon oqsil) tarkibida juda ko'p miqdorda glutamin va asparagin kislotalari mavjud. U asosan neyrogliyada to'plangan (85–90 %), neyronlarda esa u oqsil umumiy miqdoridan 10–15 % ni tashkil qiladi. Qizig'i shundaki, hayvonlarni o'rgatish (ya'ni mashq qildirish) chog'ida uning miqdori ortib boradi. Biroq, xotirani hosil qilish va saqlashda uning tutadigan o'rni masalasi ochiq qolmoqda. Ehtimol bu jarayonlarda u bilvosita ishtirok etar.

14-3-2 oqsili ham nordon oqsildir. U asosan neyronlarda uchraydi; neyroglial hujayralar tarkibida unchalik ham ko'p emas. Hozircha nerv to'qimasining o'ziga xos funksiyalarini bajarishdagi tutgan o'rni aniq emas.

Fermentlar. Miya to'qimasida tarkibida uglevodlar, lipidlar va oqsillar almashinuvini katalizlaydigan fermentlar bor. Sut emizuvchilar MNTsidan faqat ayrim fermentlar (atsetilxolinesteraza, kreatinkinaza) kristall ko'rinishida ajratib olingen. Miya to'qimasining ko'p lab fermentlari bir necha molekulyar ko'rinishida (izofermentlar) bo'ladi: laktatdegidrogenaza, kreatinkinaza, geksokinaza, malatdegidrogenaza, glutamatdegidrogenaza, xolinesteraza, nordon fosfataza, monoaminoksidaza va b.

Lipidlar. Nerv to'qimasining lipid tarkibi 15.2-jadvalda keltirilgan. Umuman, nerv to'qimasida lipidlar miqdori anchagina. Bosh miya lipidlari fosfoglitseridlar, xolesterin, sfingomielinlar, serebrozidlar, gangliozidlar va oz miqdorda neytral yog'da o'z aksini topgan.

Bosh miyaning kul rang moddasida fosfoglitseridlar ko'p bo'ladi (barcha lipidlarning 60%idan ortig'i), oq moddada esa ular 40%ga yaqin. Oq moddada xolesterin, sfingomielin va serebrozidlar ko'proq bo'ladi.

15.2-jadval

Nerv to'qimasining lipid tarkibi

Lipidlar	Kul rang modda	Oq modda	Mielin
umumiyl miqdori, quruq massaga nisbatan %da	32,7	54,9	70
xolesterin	22,0	27,5	27,7
serebrozidlar	5,4	19,8	22,7
gangliozidlar	1,7	5,4	3,8
fosfatidiletanolaminlar	22,7	14,9	15,6
fosfatidilxolinlar	26,7	12,8	11,2
fosfatidilserinlar	8,7	7,9	4,8
fosfatidilinozitollar	2,7	0,9	0,6
plazmalogenlar	8,8	11,2	12,3
sfingomielinlar	6,9	7,7	7,9

Uglevodlar. Miya to'qimasida glikogen va glyukoza bo'lsa-da, ammo boshqa to'qimalar bilan solishtirganda u uglevodlarga uncha boy emas. Turli hayvonlarning bosh miyasi tarkibidagi glikogen miqdori – 1–4 mkmol/g, glikogen esa – 2,5–4,5 mkmol/g ga teng. Qizig'i shundaki, embrion va endigma tug'ilgan hayvonlar miyasi tarkibidagi glikogen miqdori kattalarnikiga qaraganda ancha yuqori. Masalan, endigma tug'ilgan sichqonlarda glikogen darajasi kattalarnikiga qaraganda 3 baravar yuqori. Miyaning o'sishi va differensiyatsiyalangani sari glikogen konsentratsiyasi pasayadi va katta hayvonga nisbatan doimiy bo'lib qoladi.

Shuningdek, miya to'qimasida uglevodlar almashinuvining quyidagi oraliq mahsulotlari mavjud: geksozo- va triozofosfatlar, sut, pirouzum va boshqa kislotalar (15.3-jadval).

15.3-jadval

Kalamush bosh miyasi tarkibidagi uglevodlar (karbonsuvlar) almashinuvining ayrim metabolitlari haqida o'rtacha ma'lumotlar

Metabolit	Miqdori, mkmol/g	Metabolit	Miqdori, mkmol/g
Glyukozo-6-fosfat	0,039 – 0,049	3-fosfoglitserat	0,085 – 0,100
Fruktozo-6-fosfat	0,017 – 0,023	2-fosfoglitserat	0,010 – 0,016
Fruktozo-1,6-bisfosfat	0,010 – 0,017	Fosfoenolpiruvat	0,035 – 0,097
Dioksiatsetonfosfat	0,024 ↓	Piruvat	0,120 – 0,190
Glitseraldegid-3-fosfat	0,021 – 0,046 ↓	Laktat	1,26 – 1,70

Adeninnukleotidlar va kreatinfosfat. Miya to'qimasidagi adeninnukleotidlar ulushiga barcha erkin nukleotidlardan 84%iga yaqini to'g'ri keladi. Ularning taqsimlanishi 15.4-jadvalda keltirilgan. Qolgan nukleotidlarning katta qismini guanin hosilalari tashkil qiladi. Umuman olganda nerv to'qimasidagi yuqoriergik birikmalar miqdori uncha yuqori emas. Siklik nukleotidlar (sAMF va sGMF) miqdori uncha yuqori emas.

miqdori boshqa ko‘pgina to‘qimalarga qaraganda bosh miyada ancha yuqori. Miyadagi sAMF miqdori o‘rtacha 1–2 nmol/g, sGMFniki esa – 0,2 nmol/g ga teng. Miya o‘zining siklik nukleotidlar metabolizmi fermentlarining yuqori faolligi bilan ajralib turadi.

15.4-jadval

Kalamush bosh miyasida kreatinfosfat va nukleotidlar miqdori

Yuqori energetik moddalar	Miqdori, mmol/g
ATF	2,30 – 2,90
ADF	0,30 – 0,50
AMF	0,03 – 0,05
GTF	0,20 – 0,30
GDF	0,15 – 0,20
UTF	0,17 – 0,25
Kreatinfosfat	3,50 – 4,75

Mineral moddalar. Miyadagi Na^+ , K^+ , Cu^{2+} , Fe^{3+} , Ca^{2+} , Mg^{2+} va Mn^{2+} ionlari kul rang va oq moddada nisbatan bir me'yorda taqsimlangan. Kul rang moddaga qaraganda oq moddada fosfatlar miqdori yuqori. Bosh miyadagi ionlar miqdori qon plazmasi bilan solishtirilgan holda 15.5-jadvalda keltirilgan.

15.5-jadval

Inson bosh miyasi va qon plazmasida asosiy mineral komponentlar miqdori

Komponent	Miya to‘qimasi, mmol/kg	Qon plazmasi, mmol/l
Na^+	57	141
K^+	96	5
Ca^{2+}	1	2,5
Cl^-	37	101
HCO_3^-	12	28

15.5-jadvaldagagi ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, miyadagi Na^+ , K^+ hamda Cl^- ionlari miqdori ularning qon plazmasida konsentratsiyasidan keskin farq qiladi. Bundan tashqari, ko‘rinib turibdiki, kationlar miqdori anionlardan ancha yuqori. Bu anionlar tanqisligiga olib keladi. Ushbu anionlar tanqisligi lipidlar hisobiga qoplanadi, deb hisoblashadi.

15.4. Nerv to‘qimasi metabolizmining o‘ziga xos xususiyatlari

Nafas olish. Bosh miya tana vaznining 2–3 %ini tashkil qilgan holda, u tomonidan tinch holatda butun organizm iste’mol qiladigan kislороднинг 20–25 %ini iste’mol qiladi. To‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalar miyasi, hatto, butun organizm foydalanadigan kislороднинг 50 %ini iste’mol qiladi. Umuman olganda, miyada gaz almashinushi boshqa to‘qimalarning gaz almashinuvidan ancha yuqori, xususan u mushak to‘qimasi gaz almashinuvidan salkam 20 baravarga ortiq. Biroq, bosh miyaning turli bo‘limlarining nafas olish tezligi har xil: oq moddaning nafas olish tezligi kul rang moddanikiga qaraganda 2 baravar kam. Miya qobig‘i va miyacha hujayralari kislородни g‘oyatda shiddat bilan ishlataldi. Bosh miyaning narkoz paytida kislородни yutishi ancha kamroq bo‘ladi. Funksional faollik ko‘payganda miya nafas olish tezligi ortib boradi.

Uglevodlar metabolizmi. Miyaning nafas olishida glyukoza asosiy substrat bo‘lib hisoblanadi. 1 daqiqada 100 g miya to‘qimasi o‘rtacha 5 mg glyukoza iste’mol qiladi. Amalda glyukoza to‘liqligicha CO_2 va H_2O ga aerob ravishda oksidlanadi. Shuningdek, miyada glyukozani oksidlashning pentozofosfat yo‘li mavjud. Inson bosh miyasida umumiy hisobda 750 mg ga yaqin glyukoza bor. Bundan kelib chiqadiki, miyada mavjud bo‘lgan glyukoza miqdori faqatgina 10 daqiqaga yetadi, xolos. Shuning uchun glyukoza qondan bosh miya to‘qimasiga osonlik bilan diffuziyalanadi. Miyada glikogen bor bo‘lsada, uning miqdori unchalik ham ko‘p bo‘lmagan sababli, energetik jihatdan u hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Uglevodlarning aerob metabolizmi bilan bir qatorda miya to‘qimasi yetarli darajada shiddatli


anaerob glikolizga qodir. Ochlik holatida va mushaklar intensiv ishlaganda, miya energiyaga bo‘lgan ehtiyojini yarimigacha keton tanachalari hisobiga qondiradi. To‘qimasida laktatdegidrogenaza fermenti mavjud bo‘lishiga qaramay, miya qonga sut kislotasini ajratib chiqarmaydi. Bundan tashqari, u mushak ishlaganda qonga chiqadigan sut kislotasini shimb oladi. Ehtimol, laktatdegidrogenaza va “laktat-piruvat” tizimi piruvat konsentratsiyasini tartibga soluvchi bufer tizimi sifatida kerakdir.

Miyada energiyaning asosiy iste’molchisi – Na^+, K^+ -ATFaza hisoblanadi. U tinchlik potensialini ushlab turadi va nerv impulsi o‘tgandan so‘ng, uni qayta tiklaydi. Glyukozaning ko‘proq iste’mol qilishi miyani aynan giperglykemiyaga yuqori darajada ta’sirchan qilsa, glyukoza katabolizmining aerob tabiat esa uni gipoksiyaga ta’sirchan qiladi.


Makroergik fosfatlar metabolizmi. Miyadagi makroergik fosfatlarning yangilanish tezligi juda yuqori. Kislorod kirishi to‘xtagan vaziyatda miya labil fosfatlar zaxirasi hisobiga ko‘pi bilan 1 daqiqa “yashashi” mumkin. Hatto 10–15 soniyaga ham kislorod kirishi to‘xtatilsa, nerv hujayralari energetikasi izdan chiqadi, bu esa hush yo‘qotish holatiga olib keladi. Insulinli koma (giperglykemik koma) paytida oksidlanishli fosforlanish jarayoni buziladi, bu ATF konsentratsiyasini kamaytiradi va miya funksiyalarining o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Shuningdek, asablarning qo‘zg‘alishi va narkoz labil fosfatlar almashinuviga tezda o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Narkoz paytida nafas olishning susayishi natijasida miyaning yuqori energetik moddalarni ishlatilishi kamayib, ATF va kreatinfosfat miqdori yuqoriligidcha qoladi. G‘azablangan paytda nafas olish tezligi 2–4 baravarga kuchayadi, bu ATF va kreatinfosfat darajasining pasayishiga olib keladi.

Aminokislotalar va oqsillar metabolizmi. Inson miyasidagi aminokislotalar konsentratsiyasi qondagiga qaraganda 8 baravar ko‘p. Miyaning aminokislotalar tarkibi ma’lum bir o‘ziga xoslikka ega. Masalan, miyadagi erkin glutamin konsentratsiyasi sut

emizuvchilarining boshqa har qanday a’zolariga qaraganda yuqori (10 mkmol/g). Glutamin kislotasi hamda, uning amidi – glutamin va tripeptid glutation ulushi bosh miyaning α -amin azotining 50 % dan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Shuningdek, miyada γ -aminomoy, N-atsetilasparagin va sistationin kabi kislotalar mavjud bo‘lib, ular sut emizuvchilarining boshqa to‘qimalarida uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda uchraydi. Miya to‘qimasidagi aminokislotalar almashinuvni turli xil yo‘nalishlarda kechadi. Eng avvalo erkin aminokislotalardan oqsillar va biogen aminlar sintezi uchun foydalaniladi. Bosh miyadagi dikarbon aminokislotalarning funksiyalaridan biri – nerv hujayralari qo‘zg‘alganda ozod bo‘ladigan ammiakni bog‘lashdir. Miya to‘qimasiga aminokislotalarning kirishi va undan chiqishi, shuningdek, neyron va gliyalarning aminokislotalari sintezi uchun qon glyukozasidan foydalanilishi miyaning turli bo‘limlarida turlichadir. Bu gematoensefalik to‘sinq mavjudligi bilan shartlangan. Bosh miyadagi oqsillar faol yangilanish holatida bo‘ladi, biroq uning turli bo‘limlarida sintez tezligi va oqsillarning parchalanishi tezligi ham turlichadir. Miya yarim sharlarining kul rang moddasi va miyacha oqsillari juda ham katta tezlik bilan yangilanadi. Bosh miyaning o‘tkazuvchi tuzilmalari – aksonlarga (bosh miyaning oq moddasi) boy qismlarida sintez tezligi va oqsil molekulalarining parchalanishi kamroq. MNTning turli xil funksional holatlarida oqsillarning yangilanish tezligida o‘zgarishlar boshlanadi. Masalan, organizmga qo‘zg‘atuvchi agentlar (farmakologik vositalar va elektr toki) ta’sir qilganda bosh miyada oqsillar almashinuvni tezligi kuchayadi. Narkoz ta’siri ostida oqsillar parchalanishi va sintezi pasayadi. Nerv tizimining qo‘zg‘ashi nerv to‘qimasidagi ammiak miqdorini o‘sishi bilan birga sodir bo‘ladi. Qo‘zg‘alish paytidagi ammiakning hosil bo‘lishi, birinchi navbatda, AMFning dezaminlanishi hisobiga sodir bo‘ladi. Miya to‘qimasida ammiak glutamin kislotasi amidi – glutamin hisobiga neytrallanadi. Amidlash reaksiyasini glutaminsintetaza katalizlaydi: α -Ketoglutar kislotasi miya to‘qimasidagi glutamin kislotasi manbayidir: u hosil qilish yo‘li bilan aminlanadi, keyin α -iminoglutarat NADN yordamida glutamatgacha qaytariladi.



Shuningdek, nerv to'qimasidagi glutamin kislotosi GAMK (γ -aminomoy kislota) hosil bo'lishi bilan dekarboksidlanishi mumkin:



GAMK bosh miyaning kul rang moddasida juda ko'p miqdorda mavjud. Orqa miya va periferik nervlarda u ancha kamroq.

Lipidlar metabolizmi. Lipidlar bosh miya quruq massasining yarimini tashkil qiladi. Kul rang moddaning nerv to'qimalarida fosfoglitseridlar juda ham ko'p bo'lsa, nerv o'zaklarining mielin qobig'ida esa – sfingomielin ko'p bo'ladi. Kul rang moddaning fosfoglitseridlaridan fosfatidilxolin va, ayniqsa, fosfatidilinozitol hammadan ko'ra tezroq yangilanadi. Mielin qobig'i lipidlari almashinuvining tezligi unchalik katta emas. Xolesterin, serebrozidlar va sfingomielinlar juda sekin yangilanadi. Inson bosh miyasida juda ko'p xolesterin mavjud (25 g yaqin). Endigma tug'ilgan chaqaloqlar bosh miyasida xolesterin miqdori faqatgina 2 g bo'ladi. Biroq, hayotining birinchi yilda uning miqdori keskin ravishda ortib boradi (taxminan 3 baravar) va xolesterin biosintezi miyaning o'zida sodir bo'ladi. Kattalar bosh miyasida xolesterin biosintezi keskin pasayadi. yetuk miyada xolesterinning asosiy qismi noeterifikatsiyalangan holatda bo'ladi, xolesterin efirlarining nisbatan yuqori konsentratsiyasi faol mielinlanish joylarida aniqlanadi. Miyadagi fosfoglitseridlar biosintezi yo'llari boshqa to'qimalarda kechayotgan xuddi shu jarayonlar bilan o'xshashdir. Yog' kislotalari asosan glyukozadan hosil bo'ladi, biroq qisman ularning sintezi atsetoatsetat, sitrat va atsetilaspartatdan kechadi.

15.5. Nerv impulslarining paydo bo'lishi va o'tkazilishining kimyoviy asoslari

Nerv hujayralari yetkazadigan signallar, tabiatan neyronlar plazmatik membranasi elektr potensialining o'zgarishi bo'lib, boshqachasiga **nerv impulsi** deb ataladi. Nerv impulsi natriy nasosi (Na^+, K^+ -ATFaza) va ikki turdag'i kanallar – natriy va kaliy kanallari tufayli hosil bo'ladi. Funksional jihatdan bu uch moslamaning bari bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, ularning barchasi maxsus oqsillardan tuzilgan mustaqil struktur birliklardir. Natriy nasosi, ATF energiyasi hisobiga Na^+ va K^+ ionlari konsentratsiyasining transmembran gradiyentini hosil qilgan holda, Na^+ ionlarini tashqariga, K^+ ionlarini esa ichkariga o'tkazib qo'yadi. Natriy va kaliy kanallari ochilib yopilishi mumkin; ular orqali Na^+ va K^+ ushbu ionlar konsentratsiyasi gradiyyenti bo'ylab xarakatlanadi.

Tinchlik potensiali. Tinchlik paytida natriy va kaliy kanallari yopiq bo'ladi, natriy nasosi esa membrananing ikki tomonida Na^+ va K^+ ionlari konsentratsiyalari ayirmasini hosil qilgan holda uzlusiz ishlaydi. Shuningdek, bu ayirma boshqa ionlar taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi (15.6-jadval), buning natijasida dinamik muvozanat o'rnatilib, elektrokimyoviy transmembran gradiyent nolga teng bo'lib qoladi.

15.6-jadval

Tinchlik potensialini hosil qiluvchi asosiy ionlar (taxminiy konsentratsiyalari)

Ion	Konsentratsiya, mmol/l		Ion	Konsentratsiya, mmol/l	
	ichkarida	tashqarida		ichkarida	tashqarida
Na^+	10	145	HCO_3^-	10	25
K^+	150	5	A^*	155	5
Cl^-	5	120			


A* – makromolekulalar va fosfatlarning anion guruhlari

Biroq zaryadlar taqsimlanishi bir tekisda bo‘lmay qoladi: akson ichida keragidan ortiq manfiy zaryadlar, tashqarida esa musbat zaryadlar hosil bo‘ladi, ya’ni elektr potensiallarining transmembran ayirmasi – tinchlik potensiali paydo bo‘ladi. Tinchlik holatida u 60–70 mV ga teng bo‘ladi, akson ichidagi esa manfiy zaryad. Tinchlik potensiali butun tola davomida bir xil bo‘ladi. U nerv hujayralarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanmaydi. Natriy nasosi barcha hujayralarning plazmatik membranalarida mavjud bo‘ladi va uning ta’siri barcha holatlarda tinchlik potensialining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Harakat potensiali. Nerv qo‘zg‘atilganda akson membranasida Na^+ va K^+ kanallari ochiladi. Ehtimol bu, oqsillarning konformatsion o‘zgarishi va ionlashuvi natijasida sodir bo‘ladi. Kanallar ham ushbu oqsillardan tashkil topgan. Na^+ kanallari K^+ kanallariga qaraganda oldinroq ochiladi va ularning o‘tkazuvchanlik qobiliyati yuqoriroq. Natijada Na^+ ionlari akson ichiga kiradi, bu esa transmembran elektr potensiali kattaligini o‘zgarishiga olib keladi: boshida u nolga teng bo‘ladi, ya’ni membrananing qutbsizlanishi ro‘y beradi, so‘ngra qaytadan qutblanish sodir bo‘ladi, biroq endi aksonning tashqarisiga qaraganda uning ichida ko‘proq musbat zaryadlar paydo bo‘ladi, ya’ni qutblanish inversiyasi ro‘y beradi. Bu holatda potensiallar ayirmasi 40 mV ga yetadi, akson ichida – musbat zaryad. Shunday qilib, tinchlik potensialidan (-60....-70 mV), to nerv qo‘zg‘atilganda potensialning maksimal qiymatigacha (+40 mV) o‘zgarishning umumiy amplitudasi taxminan 100 mV ni tashkil qiladi (15.4-rasm).

Undan keyin Na^+ kanallari yopiladi, K^+ kanallari esa ochilib, hujayradan K^+ ionlarining chiqishi boshlanadi, va potensial +40 mV dan -70 mV gacha, ya’ni tinchlik potensiali darajasigacha o‘zgaradi. Bu hodisalar ketma-ketligini harakat potensiali deb atashadi va u 1 s dan kam vaqt davom etadi. Butun akson bo‘ylab tinchlik potensialining qiymati bir hil bo‘ladi, xarakat potensiali esa aksonning faqatgina uncha katta bo‘lmagan qismini egallaydi (mielinlashtirilgan tolalarda – bir Ranve bo‘g‘izidan yonidagisigacha). Toki qandaydir bir sabab tinchlik potensialini taxminan 50 mV gacha (bo‘sag‘a kattaligi) kamaytirib yuborsagina, xarakat potensiali hosil bo‘ladi. Xarakat

potensialining davom etish muddati kanallar ochiq bo‘lgan vaqt bilan aniqlanadi. Kanallar yopilayotgan vaqtida ular qutblanishga ta’sirchan bo‘lmaydi, va bu davrdagi qo‘zg‘alishlar xarakat potensialini yuzaga keltirmaydi (1 ms ga yaqin vaqt davom etadigan refrakter davr).



15.4-rasm. Harakat potensiali

Harakat potensialining akson bo‘ylab xarakati. Aksonning bir qismida paydo bo‘lib, xarakat potensiali ionlar diffuziyalanishi sababli bu qismdan tola bo‘ylab qo‘shni qismdagi tinchlik potensialini pasaytiradi va bu yerda ham xarakat potensiali o‘sishini keltirib chiqaradi. Ushbu mexanizm xarakat potensialini bir joyda paydo bo‘lib, butun aksondon o‘tishiga va qabul qiluvchi hujayraga yetib borishiga imkon tug‘diradi. Bu tarzdagi xarakat potensialini nerv impulsi deb atashadi.

Mielinlashtirilgan nerv tolalarida Na^+ va K^+ dan iborat ion kanallari Ranve bo‘g‘izlarining mielinlashtirilmagan qismlarida joylashgan

bo'ladi. Bunday qismlarda akson membranasi hujayralararo suyuqlik bilan aloqa qiladi. Shuning uchun nerv impulsi joydan-joyga "sakrab" harakatlanadi: bitta bo'g'izdag'i quvurlar ochilganda Na⁺ ionlari akson bo'ylab keyingi bo'g'izgacha diffuziyalanadi, bu yerda potensialni 50 mV gacha pasaytiradi va xarakat potensialini induksiyalaydi. Diffuziyalanish tez sodir bo'ladi, chunki xarakat potensialining maksimumida joylashgan Ranve bo'g'izi va xarakatsiz qo'shni bo'g'iz o'rtasida 100 mV ga yaqin potensiallar ayirmasi paydo bo'ladi. Bunday moslama tufayli mielinlashtirilgan tolada impuls o'tkazish tezligi 30 dan to 50 m/s ga teng bo'ladi. Bu mielinlashtirilmagan tolalarga qaraganda 5-6 baravar ko'p: ularda xarakat potensiali tekis xarakatlanadi. Nerv impulsini keltirib chiqaruvchi qutblanishning bo'sag'a kattaligi Sa²⁺ ionlari konsentratsiyasiga bog'liq. Sa²⁺ ning hujayraichra konsentratsiyasi 0,3 mkmol/l ga teng; gipokalsiemiya paytida u kamayadi, buning oqibatida nervlar qo'zg'atilishining bo'sag'a kattaligi pasayadi va spazmlar (xalq tilida: tomir tortishish) paydo bo'lishi mumkin.

Shvann hujayralari hosil qiluvchi mielin membranalari elektr izolyatori bo'lib xizmat qiladi. Bu izolyatsion qatlama ko'pgina nerv tolalarini qoplaydi va elektr to'lqin (signal) larning tarqalishini tezlashtiradi; bunda ionlar hujayraga kiradi va izolyator yo'q bo'lgan joylardan qaytib chiqadi. Ayrim kasalliklar, masalan, tarqoq skleroz, nerv impulsi o'tkazilishining buzilishiga olib keluvchi mielinsizlashtirilish xususiyati bilan ajralib turadi.


15.6. Nerv impulslarini yetkazishda mediatorlarning roli

Sinapsda akson uzilib qoladi va impulsni boshqa hujayraga yetkazilishi ma'lum bir modda – mediatorni diffuziyalash yo'li bilan sodir bo'ladi. Alovida neyron sinapslarida mediator sifatida qandaydir bir moddadan – atsetilxolin (xolinergik neyronlar yoki sinapslar), noradrenalin (adrenergik neyronlar) va h.k. lardan foydalilanildi.

Kimyoviy modda bir qator mezonlarga javob bergen vaziyatdagina uni mediatorlar qatoriga kiritsa bo'ladi. Misol uchun, nerv tolalarida


ushbu moddani sintezlash uchun zarur bo'lgan fermentlar bo'lishi kerak. Nervlar qo'zg'atilganda bu modda ajralib chiqishi, postsinaptik hujayrada o'ziga xos retseptor bilan reaksiyaga kirishi va biologik reaksiyani yuzaga keltirishi kerak. Ushbu modda ta'sirini tezda to'xtatuvchi mexanizmlar bo'lishi kerak. Bu mezonlarni barchasiga ikki modda javob beradi – atsetilxolin va noradrenalin. Ular mavjud bo'lgan nervlarni mos ravishda xolinergik va adrenergik deb ataladi. Bunga muvofiq barcha efferent tizimlarni xolinoretseptor va adrenoretseptorlarga ajratiladi. Boshqa bir qator kimyoviy moddalar yuqorida aytib o'tilgan mezonlarning hammasiga javob bermasa ham, lekin ko'plariga javob beradi. Bunday mediatorlarga dofamin, adrenalin, serotonin, oktopamin, gistamin, GAMK va b. kiradi.

Xolinergik sinapslar. Atsetilxolin – sirka kislotasi va xolinning murakkab efiridir. Nerv hujayrasida xolinatsetiltransferaza fermenti yordamida u xolin va atsetilkoenzim A dan sintezlanadi:



Sinaps – bir tomonidan presinaptik, boshqa tomonidan postsinaptik membrana bilan chegaralangan tor bo'shliqdir (tirqish) (15.5-rasm).

15.5-rasm. Sinapsning sxematik tasviri (Metslerga ko'ra): 1-sinaptik pufakchalar; 2-lizosoma; 3-mikrofibrillalar (neyrofibrillalar); 4-akson; 5-mitoxondriyalar; 6-membrananing presinaptik qalinlashishi; 7-membrananing postsinaptik qalinlashishi; 8-sinaptik tirqish (20 nm ga yaqin)




Presinaptik membrana nerv tugallanmasi sitoplazmasiga tegishli ichki qatlama va neyrogliyadan hosil bo'lgan tashqi qatlamga ega. Joylarda membrana

qalinalashgan va zichlashgan bo‘ladi, akson sitoplazmasini sinaptik bo‘shliq bilan aloqa qilishi uchun esa teshiklar mavjud bo‘lgan joylar ham bor, postsinaptik membrana esa kamroq zichlashgan bo‘lib, teshiklari bo‘lmaydi.

Nerv impulsini yetkazishda atsetilxolinni ishtirok etish jarayonini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Sinaptik nerv tugallanmalarida tarkibida neyromediatorlar bo‘lgan va diametri 30–80 nm ga teng bo‘lgan vezikulalar mavjud. Pufakchalar qobig‘i klatrin oqsilidan hosil bo‘lgan (molyar massasi 180000). Xolinergik sinapslarda diametri 80 nm ga teng bo‘lgan har bir pufakcha tarkibida ~ 40000 ta atsetilxolin molekulalari mavjud. Qo‘zg‘alishda har bir alohida pufakchalarni butunlay bo‘shatish yo‘li bilan mediator “kvant” ko‘rinishida ajralib chiqadi. Normal sharoitlarda taxminan 100–200 mediator kvantlari ajralib chiqadi. Sinaptik tugallanmalar membranalarining qutbsizlanrilishi hujayraga Ca^{2+} ionlarining tezkor oqimini yuzaga keltiradi. Ca^{2+} ionlarining ko‘payishi sinaptik pufakchalar membranasini plazmatik membrana bilan qo‘shilishini tezlashtiradi va ularning ichidagi narsalardan bo‘shatish jarayoni harakatga keltiriladi.

Sinaptik tirqishga ajralib chiqqan atsetilxolin postsinaptik membrana tarkibiga kiruvchi retseptor bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Natijada membrana o'tkazuvchanligi o'zgaradi, bu Na^+ uchun o'tkazuvchanlik qobiliyatini keskin ravishda oshishida o'z aksini topadi. Retseptor va mediator o'rtasidagi o'zaro ta'sir postsinaptik nerv hujayralari yoki effektor hujayralarining o'ziga xos funksiyalarini bajarishga majbur qiladigan bir qator reaksiyalarni harakatga keltiradi. Keyin inaktivlash va mediatoryni sug'urib tashlash fazasi keladi.

Xolinergik sinapslarda inaktivlashning 2 varianti mavjud. Birinchi variantga ko‘ra atsetilxolin fermentativ gidroliz ta’siri ostiga olinadi. Ikkinci variant – atsetilxolini neyronga energiya sarflab transportlash. Atsetilxolin neyronda takroran foydalanish uchun to‘planadi. Atsetilxolining sirka kislotasi va xolingga gidrolitik parchalanishini – atsetilxolinesteraza (asl xolinesteraza) fermenti katalizlaydi:



Nerv to‘qimalarida atsetilxolinni gidrolizlashga qodir boshqa esterazalar ham mavjud, biroq ular bu jarayonni, masalan, butirikolin bilan bajarilishiga qaraganda ancha sekin bajarishadi. Bu esterazalarni xolinesterazalar (yoki soxta xolinesteraza) deb ham ataladi. U yoki bu kimyoviy birikmalar guruuhlariga ta’sirchanligiga qarab xolinergik nevronlar muskarin (muskarin yordamida faol harakatga keltiriladigan) va nikotin (nikotin yordamida faol harakatga keltiriladigan) nevronlarga bo‘linadi. Atsetilxolining muskarin retseptorlari o‘ziga xos ravishda atropinlar bilan blokланади. Nikotin sinapslar gangliyalар va skelet mushaklarida mavjud bo‘лади. Kurare va ushbu zaharning faol komponenti bo‘lmish D-tubokurarin nikotin sinapslarining ingibitorlari (fermentlar faolligini bosadigan kimyoviy moddalar) hisobланади.

Og‘ir autoimmun kasallik – miasteniyada (myasthenia gravis) ishlab turuvchi postsinaptik retseptorlar sonining kamayishi kuzatiladi. Natijada, ko‘pincha o‘limga olib keladigan juda og‘ir mushak kuchsizlanishi paydo bo‘ladi. Miasteniyani davolashda boshqa dorilar bilan bir qatorda antixolinesterazga qarshi dorilar ham qo‘llaniladi (prozerin, kalimin va neyromidin). Bu birikmalar atsetilxolinesteraza faolligini bosgan holda atsetilxolin yig‘ilishiga yordam beradi va oxir-oqibat mushaklar qisqarishiga olib keladi.

Retseptorlarga bevosita ta'sir etuvchi, vazifasi jihatidan qaramaqarshi bo'lgan moddalardan tashqari, impulslar yetkazilishining boshqa bosqichlariga ta'sir ko'rsatuvchi ingibitorlar ham mavjud. Masalan, botulin toksini sinaptik pufakchalardan atsetilxolin bo'shab chiqishini to'xtatadi. Fugu balig'idagi tetrodotoksin va saksitoksin postsinaptik membranadagi Na^+ kanallari va shu bilan birga nerv yetkazilishini to'sadi. Batraxotoksin Na^+ uchun mushak hujayralari membranalarining o'tkazuvchanligini oshiradi. Qoqshol toksini markaziy nerv tizimida va nerv-mushak birikmalarida, ehtimol, kalsiy transportini buzish yo'li bilan to'sadi.


Adrenergik sinapslar. α - va β -adrenoretseptorlar mavjud. β -adrenoretseptorlar, gormonlar va hujayralarning turli funksiyalari o'rtasida universal "ikkinci vositachi" – siklik adenozin-3',5'-monofosfat (sAMF) yordamida efferent hujayrani o'z ichiga oladi. Noradrenalining effektor hujayrasi membranasining tashqi sirtida joylashgan β -adrenoretseptorlar bilan o'zaro ta'sirida hujayra membranasining ichki sirtida adenilatsiklaza fermenti faollashishi aniqlangan. Faol harakatga keltirilgan adenilatsiklaza ATPni sAMFga o'zgartiradi; oxirgisi esa hujayra metabolizmiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday qator murakkab reaksiyalar noradrenalining β -adrenergetik retseptorlar bilan bog'lanishiga to'sqinlik qiladigan modda – propranolol tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Katexolamin mediatorlar metabolizmida monoaminoksidaza (MAO) alohida o'rinn tutadi. Bu ferment noradrenalin, serotonin, dofamin va adrenalindan aminoguruhni olib tashlaydi va shu orqali ularni inaktivatsiyalaydi. Oxirgi yillarda mediatorni tezlik bilan olib tashlash mexanizmi mavjudligi ko'rsatilgan. Masalan, simpatik nervlar tomonidan ikkilamchi yutilishi natijasida noradrenalin sinaptik tirkishdan tezda g'oyib bo'lishi mumkin.

Bosh miyaning adrenergik va xolinergik tizimlari miyaning boshqa tizimlari, xususan mediator sifatida serotoninidan foydalanadiganlari bilan uзвиy ravishda o'zaro aloqada bo'ladi. Tarkibida serotonin bo'lган nevronlar, asosan, miya o'zagi yadrosida to'plangan bo'ladi. Serotoninning neyromediatorlik roli uning o'ziga xos serotonininoergik retseptorlar bilan o'zaro ta'siri natijasida amalga oshiriladi. Serotonin sintezi ingibitori p-xlorfenilalanin, hamda boshqa ingibitorlar bilan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, serotonin tush ko'rish jarayonlariga ta'sir qilar ekan.

γ - aminomoy kislota (GAMK) tormozlanish funksiyalarini bajaruvchi muhim neyromediatordir, uning bosh miyadagi miqdori boshqa neyromediatorlarga qaraganda ancha ko'p. Masalan, gipotalamusda GAMK miqdori 600 mkg/g teng bo'lган vaqtida, undagi atsetilxolin, noradrenalin, dofamin va serotoninlarning jami miqdori 10 mkg/g dan oshmaydi. GAMK K⁺ ionlari uchun postsinaptik

membranalar o'tkazuvchanligini oshiradi va bu bilan harakat potensiali paydo bo'ladigan bo'sag'a darajasidan membrana potensialini uzoqlashtiradi; GAMK glutamatni glutamatdekarboksilaza bilan dekarboksillanganda hosil bo'ladi:



Terapevtik amaliyotda mediatorlar tizimi orqali ta'sir ko'rsatuvchi katta miqdordagi dori vositalari qo'llaniladi. Gipertoniyanı davolashda muvaffaqiyat bilan qo'llanilayotgan ko'pgina dori vositalari adrenergik mediatorlarning to'planishi va ajralib chiqishiga ta'sir qiladi. Masalan, rezerpin katexolaminlarni neyronlarning maxsus granulalariga ko'chirish jarayonini o'ziga xos ravishda to'xtatadi va bu bilan ushbu aminlarni endogen MAO ta'siriga yo'l ochadi. Natijada noradrenalin miqdori pasayadi, rezerpinning gipotenziv effekti ham shu bilan bog'liq. Boshqa gipotenziv preparat – α -metildofa nerv hujayralari (akson) fermentlari ta'siri ostida o'zining tuzilishiga ko'ra noradrenalinni eslatuvchi moddaga aylanadi. Bu "soxta" mediatorlar tabiiy mediatorlar bilan birga yig'ilib, ularning miqdorini kamaytiradi ("suyultiradi") va ajralib chiqadi, bu bilan ularning effektini pasaytiradi. Ko'pgina antidepressantlar (depressiyaning oldini oluvchi moddalar) sinaptik tirkishdagи katexolaminlar miqdorini oshiradi. Masalan, imipramin noradrenalinni nerv tolalari tomonidan yutilishini to'sadi, amfetamin noradrenalin ajralib chiqishiga yordam beradi va uning yutilishini to'sadi, MAO ingibitorlari katexolaminlar metabolizmini bosadi va h.k. Bu natijalar, ruhiy depressiya miyada katexolaminlar yetishmasligi bilan bog'liq degan, depressiv holatlarning katexolamin nazariyasiga asos bo'lgan. 50-yillarning boshida farmakologlar mashhur gallyusinogen modda lizergin kislotasining dietilamini (LSD) kimyoviy tuzilishiga ko'ra serotonin bilan nafaqat o'xshash, balki uning ba'zi farmakologik effektlarini (serotonin retseptorlarini to'sgan holda) neytral holatga keltirishini aniqlashgan. Shuning

uchun serotonin almashinuvini buzilishi o'ziga xos ruhiy kasalliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkinligi haqida taxmin aytilgan. Tibbiyotning eng muhim muammolaridan biri fikrlashning buzilishi, ruhan ezilganlik holati va yakkalanib qolish xususiyatlari bilan ajralib turadigan shizofreniyadir. Gallyusinatsiyalar va paranoid hodisalar ham kam emas. Shizofreniya patogenezining turli xil nazariyalari mavjud. Ularning biriga ko'ra shizofreniya dofamin neyronlarining giperfaolligi natijasi bo'lishi mumkin. Aminazin (xlorpromazin) va galoperidol kabi antipsixotik vositalar katekolaminlar sintezini oshirgan holda dofamin retseptorlarini to'sib qo'yishga qodir, shu sababli dofaminning funksional tanqisligi paydo bo'ladi.

Impulslarni dofaminergik yetkazib berilishining buzilishi bilan mushaklarning rigidligi (qotib qolishi), harakatlarning erkin emasligi va o'ziga xos g'ayriixtiyoriy harakatlarda namoyon bo'ladigan Parkinson kasalligi ham bog'liq. Parkinson kasalligidan vafot etgan odam miyasining targ'il tanasida dofamin miqdori keskin pasaygan. Bemor qoniga DOFAning (dioksifenilalanin) quylishi kasallik simptomlarini bartaraf qiladi: dofamindan farqli o'laroq DOFA qondan miyaga osonlik bilan kirib oladi va u yerda dofaminga aylanadi.

Beriluvchan shaxslarda turli xil giyohvand vositalarga (morphin, barbituratlar, spirtli ichimliklar) haddan tashqari qiziqish (mayl) oson paydo bo'ladi. Afyun alkoloидларини qabul qiladigan shaxslarda dori yo'qligida og'riqli abstinensiya simptomlari sifatida namoyon bo'ladigan jismoniy qaramlik (mutelik) kuzatiladi. Bunda narkotik ta'siriga yuqori chidamlilik (bardoshlik) rivojlanadi, ya'ni narkomanlar oddiy odam uchun halokatli bo'lган dozalarni oson ko'taradi. MNT da morfinning o'ziga xos retseptorlari mavjud. Tabiatan ular neyromediatorlar va modulyatorlarni bog'lash uchun mo'ljallangan. Misol uchun, pentapeptidlar (enkefalinlar) – metioninenkefalin (1) va leytsinenkefalin (2) afyun ta'siriga qarama-qarshi bo'lган moddalardir:

Tyr-Gly-Gly-Phe-Met (1);

Tyr-Gly-Gly-Pbe-Leu (2)

Shunday qilib, afyun alkoloидлари miyaning bir qancha tabiiy peptidlari effektini takrorlaydi. Jiddiy farmakologik muammolar shundan iboratki, afyun alkoloидлари eng kuchli og'riqni qoldiruvchi agentlardir, shu bilan birga, og'riq sezgilarini qoldirish qobiliyatgi giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi yashirin qobiliyatga to'g'ri proporsional. Zamonaviy meditsina ixtiyorida samaradorlik va og'riqni qoldirish bo'yicha morfinga teng bo'lган, ammo ko'nikishni hosil qilmaydigan vosita yo'q.

Giyohvandlik nazariyasi "retseptor-agonist" tizimida giyohvand muddasini retseptorlar bilan bog'lanishi natijasida, qandaydir kompensator o'zgarishlar paydo bo'lishini postulat sifatida faraz qiladi. Masalan, morphin tormozlantiruvchi effektga ega gormonga o'xshab ta'sir ko'rsatadi, ya'ni sAMF miqdorini pasaytiradi. Shu sababli nerv hujayrasining kompensator reaksiyasi rivojlanib boradi. Bu atsenilatsiklaza miqdorining ko'payishi yoki faolligida namoyon bo'ladi va sAMF konsentratsiyasining, ko'payishiga olib keladi. Natijada morfinga mutelik paydo bo'ladi, chunki uning yo'qligida sAMF miqdori juda yuqori bo'lib ketadi.

Anestetiklar – nerv tiziminining funksional holatiga ta'sir qiluvchi boshqa muhim vositalar guruhidir. Ularga juda katta molekulyar og'irlilikka ega birikmalar, masalan, barbituratlar hamda dietil efiri va galotan ($CF_3CHClBr$) turidagi oddiy birikmalar kiradi. Hozirga vaqtida galotan juda keng qo'llaniladigan ingalyatsion anestetikni o'zida ifoda etadi. Anestetiklarning ta'sir mexanizmiga nisbatan bir qancha nazariyalar mavjud. Bu turdag'i dorilarning samaradorligi ularning lipidlarda eruvchanligiga bog'liq deb hisoblanadi. Biroq, nerv hujayrasida ular ta'sir qiladigan joyni aniqlash g'oyat mushkul. Yaqinda bayon qilingan farazlardan biriga ko'ra anestetiklar vodorod bog'larini uzishga qodir. Anestetiklarning hujayra darajasidagi asosiy effekti natriy ionlari oqimini nerv hujayralari membranalari orqali kamaytirishdan iborat.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I QISM MOLEKULYAR BIOLOGIYA

1-bob

Nuklein kislotalar: DNK, RNK

1.1. Nuklein kislotalarining strukturasi.....	7
1.2. Xromatin. Gistonlar, nukleosoma va ribosomalar.....	13
1.3. Genomning genetik tashkil etilishi.....	17
1.4. DNK replikatsiyasi.....	21

2-bob.

RNK SINTEZI VA PROTSESSING

2.1. RNK protsessingi.....	37
----------------------------	----

3-bob.

OQSIL SINTEZI VA GENETIK KOD

3.1. Axborot oqimi.....	41
3.2. Genetik kod va oqsil biosintezi.....	42
3.3. Oqsil biosintezida transport RNKlar.....	45
3.4. Oqsil biosintezi.....	48

4-bob.

GENLAR EKSPRESSIYASINING BOSHQARILISHI

4.1. Oqsil biosintezining boshqarilishi va oqsil sintezi ingibitorlari.....	55
---	----

4.2. Prokariotlarda genlar ekspressiyasining boshqarilishi.....	57
4.3. Eukariotlarda genlar ekspressiyasining boshqarilishi.....	60
4.4. Matriksali biosintetik jarayonlar ingibitorlari.....	69

5-bob.

GENETIK O'ZGARUVCHANLIKNING MOLEKULYAR MEXANIZMLARI

5.1. Mutagenez.....	74
5.2. Oqsillar polimorfizmi.....	80
5.3. Irsiy kasalliklar.....	84
5.4. Apoptoz.....	86

6-bob.

REKOMBINANT DNK TEXNOLOGIYASI

6.1. Gen muhandisligining assosiy tushunchalari.....	96
6.2. Polimerazazanjirreaksiysi.....	101
6.3. Kasalliklarning DNK-diagnostikasi.....	104
6.4. Biologiya vatibbiyotdag texnologiyalaridan foydalanish..	106

7-bob.

ONKOGENEZ

7.1. O'smalarning paydo bo'lishi sabablari.....	109
7.2. Onkogen viruslar.....	114
7.3. O'sma hujayralari tavsifi.....	115
7.4. Onkogenlar, protoonkogenlar va o'smalarga qarshi suppressor-genlar.....	117
7.5. Neoplastik transformatsiya mexanizmlari.....	120
7.6. O'sma kasalligini tashxislash va davolashning assosiy prinsiplari.....	122

II QISM FUNKSIONAL BIOKIMYO

8-bob QON BIOKIMYOSI

8.1. Qonning umumiy va maxsus xususiyatlar.....	126
8.2. Qonning kimyoviy tarkibi.....	127
8.3. Qon plazmasi oqsillari.....	128
8.3.1. Umumiy ma'lumotlar.....	128
8.3.2. Qon plazmasidagi oqsil fraksiyalari.....	132
8.3.3. Yallig'lanishning o'tkir fazasi oqsillari.....	135
8.3.4. Bolalardagi oqsil fraksiyalari miqdorining o'ziga xosliklari	136
8.3.5. Qon plazmasining fermentlari.....	136
8.3.6. Qonda fermentlar faolligini o'zgarishi sabablari.....	137
8.4. Qonning oqsil bo'lmagan azot komponentlari (qoldiq azot)....	138
8.5. Qonning azotsiz organik komponentlari.....	140
8.6. Qon plazmasidagi mineral komponentlar.....	141
8.7. Temir almashinivi.....	143
8.8. Eritrotsitlar va gemoglobin.....	147
8.9. Gemning sintezlanishi va uning boshqaruvi.....	150
8.10. Qonning ivish tizimi.....	152
8.10.1. Gemokoagulyatsiya jarayoni to'g'risida tushuncha.....	152
8.10.2. Qon ivishi omillarining qon plazmasidagi miqdori va asosiy vazifalari.....	153
8.10.3. Fibrinogenni fibringga aylanishi.....	156
8.10.4. Qon ivishining tashqi va ichki yo'llari.....	159
8.11. Ivishga qarshi mexanizmlar.....	162
8.12. Fibrinolizning asosiy mexanizmlari.....	164
8.13. Ivish jarayonlarining buzilishi.....	166

9-bob. BUYRAKLAR BIOKIMYOSI

9.1. Siydiq hosil bo'lish mexanizmi.....	168
9.2. Buyrakning kislota-ishqor muvozanatni saqlashdagi vazifasi ..	172
9.3. Buyrak to'qimasida me'yorda va patologik holatlarda modda almashinuvining o'ziga xos tomonlari.....	174
9.4. Siydiqning umumiy xususiyatlari va tarkibiy qismlari.....	175
9.5. Siydiqning kimyoviy tarkibi.....	178
9.6. Siydiqdagi organik moddalar.....	179
9.7. Siydiqning anorganik (mineral) tarkibiy qismlari.....	182
9.8. Siydiqning patologik tarkibiy qismlari	184

10-bob. SUT BIOKIMYOSI

10.1. Laktatsion funksianing umumiy tavsifi.....	187
10.2. Og'iz sutining umumiy tavsifi.....	188
10.3. Yetilgan sutning tarkibi.....	191

11-bob. JIGAR BIOKIMYOSI

11.1. Jigarning vazifalari va tarkibi.....	198
11.2. Jigarning uglevodlar, lipidlar va oqsillar almashinividagi ishtiroki.....	199
11.3. Bilirubin metabolizmi va ekskretsiyasi, sariqlik sindromi.....	203
11.4. Jigarning zararsizlantiruvchi funksiyasi: endotoksin va ksenobiotiklar detoksifikatsiyasi, kimyoviy kanserogenez.....	208
11.5. O't tarkibi va uning buzilishlari.....	216

12-bob.

KISLORODNING FAOL SHAKLLARI, OKSIDLOVCHI STRESS VA ANTIOKSIDANTLAR

12.1. Kislorodning faol shakllari.....	217
12.2. KFShning paydo bo‘lish va zararsizlantirish mexanizmlari, erkin-radikal oksidlanish reaksiyalarining zanjir mexanizmlari.....	221
12.3. Antioksidantlar.....	232
12.4. Biomolekulalar peroksidatsiya mahsulotlarining zaharli ta’siri.....	243
12.5. Kasalliklar patogenezida oksidlanuvchi stress.....	246

13-bob.

MUSHAKLAR BIOKIMYOSI

13.1. Mushaklarning kimyoviy tarkibi.....	247
13.2. Mushaklarning tuzilishi.....	249
13.3. Mushak tolasining tuzilishi.....	250
13.4. Mushaklarning qisqarish mexanizmi.....	257
13.5. Silliq mushaklar. Turli a’zolarda silliq mushaklarning vazifalari.....	260
13.6. Mushak ishi uchun energiya manbalari.....	266
13.7. Yurak va silliq mushaklarning kimyoviy tarkibining o‘ziga xosliklari.....	270
13.8. Patologiyada muskullardagi biokimyoviy o‘zgarishlar....	271

14-bob.

BIRIKTIRUVCHI TO‘QIMA BIOKIMYOSI

14.1. Kollagen	279
14.2. Elastin	283
14.3. Proteoglykanlar	285

14.4. Proteoglykanlar biosintezi	288
14.5. Proteoglykanlar funksiyasi	290
14.6. Fibronektin.....	291
14.7. Biriktiruvchi to‘qimaning qarilik va kollagenozlarda o‘zgarishi.....	293

15-bob.

NERV TIZIMI BIOKIMYOSI

15.1. Neyronning tuzilishi.....	295
15.2. Nerv tolasining tuzilishi.....	298
15.3. Miyaning kimyoviy tarkibi.....	299
15.4. Nerv to‘qimasini metabolizminingo‘zigaxos xususiyatlari....	305
15.5. Nerv impulslarining paydo bo‘lishi va o‘tkazilishining kimyoviy asoslari.....	309
15.6. Nerv impulslarini yetkazishda mediatorlarning roli.....	312

SABIROVA RIXSI ABDUKADIROVNA,
YULDASHEV NOSIRJON MUXAMEDJANOVICH

Yuldashev N.M. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika” kafedrasi mudiri, biologiya fanlari doktori, professor.

Sabirova R.A. – Toshkent tibbiyot akademiyasi “Tibbiy va biologik kimyo” kafedrasi professor, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Inoyatova F.X. – Toshkent tibbiyot akademiyasi “Tibbiy va biologik kimyo” kafedrasi professor, biologiya fanlari doktori, professor.

Karimova SH.F. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika” kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Yusupov M.SH. – Andijon Davlat tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo” kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent.

Nishantaev M.K. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika” kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

Azizova N.M. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika” kafedrasi assistenti.

Rashidova D.A. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti “Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika” kafedrasi assistenti.

BIOKIMYO II qism

Toshkent – «IJOD-PRINT» – 2020-yil

Ijodiy guruh rahbari: *Zayniddinxo ja Shukurxo jayev*

Muharrirlar: *Gulnora Rahmonberdiyeva,*

Xudoyberdi Po 'latxo jayev

Rassom *Egamberdi Jabborov*

Sahifalovchi *Zoxidxo ja Po 'latxo jayev,*

Musahhiha: *Dilnoza Jabborova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 003, 20.07.2018-y.

Bosishga 25.11.2020-yilda ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60×84 1/16. Nashr tobog'i 20,5.

Shartli bosma taboq 20.0 Shartnoma 20/22. Adadi 1500.

Buyurtma № 24.

«IJOD-PRINT» MCHJ nashriyoti.

100011, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Navoiy 30-uy

MCHJ «IPAK YO'LI POLIGRAF» bosmaxonasida chop etildi

Toshkent sh., 100170, Avayhon ko'chasi, 98 A



A dark blue background featuring a repeating hexagonal pattern. Interspersed among the hexagons are numerous glowing, semi-transparent spheres of varying sizes and colors, including shades of blue, green, and white.

ISBN 978-9943-559-18-9



9 789943 559189